- Covid-19 pandemiyasi dunyo siyosati rivojiga kuchli ta'sir qilgan bo'lsada, asosan ungacha bo'lgan davrda shakllangan jarayon va hodisalarning tezlashuviga hissa qo'shdi. Jumladan, pandemiya ungacha bo'lgan davrda ko'plab skeptik qarashlarga sabab bo'lgan globalizatsiya jarayoni sekinlashishiga sabab bo'ldi;

- Pandemiya xalqaro munosabatlar sohasiga yakunda qanday ta'sir qilishi bo'yicha hali mutaxassis olimlar bir fikrga kelganlari yo'q. Ba'zilar inqirozdan keyingi dunyo birmuncha yopiq va erkin bo'lishini ta'kidlasa, boshqalar globallashuv jarayonlari ma'lum muddat sekinlashsada kelajakda albatta oldingi shiddatli sur'atlarda davom etishini ta'kidlaydi;

- Hozirgi inqirozning oqibatlarini qanday bo'lishidan qat'i nazar jahon siyosatining mojaroviy tabiati mutlaqo o'zgarmaydi va shu paytgacha qanday bo'lgan bo'lsa shundayligicha qoladi. Covid-19 ham buyuk davlatlar o'rtasidagi azaliy qarama-qarshilikka barham bera olmaydi. Bunga bugungi kunda Ukrainada davom etayotgan harbiy harakatlar yaqqol dalil bo'la oladi;

- Pandemiya sababli yuz bergan iqtisodiy inqiroz dunyo iqtisodiyotidagi kamchiliklarni yaqqol namoyon qildi. Global ta'minotda yuzaga kelgan uzilishlar, logistika muammolari, oziq-ovqat eksportiga cheklovlar global iqtisodiy bog'liqlik, erkin savdo fenomenlariga jiddiy zarba berdi. Hukumatlar endilikda proteksionistik choralarga, avtarkiya iqtisodiy modeliga tobora ko'proq murojaat qilishmoqda. Ammo global bog'liqlikdan butkul voz kechish va mustaqil ta'minotga asoslangan yopiq iqtisodiy tizimga o'tish oxir-oqibatda mamlakatlarning iqtisodiyoti uchun zararli bo'ladi;

- Koronavirus pandemiyasi natijasida xalqaro tashkilotlar samaradorligi masalasi katta so'roq ostida qoldi, xalqaro integratsiya, globallashuv jarayonlari sezilarli darajada sekinlashdi. Jahon siyosatida an'anaviy milliy davlatning o'rni mustahkamlandi. Fuqarolar o'z xavfsizligi uchun davlatning gaplariga ko'proq quloq sola boshladi.

Bir soʻz bilan aytganda, pandemiya koʻplab jarayonlarning rivojlanishini tezlashtirgan va global xalqaro tizimning zaif tomonlarini koʻrsatib berdi. Uning yakuni bizga yangi dunyo eshiklarini ochmaydi, balki bizni koʻplab muammolarni ochib beradigan, tinchlikni saqlash va iqtisodiyotni tiklash uchun tezkor va sifatli yechimlarni talab qiladigan yangi voqelikka yaqinlashtiradi. Jahon hamjamiyati mavjud inqirozni yengishda masʼuliyat bilan ish tutishiga hali ham umid bor. Chunki mavjud muammolarni jiddiy qabul qilib, ularni hal qilishga harakat qilmaslik kelajakda bundanda keng koʻlamli inqirozlarga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. The Coronavirus Pandemic Will Forever Alter the World Order, URL: <https://www.wsj.com/articles/the-coronavirus-pandemic-will-forever-alter-the-world-order-11585953005>
2. No, the Coronavirus Will Not Change the Global Order, URL: <https://foreignpolicy.com/2020/04/16/coronavirus-pandemic-china-united-states-power-competition/>
3. Коноплева И.А., Коноплева В.С. ПРОЦЕССЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ // The Scientific Heritage. 2021. №58-4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/protsessy-globalizatsii-v-usloviyah-pandemii>
4. Achieving 70% COVID-19 Immunization Coverage by Mid-2022, URL: <https://www.who.int/news/item/23-12-2021-achieving-70-covid-19-immunization-coverage-by-mid-2022>
5. The state we're in: will the pandemic revolutionise the role of government? URL: <https://www.theguardian.com/us-news/2020/apr/26/government-state-role-pandemic-coronavirus>
6. Система международных отношений после COVID-19, URL: <https://www.eurasian-research.org/publication/the-international-relations-system-after-covid-19/?lang=ru>
7. Вакцина от коронавируса: к чему приводит политизация медицины? URL: <https://russiancouncil.ru/blogs/generation-shift/vaktsina-ot-koronavirusa-k-chemu-privodit-politizatsiya-meditsiny-/>
8. Жильцов С.С. Пандемия COVID-19: глобальная перезагрузка политического и экономического развития. Проблемы постсоветского пространства. 2021;8(4):414–424. DOI: <https://doi.org/10.24975/2313-8920-2021-8-4-414-424>

-
9. How the World Will Look After the Coronavirus Pandemic, URL: <https://foreignpolicy.com/2020/03/20/world-order-after-coronavirus-pandemic/>
 10. The World Economic Situation and Prospects. 2021. Ed. by Michael Brodsky. United Nations New York, 2021. 198 p. URL: https://www.un.org/development/desa/dpad/wp-content/uploads/sites/45/WESP2021_FullReport.pdf
 11. В 2020 году объем мировой торговли сократился на 9 процентов. 2021. 9 февраля. URL: <https://news.un.org/ru/story/2021/02/1396462>
 12. Number of unemployed persons worldwide from 1991 to 2021, URL: <https://www.statista.com/statistics/266414/unemployed-persons-worldwide/>
 13. How Covid spread fear of globalisation and threatens a new world order, <https://www.theguardian.com/business/2021/oct/15/how-covid-spread-fear-of-globalisation-and-threatens-a-new-world-order>.

СУДЛАР ОШКОРАЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ ЎРНИ

Шерматов Муроджон Абдумутал ўғли

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши
хузуридаги Судьялар олий мактаби таянч докторанти
murodjonlawyer0107@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мамлакатимиз амалга оширилаётган ислохотларнинг туб мазмуни демократик давлат қуришига асосланган. Хусусан, давлат органлари ва мансабдор шахсларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ўрнатилганини келтириши мумкин. Шу билан бирга судлар фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини таъминлаш мақсадга мувофиқ хисобланади. Бевосита судлар тизимида амалга оширилаётган ислохотлар ҳам судларнинг очиқ ва ошкора фаолият юритиши, очиқ суд муҳокамаларини ўтказиши, судларда жамоатчилик иштирокини таъминлаб боришига қаратилган. Мақолада судларда жамоатчилик назорати амалга ошириши асослари ва муаммолари ўрганилган. Миллий қонунчилигимиз учун таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

***Қалим сўзлар:** жамоатчилик назорати, суд ишини ошкоралиги, очиқ суд мажлиси, ёпиқ ва қисман ёпиқ суд мажлиси.*

РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОТКРЫТОСТИ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ

Шерматов Муроджон Абдумутал оглы

Базовый докторант Высшей школы судей
при Верховном Совете судей Республики Узбекистан
murodjonlawyer0107@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Суть проводимых в нашей стране реформ базируется на построении демократического государства. В частности, установлен общественный контроль за деятельностью государственных органов и должностных лиц. При этом важно обеспечить действенный общественный контроль за деятельностью судов. Реформы системы прямого судопроизводства также направлены на обеспечение открытости и прозрачности судов, открытых судебных заседаний и участия общественности в судах. В статье

рассматриваются проблемы и основы реализации общественного контроля в судах. Разработаны предложения и рекомендации для нашего национального законодательства.

Ключевые слова: общественный контроль, прозрачность дела, открытое судебное заседание, закрытое и частично закрытое судебное заседание

THE ROLE OF PUBLIC CONTROL IN ENSURING TRANSPARENCY OF COURTS

Shermatov Murodjon Abdumutal ogli

Base doctoral student of the Higher School of Judges under the Supreme
Council of Judges of the Republic of Uzbekistan
murodjonlawyer0107@gmail.com

ABSTRACT

The essence of the ongoing reforms in our country is based on building a democratic state. In particular, public control over the activities of government agencies and officials has been established. At the same time, it is important to ensure effective public control over the activities of the courts. Reforms in the direct judicial system are also aimed at ensuring the openness and transparency of the courts, open court hearings and public participation in the courts. The article examines the basics and problems of public control in the courts. Proposals and recommendations have been developed for our national legislation.

Keywords: public control, transparency of the case, open court session, closed and partially closed court session.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, мамлакатимизда давлат органлари ва мансабдор шахслари фаолияти устидан жамоатчилик назорати олиб бориш, фуқаролик жамияти институти рўли ва ўрнини такомиллаштириш муҳим. Хусусан, изчил сиёсий ва ҳуқуқий йўналишдаги янгиликлар ва ислохотлардан энг асосий мақсадимиз – Ўзбекистонни дунёнинг давлат бошқаруви сифати юқори даражада бўлган ахборот-коммуникация технологиялари кенг жорий этилган ривожланган мамлакатлар ўрин олишини таъминлашдир. Бизнинг мазкур масаладаги қатъий позициямиз халқпарвар давлат барпо этиш, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, қонун устуворлигига эришиш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантиришдан иборатдир[1, Б. 123].

Давлат органлари ва мансабдор шахслари фаолияти устидан жамоатчилик назоратининг ўрнатилиши – жамиятда ижтимоий адолат қарор топиши шахс, жамият ва давлат алоқаларида мувозанат, тенглик, ўзаро масъулият ва жавобгарликка хизмат қилувчи асосий омил ҳисобланади.

Қайд этиб ўтадиган бўлсак, ибтидоий жамоада шахс хулқини жамоа назорат қилган. Агар шахс хулқ-атворида жамоа томонидан қабул қилинган меъёрлардан оғиш бўлса, жамоа аъзолари турли санкциялар ёрдамида унинг хулқини тегишли томонга ўзгартирган. Шу сабабли ҳам кўплаб мамлакатлар давлат бошқарувида фуқарлик жамияти иштирокини такомиллаштиришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Хусусан, давлат бошқарувида фуқаролик жамияти институтлари ва жамоатчиликнинг иштирок этиб бориши жамиятнинг манфаатларига зид муайян ноқонуний хатти-ҳаракатлари ва қарорлари усидан ўз этирозларини бериш имкониятини яратади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида таъкидлаб ўтганларидек, аччиқ ва танқидий материаллар жойлардаги кўплаб амалдорларга ёқмаслиги, уларнинг тинчини ва ҳаловатини бузаётгани ҳам бор гап. Лекин ошқоралик ва сўз эркинлиги бу – давр талаби, бу – Ўзбекистондаги ислохотларнинг талаби[2].

Хусусан, суд муҳокамаси ошқора ўтказилиши ва судлар фаолияти тўғрисида жамоатчиликка ўз вақтида ва объектив ахборот бериб бориш, суд мажлисларини очик ўтказиш орқали уларнинг фаолиятида жамоатчилик назорати иштироки таъминланади. Қайд этиш керакки, судлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини таъминлаш судга нисбатан жамият ишончини оширишнинг самарали воситаси ҳисобланади.

Ҳуқуқшунос олим Д.Ариповнинг таъкидлаб ўтганидек, жамоатчилик назорати фуқаролик жамияти институтлари, кенг аҳоли томонидан давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятини қонунга мувофиқлик нуқтаи назаридан мунтазам назорат қилишни, ушбу фаолиятда бевосита иштирок этишни англатади. Бундай назорат одатда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятини таҳлил қилиш, бу борадаги жамоатчилик фикрини ўрганиш, шакллантириш, баҳолаш ва баён қилиш орқали намоён бўлади[3, Б. 185].

Бевосита, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Муқаддимасида ўзбек давлатчилиги ривожининг тарихий тажрибасига таяниб, демократия ва ижтимоий адолатга садоқатини намоён қилиб, инсонпарвар демократик

ҳуқуқий давлат барпо этишни кўзлаб ўз давлатчилигини бунёд этиши назарда тутилган. Ҳамда 1-моддасида ҳам, Ўзбекистон - суверен демократик республика экан деб белгиланганлигини келтириш мумкин.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қайд этиш мумкинки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2-моддасида “Давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар[4]” деб белгиланган. Мазкур модда, давлатимизнинг демократик давлат сифатидаги хусусиятини ўзида акс эттиради. Хусусан, давлат халқ иродасини ифода этиши, ҳокимиятнинг халққа тегишли экани, унинг иродаси асосида амалга оширилиши, шахс ва жамият манфаатларининг ҳамма нарсадан устунлиги, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг жамият ва фуқаролар олдида масъул эканликлари, инсон ва фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг халқаро ҳуқуқ андозаларига мос равишда белгиланиши ва қафолатланиши, муассасалар ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш идораларининг бевосита халқ томонидан сайлаб қўйилиши ва бошқа шу каби қатор демократик принципларни назарда тутати.

Яъни, демократик давлатни қўйидагича талқин этишимиз мумкин, сиёсий ҳокимиятнинг жамият ва унинг аъзолари устидан ҳукмронлиги эмас, балки жамиятнинг давлатга нисбатан бирламчилиги шароитида, яъни инсоннинг том маънодаги эркинлиги таъминланишини айтиш мумкин. Бундай жамиятга ўтиш тарихий жиҳатдан узоқ давом этадиган жараён бўлиб, у фуқаролик жамиятининг шаклланиши билан боғлиқдир.

Қайд этиш мумкинки, ҳамма судлар ишларни очиқ кўриши[5], суд ишларини кўришда жамоатчилик, шу жумладан оммавий ахборот воситалари эркин иштирок эта олиши мумкинлиги белгиланган. Қонунда белгиланган ҳолатлар юзасидангина ишларда уларнинг иштироки чекланиши мумкинлиги кўрсатилган. Лекин мазкур ҳолатларда ҳам уларнинг иштирокини чеклаш асослари аниқ келтириб ўтилиши шунингдек, барча ҳолларда суд қарорларининг ошқора эълон қилиши лозимлиги белгиланган[6].

Бевосита судларнинг ошқора кўрилиши оид нормалар Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 11-моддасида[7], Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 14-моддасида[8] ҳам мустаҳкамланган.

Судларда жамоатчилик назоратини институтини такомиллаштириш юзасидан Президентимизнинг 2018 йил 13 июлдаги “Суд-ҳуқуқ тизимини янада

такомиллаштириш ва суд ҳокимияти органларига ишончни ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Фармони[9] бу борадаги ислохотларни янги босқичга кўтарди дейиш мумкин. Мазкур фармонга асосан, судлар фаолиятида жамоатчилик назорати институтларини суд ишларидаги иштироки таъминланиши кўрсатиб ўтилгани, сайёр суд мажлисларида суд ишларни кўриб чиқиш амалиёти кенгайтирилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг “Суд муҳокамаси ошқоралигини ва судлар фаолиятига доир ахборот олиш ҳуқуқини таъминлаш тўғрисида”ги 2020 йил 21 феврал кунги қарори билан суд муҳокамаси ошқоралиги, судлар фаолияти тўғрисида жамоатчиликка ўз вақтида ва объектив ахборот бериб бориш тартиблари юзасидан тавсия берилди[10].

Шунингдек, судлар фаолиятига замонавий ахборот технологияларни янги турдаги интерфаол суд хизматларини жорий қилиш орқали мурожаатларни ўз вақтида ҳал этиш, ортиқча сансалорликларга чек қўйиш, судлар фаолиятининг очиқлиги ҳамда шаффофлигини таъминлаш, шунингдек, бу борадаги ўзаро ҳамкорликни янада кучайтириш мақсадида Президентимиз томонидан 2020 йил 3 сентябрь куни “Суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Қарори[11] қабул қилиниши эса судлар фаолиятининг ҳозирги замон талабларига мос келишини таъминлайди.

Маълумки, судларда жамоатчилик назоратининг иштироки ривожланиши тарихий илдизга эга бўлиб, хусусан суд ишларини омма олдида кўриш ва бошқалар учун иборат бўлиши мақсади илгари сурилган ҳолатда жазоларни ҳам омма олдида ижро этилганини келтириш мумкин. Маълумки, жамият ҳаёти бир жойда муқаррар турмаслиги ва ўзининг доимий ривожланиб бориш хусусиятига эга эканлигини инобатга олиб, давлат органлари ҳам қонун нормаларини ўрнатиш ва амалиётга татбиқ этишда жамоатчиликнинг фикри, умуминсоний кадриятлар нуқтаи назарини ўрганиш асносида, халқчиллик, кенг жамоатчилик фикр-ўйи, интилиш-мақсадлари асосида шакллантириши муҳим. Шу сабабли ҳам суд ишларини кўриш ва ўз вазифаларини амалга ошириш жараёнини жамоатчиликка очиқ ва ошқора амалга ошириб бориш ҳозирги ислохотларимизнинг туб мазмунига хос деб айтиш мумкин.

Шу ўринда қайд этиб ўтишимиз лозимки, судлар фаолиятида жамоатчилик назорати иштироки таъминланиши, очиқ суд мажлисларида оммавий ахборот воситаларининг иштирок этиб бориши Ўзбекистон Республикаси Конституция ва Судлар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонунига асосан, суд ҳокимиятининг мустақиллиги принципи ва судьялар мустақилдиги, фақат

қонунга бўйсунуши, судьяларнинг одил судловни амалга ошириш борасидаги фаолиятига бирон-бир тарзда аралашушга йўл қўйилмаслиги лозим. Бундай аралашуш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади.

Келтириб ўтадиган бўлсак, мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидан бошлаб мамлакатимизда жамоатчиликнинг давлат ҳокимиятини бошқаришда иштирок этишини таъминлашга оид ҳуқуқий асосларини яратилишига алоҳида эътибор қаратилди. Янги демократик жамият асосларига ўтиш, тоталитаризмдан мерос бўлиб қолган давлат ва фуқаро муносабатларига барҳам бериш сиёсатнинг устувор йўналишига айланди.

Жаҳон тажрибаси жамоатчилик назорати ҳам жамият, ҳам давлат ҳокимияти учун манфаатли эканлигини кўрсатади. Ҳақиқатан ҳам бу давлатни масъулиятли бўлишга қонун амал этишини таъминлашга, инсоннинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳурмат қилиш ва ҳимоя қилишга, демак умумий манфаат йўлида самарали иш олиб боришга мажбур қилади. Жамоатчилик назорати давлатга ҳам ўзининг муттасил такомиллашишини рағбатлантириш учун манфаатлидир. **Биринчидан**, жамоатчилик назорати давлат хизматчиларининг давлат ҳокимиятининг табиати туфайли уларга ҳамиша хос бўлган ноҳуқуқий қарорлар ва иш кўришлардан тийилиб туришига даъват этдиган таъсирчан куч сифатида намоён бўлади. Жамоатчилик назоратининг босими туфайли мансабдор шахслар ўз фаолиятига ўзгартиришлар киритади, масъулиятлироқ ва натижада малакалироқ бўлишади. **Иккинчидан**, жамоатчилик назорати жамиятнинг ҳокимият билан алоқа қилиш воситаси сифатида намоён бўлиб, фуқароларга мамлакатнинг мақсадлари ва ривожланиш устуворликлари тўғрисида ҳокимият билан ҳалол ва очиқ мулоқот олиб боришга ёрдам беради. Давлат ҳокимияти жамият билан бундай ўзаро алоқа қилиш ёрдамида мавжуд муаммолардан хабардор бўлади ва фуқароларнинг мамлакатда демократик ислохотларни амалга оширишга қаратилган талабларини қўллаб-қувватлайди. **Учинчидан**, жамият таъсири остида давлат самаралироқ иш олиб боради, бу билан жамоатчилик назорати фуқароларнинг давлатга ишончини ва уни қўллабқувватлашларини таъминлайди. Жамоатчилик назорати ваколатли ҳокимият фуқароларнинг конструктив таклифлари асосида мамлакатда зарур ислохотларни ўтказишига йўналтирилган[12, Б. 121].

Демократия феноменининг йирик тадқиқотчиларидан бўлган Алексис де Токвил демократик тузумнинг моҳияти ҳукуматнинг ҳокимиятини чеклашда, деб талқин қилган эди. Инсоннинг ҳуқуқини ҳукумат эмас, биринчи навбатда қонун, шахснинг ўзи ва жамият ҳимоя қилиши керак. Демократик жамиятда

жамоат бирлашмаларининг вужудга келиши жамиятни бошқариш қонунларидан бири бўлибгина қолмай, мутлақ зарурий қонун ҳамдир. Де.Токвилнинг фикрига кўра, “Дунёдаги мамлакатлар орасида энг демократик мамлакат фуқаролари мақсадга эришишда ўзаро маслаҳатлашиш асосида иш кўрадиган ва мазкур жамоавий ҳаракат усулини бошқалардан кўра кўпроқ қўллайдиган мамлакатдир[13, Б.380-381]” деб келтиради.

Демак, давлат органлари ва мансабдор шахслари шунингдек, судлар фаолиятининг ошкоралигини ва улар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини таъминиши, жамоатчилик назорати механизмларининг ишлаб чиқилиши ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари ҳимоясини таъминлашга, уларнинг ушбу тизимга бўлган ишончини оширишга ва жамоатчилик назорати институтларининг ўрни ва ролини янада мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Демак, қайд этиш керакки судлар ошкоралигини таъминлашда жамоатчиликнинг ўрнини белгилаш муҳим ҳисобланади. Ҳуқуқий давлатнинг муҳим шартлари бўлган қонун устуворлиги, ҳуқуқ ҳукмронлиги, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари реал таъминланиши, давлат ҳокимиятининг демократик тамойили бўлган ҳокимиятлар бўлинишига асосланиши ва нуфузли мустақил суд ҳокимиятининг мавжудлигини инобатга олиб, жамоатчилик ва судлар ўртасида ҳуқуқ ва мажбуриятларга асосланган ўзаро масъуллик каби қоидаларни ҳам белгилаш лозим.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни келтириб ўтишимиз жоизки, мамлакатимиз фуқаролик жамияти ва инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо қилишни ўзининг асосий вазифаси қилиб белгилаб олган. Хусусан, суд тизимининг очиқлиги ва ошкоралигини белгилаш қонунийликни таъминлаш ҳамда процесс иштирокчиларининг ҳуқуқларини рўёбга чиқаришда муҳим юридик кафолат вазифасини бажаради. Шунинг учун судда иш кўришнинг ошкоралигини мустаҳкамлаб бориш лозим. Бу бевосита - инсонларнинг суд ҳокимиятига бўлган ишончини мустаҳкамлайди, ошқора кўрилган ишларнинг оммавий ахборот воситалари орқали ёритилиши суд фаолиятини устидан жамоатчилик назоратини амалга оширилишини таъминлайди ва муҳим тарбиявий аҳамиятга эга деб келтириб ўтиш мумкин.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Тошкент, “Ўзбекистон нашриёти”, 2021. 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020 // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
3. Арипов Д.Ў. Мустақил суд ҳокимияти. Монография., - Тошкент нашриёти, 2021. – 322 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон. // URL: <https://lex.uz/docs/20596>
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон. // URL: <https://lex.uz/docs/20596>
6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2021 йил 21 февраль кунги “Суд муҳокамаси ошкоралигини ва судлар фаолиятига доир ахборотни олиш ҳуқуқини таъминлаш тўғрисида”ги 04-сонли қарори. // URL: <https://lex.uz/docs/4751577>
7. БМТ бош Ассамблеяси томонидан қабу қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. 1948 йил 10 декабрь. // URL: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
8. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт. 1966 йил 16 декабрь. // URL: <https://lex.uz/docs/2640479>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 июлдаги “Суд-ҳуқуқ тизимини янада такомиллаштириш ва суд ҳокимияти органларига ишончни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5482-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.07.2018 й., 06/18/5482/1506-сон. // URL: <https://lex.uz/docs/3822463>
10. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2021 йил 21 февраль кунги “Суд муҳокамаси ошкоралигини ва судлар фаолиятига доир ахборотни олиш ҳуқуқини таъминлаш тўғрисида”ги 04-сонли қарори. // URL: <https://lex.uz/docs/4751577>
11. Ўзбекистон Републикаси Президентининг 2020 йил 3 сентябрдаги “Суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4818-сонли Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.09.2020 й., 07/20/4818/1255-сон. // URL: <https://lex.uz/docs/4979896>

-
12. Аринин А. Мировой опыт общественного контроля над деятельностью власти: уроки для России // URL: <http://www.lawinrussia.ru/mirovoi-opyt-obshchestvennogo-kontrolya-nad-deyatelnostyu-vlasti-uroki-dlyarossii>
13. Токвиль Алексис де. Демократия в Америке: Пер. с франц. / Предисл. Гарольда Дж. Ласки. – М.: Прогресс, 1992. 380-381 554 бет. // URL: https://www.civisbook.ru/files/File/Tokville_Democracy_1.pdf

**УСТАВ ФОНДИДА ДАВЛАТГА ТЕГИШЛИ УЛУШ БЎЛГАН
ХЎЖАЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИДА
ДАВЛАТ ИШТИРОКИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ТАРТИБИ**

Илхомжон Юсупов

Тошкент давлат юридик университети ўқитувчиси

iyusupov2022@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақолада Устав фондида Давлатга тегишли улуш бўлган хўжалик жамиятларида қарор қабул қилиш жараёнида давлат иштирокининг ҳуқуқий асослари ва тартиби ҳақида маълумотлар баён этилган.

Калит сўзлар: Устав фонд, давлат улуши, олтин акция, хўжалик жамияти, акция

**ГОСУДАРСТВО В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В
ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВАХ, В КОТОРЫХ ГОСУДАРСТВО
ИМЕЕТ ДОЛЮ В УСТАВНОМ КАПИТАЛЕ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И
ПОРЯДОК УЧАСТИЯ**

Илхомжон Юсупов

Преподаватель Ташкентского

государственного юридического университета

iyusupov2022@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье представлена информация о правовых основах и порядке участия государства в процессе принятия решений в хозяйственных обществах, в которых Государственный фонд имеет долю в Уставном фонде.

Ключевые слова: Уставный фонд, государственная доля, золотой акция, хозяйственное общество, акции.

**LEGAL BASES AND PROCEDURE OF STATE PARTICIPATION IN
THE DECISION-MAKING PROCESS IN ECONOMIC SOCIETIES WITH A
STATE SHARE IN THE CHARTER CAPITAL**

Ilkhomjon Yusupov

lecture of the Tashkent State University of Law

iyusupov2022@mail.ru

ABSTRACT

This scientific article provides information on the legal basis and procedure for state participation in the decision-making process in business entities in which the State Fund has a share in the Charter Fund.

Keywords: *Statutory fund, state share, gold stock, business company, stock*

КИРИШ

Давлат иштирокидаги хўжалик жамиятлари давлат учун стратегик аҳамиятга эга бўлган доимий даромад келтирувчи соҳаларни эгаллаганлиги ва юз фоиз хусусий бўлган акциядорлик жамиятларидан фарқ қилувчи мураккаб тизимга эга эканлиги билан эътиборни тортади. Нефт ва газ соҳаси, электр энергияси, ҳаво ва темирйўл транспорти, автомобилсозлик каби иқтисодиётимизнинг устуни бўлган соҳалар давлат ихтиёрида бўлиб, уларда бошқарувни амалга ошириш тизими қандай ишлаб чиқилганлиги ва бу тизим қай даражада самара бераётганлиги малакатнинг бутун бошли иқтисодиётига таъсир этувчи омил эканлиги масаланинг долзарб эканлигини кўрсатади.

Давлатнинг корпоратив бошқарувда иштирок этиши инқироз ҳолатларида ижобий аҳамият касб этади. Умуман, давлат корпоратив бошқарувда икки ёқлама иштирок қилади.

Биринчидан, заруриятга қараб корпоратив бошқарувнинг меъёрий-ҳуқуқий негизини ҳосил қилиш ва такомиллаштириш ҳамда АЖ томонидан қонунчилик меъёрларига риоя қилиниши устидан назорат қилиш ёрдамида.

Иккинчидан, давлат улуши мавжуд АЖлар корпоратив бошқарувида бевосита иштирок қилиш ва “олтин акция” қўлланилиши ҳақида ҳуқуқат қарори қабул қилинган АЖни бошқаришда қатнашиш.

Ривожланган бозор иқтисодиёти мамлакатларида баъзи бир АЖлар маълум бир миқдордаги акциясига давлатнинг эгалик қилишига ягона сабаб “бозордаги йўқотишлар”нинг (market failure)²⁷ мавжудлигидир, бу бозорларда жамият манфаатлари ва йўқотишлари хусусий манфаат ва йўқотишлардан устун бўлади. Бундай ҳолат, масалан, бозор тузилмасининг монополиялаштирилиши ҳолида рўй беради. Бунда хусусий мулкдорнинг интиланган фойдани имкон қадар ошириш мақсади жамият учун (эркин рақобатчилик моделига нисбатан) маҳсулот миқдорининг пасайишига ва нисбатан юқори нархларда сотилиши шаклида зарарни англатади.

²⁷Яушев Р.И. Управление государственными пакетами акций: вопросы теории и практики. Экономика и класс собственников. 2004, №3. - с.26-32.; Яушев Р.И. Госсектор: национальные особенности нормативного регулирования// Налоговые и таможенные вести. -Ташкент, 2007.-№3

01.01.2008 йил ҳолатига Ўзбекистон Марказий депозитарий ҳисобида икки мингга яқин АЖ қайд қилинган бўлиб, шулардан 536 тасида давлат улуши бор эди. 565 АЖларидаги давлат улуши акциялари холдинг, давлат-акциядорлик ва акциядорлик компаниялари устав фондларига берилди. Бундан ташқари 600 дан ошиқ масъулияти чекланган жамиятларида (МЧЖ) давлат улуши бор эди²⁸.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Республикамиз барча АЖлари чиқарган акциялар умумий миқдори 2,1 млрд. донадан, уларнинг жами номинал қиймати 3,0 трлн. сўмдан ошиб кетди. Улардан турли компаниялар эмиссия қилган 2,4 трлн. сўмлик (80,0%) 1,3 млрд.дона (61,9%) акциялар давлат ёки давлат томонидан назорат қилинадиган турли компаниялар ихтиёрида эди²⁹. Стратегик аҳамиятга эга бўлган корхоналар, ҳамда деярли барча холдинг, давлат-акциядорлик ва акциядорлик компаниялари акцияларининг 51% ва ундан ортиқ улушлари доимий равишда давлат мулкчилигида сақлаб қолинади.

Ушбу мавзуси доирасида тадқиқот олиб борган олимлар П.В.Кузнецов ҳамда А.А.Муравьевлар “Акциядорлик жамиятлари ва аралаш компанияларни бошқаришда давлатнинг иштироки механизмлари” деб номланган мақоласида³⁰ давлат акция пакетларини бошқариш механизмлари (давлат вакиллари, ишончли бошқарувчилар ҳамда холдинг компаниялари ташкил этиш)нинг камчилик ва афзаллик томонлари кўриб чиқилади. Мақоланинг охириги қисмида ана шу механизмлар самарадорлиги эконометрик метод орқали таҳлил қилинади. Унда 3 йиллик миқдорий ҳамда ҳудудий бирликлардан фойдаланилади. Тадқиқотнинг мақсади қайси механизм самаралироқ эканини аниқлаш бўлиб, иш якунида давлат акция пакетларини холдинглар ташкил этиш орқали бошқариш самаралироқ деган хулосага келишган.

Худди шунингдек, яна бир рус олими и.ф.н., доцент Малаева Т.В.нинг фикрича, давлат корпорацияси – бу тўлиқ ёки қисман давлат назоратидаги акционерлик компанияси ёки ишлаб чиқариш ҳамда мустақил бирлик сифатида бозорда фаолият курсатувчи компаниялар бирлашмаси ҳисобланади³¹. Давлат

²⁸ <http://csam.uz/info/CompanyList.aspx?t=АО>. Давлат активларини бошқариш марказининг расмий сайти

²⁹ <http://csam.uz/info/CompanyList.aspx?t=АО>. Давлат активларини бошқариш марказининг расмий сайти

³⁰ П.В.Кузнецов, А.А. Муравьев Механизмы участия государства в управлении акционерными обществами государственной и смешанной форм собственности в России. Вестник СПбГУ. Сер 8 2002 Вып. 1 №8

³¹ И.ф.н., доц.Малаев Т.В. Управление пакетами акций, находящихся в государственной собственности/Экономика и менеджмент. <http://www.topknowledge.ru/upravlenie-paketami-aktsij-nakhodyashchikhsya-v-gosudarstvennoj-sobstvennosti/4299-zarubezhnyj-opyt-upravleniya.html>

директорлар кенгаши, акциядорларнинг умумий йиғилишида ўз вакиллари орқали давлат мулкани бошқаришда иштирок этади.

Давлат корхонасидан фарқли ўлароқ давлат иштирокидаги акционерлик компаниялари иқтисодий ва молиявий фаолиятида тўлиқ мухтор ҳисобланади³².

Давлат акциялар пакетларини бошқаришнинг асосий тамойиллари:

- аниқ АЖ (бир жинсли АЖлар гуруҳи, масалан, пахта тозалаш заводлари) акция пакетларининг давлат эгалигида қолдирилиши зарур бўлган мақсадларнинг аниқланиши ва мос равишдаги ҳуқуқий ҳужжатларида аниқ ёритилиши;

- минимал етарлилик, яъни давлат манфаатларига иқтисодий тартибга солишнинг (солиқ, божхона сиёсатини ўзгартириш ва бошқалар) билвосита (индикатив) усуллар билан эришиб бўлмайдиган корхоналардагина акциялар пакетида давлатнинг эгалик қилиши етарлидир;

- самарали бошқариш орқали ресурсларни имкони бор даражада тежашга эришиш учун корхона устав фондида давлат иштирокининг зарурияти;

- бошқарувнинг профессионализи, давлат акция пакетларини бошқаришга юқори малакали мутахассисларнинг жалб қилиниши назарда тутилиши;

- давлат акция пакетларини бошқарувчилар билан самарали ўзаро муносабатда бўлиш тизимининг мавжудлиги³³.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Япония, Канада ва Франция каби мамлакатларда электроэнергетика, Франция, Италия, Швеция, Испания в Австрияда темир йўл транспорти, Франция ва Испанияда авиатранспорт, АҚШ ва Японияда почта хизмати тўлиқ давлат тасарруфидадир³⁴. Кўплаб ҳолларда давлат муҳим табиий ресурслар, интеллектуал ва тарихий-маданий бойликлар эгаси ҳам ҳисобланади. У томонидан фундаментал фанлар, юқори технологияларни яратиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш молиялаштирилади, унга ахборот маҳсулотларининг етарлича қисми ҳам тегишлидир.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2005 йил 27 апрелда 1473-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги,

³² И.ф.н, доц.Малаев Т.В. Управление пакетами акций, находящихся в государственной собственности/Экономика и менеджмент. <http://www.topknowledge.ru/upravlenie-paketami-aktsij-nakhodyashchikhsya-v-gosudarstvennoj-sobstvennosti/4299-zarubezhnyj-opyt-upravleniya.html>

³³ Яушев Р.И. Управление государственными пакетами акций: вопросы теории и практики. Экономика и класс собственников. 2004, №3. - с.26-32.; Яушев Р.И. Госсектор: национальные особенности нормативного регулирования// Налоговые и таможенные вести. -Ташкент, 2007.-№3

³⁴ Хамидулин М.Б. Концепция построения национальной модели корпоративного управления// Рынок, деньги и кредит. - Ташкент, 2007. - №5(120). - с.28-36.

Давлат мулки кўмитасининг 2005 йил 14 мартдаги 33, 01/06-18/02-сон қарори билан тасдиқланган “Хўжалик жамиятлари устав жамғармасидаги давлат акциялари пакетлари (улушлари)ни бошқариш бўйича фаолиятни амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом ишлаб чиқилган ҳамда хўжалик жамиятларининг устав жамғармаларидаги давлат акциялари пакетлари (улушлари)ни бошқариш бўйича фаолиятни амалга ошириш тартибини белгилайди.

Низомда давлат вакили, яъни Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки кўмитаси билан тузиладиган ишончли бошқариш шартномалари асосида давлат акциялари пакетлари (улушлари)ни бошқариш ва хўжалик жамиятларининг бошқарув органларида (кузатув кенгаши, акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишида) давлат манфаатларини ифода этиш бўйича фаолиятни амалга оширадиган давлат вакили, ишончли бошқарувчи ва бошқарувчи компания, шунингдек акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишида Давлат мулки кўмитасининг ишончномасига кўра давлат манфаатларини ифода этадиган ёки Давлат мулки кўмитасининг таклифига кўра кузатув кенгаши таркибига киритилган жисмоний шахсни хўжалик жамиятларида иштироки кўзда тутилган³⁵.

Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 5 июлдаги 257-сон қарорига 3-илова бўлган “Давлатнинг акциядорлик жамиятларидаги ишончли вакиллари тўғрисида”ги Низомга кўра, Республика иқтисодиёти таркибида етакчи мавқега эга бўлган, рўйхати ҳукумат қарори билан белгиланадиган, давлатнинг акциядорлик жамиятларидаги ишончли вакиллари Ўзбекистон Республикаси Бош вазири ҳузуридаги Комиссия томонидан Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки кўмитаси тақдимномасига биноан тайинланадилар. Устав фондидаги давлат мулки улуши 25 фоиздан ортиқ бўлган бошқа акциядорлик жамиятларида давлатнинг ишончли вакиллари Ўзбекистон Республикаси Давлат рақобат кўмитаси Ҳайъати томонидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Комплекслари тақдимномасига биноан тайинланадилар³⁶.

“Олтин акция” - бу давлат корхоналари негизида уларни хусусийлаштириш натижасида ташкил қилинган АЖни бошқариш бўйича

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2005 йил 27 апрелда 1473-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат мулки кўмитасининг 2005 йил 14 мартдаги 33, 01/06-18/02-сон қарори билан тасдиқланган “Хўжалик жамиятлари устав жамғармасидаги давлат акциялари пакетлари (улушлари)ни бошқариш бўйича фаолиятни амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом

³⁶ Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 5 июлдаги 257-сон қарорига 3-илова бўлган “Давлатнинг акциядорлик жамиятларидаги ишончли вакиллари тўғрисида”ги Низом

ҳукуматнинг махсус ҳуқуқидир. Одатда миллий ҳавфсизлик ва жамоатчилик манфаатларини таъминлаш учун зарур бўлган махсулотнинг мамлакатдаги ягона ёки асосий ишлаб-чиқарувчиси (хизматлар етказиб берувчиси) бўлган АЖларга нисбатан қўлланилади.

“Олтин акция” оддий акциялардан фарқли ўлароқ, қимматли қоғоз эмас ва олди-сотди қилиниши ҳам мумкин эмас. Унинг эгаси (фақат давлат) корпоратив ҳуқуқларга қисман эга бўлади. “Олтин акция” ўз эгасига дивиденд олиш ва АЖ тугатиладиган бўлса мулкнинг бир қисмига давогарлик қилиш ҳуқуқини бермайди. Шу билан бирга, АЖ қонунчиликда аниқланган масалалар бўйича бошқарув органларининг давлат манфаатларига зид бўлган қарорларининг қабул қилинишига тўсқинлик қилиш имконини беради.

“Олтин акция” XX-асрнинг 80-йилларида Буюкбританияда М.Тэтчер ҳукумати давлат корхоналарини хусусийлаштириш даврида кенг қўлланила бошланди³⁷. Кейинчалик уни Дания, Португалия, Испания ва бошқа мамлакатларда, шу жумладан собиқ социалистик мамлакатларда қўллай бошладилар³⁸.

2003 йилда Европа суди (Европа иттифоқининг арбитраж органи) “олтин акция” қўлланилиши европа мамлакатларининг иқтисодий интеграцияси жараёнига ҳалақит беради ва капиталларнинг эркин айланиши тўғрисидаги қонунчиликка зид деб тан олди³⁹. Шу вақтнинг ўзида, Европа суди “олтин акция” ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида – ЕИ аъзолигига номзод бўлган мамлакатларда, бироқ фақат стратегик тармоқларда ишлатилиши мумкинлигини эътироф этди.

“Олтин акция” МДХ мамлакатларида (Россия Федерацияси, Қозоғистон Републикаси ва б.) ҳам қўлланилмоқда⁴⁰. Бунда, “олтин акция” қўлланилаётган АЖлар сонининг камайиш тенденцияси кузатилмоқда. Россиялик иқтисодчиларнинг фикрича у фақат қуйидаги ҳолда қўлланилиши ўзини оқлайди: агар давлатнинг АЖни бошқаришда иштирок қилишдан мақсади даромад олиш эмас, балки ушбу жамиятни маълум бир товарлар ишлаб чиқарувчиси (хизмат кўрсатувчиси) сифатида сақлаб қолиш, унинг тугатилиши,

³⁷ Ходиев Б.Ю., Карлибаева Р.Х., Расулов Н.М. Корпоратив бошқарув: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2011. -87 б

³⁸ Ханкельдиева. Совершенствование организационной структуры и стратегии в корпоративном управлении (на примере машиностроительных предприятий Республики Узбекистан)

³⁹ Соколов А.В. Регулирование деятельности корпораций с участием государства как форма реализации промышленной политики: автореф. дис. д.э.н. – СПб., 2011. – С. 3-8

⁴⁰ Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры: основы создания и управления. - Т.: Изд. Национальной библиотеки им. А.Навои. 2005.- 127 с.

мулкининг талон-тарож бўлиши ёки фаолият йўналишини ўзгартиришини олдини олиш мақсадида бўлса.

Ўзбекистонда “олтин акция” фақат “ЎзБАТ” АЖга нисбатан уни ташкил қилиш даврида қўлланилган бўлиб, 2005 йилда бекор қилинган эди⁴¹.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодийнинг стратегик тармоқлари корхоналарини хусусийлаштириш жараёнларини чуқурлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2007 йил 20 июлдаги ПФ-3897-сонли Фармони билан ҳукуматга мамлакат иқтисодийти учун устувор аҳамиятга эга бўлган стратегик тармоқлардаги хусусийлаштириладиган алоҳида акциядорлик жамиятларига нисбатан “олтин акция” қўлланилиши тўғрисида қарор қабул қилиш ҳуқуқи берилди.

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 29 мартдаги “Корпоратив бошқарув тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ–760-сон қонунига асосан Фуқаролик кодексига киритилган ўзгартиришларга кўра унитар корхонада кузатув кенгаши ташкил этилиши ва кенгаш корхонанинг бошқарув органи бўлиши мумкинлиги белгиланди. Шунингдек, давлатнинг айрим акциядорлик жамиятларини бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқини берувчи “олтин акция”га оид нормалар қонунчиликдан чиқариб ташланди. Акциядорлик жамияти кузатув кенгаши аъзоларининг ваколати 1 йилдан 3 йилга узайтирилди. Юридик шахсларнинг устав фондида камида 5 фоиз улушга эга бўлган иштирокчилар ва акциядорлар аудиторлик текширувнинг буюртмачилари бўлиши мумкинлиги белгиланди, илгари 10 фоиз эди⁴².

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 16 октябрдаги “Устав фондида давлат улуши мавжуд бўлган корхоналарни самарали бошқаришни ва давлат мулки ҳисоби лозим даражада юритилишини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар ҳақида”ги 215-сонли қарори акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарувни мустаҳкамлаш ишида навбатдаги қадам бўлиб, унда асосий эътибор корпоратив назорат тизимига қаратилган бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Буларга мисол сифатида Давлат корхоналари ҳақида низом, ички аудит хизмати ҳақида низом, Давлат акция

⁴¹ Ходиев Б.Ю., Карлибаева Р.Х., Расулов Н.М. Корпоратив бошқарув: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2011. -87 б

⁴² Ўзбекистон Республикасининг “Корпоратив бошқарув тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни. 2022 йил 29 март ЎРҚ–760-сон.

пакетларини (улуши) ишончли бошқарувга бериш тартиби ҳақида низом⁴³лар ва бошқалар. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апрелдаги “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги ПФ-101-сон Фармонида давлат иштироки сақланиб қолаётган товар ва хизматлар бозорини эркинлаштириш ҳамда ушбу соҳаларга хусусий секторнинг кириб келиши учун шароит яратиш, монополияга қарши органнинг институционал салоҳияти ва ваколатини кучайтириш орқали соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, давлат иштирокидаги корхоналар ва тижорат банкларида корпоратив бошқарувнинг замонавий усулларини, шу жумладан “комплаенс” назорат тизимини кенг жорий этиш, харидлар тизими шаффофлигини таъминлаш орқали коррупциянинг олдини олиш тартиби белгиланди.

Шунингдек, давлат иштирокидаги корхоналарнинг иқтисодиётдаги иштирокини чеклаш ва қисқартириш мақсадида, уларга Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ҳукумати қарорларида назарда тутилмаган ҳолларда:

асосий фаолиятга хос бўлмаган янги кўсмас мулк объектларини сотиб олиш ёки қуриш;

рақобат ривожланган соҳада асосий фаолиятдан ташқари қўшимча фаолият билан шуғулланиш;

асосий фаолиятига хос бўлмаган хўжалик жамиятлари устав капиталида иштирок этиш ёки ундаги улушни сотиб олиш тақиқланди. Шу билан бирга давлат иштирокидаги корхоналар томонидан асосий фаолиятига хос бўлган янги кўсмас мулк объектларини сотиб олиш ёки қуриш ҳамда хўжалик жамиятлари устав капиталидаги улушни сотиб олиш, шунингдек, асосий фаолиятдан ташқари қўшимча фаолият билан шуғулланиш кузатув кенгаши қарорига асосан амалга оширилиши белгиланди⁴⁴.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, давлат иштирокидаги хўжалик жамиятларида қарорлар қабул қилиш ушбу жамият доирасидан келиб чиқади,

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Устав фондида давлат улуши мавжуд бўлган корхоналарни самарали бошқаришни ва давлат мулки ҳисоби лозим даражада юритилишини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар ҳақида» 215-сон 16.10.2006 йилдаги Қарори

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги Фармони. Тошкент 2022 йил 8 апрелдаги ПФ-101-сон.

яъни жамиятнинг ички хужжатларидан ташқари давлат томонидан қабул қилинган қонунчилик хужжатлари ушбу жамият фаолиятини тартибга солади. Ушбу хусусият давлат иштирокидаги хўжалик жамиятларининг стратегик аҳамиятга эга эканлиги, яъни уларда давлат иштироки орқали бутун жамият манфаатлари эътиборга олинади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг “Корпоратив бошқарув тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни. 2022 йил 29 март ЎРҚ–760-сон. lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик мухитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги Фармони. Тошкент 2022 йил 8 апрелдаги ПФ-101-сон. lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Устав фондида давлат улуши мавжуд бўлган корхоналарни самарали бошқаришни ва давлат мулки ҳисоби лозим даражада юритилишини таъминлаш бўйича чоратadbирлар ҳақида» 215-сон 16.10.2006 йилдаги Қарори. lex.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 5 июлдаги 257-сон қарорига 3-илова бўлган “Давлатнинг акциядорлик жамиятларидаги ишончли вакиллари тўғрисида”ги Низом. lex.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2005 йил 27 апрелда 1473-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат мулки қўмитасининг 2005 йил 14 мартдаги 33, 01/06-18/02-сон қарори билан тасдиқланган “Хўжалик жамиятлари устав жамғармасидаги давлат акциялари пакетлари (улушлари)ни бошқариш бўйича фаолиятни амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом

Илмий адабиётлар:

1. Adilxodjayeva, S., & Muratayev, S. (2014). Legalization and organization point of tourism development in Uzbekistan. Retrieved 27 April 2014.
2. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры: основы создания и управления. - Т.: Изд. Национальной библиотеки им. А.Навои. 2005.- 127 с.
3. П.В.Кузнецов, А.А. Муравьев Механизмы участия государства в управлении акционерными обществами государственной и смешанной форм собственности в России. Вестник СПбГУ. Сер 8 2002 Вып. 1 №8

4. И.ф.н, доц. Малаев Т.В. Управление пакетами акций, находящихся в государственной собственности/Экономика и менеджмент. <http://www.topknowledge.ru/upravlenie-paketami-aktsij-nakhodyashchikhsya-v-gosudarstvennoj-sobstvennosti/4299-zarubezhnyj-opyt-upravleniya.html>
5. Муратаев, С. А. (2022). PROBLEMS OF FINDING STABLE APPROACHES TO LEGAL REGULATION OF ASSESSMENT OF EFFICIENCY OF HIGHER EDUCATION FACILITIES TEACHERS: SOME COMPARISONS WITH THE USA AND UZBEK TERTIARY EDUCATION. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, (SI 1).
6. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITY FOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 2(1), 75-77.
7. Садиков, М. А. (2019). Нормативно-правовые аспекты привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан. *Молодой ученый*, (23), 539-541.
8. Садиков, М. А. (2020). ЗАМОНАВИЙ ЮРИДИК АМАЛИЁТДА “LEGAL TECH” НИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 5(6).
9. Sodikov, A. (2021). TYPES OF INFORMATION IN LAW-MAKING PROCESS: TYPES OF INFORMATION IN LAW-MAKING PROCESS. *TSUL Legal Report International electronic scientific journal*, 2(1), 8-22.
10. Соколов А.В. Регулирование деятельности корпораций с участием государства как форма реализации промышленной политики: автореф. дис. д.э.н. – СПб., 2011. – С. 3-8
11. Ҳамидулин М.Б. Концепция построения национальной модели корпоративного управления// Рынок, деньги и кредит. - Ташкент, 2007. - №5(120). - с.28-36.
12. Ханкельдиева. Совершенствование организационной структуры и стратегии в корпоративном управлении (на примере машиностроительных предприятий Республики Узбекистан)
13. Ходиев Б.Ю., Карлибаева Р.Х., Расулов Н.М. Корпоратив бошқарув: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2011. -87 б
14. Яушев Р.И. Управление государственными пакетами акций: вопросы теории и практики. Экономика и класс собственников. 2004, №3. - с.26-32.;

Яушев Р.И. Госсектор: национальные особенности нормативного регулирования// Налоговые и таможенные вести. -Ташкент, 2007.-№3
15. <http://csam.uz/info/CompanyList.aspx?t=АО>. Давлат активларини бошқариш марказининг расмий сайти

ҚАРЛУҚ-ҚОРАХОНЛАР ДАВЛАТИДА ҚЎЛЛАНГАН “БУҒРА” ТОТЕМИ ХУСУСИДА

Махмудов Бехзод Хамидович

Ислом Каримов номидаги ТДТУ

Олмалик Филиали катта ўқитувчиси, т.ф.н.,

+99894-401-45-88

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада илк ўрта асрларда ўлкада мавжуд бўлган Қарлуқ-Қорахонлар давлатининг бошқарув тизимида ҳоқон номларида улугвор унвон ўрнида қўлланган “буғра” тотем хусусида сўз кетади. Бунда ушбу тотемни ҳоқон номларида унвон сифатида акс этишини ижтимоий-сиёсий моҳияти ва давлат бошқарувида яғмо қабиласини ўрни афроғлича таҳлил этилган.

Калит сўзлар: *Қарлуқ-Қорахонлар, буғра, тотем, олий ҳокимият, маҳаллий ҳокимият, қорахон, арслонхон, тавғачхон, Абдулкарим Сатук Қорахон, кўк тангри, шомонлик, Махмуд Қошғарий, Билга Кул Қодирхон, сомонийлар, қарлуқ, чигил, халач, яғмо.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается «паровой» тотем, использовавшийся в административной системе карлукско-караханидского государства в раннем средневековье вместо славного титула хакан. Подробно анализируется социально-политическое значение отражения этого тотема как титула в именах каганов и роль племени яғмо в государственном управлении.

Ключевые слова: *карлуки-карахань, буғра, тотем, верховная власть, местная власть, карахан, лев, тавғачхан, Абдулкарим Сатук Карахан, голубой бог, шаманизм, Махмуд Кашқари, Билга Кул Кодирхан, Саманиды, карлук, чигил, халач, яғмо.*

ABSTRACT

This article discusses the "steam" totem used in the administrative system of the Karluk-Karakhanid state in the early Middle Ages instead of the glorious title of khakan. The socio-political significance of the reflection of this totem as a title in the names of kagans and the role of the Yagmo tribe in state administration are analyzed in detail.

Keywords: *Qarluq-Qarakhans, bugra, totem, supreme authority, local authority, qarakhan, lion, tavgachhan, Abdulkarim Satuk Qarakhan, blue god, shamanism, Mahmud Qashqari, Bilga Kul Qodir Khan, Samanids, qarluq, chigil, halach, yagmo.*

КИРИШ

Қарлуқ-Қорахонлар давлати улкан салтанат даражасига эришганидан сўнг, (XI-XII аср) унинг давлат бошқарувида ҳам ўзига хос тартиб-қоидалар юзага келди. Бу давлат бошқарувида оид тартиб-қоидалар туркий халқларнинг давлатчилик тажрибасида аввалдан мавжуд бўлиб келган бўлса-да, уни мазмун-моҳият жиҳатдан янгича йўсинда такомиллаштиришда қорахонлар катта ҳисса қўшишди.

Қарлуқ-Қорахонлар давлатининг давлат бошқарувини асосан икки поғонали тизимга бўлдиқ. Унга кўра, биринчи поғона марказий давлат бошқаруви ҳисобланиб, уни одатда «олий ҳокимият», деб аташ мумкин. Иккинчи поғонани эса «маҳаллий ҳокимият» ташкил этган. Ўз ўрнида у ҳам бир неча босқичга бўлинади. Қорахонийлар давлати тепасида бутун олий ҳокимиятни ўзида мужассам этган «буюк хон», қорахон турган. Ҳокон номларида унвон сифатида «қорахон» атамаси билан бирга «буғраҳон», «арслонхон» ва «тавғачхон» каби бошқа улуғвор унвонлар ҳам бирдай қўлланилган. Бу унвон сифатида қўлланилган атамаларнинг баъзилари қабила тотемлари билан боғлиқ бўлса, баъзилари эса мазмун жиҳатдан юксак нуфуз ва даражани англатган.

Қуйида давлат ҳукмдори номида унвон сифатида қўлланилган мазкур атамаларнинг бири яъни, «буғраҳон» хусусида алоҳида атрофлича тўхталиб ўтишни жоиз, деб топдик. Чунки унвон сифатида қўлланган бу атама шунчаки жарангли ном бўлмасдан, балки шу даврнинг ижтимоий-сиёсий ва мафкуравий ҳаётини ҳам ўзида акс эттирувчи чуқур мазмунга эга бўлган.

Тарихдан маълумки, диний эътиқод инсон фаолиятида қадимдан муҳим аҳамиятга эга бўлиб келган. Инсон дастлабки вақтда ўзининг турмуш-тарзи ва меҳнат жараёнини ривожлантириб бориш билан биргаликда диний қарашларини ҳам шакллантириб борди. Кейинчалик инсон ҳаётида сиёсий, ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг тараққиёти давомида бу диний қарашлар эндиликда бутун қабила, элат ва халқларнинг ўзаро боғлаб турувчи узвий эътиқодига айланади.

Биз диний эътиқодни инсоннинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаёти билан боғлиқ ҳолда тасвирламоқдамиз. Чунки ҳар бир халқнинг онгида шаклланган бу диний қарашларнинг таъсирини бевосита шу халқнинг оддий турмуш-тарзидан тортиб, то унинг давлатчилик аънаналарида ҳам кузатишимиз мумкин. Бу ҳодисадан туркий халқлар ҳам мустасно эмас, албатта. Туркий қавмлар ўз сулолалари бошчилигида кўплаб давлатларни ташкил этиш баробарида,

ўзларига хос бўлган диний дунёқараш билан боғлиқ удумларини шу давлатчилик анъаналарида ҳам қўллаб келишган. Жумладан, Қарлуқ-Қорахонлар давлатчилиги тарихида ҳоқон номига турли улуғловчи унвонлар қўшиб айтилган. Бу унвонларнинг аксарияти эса қабила тотемлари билан боғлиқ бўлиб, қабиланинг ибтидоси ҳисобланган тотем номи унвон сифатида ҳоқон номи ўрнида қўлланилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

2) *ariq/jo‘y* gidronimik indikatorli qo‘shma gidronimlar: *Rabatariq* (Bt), *Archiariq‘* (Xt), *Chuqurarig‘* (Tsh), *Jo‘ydaroz* (Tsh), *Eshonarig‘* (Cht), *Toshariq‘* (Dqt) singarilar;

3) *quduq* gidronimik aniqlagichlar bilan yasalgan qo‘shma gidronimlar: *Sho‘rquduq* (Bat), *Qizilquduq* (Bat), *Ko‘rquduq* (Ht) va boshqalar;

4) *chashma* gidronimik indikatorlar yordami bilan yasalgan qo‘shma gidronimlar: *Gandachashma* (It), *Changaroqchashma* (Xot), *Gandachashma* (Rt), *Galachashma* (Nt) kabilar;

5) *buloq* gidronimik aniqlagichli qo‘shma gidronimlar: *Qo‘tanbuloq* (Ht), *Qizilbuloq* (Chot), *Ko‘kabuloq* (It), *Jarbuloq* (Tsh), *Oqbuloq* (Tsh), *Zanburbuloq* (Tsh), *Qarabuloq* (Rt), *Jigdabuloq* (Ht), *Qo‘tanbuloq* (Ht) va boshqalar;

6) *guzar*⁴⁶ gidronimik aniqlagichli qo'shma gidronimlar: *lolaguzar (Xot)*, *Toshguzar (Tsh)*, *Qumguzar (Dt)*, *Qumguzar (Dqt)* kabilar;

7) *kamar*⁴⁷ gidronimik aniqlagichli qo'shma gidronimlar: *Paskamar (Ft)*, *Qarakamar (It)*, *Qarakamar (Bat)*, *Qarakamar (Bt)*, *Zardkamar*, *Sho'rkamar (Xot)* kabilar;

8) *jar*⁴⁸ gidronimik aniqlagichli qo'shma gidronimlar: *Oqjar (Nt)*, *Katikjar*, *Aylanmajar*, *Irimjar (Xot)*, *Siyojar (Chot)* va boshqalar.

Yuqoridagi 8ta bandga kiradigan har bir qo'shma gidronimlar *ko'l*, *ariq/jo'y*, *quduq*, *chashma*, *buloq*, *guzar*, *kamar*, *jar* kabi gidronimik aniqlagichlar yordamida yasalgan suv obyektlari nomlari hisbolanadi. Demak, bunday gidronimlarning tarkibi qismining bir bo'lagi gidronimik aniqlagichlardan iborat.

1.3. Birikmali gidronimlar. Bunday gidronimlar ikki va undan ortiq so'zning aniqlovchi-aniqlanmish hamda predikativlik asosida birikishidan yuzaga kelgan. Bunday nomlar necha onomastik birliklardan tarkib topishiga qaramay, bir butun holda bir suv obyektining nomini tashkil beradi. Bularning tarkibi qismlari ajratib yoziladi. Har biri halohida urg'u bilan aytiladi.

Taxor viloyati gidronimlaridan o'rin olgan birikmali gidronimlarni quyidagi qismlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1) *daryo* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Daryoi Varsaj-Farxor*, *Daryoi Namakob (Nt)*, *Daryoi Bangi (Bt)* va boshqalar;

2) *quduq* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Quduqi Ganda (Rt)*, *Quduqi Hazora (Rt)*, *Hojimatin qudug'i*, *Mullabobo qudug'i*, *To'raboy qudug'i*, *Shovaliy qudug'i (Dqt)* va hokazolar;

3) *chashma* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Chashmayi shahri ko'hna (Tsh)*, *Chashmayi xurshid (Chot)*, *Chashmayi govon (Cht)*, *Chashmayi toq (Bt)*, *Chashmayi mohiyon (It)*, *Chashmayi garmik (Ft)*, *Chashmayi chakak (Nt)*, *Chashmayi said (Yt)*, *Oyxonim chashmasi*, *Chashmayi kamiysoriy (Dqt)*, *Eshonlar chashmasi*, *Chashmayi ko'l (Xot)*, *Chashmayi bangi (Bt)* singari;

4) *ariq* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Bog'iboyon arig'i*, *Zulm arig'i*, *G'aribbachcha arig'i*, *Navshox arig'i (Dqt)*, *Saroyasang arig'i (Tsh)*, *Qulbaroq arig'i (Bt)* kabilar;

⁴⁶ Guzar so'zi Taxor viloyati shevasida KECHIK//KECHUV ma'nosida ishlatiladi.

⁴⁷ Kamar - daryo, ariq kabi oqar suvlarda uning aylanib oqadigan joyi, aylanma harakatli chuqur joyi [ЎТИЛ, 2006: 305].

⁴⁸ Jar - chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik[ЎТИЛ, 2006: 305]. Yuqorida keltirilgan gidronimlar nomlari komponentidagi jar so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida berilgan ta'rif bilan muvofiq, suv obyektlarini anglatadi.

5) *havz/hovz* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Havzi Yug‘non (Vt)*, *Nabiyboy havzi*, *Mohiyxona havzi*, *Hojimalla havzi (Dqt)* va boshqalar;

6) *band*⁴⁹ gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Sarig‘bandi*, *Oltixo‘ja bandi (Dqt)*, *Bandi Hojiqaraxon*, *Dubandi Hojiburgit*, *Bandi Jumagul* singlarilar;

7) *ko‘l* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Oydin ko‘li*, *Hojijuma ko‘li (Dqt)* kabilar;

8) *guzar* gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Guzari buzkashi*, *Guzari Hojimuallim*, *Guzari Dodialloh*, *Guzari qandahoriy (Xot)* va boshqalar;

9) *girdob*⁵⁰ gidronimik aniqlagichli birikmali gidronimlar: *Omirdi (ni, ning)* *girdobi (Xot)* *Eshon Abdurrahim girdobi (Yt)* singlarilar.

Yuqorida keltirilgan bandlarda har bir birikmali gidronimlar *daryo*, *quduq*, *chashma*, *ariq*, *havz // hovuz*, *band*, *ko‘l*, *guzar*, *girdob* kabi gidronimik aniqlagichlar yordamida yasalgan suv obyektlari nomlari hisbolanadi. Demak, bunday gidronimlarning tarkibi qismining bir bo‘lagi gidronimik aniqlagichlardan iborat.

2. Taxor viloyati gidronimlarning leksik-semantik tasnifi

Gidronimlarni lug‘aviy-ma‘naviy xususiyatlariga ko‘ra, ma‘lum guruhlariga ajratish va bo‘lish bu - *gidronimlarning leksik-semantik tasnifi* deyiladi. Bunday tasnif gidronimlarning qaysi va qanday tipdagi obyektlarning nomlari ekanligini hamda kelib chiqishini aniqlashda asosiy rol o‘ynaydi. Bu guruhlarishlar vositasida ko‘zlangan maqsaga yetish oson bo‘ladi.

Biz Taxor viloyati gidronimlarini leksik-semantik jihatdan tasniflash maqsadida, ularni ikki - *gidronimlarning qaysi va qanday tipdagi toponimik obyektlarning nomlari ekanligi nuqtai nazardan* hamda *kelib chiqishi va nomlanish xususiyatlari jihatidan* - guruhga bo‘lib o‘rganishni ma‘qul ko‘rdik.

2.1. Gidronimlarning qaysi va qanday tipdagi toponimik obyektlarning nomlari ekanligiga ko‘ra tasnifi

Onomastik birliklarni turli nuqtai nazardan o‘rganish va ularni turlarga bo‘lish va tasniflash onomastika fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Har bir onomastik birliklar turi o‘zlarning ayrim xususiyatlariga ko‘ra, turli guruhlariga bo‘linib o‘rganiladi. Shu jumladan gidronimlar ham.

⁴⁹ Band - “forscha so‘z bo‘lib, suvni to‘shish, odatda daryo suvining bir qismini boshqa tomonga, ayniqsa, ariqqa yo‘naltirish maqsida qurilgan to‘siq; to‘g‘on” [۱۰۳۲ : ۱۳۸۲، انوری] yoki, “Zaxira qilish yo suv sathini ko‘tarib, sug‘orish, barq tavlid qilish kabi maqsadlarda tosh, sement, temir yo cho‘p bilan oqib turgan suv damini to‘shish maqsadida qilingan devor, to‘siq.” [۱۲۶ : ۲۰۰۷، الثانی]. Bu so‘z Taxor viloyati aholisining turli til vakillari orasida yuqorida keltirilgan ma‘noda qo‘llanuvchi apellyativ so‘z hisoblanadi.

⁵⁰ “Ariq va daryo suvlarining aylanib-buralib, uyurma hosil qilib oqayotgan yeri” [ЎТИЛ, 2020: 506].

Taxor viloyati gidronimlarining qaysi va qanday tipdagi toponimik obyektlarning nomlari ekanligiga ko'ra quyidagi holatda tasnifi amalga oshiriladi:

1) **oykonimlarning nomlanishiga asos bo'lgan gidronimlar.** Biz o'rganayotgan viloyatda shunday aholi punktlari borki, ularning vujudga kelishiga gidronimlar asos bo'lgan. Biz bularni *oykunimlarning nomlanishiga asos bo'lgan gidronimlar* deb nomladik. Demak, bunday onomastik birliklarning vujudga kelishi uchun tag'in bir onomastik birlik asosiy rol o'ynagan. Quyidagi misollar Taxor viloyatidagi ana shunday onomastik birliklardan: *Qizilquduq (Bat), Ko'rquduq (Ht), Sho'rquduq (Bat), Chashmayi Xurshid (Chot), Chashmayi Govon (Cht), Chashmayi Toq (Bt), Chashmayi Mohiyon (It), Chashmayi Garmik (Ft), Sarichashma (Kt), Chashmayi Chakak (Nt), Oqbuloq Qishloq (Tsh), Qumguzar (Dt), Toshguzar (Tsh), Paskamar (Ft), Qarakamar (Bat), Katikjar (Xot), Siyojar (Chot)* va boshqalar;

2) **agroonimlarning nomlanishiga asos bo'lgan gidronimlar.** O'rganilayotgan viloyat onomastik birliklari orasida agroonimlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan gidronimlar ham bor. Bunday onomastik birliklar suv obyektlari nomlari bilan ataladi. Masalan, *Katta ko'l (Yt), Sassiqlik (Xot)* va boshqalar. Tadqiqotimizda Taxor viloyatida *Katta ko'l, Sassiqlik* nomlaridagi gidronimlar bilan birga, agroonimlar va oykonimlar borligi ham kuzatildi.

3) **dromonimlarning nomlanishiga asos bo'lgan gidronimlar.** Taxor viloyati onomastik birliklarida gidronimlar asosida vujudga kelgan dromonimlar borligi ham uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, bunday dromonimlarning tarkibida suv obyektining nomi turadi va o'sha asosda vujudga kelgan. Misol uchun: *Puli ko'kcha (Dqt), Puli shahravon (Tsh), Puli Govmoli (Tsh)* va boshqalar. Bular har biri bir dromonim. Bu onomastik birlikning shakllanishida *ko'kcha (daryo), Shahravon (ariq), Govmoli (ariq)* so'zlari asos bo'laganki, ular suv obyektlari nomlari.

4) **tashkilot, shahar, hokimliklar nomiga asos bo'lgan gidronimlar.** Shunday paragonimlar ham borki, ular onomastik birliklar asosida yuzaga kelgan. Bu holatni gidronimlarda ham uchratish mumkin. Izlanishlarimizda biz o'rganayotgan viloyatda bunday gidronimlardan ikkita borligi aniqlandi. Misol: *Chahob tumani, Namakob tumani* kabilar. Bu ikki paragonimlarning nomlariga gidronimlar asos bo'lgan.

2.2. Gidronimlarning kelib chiqishi va nomlanish xususiyatlariga ko'ra tasnifi

Muayyan xalq taqdirini, uning tilini, tarixini, sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda gidronimiya ma'lumotlarining ahamiyati juda katta. Chunki har qanday sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich bosqichida suv

havzalari katta rol o'ynagan. Bundan tashqari, etnik guruhlar ko'proq daryolar bo'yida joylashgan.

Gidronimlar yordamida boshqa ko'plab geografik obyektlar nomlarining kelib chiqishini tushuntirish mumkin. Bundan tashqari, gidronimlarning qo'llanishi tilning bizning davrimizga qadar faqat shevalarda saqlanib qolgan, ba'zan esa hozirgi shevalarda umuman qayd etilmagan qadimiy so'zlarini tiklashda ham qo'l kelishi ma'lum.

Taxor viloyati gidronimlarini kelib chiqish va nomlarnish jihatdan quyidagi qismlarga bo'lib o'rganish ma'qul ko'rildi:

1) etnogidronimlar. Urug', qabila, qavm, to'p (etnonimlar) nomlari bilan atalgan suv obyektlari *etnogidronimlar* deyiladi. Etnonimlar gidronimlarga o'tganda nom tarkibida hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi. Etnogidronimlar qadimdan ushbu hududda qaysi etnik guruh vakillari yashaganligidan darak beradi [Hakimov, 2016: 130].

Ma'lum bir xalq tili gidronimlariga oid etnogidronimlar o'sha "suv obyektlari atrofida yashagan, undan foydalangan yoki o'sha obyektning paydo bo'lishida bevosita ishtirok etgan xalq, millat, qabila, urug' bilan aloqador bo'lib, ularni nomlashda etnos nomlari motivatsiyasiga asoslanilgan"[Madraximova, 2016: 57] va *buloq/chashma, daryo, ko'l, soy, quduq, ariq* kabi gidronimik aniqlagichlar bilan tarkib topib gidronimlar nomini shakllantirgan.

Izlanishlarimiz jarayonida Taxor viloyati gidronimlarida ayrim etnogidronimlar ham borligi kuzatildi. Bular: *Chashmayi turkon (Rt)*, *Jaloyir arig'i (Bt)*, *Amudaryo* (ko'pgina adabiyotlarda, Amudaryoning kelib chiqishi Amu shahri bilan bog'lagan. Demak, Amudaryo - *Amu shahri daryosi*. Shuningdek, Amu topo/gidroasosining kelib chiqishi haqida: *amu/omu* so'zi *amul/omul* so'zining qisqargan shakli bo'lib, *amul/omul* esa qadimgi eroniy xalqlardan birining nomi deyilgan.[Richard, 1995: 188; Kuhrt, 2007: 98]).

2) antroponimik gidronimlar. Suv obyektlari nomining shakllanishi va paydo bo'lishiga antroponimlar (kishilarning ismi, laqabi, taxallusi, nisbasi va boshqalar) asos bo'lgan gidronimlar *antroponimik gidronimlar* deyiladi.

Taxor viloyati gidronimlari majmuidan tanlangan quyidagi gidronimlar shunday gidronimlarga misol bo'ladi: *Usto Nurmuhammad qudug'i (Yt)*, *Eshon Abdurrahim girdobi (Yt)*, *Usmon oralig'⁵¹i (Yt)*, *Hojijuma ko'li*, *Nabiboy havzi*, *Hojimalla havzi*, *Hojimatin qudug'i*, *Mullabobo ququg'i*, *To'raboy qudug'i*, *Shohvali qudug'i*, *Guzari Dodialloh (Dqt)* va boshqalar.

⁵¹ Araliq/Aralig' - Taxor o'zbeklari, ayniqsa, Dashtiqal'a tumani shevasida bo'g'oz ma'nosida qo'llaniladi.

3) **professionalizim bilan shakllangan gidronimlar.** Bu tip gidronimlarga kishilarning mashg'uloti va kasb-hunarlariga oid so'z-atamalar bilan shakllangan gidronimlar kiradi. Taxor viloyati gidronimlari tizimida ham shunday gidronimlar borligi aniqlandi. Masalan: *Mohiyxona arig'i*, *Guzari buzkashi (Dqt)*, *Jo'yi Namakfurushi (Tsh)* va boshqalar.

4) **Muqaddaslashtirilgan gidronimlar.** Suv butun dunyodagi dinlar va jamoalarda hayot, energiya va ozodlik manbai hisoblanadi. Suv atrofida ibodatxonalar, shaharlar va hatto imperiyalar qurilgan va nasroniylikdan hinduizmgacha, Nigeriya yoruba dinigacha daryolar har doim ibodat qiluvchilarning hayotida muhim rol o'ynagan. Dunyodagi eng mashur muqaddas daryolar shulardan iborat: *Urubamba daryosi (Peru)*, *Iordan daryosi (Isroil, Iordaniya, Livan va Suriyadan o'tadigan daryo)*, *Gang daryosi (Hinduston va Bangaladeshda oqadigan daryo)*, *Kolumbiya daryosi (Kanada va AQShdagi daryo)*, *Yamuna daryosi (Hindiston)*, *Osun daryosi (Nigeriya)*, *Wanganui daryosi (Yangi Zelandiya)*[Carey, 2018; Warriar, 2014: 297]. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ayrim dinlar hamda xalqlarda muqaddas quduq, buloq, ko'l kabi suv obyektlari bo'lganligi ham qayd qilingan[Rattue, 2003: 31-32; Harte, 2000].

Xullas, narsa, joylarni muqaddaslashtirish bu - odam bolasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri. Insonlar o'zlarining ishonch-e'tiqodiga ko'ra ayrim narsalarni yoki joylarni muqaddaslashtirganlar, jumladan, gidronimlarni ham.

B. R. Xalmuratovning ta'kidlashicha, ko'pgina tadqiqot natijalari shuni ko'rsatidiki, ibtidoiy odamlar, xususan, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida yer, suv va quyoshga munosabat juda kuchli bo'lgan[Xalmuratov, 2020: 85]. Shu uchun qadim zamonlardan bugungacha ayrim suv obyektlarini ilohiylashtirish insonlar odat bo'lib kelgan.

Taxor viloyati gidronimlarida muqaddaslashtirilgan gidronimlardan bittani (qat'iy emas, boshqa ham bo'lishi mumkin) uchratdik: *Chashmayi shahri ko'hna (Tsh)*. Bu chashma Taxor viloyatining eski markazi hisoblanadigan *Shahri ko'hna* deb ataluvchi joyda, aynan shu nom bilan ataluvchi ziyoratgoh yonida joylashgan. Musulmon xalqlarda ziyoratgohlar muqaddas joylardan bo'lganligi uchun uning yaqin-atrofidagi joylarga ham shu ko'z bilan qaralagn. *Chashmayi shahri ko'hna* gidronimi ham ana shu asosda muqaddaslashgan onomastik birlik sanaladi.

5) **zoogidronimlar.** Bunday onomastik birliklarning vujudga kelishining asosida hayvonlar nomi yok ular bilan bog'liq nomlar yotadi. Bunday gidronimlarga Taxor viloyati omonastikasidan olingan *Bo'risoy (Tsh)*, *Do'ltalisoy (Bt)* kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

XULOSA

Gidronimlar suv inshotlarining atoqli otlari. U okean, dengiz, daryo, ko'l, soy, jilg'a, quduq, qo'ltiq, bo'g'oz, muzlik, botqoq, irmoq, anhor, ariq, kechuv, kanal, sharshara, buloq/chashma, koriz kabilarning nomlarini qamrab oladi.

Gidronimlar inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, duno aholisining ko'p qismi suv obyektlari bo'yida, sohilida yoki unga yaqin masofada yashaganlar.

Taxor viloyatidagi gidronimlar har xil suv obyektlarining nomlaridan iborat va ular onomastik-morfologik va leksik-semantik nuqtai nazardan tasniflanib, bir necha katta-kichik guruhlariga bo'linib o'rganildi. O'rganilgan viloyat gidronimlari *daryo, soy, quduq/choh, buloq/chashma, ko'l, ariq/jo'y, jar, kamar, band, havz/hovuz* kabi gidronimik aniqlagichlar bilan yasalgan. Shuningdek, aytish mumkinki, ular turli tillar unsurlaridan tashkil topgan bo'lib, turli tarixiy davrlarda shakllangan.

Maqolada qo'llanilgan shartli qisqartmalar ro'yxati:

sh	Toluqon shahri	Dq t	Dashtiqal'a tumani	Chot	Chohob tumani
t	Ishkamish tumani	Rt	Rustoq tumani	Vt	Varsaj tumani
t	Bangi tumani	Ft	Farxor tumani	Xt	Xo'jag'or tumani
at	Bahorak tumani	Kt	Kalafgon tumani	Ht	Hazorso'much tumani
ht	Chol tumani	Nt	Namakob tumani	Dt	Darqad tumani
ot	Xo'jabahovuddin tumani	Yt	Yangiqal'a tumani		

REFERENCES

1. Boboqulov I. I. Afg'oniston (lug'at - ma'lumotnoma). -Toshkent: "Complex print" nashriyoti, -50-53-betlar.
2. Carey Meredith. Sacred Rivers Around the World: *From Israel to New Zealand, here are some of the world's most sacred rivers*. March 29, 2018. www.cntraveler.com/gallery/sacred-rivers-around-the-world.
3. Colopy Cheryl. Dirty, sacred rivers: confronting South Asia's water crisis. -New York : Oxford University Press, 2012.
4. Hakimov Q. Toponimika. -Toshkent: "Mumtoz so'z", 2016. -130-b.

5. Harte J. 'Holey Wells and other Holey Places', *Living Spring Journal*, 1, 2000.
6. IRAN v, PEOPLES OF IRAN (۲) Pre-Islamic: <https://www.iranicaonline.org/articles/iran-v2-peoples-pre-islamic>.
7. Kuhrt Amélie. *The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period*. -London: Routledge, 2007. -98 p.
8. Madraximova Dilnoza. *Namangan viloyati etnonim va etnotoponimlarining lisoniy tadqiqi*. -Namangan, 2016. Magis.diss. -57-b.
9. Qorayev S. *Toponimika*. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -57-bet.
10. Rattue J. *Holy Wells of Buckinghamshire* -High Wycombe: Umbra, 2003, 31-32 p.
11. Richard N. Frye. "Ancient Central Asian History Notes". *Proceedings of the Second European Congress of Iranian Studies*. -Rome: ISMEO, 1995. -188 p.
12. Sayfullayeva Maftuna. *Shofirkon tumani joy nomlarining geografik tavsifi*. -Buxoro, 2017. -19, 20-bet. Bitruv malakaviy ish.
13. Varner Gary R. 2009. *Sacred Wells: A Study in the History, Meaning, and Mythology of Holy Wells and Waters*. 2nd ed. -New York: Algora Publishing.
14. Warriar Shrikala. *Kamandalu: The Seven Sacred Rivers of Hinduism*. -Dehli: Delhi London Poetry Foundation, 2014. -297 pages.
15. Xalmuratov B. R. *Tarixiy o'lkashunoslik va urbanizatsiya jaryonlari (o'quv-uslubiy majmua)*. -Namangan, 2020. -85-b.
16. Қораев С. *Ўзбекистон вилоятлари топонимлари*. -Тошкент: "O'zME", 2005. -B. 212.
17. *ЎТГ. 1-том, морфология*. -Тошкент: Фан, 1975. -610 б.
18. *ЎТИЛ. 5 жилдлик, 1-жилд*. -Тошкент: "O'zME", 2020. -506-бет.
19. *ЎТИЛ. 5 жилдлик, 2-жилд*. -Тошкент: "O'zME", 2006. -305 б.
20. آلتای، نورالله. اوزبیک تیلی سۆزلیگی. مالیزیا، ۲۰۰۷. ۱۲۶-بیت.
21. انوری، حسن. فرهنگ بزرگ سخن. ج ۲. تهران: «سخن»، ۱۳۸۲ (۲۰۰۳). ص ۱۰۳۲.
22. شورماچ نورستانی، محمد اکبر. جغرافیای عمومی افغانستان. کابل: زوری، ۱۳۵۰ (۱۹۷۱). ص ۲۹۸.
23. عارض، غلام جیلانی. جغرافیای ولایت افغانستان. پشاور، ۲۰۰۰. ص ۴۷.
24. غبار، غلام محمد. جغرافیای تاریخی افغانستان. کابل: انتشارات سعید، ۱۳۸۴ (۲۰۰۵). ص ۱۷۱.
25. یمین، محمد حسین. افغانستان تاریخی. کابل: انتشارات سعید، ۱۳۸۶ (۲۰۰۷). صص ۱۳۹-۱۴۳.

URDU TILINING VUJUDGA KELISHI HAQIDAGI NAZARIYALAR

Sa'dullayev Shohjahon Jamoliddin o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo tillari” kafedrası 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Muhayyo Abdurahmanova

+998997041830

ANNOTATSIYA

Urdu tilining vujudga kelishi va uning bu nom bilan atalishi xususida ko'plab nazariyalar mavjud. Ular, asosan, hududiy tamoyilga ko'ra tasniflanadi. Ular urdu tilining kelib chiqishiga oid Dekan, Sind, Panjob va Dehli nazariyalari bo'lib, maqolada bu masalaga muqobil yechim ko'rsatilgan va dalillar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: Urdu, Hindiston, Dekkan yarim oroli, Sind, Panjob, Dehli, Malabar, Nasiruddin Hoshimiy, Nadaviy, Shironiy, Lahor, rexta, lashkari zaban.

ABSTRACT

There are many theories about the origin of Urdu and its name. They are classified mainly on a territorial basis. These are the Deccan, Sind, Punjab, and Delhi theories of the origin of Urdu, and the article provides an alternative solution to this problem and explains it with evidence.

Keywords: Urdu, India, Deccan Peninsula, Sindh, Punjab, Delhi, Malabar, Nasiruddin Hashimi, Nadavi, Shirani, Lahore, rekhta, lashkari zaban.

АННОТАЦИЯ

Существует множество теорий о происхождении урду и его названия. Они классифицируются в основном по территориальному признаку. Это деканская, синдская, пенджабская и дельйская теории происхождения урду, и статья предлагает альтернативное решение этой проблемы и объясняет его доказательствами.

Ключевые слова: Урду, Индия, полуостров Декан, Синд, Пенджаб, Дели, Малабар, Насирудин Хашими, Надави, Ширани, Лахор, рехта, лашкари забан.

KIRISH

Urdu tilining kelib chiqishi haqida bir-biriga zid turli xil nazariyalar mavjud. Ushbu mashhur nazariyalarning umumiy jihatlaridan biri shuki, urdu tilining ibtidosi musulmon istilochilarining kirib kelishi va mahalliy xalq bilan o'zaro muloqoti orqali mahalliy tilga ta'sir qilish bilan boshlangan. Shu tariqa yangi til vujudga kelgan va keyinchalik u “urdu” deb atalgan. Urdu tili tadqiqotchilari urdu tilining musulmonlar kirib kelganidan keyin paydo bo'lgani haqidagi umumiy fikrda yakdil bo'lsa-da,

uning vujudga kelgan joyi va tafsilotlarini aniqlash va xulosa chiqarishda tafovutlar mavjud. Shu bois urdu tiliga oid nazariyalarga e'tibor qaratsak, ular bizga to'rt xil nazariya ko'rinishida namoyon bo'ladi:

- 1) Dekanda urdu tilining shakllanishi;
- 2) Sindda urdu tilining paydo bo'lishi;
- 3) Panjobda urdu tili tadrijiy rivoji;
- 4) Dehlida urdu tilining shakllanishi.

Nazariyalarning bu qadar hududiy va davriy tamoyilga ko'ra bir-biriga zidlanishi aniq xulosaga kelish uchun ushbu mavzuning chuqur tadqiq etilishini talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nasiruddin Hoshimiy o'zining "Dakhini (qadim urdu) xususida bir qancha ilmiy maqolalar"⁵² urdu tilining ibtidosini Dekan yarim oroli bilan bog'laydi. Uning asosiy dalili shundan iboratki, islom paydo bo'lishidan ancha vaqt oldin ham arablar Hindistondagi Malabar qirg'oqlariga savdo-sotiq maqsadida kelib turishgan. U arablarning savdo sohasida mahalliy aholi bilan aloqada bo'lganiga, kundalik suhbat va muomalada til muammosiga duch kelganiga ishonadi. Nasiruddin Hoshimiy arablar va Dekan aholisi o'rtasidagi ana shu bog'liqlik tildagi muloqot va qorishuv umumiy til – urdu tilining eng qadimgi shakli paydo bo'lganligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Biroq ushbu nazariya zamonaviy tadqiqotlar nuqtai nazaridan asosli deb topilmaydi.

Doktor G'ulom Husayn ushbu nazariyani rad etib, shunday deydi: "Arab tili somiy (semit) tillari oilasiga, urdu tili esa hind-oriy guruhiga mansub. Shu sababli urdu tilining Dekanda paydo bo'lishi masalasi muhokama qilinmaydi. Dekanga urdu tili Shimoliy Hindistondan Xiljiy va Tug'loq (sultonlari) askarlari bilan birga kelgan va musulmon sultonlari homiyligida unda she'riyat va adabiyot yaratilgan. Bu urdu tilining evolutsiyasi bilan bog'liq, har holda vujudga kelishi bilan emas".

Professor Ozod Shomatov ham urdu tilini Dekanda emas, balki shimolda paydo bo'lganini, uning Janubiy Hindistonga "hindaviy" nomi bilan kirib kelib, keyinchalik "dakhiniy" ("janubiy") nomini olganligini aytib o'tadi:

"Dakhini tili Shimoliy Hindistonda hindustani (khari boli⁵³) lahjasi negizida shakllangan va Dehli sultonligida "hindavi" nomi bilan tanilgan.

⁵² ناصر الدين باشمی، دکھنی (قدیم اردو) کے چند تحقیقی مضامین، آزاد کتاب گھر، ہندستان، دہلی، ۱۹۶۳ء

⁵³ **Khari boli** – Dehlining shimoli-g'arbiy hududlarida tarqalgan lahja. Uning negizida zamonaviy hindiy va urdu adabiy tillari kelib chiqqan.

XIV asrda bu til Janubiy Hindiston (Dekan)ga musulmon hukmdorlari qo‘shinlari tomonidan olib kelingan va Dekan yarim orolining bir qator hududlari istilo etilgach, bu yerda mustahkam o‘rnashgan edi. Hindaviy tili “khari boli” lahjasi negizida paydo bo‘lgan va bundan tashqari u bangaru, braj, bundeli va Shimoliy Hindistonning boshqa lahjalari ta’sirining ba’zi unsurlarini ham o‘zida mujassam etgan. Bahmaniylar, Odilshohlar, Qutubshohlar davlatlarida hindaviy tili janubga tomon siljigan va shimoldagi shaklidan farqli o‘laroq, u “dakhini”, ya’ni “dakkani” (Dekan tili; “janubiy”) deb atala boshlangan.

Yagona kelib chiqishi va bir-biri bilan mushtarak bo‘lgan asosiy tipologik xususiyatlari (grammatik tuzilish va so‘z boyligi) bilan hindaviy (shimoliy) va dakhini (janubiy) turli ijtimoiy-iqtisodiy, etnik va lingvistik sharoitlarda bir-biridan mustaqil ravishda rivojlangan⁵⁴ ...”

O‘sha davrda arablarning Janubiy Hindiston (Dekan)ning mahalliy aholisi bilan aloqalari hali dastlabki munosabatlar bo‘lib arab savdogarlari hech qachon bu yerda doimiy yashash uchun kelib joylashmagan, balki ular bu yerga savdo-sotiq uchun kelgan hamda bu yerdan mol xarid qilib, yana qaytib ketgan. Islom dini paydo bo‘lishi bilan bu arab savdogarlari savdo-sotiq va zaruriy ashyolarni ayirboshlash bilan birga islomga ham da’vat qila boshlagan. O‘zaro munosabatlarning poydevori, albatta, shu tariqa yaratilgan. Biroq bu munosabatlar tomonlarning mavjudligini ta’minlay oladigan va mustahkam birlik rishtalariga olib keladigan barqarorlik va mustahkamlik darajasiga erisha olmadi. Shunisi aniqki, bu sharoitda yaqin va uzviy aloqa yuzaga kelmadi, tilda bir-biriga uyg‘unlashib borish holati yuz bermagan. Shuning uchun ham arablarning bu tijoratga doir aloqalari tilda biror inqilobiy o‘zgarish yaratmagan.

Sindda urdu tilining paydo bo‘lish nazariyasi Sayyad Sulaymon Nadaviyniki bo‘lib, musulmon fotihlari Sindga bostirib kirib, birmuncha vaqt muntazam hukumat tuzgan davrda mahalliy xalq bilan aralashib, muloqot qilish natijasida urdu tilining dastlabki shakli bo‘lgan til vujudga kelgan, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha:

“Musulmonlar eng birinchi Sindga kirib kelishgan va bugunda biz urdu deb ataydigan tilning dastlabki shakli aynan Sind vodiysida yaratilgan bo‘lishi mumkin, degan aniq to‘xtamga kelamiz⁵⁵”.

Musulmon sivilizatsiyasi va madaniyatining Sinddagi ta’siri doimiy tusga ega bo‘lganligiga shubha yo‘q. Mahalliy aholining tilida, kiyim-kechagida hamda turmush tarzida uzoq davom etgan va keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y berdiki, hozirgi

⁵⁴ Шаматов А.Н., КЛАССИЧЕСКИЙ ДАКХИНИ, "НАУКА", Москва -1974. стр.-3

⁵⁵ سيد سليمان ندوی، عرب و ہند کے تعلقات، ہندوستانی ایکاڈمی، ہندستان، اللہ آباد، ۱۹۳۰ء

kunga qadar Sindda arab tilining va madaniyatining ta'sirini kuzatish va payqash mumkin. Bugungi kunda sindhiy tilidagi arabcha so'zlar soni Pokiston va Hindistonning boshqa barcha tillariga qaraganda ko'proq va uning so'z qurilishida arab tilining bilvosita ta'siri mavjud. Arab tili ta'siri chuqurligini shu bilan izohlash mumkinki, ba'zi tarixchilar fikriga ko'ra, biror hududdagi boshqa tillarda shu atrofdagi tillarning ta'siri ko'proq kuzatilsa, sindhiy tilida arabcha so'zlar ko'proq uchraydi. Misol tariqasida sindhiy tilida tog'ni "jabal" va piyozni "basal" deyilishini keltirish mumkin. Biroq haqiqat shuki, tildagi bu ta'sirlar faqat so'zlar bilangina cheklanadi. Shuning uchun biror yangi til paydo bo'la olmadi. Aynan ushbu sabab tufayli Sayyad Sulaymon Nadaviy o'z da'vosi yuzasidan ishonchli dalil keltira olmagan.

O'sha davrdagi ba'zi sayyohlar arab, fors va sindhiy tillarining taraqqiyoti haqida zikr etib o'tarkan, ularning ushbu tafsilotlaridan yangi bir aralash til mavjudligi xususida hech bir ma'lumot uchramaydi. Biroq sindhiy va mo'ltוניy tillarida fors va arab tilining qorishuvi yuz bergan, deb taxmin qilish mumkin. Ushbu qorishuvning xarakteri xususida taxminiy nazariyani ilgari surish qanchalik asosli? Aniq manba bo'lmasa, hukm chiqarish qiyin.

Hofiz Mahmud Shironiy o'zining jiddiy tadqiqotlari va ishonchli izlanishlari asosida urdu tilining Panjobda vujudga kelganligi haqidagi nazariyani asoslab berdi. Uning fikricha, urdu tili Sulton Mahmud G'aznaviy va Shahobiddin G'uriy Hindistonga qayta-qayta hamla qilib turgan davrda vujudga kelgan. Bu hujumlar natijasida Hindistonda forsiy zabon musulmonlarning hokimiyati qaror topgan va bu istilochilar Dehli sultonligi tuzilgandan keyin ham deyarli ikki asr shu yerda qolishgan. Ushbu nazariyaning to'g'riligini isbotlash uchun Shironiy bu mintaqadagi ko'plab shoirlarning so'zlarini keltiradi. Ulardagi panjobiy, fors tillari va mahalliy lahjalarning ta'siri yangi tilning dastlabki shaklini namoyon etgan.

Musulmonlar qariyb 175 yil davomida hozirgi Sarhad⁵⁶ va Sind provinsiyasini o'z ichiga olgan Panjobda hukmronlik qilgan. 1193-yilda Qutbiddin Oybek qo'shinlari bilan birgalikda musulmonlar Dehli tomon yurish qildi va bir necha yil ichida musulmonlar butun Shimoliy Hindistonni istilo qildi. Endilikda Lahorning o'rniga Dehli mamlakat poytaxtiga aylanganidan so'ng musulmonlar shu paytgacha o'zaro gaplashib kelgan bu til ham ular bilan birga Dehliga qadar yetib kelib, yuksak mavqega erishgan.

Tarixiy va siyosiy voqealar va dalillardan tashqari professor Mahmud Xon Shironiy urdu tili Panjobda vujudga kelgan, degan fikrning to'g'riligini ta'kidlaydi va

⁵⁶Sarhad – Pokistonning to'rtta provinsiyasidan birining nomi. Hozirda Xaybar-Paxtunxva deb ham ataladi.

bu ikki til orasidagi yaqin aloqani urdu va panjobiy tillari o'rtasidagi o'xshashliklarni lingvistik dalillar bilan asoslaydi. U shunday deydi: "Urdu tili o'z grammatikasi jihatidan panjobiy va mo'ltoniy tillariga juda yaqin. Ikkalasida ham ismlar⁵⁷ va fe'llar alif bilan tugaydi. Ko'plik yasash usuli ikkala tilda ham shu qadar umumiyki, gaplarda nafaqat asosiy gap bo'laklari, balki bog'lovchi va ko'makchilar ham umumiy qoidaga bo'ysunadi. Ikkala tilda muzakkar va muannaslik qoidalari, qo'shma va ko'makchi fe'llarda mushtaraklik mavjud bo'lib, panjobiy va urdu tillaridagi qariyb 60 % so'z umumiydir".

Professor Shironiy tomonidan ilgari surilgan o'xshashlik va mushtaraklikka qisqacha nazar tashlasak, ikki til o'rtasidagi lisoniy munosabatlar oydinlashadi va urdu tili o'zining lug'at boyligi hamda grammatik xususiyatlariga ko'ra panjobiy tiliga juda yaqin ekanligi namoyon bo'ladi va bu narsa professorning fikri va dalillarini yanada mustahkamlaydi.

Shu maqsadda professor Shironiy tadqiqotlariga tanqidiy nigoh bilan qaraydigan bo'lsak, urdu tili haqiqatan ham morfologik tuzilishi va grammatik xususiyatlariga ko'ra panjobiy tiliga yaqinroq ekanligi ayon bo'ladi. Masalan:

1) Jins (muzakkar va muannas) qoidalari urdu va panjobiy tillarida aynan bir xil. Masalan, oxiri alif (ا) bilan tugaydigan so'zlarni muannas (ayol) jinsiga moslashtirish zarur bo'lsa, alif yoy (ی) harfi bilan almashadi. Masalan:

گھوڑا (nar ot, tulpor) – گھوڑی (moda ot, baytal), بکرا (nar echki, taka) – بکری (moda echki) va hokazo;

1) Infinitiv (masdar) qoidasi har ikkala tilda ham bir xil va (II shaxs birlikdagi) buyruq maylidagi fe'lga –na(نا-)qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

2) Fe'l o'zi bog'langan so'zning jinsdagi holatiga qarab o'zgaradi.

Masalan:

Urdu tilida:

گھوڑی آئی (ot (moda ot) keldi), لڑکا آیا (bola keldi)

Panjobiy tilida:

کوڑی آئی (ot (moda ot) keldi), منڈا آیا (bola keldi) va boshqalar;

3) O'timsiz fe'ldan o'timli fe'l yasash qoidasi ham ikkala til uchun ham aynan bir xil :

بیٹھنا (o'tirmoq) – بیٹھانا (o'tqizmoq), بہنا (oqmoq) – بہانا (oqizmoq) v.h

Bundan tashqari o'tgan oddiy zamon, taxmin mayli, shart mayli, istak mayli, kelasi zamon, buyruq mayli, o'zlik va majhul nisbat, atov kelishigi va undov so'zlar kabilarning qoidalari ham ikki tilda aynan bir xildir.

⁵⁷Tilshunoslikda ismlar deyilganda ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlar tushuniladi.

“Panjobda urdu tili⁵⁸” asari nashr etilishidan oldin faqat mavlono Muhammad Husayn Ozod tomonidan ilgari surilgan nazariya umume’tirof etilgan bo’lsa-da, professor Hofiz Shironiyning ushbu asari Panjob o’lkasi tomon tadqiqotlarning barcha eshiklarini ochdi. Professor Suniti Kumar Chatterji fikriga ko’ra tabiiyki, musulmonlar o’sha vaqtda Panjobda qaysi til qo’llangan bo’lsa, o’sha tilni qabul qilishgan va u ta’kidlaydiki, hozirda ham panjobiy tilining lahjalarida, ayniqsa, Sharqiy Panjob va Uttar Pradeshning g’arbiy tumanlaridagi lahjalar o’rtasida unchalik katta farq yo’q va sakkiz-to’qqiz asr oldin ham bu farq unchalik katta bo’lmagan. Markaziy va Sharqiy Panjob hamda G’arbiy Uttar Pradeshda ayni damda ham shunga o’xshash lahja eng asosiy iste’molda.

Hofiz Mahmud Sheroniyning “Panjobda urdu tili” asari nashr etilishi bilan mavlono Muhammad Husayn Ozodning urdu tilining kelib chiqish jihatidan “braj bhasha”ga bog’liqligi xususidagi nazariyasi rad etilgan.

Dehlida urdu tili nazariyasini ilgari suruvchi tadqiqotchilar, garchi tilshunoslik tamoyillaridan xabardor bo’lsa-da, urdu tilining vujudga kelishida Panjobni e’tibordan qoldirib, Dehli va uning atrofidagi hududlarga urg’u beradilar. Biroq Dehli va uning atrofidagi hududlarning ahamiyatini urdu tilining vujudga kelishida emas, balki uning tadrijiy rivojida kuzatish mumkin. Dehli va uning atrofini urdu tilining vujudga kelgan maskani va va uning vatani deb hisoblovchilar orasida doktor Mas’ud Husayn va Shavkat Sabzavoriylar ham ko’zga tashlanadi. Ma’sud Husayn bu xususda o’zining “Urdu tili tarixining muqaddimasi”⁵⁹ asarida shunday yozadi:

“Urdu tilining kelib chiqishi musulmonlar bilan yoki ularning Hindiston yarim orolida o’z siyosiy hokimiyatini o’rnatishi va mustahkamlashi bilan qanday aloqasi borligi aniq emas. Urdu tili Mirut va Dehlining tili bo’lib, bu hech qanday izoh talab qilmaydi. Urdu tilida Dehli va Uttar Pradeshning g’arbiy tumanlarida o’ziga xos bir nafosat bilan gaplashilishini juda yaxshi bilamiz. Biroq biz bu tilning aynan shu hududlarda paydo bo’lganligini yoki Dehli va Uttar Pradeshning g’arbiy hududlaridagi boshqa joylardan kelib chiqqanligini bilmaymiz”.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, urdu tilining vujudga kelishi va shakllanishi bu ikki xil omil ekanligini nazarda tutish kerak. Urdu til sifatida Panjobda paydo bo’lgan, ammo Dehli, Dekan va Hindistonning boshqa hududlarida shakllangan va rivoj topgan. Urdu tilining paydo bo’lishi haqidagi nazariyalar har xil jihatdan talqin etilsa-da,

⁵⁸ حافظ محمود شیرانی، "پنجاب میں اردو"، مکتبہ کلیان، ہندستان، لکھنؤ، ۱۹۶۰ء

⁵⁹ مسود حسین خان، مقدمہ تاریخ زبان اردو، آزاد کتاب گھر دلی، ہندستان، دلی، ۱۹۵۴ء، ۶۷ ص.

ularning orasida urdu tilining Panjobda paydo bo'lishi xususidagi nazariyalargina haqiqatga muvofiqdir va professor Shironiy birinchilardan bo'lib bu nazariyani asosli isbotlab bergan.

REFERENCES

1. ناصر الدين هاشمی، دکھنی (قدیم اردو) کے آزاد کتاب گھر، ہندستان، دلی، ۱۹۶۳ء چند تحقیقی مضامین،
2. سید سلیمان ندوی، عرب و ہند کے تعلقات، ہندوستانی ایکاڈمی، ہندستان، اللہ آباد، ۱۹۳۰ء
3. حافظ محمود شیرانی، "پنجاب میں اردو"، مکتبہ کلیان، ہندستان، لکھنؤ، ۱۹۶۰ء
4. مسود حسین خان، مقدمہ تاریخ زبان اردو، آزاد کتاب گھر دلی، ہندستان، دلی، ۱۹۵۴ء
5. Шаматов А.Н, КЛАССИЧЕСКИЙ ДАКХИНИ, "НАУКА", Москва -1974
6. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.

STYLISTIC ASPECT OF CONDITIONAL SENTENCES IN ENGLISH AND UZBEK

Shukurov Shuhrat Muhiddinovich

MA student,

Minnikulov I.U.,

PhD in Philological Sciences,

Uzbekistan State University of World Languages

Email: mr.islom19@gmail.com

+998909183443

ABSTRACT

The article is devoted to the analysis of stylistic aspect of conditional sentences in English and Uzbek. It contributes to the development of comparative typology in general, syntactic typology of two genetically non-related languages in particular. In particular, it compares stylistics of conditionals in compared languages. The results of the study as follows: a) conditional sentences in both languages are stylistically marked so that the emotional and expressive effect should be placed on the reader; b) the ungrammaticality of the conditional constructions in English are observed so as to exert a stylistic effect; a rhetoric question of main clause and repetition of subordinate clauses in Uzbek and a complex sentence consisting of main and subordinate clauses in Uzbek are means of producing a stylistic impact on a reader.

Keywords: *stylistics, style, language use, conditionals, conditional form, conditional meaning, conditional sentence.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу стилистического аспекта условных предложений в английском и узбекском языках. Это способствует развитию сопоставительной типологии вообще, синтаксической типологии двух генетически неродственных языков в частности. В частности, сравнивается стилистика условных предложений в сравниваемых языках. Результаты исследования следующие: а) условные предложения в обоих языках стилистически маркированы таким образом, чтобы эмоционально-экспрессивное воздействие должно было воздействовать на читателя; б) соблюдается неграмматичность условных конструкций в английском языке для оказания стилистического эффекта; риторический вопрос главного предложения и повторения придаточного в узбекском языке и сложное

предложение, состоящее из главного и придаточного предложений в узбекском языке, являются средствами стилистического воздействия на читателя.

Ключевые слова: стилистика, стиль, употребление языка, кондиционалы, условная форма, условное значение, условное предложение.

INTRODUCTION

Nowadays, preservation, scientific research and analysis of the linguistic richness of each nation in its native language is one of the important tasks facing the field of linguistics. In particular, an in-depth study of the field of linguistics, which is closely related to the mutual cultural values of peoples, the study of linguistic riches such as sentences that are a direct part of it, and the analysis of factors contributing to the enrichment or decline of peoples' syntactic knowledge. Stylistics as one of the branches of linguistics plays an important role in language research. Especially, comparative stylistics is of great importance in revealing language identity and cultural differences in compared languages. In the process of globalization, many researchers have begun to study the interrelationships of cultures and explored the interrelationships between the concepts of linguistics and culture. In the process of conducting lingvoculturological research, scientists have identified the active and inactive language layers among the world's languages and made a conceptual and empirical analysis of the factors that led to its developmental stages. English, which has become a common language in the international arena, was also selected. As a result, the integration of cultures has highlighted the need to make English an international language of communication.

LITERATURE REVIEW

We state that stylistics deals with language styles used in various contexts. In particular, stylistics is an approach that investigates the various styles used in language. Literary stylistics, on the other hand, refers to the study of style in literary language. "It can be regarded as the study of the fusion of form with content". Stylistic analysis, mainly, plays an essential role in comprehending and understanding a literary work. It, usually, studies the styles and techniques that an author uses in composing his literary work.

In addition, a viewpoint that stylistics is concerned with language choice according to a context is also claimed by us in our research. The choice of linguistic elements is determined by the pragmatic axis or the syntagmatic axis, for instance, the writer can choose between 'dead' and 'pass away'. His / her choice is determined by his / her personality, since every person has his / her own distinctive features that

distinguish him / her from one another. Thus, the style of any person may be shaped by his social and political background, his education, geographical location, etc.

R. Bradford states that “Stylistics provides us with details description of the text in hand and as a result, deepens the process of interpretation and evokes critical thinking (Bradford, 1997, 12). Stylistics can tell us how to name the constituent parts of a literary text and enables us to document their operations, but in doing so it must draw upon the terminology and methodology of disciplines which focus upon language in the real world”. On the other hand, Crystal and Davy (1969), as mentioned by Ogunsiji, says that, “The aim of stylistics is to analyze language habits with the main purpose of identifying from the general mass of linguistic features common to English as used on every conceivable occasion. Those features which are restricted to certain kinds of social context, to explain, where possible, why such features have been used, as opposed to other alternatives, and to classify these features into categories based upon a view of their function in the social context”.

So, stylistics are concerned with the following issues: language styles used in different contexts; the individual style (the author’s style); language choice according to a context.

RESEARCH METHODOLOGY

In this research, qualitative analysis is used. In addition, linguistic description (to describe main issues of stylistics, to review related literature), stylistic analysis (to reveal stylistic properties of conditional sentences in compared languages), comparative analysis (to reveal allomorphic and isomorphic features of stylistics of conditional sentences in compared languages) methods are used. The research is theoretical by nature. Research materials are conditional sentences in the literary works of English and Uzbek writers.

RESULTS AND DISCUSSION

Now, it is essential to analyze the stylistic features of conditionals in compared languages.

Example 1: But he seems calm, he thought, and following his plan. But what is his plan, he thought. And what is mine? Mine I must improvise to his because of his great size. *If he will jump I can kill him.* But he stays down forever. Then I will stay down with him forever. (Ernest Hemingway, The old man and the Sea, 1952, 29).

Example 2: They spoke of her as a contestant or a place or even an enemy. But the old man always thought of her as feminine and as something that gave or withheld great favours, and *if she did wild or wicked things it was because she could*

not help them. The moon affects her as it does a woman, he thought. (Ernest Hemingway, *The old man and the Sea*, 1952, 15).

Example 3: Each line, as thick around as a big pencil, was looped onto a green-sapped stick so that any pull or touch on the bait would make the stick dip and each line had two forty-fathom coils which could be made fast to the other spare coils so that, *if it were necessary, a fish could take out over three hundred fathoms of line.* (Ernest Hemingway, *The old man and the Sea*, 1952, 15).

From the examples (1,2,3) above, it is clear that in English literary texts, especially, in the work of *The old man and the Sea* by E.Hemingway, the conditional sentences are selected and used for the sake of the expression of the aim of the author. Stylistically, such sentences are marked so that the emotional and expressive effect should be placed on the reader. In the examples above, the conditional constructions are built in a way which is not grammatically correct. For example, according to the standard English, after the conditional conjunction *if* the future present suffix *will* is not used, but in the sentence above, the suffix *will* is used as a result, it produces an emotional impact on the reader. Here, the conditional meaning is forced and as a result, emotional and expressive effect is achieved.

Now, it is essential to analyze stylistic aspect of the conditional sentences in Uzbek.

Example 1: «Ҳали менга осиялсанми? Сен менинг кимлигимни сўраясанми? - буви ўгай қизнинг орқасидан ғазабланарди.- *Агар мени худо жазоламаганда, агар у менинг беш гўдагимни бағримдан юлиб олмаганда, ёлғиз ўғлим ўн саккиз ёшида урушда ўққа учмаганда, чолгинам, меҳрибонгинам Тайгар сурув билан бўронда қотиб қолмаганда, мен сиз, ўрмон одамларининг орасида юрармидим?* Мен сенга ўхшайманми, сенга-я, туғмас? Мен қариган чоғимда сенинг жиннисифат отанг Мўмин билан яшаб юрармидим? Қайси айбим - гуноҳларим учун сен мени бунча қийнадинг, лаънати худо? (Chingiz Aytmatov, *Oq kema*, 1970, 14).

It is clear from this example, in Uzbek, conditional sentence is too long. It consists of main clause and subordinate clause. The main clause is in the form of a question, particularly, a rhetoric question. A specific feature is that the subordinate clauses are composed of four clauses, two of which are marked by the conditional conjunction *if*, whereas the other two are unmarked, without the conditional conjunction. Here, the emotiveness is achieved by means of a conditional sentence, as the sentences is repeated (repetition of stylistic devices); it consists of 4 clauses of

antecedent clauses and one head clause. So, here a stylistic coloring is due to a rhetoric question of main clause and repetition of subordinate clauses.

Example 2: У яна мактабида яқинда ўзларининг ўрмонида пайдо бўлган уч буғу ҳақида қандай қилиб ҳикоя қилиб беришигача ўйлаб қўйди, яъни буғуларнинг оқ урғочиси - бу ўша Шохдор она буғу, унинг каттагина ва бақувват боласи ҳам бор, улар билан улкан шохли баҳайбат кўнғир буғу ҳам бирга, у жуда кучли бўлиб, Шохдор она буғу ва унинг болаларини бўрилардан кўриқлайди. У яна шулар билан бирга, *агар буғулар шу ерда қолиб, ҳеч қайёққа кетиб қолмаса, унда Шохдор она буғу тезда Ўразқул амаки билан Бекей холага сеҳрли бешик келтириб беришини ҳам ҳикоя қилишни кўнглига тугиб қўйган эди.* (Chingiz Aytmatov, Oq kema, 1970, 58).

In this sentence, we can see that the conditional sentence consists of main clause and a subordinate clause. The main clause is complex by its structure. It consists of a complex sentence. The subordinate clause is also expressed by a long sentence. Here, a stylistic effect is achieved by a complex sentence consisting of main and subordinate clauses.

Example 3: Тоҳир ёмон бир фалокатни олдиндан сезгандай юраги увушди:
-Шошилмай гапир! *Сузган бўлса, қон оқдимми?*

-Қон? Ҳа, ҳа.. Қон тиркираб кетди.

-*Ундай бўлса кўрқма.* Тушдаги қон - ёруғлик. Отам доим шундай дейди.

-Танграм шу таъбирни рост келтирсин! Тоҳир оға, мен... *Агар Андижонга сиз бормасангиз... мен ҳам кетмасмен. Неки бўлсак, шу ерда... бирга...* (Pirimqul Qodirov, Yulduzli Tunlar, 1978, 3).

The example clearly shows that the first conditional sentence *Сузган бўлса, қон оқдимми?* is expressed by without a conditional conjunction, the verb form “sa” is used to express the conditional meaning. This is a specific feature for Uzbek, and the inversion is also observed, the meaning is compensated by the context here, such linguistic means are useful to express stylistic meaning. The second conditional sentence *Ундай бўлса кўрқма* is characterized by a specificity such as indicative pronoun instead of a sentence, and imperative form as a main clause. So, some linguistic means in the component of conditional sentence are helpful to place a stylistic effect on the reader.

CONCLUSION

As results of our investigation, the following conclusions on the comparative stylistics of conditionals in English and Uzbek are drawn: a) conditional sentences in

both languages are stylistically marked so that the emotional and expressive effect should be placed on the reader; b) the conditional constructions in English are built in a way which is not grammatically correct so as to place a stylistic impact on a reader; a stylistic coloring is due to a rhetoric question of main clause and repetition of subordinate clauses in Uzbek and a stylistic effect is achieved by a complex sentence consisting of main and subordinate clauses in Uzbek.

REFERENCES

1. Bradford. R, (1997), *Stylistics*, London and New York: Routledge.
2. Chingiz Aytmatov. Oq kema.-Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 1970.-158 b.
3. Hemingway, Ernest. 1952. *The Old Man and the Sea*. London, England: Arrow Books.
4. Ogunsiji, A. (2013). *Literary Stylistics*. Nigeria. National Open University of Nigeria: School of Art and Social Sciences.
5. Pirmqul Qodirov. Yulduzli tunlar.-T.: Yangi asr avlodi, 2015.-668 b.

MUSIQIY TOVUSHLARNING XUSUSIYATLARI

G.I. Ibrahimjanova

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqiy tovushlarning xususiyatlari va turlari, tovushning paydo bo'lish jarayoni haqida batafsil ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, tovush turlarining bir-biridan o'zaro farqi ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Musiqa nazariyasi, musiqiy elementlar, tovush xususiyati, shovqinli tovushlar, savodxonlik.*

CHARACTERISTICS OF MUSICAL SOUNDS

ABSTRACT

This article provides detailed information on the characteristics and types of musical sounds, the process of sound formation. The differences between the types of sounds are also highlighted.

Keywords: *Music theory, musical elements, sound properties, noisy sounds, literacy.*

ХАРАКТЕРИСТИКИ МУЗЫКАЛЬНЫХ ЗВУКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье дана подробная информация о характеристиках и видах музыкальных звуков, процессе звукообразования. Также выделены различия между типами звуков.

Ключевые слова: *теория музыки, музыкальные элементы, звуковые свойства, шумные звуки, грамотность.*

KIRISH

Musiqa darslarida musiqa savodxonligiga oid tushunchalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bola boshlang'ich musiqa savodxonligiga oid bilimlarni maktabda boshlang'ich sinflarida o'zlashtiradi. Bu hol ayniqsa musiqa san'ati timsolida yorqin namoyon bo'ladi desak mubolg'a bo'lmaydi. Zero, musiqa namunalari bizga hamroh, kundalik turmush tarzimizda bizga —yo'ldosh bo'lib bormoqda. Shu bilan birga musiqaning turli daraja va saviyalarda bo'lgan namunalari hamda ularning turfa ijrochilik san'ati bilan bog'liq holda madaniy hayotimizda bir qator murakkab ko'rinishli —vaziyatlar ham yuzaga kelmoqda. Musiqiy savodxonlik

o'quvchilarni musiqani idrok etishda ko'maklashib musiqiy madaniyatini shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda ijro etilayotgan musiqa asarida cholg'uning ham ahamiyati borligini nazarda tutish kerak, albatta. Chunki cholg'u sozlarida o'zlashtirilgan nazariy tushunchalarni amalda sinab ko'rishga imkon yaratiladi.

Asrlar davomida shakllangan va xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin olgan milliy chog'ularimizni turli ansambl va ijodiy jamoalar (orkestrlar) tarkibida, hatto Estrada guruhlari tomonidan yangicha talqinlarda qo'llanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi milliy cholg'ularimizning boy tembr-tarovati va texnik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Shu bilan birga milliy cholg'ularimiz ijrochiligida repertuar tanlash masalalari baxs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Musiqa nazariyasiga oid BMI lari bajarilgan ammo, musiqa darslarida musiqa nazariyasiga oid nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olish mavzusi tadqiq qilingan emas. Shuning uchun ushbu mavzuni BMI sifatida tanladik. Afsuzki hozirgi kunda bu muammolar o'z yechimini topgani yo'q. Qayd etilgan muammolarni ilmiy jihatdan anglash, atroflicha tadqiq etish hamda shu asnoda yechimini topish ishlari maxsus tadqiqot orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqaning elementar nazariyasi musiqa savodxonligi, musiqaning asosiy tushunchalarini va ayniqsa, kuyni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanishi texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari: metr, ritm, lad, garmoniya, ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun: lad tonalliklarning musiqiy mazmuni ifodalash imkoniyatlari tahliliy o'rganiladi.

Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks ettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Musiqaning elementar nazariyasi kursida tovush so'zi ikki xil tushunchani bildiradi: birinchisi – *fizik holatdagi tovush*; ikkinchisi – *sezgi holatidagi tovush*dir.

1. Masalan, biror egiluvchan jism, cholg'u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'lqinli tebranishlar hosil bo'ladi. Bu tebranishlar tovush to'lqinini hosil qiladi. Ular tovush manбайдan turli tomonlarga aylanasimon tarqaladi.

Ushbu hodisaning umumiy zanjiri quyidagicha amalga oshadi: *tovush to'liqini manbai – tovush to'liqlari – eshitish organiga tovush to'liqlarining ta'sir etishi – eshitish analizatorlari orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyaga uzatilishi.*

Fizik nuqtai nazardan, tebranishlar o'lchovi sifatida tebranadigan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni **gerts (gts)** qabul qilingan.

2. Yangragan tovush to'liqlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta'sir etadi va asab tuzilmasi (analizator) orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini qo'zg'atadi.


Ma'lumki, biz kundalik hayotda juda ko'p, xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo'llanila bermaydi. Eshitish organlarimiz musiqaviy tovushlar bilan shovqinli tovushlarni bir-biridan ajratish qobiliyatiga ega. Shovqinli tovushlar masalan, qarsillash, gumburlash, g'ijirlash, shivirlash, dukillash va hokazolar aniq tovush to'liqini balandligiga ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanilmaydi⁷.

Musiqaviy tovushning nazariy jihatdan to'rt xil fizik xususiyati mavjud. Ular **balandlik, uzunlik** (cho'zim), **qattiqlik** (tovush kuchi) va **tembr** (tovush tusi) dan iborat.

Yangrayotgan **tovushning balandligi** tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya'ni chastotasiga bog'liqdir. Tebranish qanchalik tez bo'lib tursa, tovush shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi.

Yangrayotgan **tovushning cho'zimi** tebranayotgan jismning to'liqin amplitudasiga bog'liqdir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik harakteri o'zgarmaydi, lekin musiqa nuqtai nazaridan tovushning cho'zimi uning yana bir xususiyati bo'lib, muhim ahamiyatga egadir. Tovush cho'zimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo'lgan jism erkin tebranishi shart.

Yangrayotgan **tovushning qattiqligi** tebranish harakatining kuchiga ya'ni, tovush manbai bo'lgan jismning tebranish kengligiga bog'liqdir. Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi **tebranish amplitudasi** (kengligi) deyiladi (1 – rasmga qaralsin).



Tebranish amplitudasi qanchalik katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitaladi va aksincha.


Tembr deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan tovush deyishadi va h.k.

Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblarida eshitaladigan ma'lum balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks-sadolarga) bog'liqdir.

Yuqori tonlar (obertonlar) tovush to'lqinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi. Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqaning tembr xususiyatlarini keng o'rganmaydi, bu borada cholg'ushunoslik va orkestrrovka fanlari doirasida bahs yuritiladi.


Turli qalinlikdagi tebranuvchi jism masalan: tor tebranayotib, teng bo'laklarga bo'linishi natijasida tovush to'lqinlarining murakkab shakli vujudga keladi. Jismning umumiy tebranishi jarayonida bu teng bo'lakchalar alohida tebranib, o'zining uzunligiga muvofiq keladigan qo'shimcha to'lqinlar hosil qiladi.

Shunday qilib, yuqori tonlar qo'shimcha oddiy tebranish natijasida hosil bo'ladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil bo'ladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, cholg'u asbobi torida birgina asosiy ton eshatilganda edi, uning to'lqinlanish shakli quyidagi grafik tasvirga muvofiq bo'lardi:




Torning teng yarmidan hosil bo'lgan ikkinchi yuqori ton to'qlinining uzunligi asosiy ton to'qlinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) esa ikki marta tezroq bo'ladi va hokazo.


Yarmidan hosil bo'lgan to'qlin (ikki marta tez):



Uchdan bir qismidan hosil bo'lgan to'qlin (uch marta tez):



To'rttdan bir qismidan hosil bo'lgan to'qlin (4 marta tez)



Torning dastlabki tovushi (asosiy toni) ning tebranish sonini birlik sifatida olsak, yuqori tonlarning tebranish sonlarini quyidagi oddiy raqamlarda ifodalash mumkin: **1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16** va hokazo.

Shuni qayd etish lozimki o'quvchilarda musiqa savodxonligini oshirishda musiqiy nazariy bilimlarning o'rni muhimdir.

REFERENCES

1. Abralova M, Galiyeva D. Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi., 2008;
2. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001;
3. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiqqa» darsliklari T., 2008
4. Hasanov A. «Musiqqa va tarbiya»., Toshkent., «O'qituvchi» ., 1993;
5. Ismailov Tohir Xushnodbek o'g'li; «Formation of student aesthetic competition by teaching the works of Russian classic composers in music culture classes»; «Молодой ученый» №17 (359), апрель 2021 г. <https://moluch.ru/archive/359/80355/>.
6. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» T., TDPU., 2008
7. Mansurov A, Karimova D. «Musiqqa» 5 – sinf uchun dasrlik. , Toshkent .;

-
8. T. Ismailov; “THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE” "Экономика и социум" №1(80) 2021;
 9. T. Kh. Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);
 10. Shakhlo Khakimovna Kharatova “USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS” Science and Education ISSUE 3, March 2022;
 11. Nishonova Z. T. «Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo'yicha psixologik maslahatlar berish», Toshkent., 1997;

MUSIQA DARSLARIDA BOLALAR MUSIQA TUYG‘USINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimova Dildora Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika Universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqa darslarida bolalarning musiqiy his-tuyg‘usini rivojlantirishda faoliyat turlarining ahamiyati haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, bolalarda musiqiy emtosionallikni kuchaytirish to’g’risida fikr-mulohazalar yurutilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, ta’lim tizimi, faoliyat turlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, ijodkorlik, musiqa ijrochiligi.

IMPROVING CHILDREN'S SENSE OF MUSIC IN MUSIC LESSONS

ABSTRACT

This article provides detailed information on the importance of activities in the development of children's musical sensibilities in music lessons. There were also suggestions to increase children's musical emotionality.

Keywords: music, education system, activities, music literacy, listening to music, creativity, music performance.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ЧУВСТВА ДЕТЕЙ НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКОЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена подробная информация о значении деятельности в развитии музыкальной чуткости детей на уроках музыки. Были также предложения по повышению музыкальной эмоциональности детей.

Ключевые слова: музыка, система образования, деятельность, музыкальная грамотность, слушание музыки, творчество, музыкальное исполнительство.

KIRISH

Barkamol avlodni ma’naviy ongini shakllantirishda barcha fanlar qatori musiqaning ham alohida o’rni bor. Bugungi kun musiqa ta’limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli, ijodkor, qobiliyatli yoshlarni

tarbiyalab yetishtirishdir. Shu bois musiqa ta'limining sifat va samaradorligini oshirishning turli metodik jarayonlarini yangi ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqish malakalari alohida mavzu sifatida tahlil etilmoqda. Shuningdek, musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda ularning psixologik-fiziologik xarakterlariga oid hamda yosh xususiyatlariga mos musiqiy asarlar haqida ma'lumotlarni umumlashtirish, o'rganish va tahlil qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy - g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir», degan edi, bobomiz Shayx Sa'diy esa «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir» deb ta'kidlaydilar. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni rivojlantiruvchi vositadir.

Musiqa ta'limi o'quvchi - yoshlarga nafaqat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash malakalarini shakllantiradi, musiqiy savodxonligini o'stiradi. Shuningdek musiqiy qobiliyatini tarbiyalashda hissiyotni o'stirishda, diqqat, xotirani rivojlantirishda, taassurot olamini boyitishi, tafakkur ko'lamini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqa o'quvchilar shaxsiyatini, umuman inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa darsi o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'liqdir. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham Davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning, ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz – shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Musiqqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Bunda o'quvchilar musiqqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqqa faoliyatlari, musiqani badiiy didini idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqqa madaniyati o'quv fanining mazmuniga bo'lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi. Boshlang'ich musiqqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqqa ijrochilari, musiqqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna asarlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqqa janrlari, ustozona mumtoz musiqqa, Sharq va jahon xalqlari musiqasi, ularning taniqli namoyondalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati, o'zbek musiqasida mahalliy va uning mashhur ijrochilari, o'zbek milliy musiqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy ham amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi:

1. *Musiqqa tinglash.*
2. *Jamoa bo'lib kuylash.*
3. *Musiqqa savodi.*
4. *Musiqqa ijodkorligi.*

Musiqqa tinglash va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh va jahon xalqlari kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar, shashmaqom sho'balari, mahalliy musiqqa uslublaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kulyash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovozi ijrosini boshqarishni, ustozlarni ijrosini eshitish, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'navozlik qilishga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari mahalliy musiqqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlari kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, maqom aytim yo'llaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqqa shakllari va musiqqa janrlari, major va minor ladlari haqida tushuncha beriladi. Musiqqa tinglash yakkanavoz va jo'rovozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash kabilarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar ijrochiligini shakllantirishda musiqqa ijrochiligi, qo'shiq ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqqa: bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy – qo'shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, garmoniya, ritm-usul, sur'at, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay olish. Oddiy musiqqa shakllari: bir qismli

ikki qismli va uch qismli musiqa shakllari: ko'pletli, ronda, sonata, syuitalar haqida tushunchaga ega bo'lish. Musiqiy janrlar: ashula, raqs, vals, marsh, opera, balet, musiqiy drama, cholg'u musiqasi kontata, kvartet, simfoniya kabi janrlarni farqlay olish. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi, sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish. Xor ijrochiligi: bolalar, ayollar, erkaklar, xalq xorlari va davlat xorlari ijrochiligi bilan tanishish. Partiya ovozlari: soprano, alt, tenor, bas, ovozlarni farqlay olishga erishish muhimdir. Shuningdek, musiqa san'atining boshqa san'at turlari, me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik, adabiyot, kino, teatr kabi san'atlar bilan bog'liqligi. Ustozona, mumtoz musiqa: Sharq xalqlari, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, atoqli o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, atoqli o'zbek xalq sozanda va xonandalari, mashhur ansambllar, orkestrlar va xor jamoalari, shashmaqom va uning ijrochilari, o'zbek musiqasida mahalliy uslublar, ularning ijrochilari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, estrada musiqasi va uning ijrochilari haqida tushunchani dars jarayoni hamda darsdan tashqari amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshirish nazarda tutiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Milliy musiqa amaliyotida mahalliy uslublar va ularning mahalliy shevalari, boshqa madaniy-maishiy an'analari bilan bog'liqligi, har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish, Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik va b.q.)ni bilish ularning mahshur ijrochilari, ashulachilar, maqom haqida tushuncha, shashmaqom, cholg'u va aytim yo'llari. O'zbekiston sarhadida ustozona musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi ularning o'xshashligi va mosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish.

Ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'tish, kuylashda forte va piano dinamik belgilarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish, to'rt lokal mintaqada mavjud musiqiy mahalliy uslublarga ko'ra farqlay bilish, baxshilar ijrolarini cholg'u jo'rlari (do'mbira, dutor, tambur, tor) va ovoz ishlatish (bo'g'iq va ochiq) uslublarga ko'ra ajrata bilish, mashhur xalq qo'shiq-kuylari, kasbiy musiqa janrlariga doir ashula, katta ashula, doston ashulalarning ijro usullarini farqlay bilish. Mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar, ushshoqlarning mahalliy uslub variantlarini ajratish o'zbek klassik musiqasida

mahalliy uslub variantlarini ajratish, o'zbek klassik musiqasida mahalliy uslublarning mujassamligini anglash, vokal xor mashqlarini kuylashda berilgan intervallarini aniqlash, raqs ijodkorligini bajarishdan iborat.

Ta'lim mazmuniga qo'yilgan bu talablarning barchasi o'quvchilarning bilimini, ijodiy qobiliyatini o'stirishda, ularda musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, musiqa ta'limining barcha faoliyatlari umumiy musiqa ijrochiligi bilan bog'liqdir. O'quvchi tomonidan ijro etilayotgan cholg'u kuyi, dars davomida o'rganilayotgan qo'shiq ohangi bularning barchasi, o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantira borib, ularda mantiqiy fikrlash jarayonini yuzaga keltiradi.

O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqiy faoliyat turlarining barchasi birdek xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari davomida quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodi barcha faoliyatlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy qismi, musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini singdirib borishdan iborat.

XULOSA

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, o'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyatlarining o'rni alohidadir. Bu ikkala faoliyat bir-biriga uzviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa – o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

REFERENCES

12. Abralova M, Galiyeva D. Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi., 2008;
13. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001;
14. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiq» darsliklari T.,2008
15. Hasanov A. «Musiq va tarbiya». Toshkent., «O'qituvchi» .,1993;
16. Ismailov Tohir Xushnodbek o'g'li; «Formation of student aesthetic competition by teaching the works of Russian classic composers in music culture classes»; «Молодой ученый» №17 (359), апрель 2021 г. <https://moluch.ru/archive/359/80355/>.
17. Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). PI CHAYKOVSKIY “YIL FASLLARI” ASARINING MAZMUN-MOHİYATI BILAN TANISHISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1460-1475.
18. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» T., TDPU.,2008
19. Mansurov A, Karimova D. «Musiq» 5 – sinf uchun dasrlik. , Toshkent .;
20. Ismailov, T. K. (2021). THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE. *Экономика и социум*, (1-1), 93-95.
21. Kh, I. T. (2021). Musical currents and the formation of Russian classical music. *Вестник магистратуры*, (5-1 (116)), 7-8.
22. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.
23. Nishonova Z. T. «Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo'yicha psixologik maslahatlar berish», Toshkent., 1997;

O‘QUVCHILARNING MUSIQIY IJODKORLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI

D.I. Salimova

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchi bolalarning musiqiy ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda mustaqil fikrlashning nazariy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda pedagog hodimning vazifalari ham bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** ijodkorlik qobiliyati, mustaqil fikrlash, musiqa madaniyati, pedagog, ta’lim tizmi, o‘quvchi.*

THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT THINKING IN THE FORMATION OF STUDENTS 'MUSICAL CREATIVITY

ABSTRACT

This article discusses the theoretical significance of independent thinking in the formation of musical creativity of students. The role of the pedagogical staff in the formation of creative abilities is also described.

***Keywords:** creativity, independent thinking, music culture, pedagogue, education system, student.*

ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается теоретическое значение самостоятельного мышления в формировании музыкального творчества учащихся. Также описывается роль педагогического коллектива в формировании творческих способностей.

***Ключевые слова:** творчество, самостоятельное мышление, музыкальная культура, педагог, система образования, ученик.*

KIRISH

Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o‘rgatish istiqlool davri o‘zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. SHunga monand tarzda ta’lim oluvchi o‘quvchilarningt mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning

yangi va samarali yo‘llarini izlab topish faqat o‘qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirga qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda musiqiy bilim oluvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish borasida garchi yo‘l – yo‘lakay bo‘lsada, turlicha qarashlar mavjud. Masalan bazi bir olimlarning fikricha, ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish uchun o‘quvchilarning bilimini anglab o‘tish imkoniyatlarini rivojlantirib turli ilmiy axborotlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishga o‘rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

Musiqiy ta‘limning taniqli metodistlari fikricha, avval o‘quvchilarga tinglash uchun repertuar tanlash, muayyan musiqiy asarni ajratib olish, ajratib olingan asarni namunali ijrosi namoyish etilishi tavsiya qilinadi. Biroq olimlar o‘quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan qiyoslanib o‘quvchiga zarur maslahatlar berilishi lozimligini e‘tibordan chetda qoldirishgan. Bizningcha, tanlangan repertuardagi musiqiy asar o‘quvchi tomonidan ijro etilganda asarning har bo‘limi namunaviy ijro bilan bosqichma – bosqich qiyoslanib borishi lozim. SHundagina o‘quvchi o‘zining kamchiliklarini tez ilg‘ab oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqqa darslarida o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo‘llari.

Umumta‘lim maktablarida musiqqa tarbiyasini oshira borar ekanmiz, o‘qituvchi oldida o‘quvchilarni o‘z darsiga, musiqaga qiziqish va havas uyg‘otish vazifasi turadi. Maktabda ayniqsa boshlang‘ich sinflarda qo‘shiq aytish, musiqqa tinglashga nisbatan paydo bo‘lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning san‘atga bo‘lgan ijobiy munosabatlari va qolaversa yehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim o‘rin tutadi. Musiqqa darsi o‘z tabiatiga ko‘ra san‘at darsidir. Uning rang – barang sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o‘qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. Bolalarni san‘atga o‘rgatish nihoyatda murakkab hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib, chinakam san‘atga o‘rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o‘rinda musiqiy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faolligini ta‘minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushinish, uning orombaxsh ta‘siridan bahramand bo‘lish bilim, malaka va ko‘nikmalar qatori emotsional his – tuyg‘ularning ishtirokiga ham bog‘liq. Asarni ijro va idrok etishda his –tuyg‘ular qanchalik faol va chuqur bo‘lsa ularni tushnish va o‘zlashtirish, to‘yinish va zavq

olish ham shunchalik ongli va chuqur bo‘ladi. Bu holatlar o‘z o‘rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo‘ladigan jarayondir. Zero zerikarli va sokinlik xolati sinfda jonli hissiyot xolatini tashkil eta olmaydi. O‘quvchilarni darsga qo‘lqatirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tinglanadigan asarlar repertuari bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezonlari o‘quvchilarning yoshlariga, qiziqishlari bilim va ko‘nikmalar darajasiga mos bo‘lish, mavzuning rang – barangligi, g‘oyaviy – badiiy sifatini hamda pedagogik qimmatini bilan belgilanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, maktabda o‘quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mas keladigan o‘tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g‘oya va obrazlarini aks ettiradigan, o‘zining shakl va mazmuni bilan go‘zal va hayotbaxsh, nafis va hushohang asarlar yangrashi lozim. Zero, faqat mana shunday asarlarga o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas ug‘ota oladi, ahloqiy – estetik hissiyotlarini zarur bo‘lgan qobiliyatlarini o‘stirib boradi.

O‘quvchilarni darsga qiziqitirish darslarni naqadar qizitqarli, mazmunli, tushinarli va qolaversa, materiallarning rang – barang bo‘lishlariga bog‘liqdir. Musiqa asarlar, turfa tuskidagi ko‘rgazmali qurollar, musiqa haqidagi qiziqarli fakt va ma‘lumotlarga boy bo‘lgan, boshidan oxirigacha sust bo‘lmagan sur‘atda tashkil qilinadigan darslar o‘quvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Hozirgi davr dunyodagi g‘oyaviy qarama – qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura koligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda. Bu borada musiqa san‘ati xususan qo‘shiqchilik ikki buyuk san‘at – she‘riyat va musiqani o‘zida mujassamlashtirgani holda katta tarbiya quroliga aylanadi.

Turli metodik manbaalarda musiqiy bilim oluvchi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o‘rgatish borasida garchi yo‘l – yo‘lakay bo‘lsa – da turli qarashlar mavjud. Masalan, ba‘zi bir mutaxassislarining fikricha, ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimini anglab o‘tish imkoniyatlarini rejalashtirib turli ilmiy axborotlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishga o‘rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Ushbu nazariy qarashning ahamiyatlitomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o‘stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Musiqa darslarida o‘quvchilarni izlanishning eng qulay usullaridan biri musiqa mashg‘ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo‘lib, u quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi musiqi darslarini o‘quvchi tarbiyasiga ta‘sirini hisobga

olgan holda shartli ravishda guruhlarga ajratish zarur. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda o'quvchining musiqa foniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi ham ijro va taqqoslashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa darsning ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchining o'tilgan mavzusi yuzasidan bilimlavri tekshiriladi. Asar ijrosi o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib ta'kidma – ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlili qilinmog'i zarur. Musiqa ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ushida mustaqil ishlashga, o'rganayotgan asar yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishga undaydi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishitarbiyaga va qo'llab – quvvatlashga bog'liqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Musiqiy qobiliyatning ma'lum bir darajasiistalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan musiqiy tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi. O'quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlantirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning musiqa san'atiga bo'lgan munosabatlarini yanadao'stirish, turli san'at tadbirlarida ishtirok ettirish, olimpiadalar, san'at bayramlari, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish lozim. Musiqa ijodkorligi faoliyati musiqa o'qituvchisi ijrosiga doira, chertib jo'rovozlilik qilish, tavsiya etilagn kuy ohangiga mos harakatlar topish, berilgan she'r parchisiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyolari bilan bajariladi. Musiqa o'qituvchisi biror musiqani ijro etganda unga doira bilan sherik bo'lish, avvalo biror ijro etilgan kuyga chapak bilan jo'r bo'lishni o'rganishda boshlanadi. Chapak jo'r bo'lgan bola keyinchalik qoshiq, safoil kabi urma asboblarda jo'rovozlilikni o'rgangach doira bilan sekin -asta jo'rovozlilikni yaxshi o'rganib, asar ijrosiga qo'shilishga harakat qiladi. Qo'shiq ijro etayotgan vaqtda o'qituvchi qo'l harakati bilan odatda asarni ta'kidlash ya'ni qo'lini pastga tomon harakatlantirib kuchli hissani, yuqori tomon esa kuchsiz hissani ko'rsatib qo'shiq kuylatadi. Bolalar esa ana shu harakatga monand ravishda boshqa asarlarga dirijyorlik qilib, o'z iste'dodlarini ko'rsatish mumkin. Bolaning bu harakatlarini kuzatib turgan o'qituvchi dirijyorning mehnatini, buning uchun ko'p o'qish va yaxshi musiqiy bilimga ega

bo'lishi lozimligini o'quvchilarga tushuntirib borish kerak. Musiqa o'qituvchisi bolalar tomonidan ijod qilib kelingan kuyga, qo'shiqqa, raqsga, musiqa savodidan tuzilgan masalaga ijobiy munosabatda bo'lishi, ularning ijodini qo'llab – quvvatlashi va rag'batlantirib borish zarur. Bularning barchasi bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan mehrini yanada oshirishga ko'mak beradi. Musiqa darsida o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat jaarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqa o'qituvchisi darsda istisnosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. SHuningdek, o'quvchilarning o'zlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab – quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsining o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarini hosil qilishlari uchun zamin yaratadi. Musiqa darsi musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi. Go'zallik, daxldorlik tuyg'usini kompozitor yoki xalq musiqa asariga jo qilgan axloqiy – estetik mazmundan huzurlanishqobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir – biri bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi. Ayni vaqtda dars o'zining mazmuni metodlari va tashkil etilishi bilan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sin ko'rsatib, ularda ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirib katta tarbiyaviy qimmatga ega bo'lishi zarur. Darsda o'quvchilarni tarbiyalash o'qitish, rivojlantirish, ijodiy kamol toptirish, ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Biz musiqa pedagogikasining g'oyat muhim tamoyillaridan birdir.

Maktab o'quvchilarini professional musiqa faolitiga tayyorlaydi. Biroq musiqani tushunish uni idrok qilish va undan ijodiy tasirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatining g'oyat xilma – xil shakllarda musiqaviy – estetik faoliyatning asosiy biolimlariga, ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tirglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i lozim. Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilandan iborat.

1. musiqa darsiga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalarining kompleks tarzida amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlariga ta'sir o'tkazadi. O'quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijrochilik madaniyatini va ijodkorlik salohiyatini oshiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik irodavqiy fazilatlarini mehnatga munosabatini rivojlantiradi.

2. dars o'tilishini dars o'tilish shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishidan, darsning maqsadali va vazifalarini

belgilashdan, musiqiy materialni tushinitirish, mutahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo'ladi. Musiqfaviy faoliyat turlari o'zaro biri bilan bog'langan bo'lishi va bir – birini to'ldirish kerak.

3. dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi: u tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy tushunish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarini puxta va ongli tarzda o'zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko'nikmalarini shakllanishiga, erkin ijod qilishga yordam beradi.

Musiqa darsi ta'lim berishdan tashqari tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ular o'quv materiallarining mazmuni bilan ham shuningdek, maktab o'quvchilari shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi, tarbiyaviy vazifalar shaxsning axloqiy, irodaviy intellektual, emotsional fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dars o'quvchilarni tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi.

Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijodkorligini vazifalari ham qo'yiladi. Bu birinchi navbatda maktabda musiqadan ta'lim berishni faol shakli bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytishga taaluqlidir. CHuqur halq an'alariga ega bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytish faqat musiqa qobiliyatlarini emas, balki karakter sifatini dunyoqarashni, badiiy didini, fantaziyani, estetik tuyg'uni ham rivojlantiradi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan ishlarning xilma – xil shakllarni qo'shiq ijro etishni musiqa savodini, muisaqni idrok qilishni, musiqa saboblrida chalishni, vokal ijodkorligini o'zida birlashtiradi. Musiqa asarining mazmunini tushunish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek, uning maxsus – tayyorgarlik egnaligiga bog'liq bo'lib, maxsus tayyorgarlik o'z navbatida tinglovsi e'tiborning faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchilarning idroki bayroq bo'ladi. Musiqanit tushinadigan o'quvchi badiiy didining yuksak darajasi bilan ajralib turadi, musiqa shaklining o'ziga xos tomonini, mazmunini, musiqani rivojlanish tarixini tushuish asosida tinglovchi sifatda katta tajribaga ega bo'lish, musiqaviy – ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish asosidagina musiqa asarini to'laonli idrok qilish mumkin.

XULOSA

Shuni ham bilish zarurki, o'qituvchi o'z obro'yiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega darsga kiriladigan barcha sinflarda o'quvchilar o'z o'qituvchilariga tanqidiyts ko'z bilan qaraydilar .ba'zi o'qituvchilarning dilimi va yaxshi sifatleri uchun hurmatъ

qilsalar boshqalarning shu xususiyatları bo‘lmashganlagi uchun hurmat qilmaydilar. Musiqa o‘qituvchisi cholg‘u asbobini jozibali chalsa, qo‘shiqni yoqimli kuylasa, musiqa janrlari va kornpozitorlar haqidaigi hikoyalavri bolalarni maftun etsa, 45 daqiqalik darsda o‘zining o‘qituvchilik rolini qoyilmaqom qilib ijro etsa, har fanday vaziyatda bolalar bilan ijdiy va iijobiy munosabatlar o‘rnatib, boalarlar qalbiga yo‘l topa olsa, bunday o‘qituvchi bolalar mehriqa muyassar bo‘ladi.

REFERENCES

1. Abralova M, Galiyeva D. Qo‘shayev A. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi., 2008;
2. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001;
3. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiqa» darsliklari T., 2008
4. Hasanov A. «Musiqa va tarbiya»., Toshkent., «O‘qituvchi» ., 1993;
5. Ismailov Tohir Xushnodbek o‘g‘li; «Formation of student aesthetic competition by teaching the works of Russian classic composers in music culture classes»; «Молодой ученый» №17 (359), апрель 2021 г. <https://moluch.ru/archive/359/80355/>.
6. Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). PI CHAYKOVSKIY “YIL FASLLARI” ASARINING MAZMUN-MOHİYATI BILAN TANISHISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1460-1475.
7. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» T., TDPU., 2008
8. Mansurov A, Karimova D. «Musiqa» 5 – sinf uchun dasrlik. , Toshkent .;
9. T. Ismailov; “THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE” "Экономика и социум" №1(80) 2021;
10. T. Kh. Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);
11. Shakhlo Khakimovna Kharatova “USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS” Science and Education ISSUE 3, March 2022;
12. Nishonova Z. T. «Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo‘yicha psixologik maslahatlar berish», Toshkent., 1997;

ANALYSIS OF THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCE

Shakirova Dilfuza Zaidovna

Teacher Of The Department Of Uzbek Language And Literature,
Tashkent State University Of Oriental Studies, Uzbekistan

ABSTRACT

This article analyzes the formation of linguistic competence in foreign language teaching in higher education institutions and its stages of gradual development as a necessity. The importance of lexical skills in the context of interdisciplinary relations as an integral part of the lexical competence of a foreign language is emphasized, their specificity and conditions of formation are described, based on the advantage of structured lexical competencies of a foreign language on an interdisciplinary basis. This involves taking into account the linguistic characteristics of the students as well as the educational and cognitive activities.

Key words: *speech situation, linguistic competence, lexical skills, vocabulary, dynamic unity, professional process.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется формирование языковой компетенции при обучении иностранному языку в вузе и этапы ее поэтапного развития как необходимости. Подчеркивается значение лексических навыков в контексте межпредметных отношений как составной части лексической компетенции иностранного языка, описываются их специфика и условия формирования, исходя из преимущества структурированных лексических компетенций иностранного языка на межпредметной основе. Это предполагает учет языковых особенностей учащихся, а также учебно-познавательной деятельности.

Ключевые слова: *речевая ситуация, языковая компетенция, лексические навыки, лексика, динамическое единство, профессиональный процесс.*

INTRODUCTION

It is known that the modern concept of higher education implies the organization of educational culture based on a set of basic competencies of a general cultural and professional nature and necessary in the relevant areas of activity. The tasks facing students in modern conditions are formed on the basis of professional vocabulary as mastering all types of speech activities, as well as mastering professional communication skills.

Foreign language lexical competence is the linguistic basis of professional and communicative competence. They can be considered as a dynamic unit: lexical competence is formed in the process of students' communicative activity and improves with the development of lexical competence, i.e. their formation is interrelated.

Professional linguistic competence is a holistic concept that represents the ability of students to apply relevant vocabulary, skills and competencies formed on its basis, knowledge speech experience in different situations related to their future professional activity.

Research methods: The main purpose of teaching a foreign language at all stages of education in the Republic of Uzbekistan is the formation of communicative competence in students. Communicative competence is the ability to apply the knowledge, skills and competencies acquired in a foreign language in the process of communication.

Given the natural integration of lexical competence into the linguistic component of this article, we will focus on the knowledge, skills, and competencies needed to understand a foreign language participant in dialogue and create a unique model of speech behavior. To do this, the basic concepts of linguistics (methods, types, methods of linking sentences in the text, etc.) must be properly analyzed, analyzing the text and knowing the skills and communication skills, ie oral communication in relation to different areas and situations of communication skills need to be formed gradually. Communicative competence is the ability to exercise linguistic competence in different contexts of speech interaction, taking into account social behavioral norms and the communicative expediency of expression. A leading component in the process of forming communicative competence are speech (communication) skills and abilities, which in turn include expression and skills in all types of speech activities.

Linguistics is a set of words and combinations of lexical units that are functionally similar to them. The second is that things, events, words capable of naming their characters, stable expressions, or other linguistic units, so the concepts of "lexical unit" and "word" are synonyms, and here they are interchangeable. Specialty literature serves as the basis for a professional dictionary, and we teach students about the acquisition of a particular vocabulary in a professional field, in the field of their specialization, a vocabulary consisting mainly of terms we can talk.

In the context of this article, it is important to explain the concept of “terminological dictionary”, which, as a rule, has a single meaning and is applied in the field of professional activity, giving clear concepts regardless of the context.

Against the background of definitions and emphasis on the lexical component of the linguistic basis of communicative competence, it is necessary to distinguish between the concepts of "linguistic competence" and "linguistic competence" semantically, taking into account their interrelationship .

In the traditional interpretation, the essence of linguistic competence is a set of known elements that are interrelated. Language competence is defined as a set of knowledge, skills and competencies implemented in the process of activity (communication), the ability to change information in accordance with personal communication tasks, a set of rules for language analysis and synthesis. Sentence construction and analysis are units that allow the use of the language system for communication purposes.

In contrast to language competence, lexical competence is the acquisition of lexical knowledge, skills, and competencies that determine students' ability to find the contextual meaning of a word, compare its meaning in two languages, and use the word in the appropriate context. In other words, it is the organization and interdependence of learners 'vocabulary acquisition efforts with lexical units; it is to know the meaning of a lexical unit, its graphic structure and pronunciation, the grammatical forms of a word, and the rules of association with other lexical units.

Despite the definitions presented, the concept of “lexical competence” was incomplete, if it only covered lexical knowledge and skills, so lexical competence as a complex, structural formation would affect students 'linguistic, speech experience, and personal quality. also includes.

In the formation of foreign language linguistic competence, some researchers (A.E.Sizemina, A.N.Shamov) have conditionally distinguished several levels, based on which the process of forming the ability of students to solve communicative problems related to the practical use of a foreign language dictionary speech activities are used based on the knowledge, skills and abilities acquired.

Linguist V.D. Chernyak describing the linguistic competence of the native speaker, speaks about the following features that can determine its level of development: the degree of freedom of speech, which is manifested in the communication process, this description can be linked to students' foreign language lexical competence [8,100 -b]. The level of development of communicative competence and the communicative abilities of students in general are largely

determined by the capabilities of lexical resources. It is it that ensures the freedom and effectiveness of communicative behaviors, the ability to fully comprehend and activate incoming information.

According to, linguist A.N Shamov the formation of linguistic competence begins primarily with the accumulation of empirical knowledge - is to observe the functioning of lexical units in different communicative contexts (oral and written) . At this stage, the presentation and somatization of the new dictionary is organized - students gain an idea of the sound and graphic representation of the lexical unit, the relationship between the word in a foreign language and its meaning is formed. Students will have the skills to identify lexical units in the communicative situations presented.

The third level of formation of linguistic competence is related to the acquisition of theoretical knowledge about the lexical system of the target language, i.e. expanding students 'linguistic experience. This level involves the formation of skills by students to identify the shape, structure, and semantic properties of a word, contributing to the creation of stronger verbal-semantic connections. At this progressive level, the formal aspects of the language being studied are mastered, which helps to develop students philological outlook.

The final, fourth level of formation of linguistic competence involves the development of skills in the use of lexical units to solve various communication tasks, viz. tasks, the solution of which requires students to use previously acquired or learned language tools and individual speaking experience. This qualification degree is related to the implementation of practical actions with a dictionary in a foreign language, assumes the use of the necessary language knowledge, speaking skills and abilities, solves various communication tasks in accordance with the communication conditions aimed at doing.

RESULT AND DISCUSSION

Linguistic competence is the ability to use knowledge and vocabulary consisting of lexical and grammatical elements of language. In the process of forming lexical competence in a foreign language in a non-linguistic university, attention is paid to interdisciplinary relations as a condition for the effectiveness of the formation of relevant competence, which implies professionalization of teaching in the sense of reflecting teaching. The specific features of the university or faculty within it. Given the factor of interdisciplinary communication, students 'professional lexical competence in a foreign language is a set of knowledge, skills and competencies

formed in the learning process as the ability to use active vocabulary independently in the interaction of oral speech. Previous mental activity (mnemonic work outcomes) expressed in the presence of knowledge and skills in certain disciplinary aspects that contribute to the formation of stable verbal-semantic connections as a result of associative-mental activity in the temporal aspect .

A foreign language professional linguistic competence can be defined as a resource quality that provides a special type of organization of students' knowledge and experience in the interpretation of certain knowledge acquired by the subject of educational activity. In the consistent formation of professional communicative competence in the profession-oriented intelligence, in the ability to engage and interconnect professional linguistic knowledge, in the process of interaction of oral speech is relevant to the implementation of the filling of oral structures ability and the ability to apply it. In this regard, as a conditional factor of relevant influence in the context of interdisciplinary relations, it is necessary to emphasize the quality of the full basis of linguistic skills and competencies as an integral part of the linguistic competence of foreign languages. It is interdisciplinary as an important feature and superior feature of relevant skills and competencies.

Novelty of the article: The complex scientific quality of lexical skills is based on the transfer of semantic associations to the conditions of this learning and cognitive activity, which is present in both speech and cognitive experience of students, and is a characteristic feature of lexical skills formed on an interdisciplinary basis. . As a complex feature, it is effective in strengthening features such as lexical skills such as awareness, which means that there is a hidden rule in the minds of students and stability in fulfilling the ability to apply this rule in a difficult situation. Necessary speech practices, which are determined by the strength of lexical connections, are performed as complex process structures that underlie speech-thinking activity and perform psychophysiological interventions on verbal stimuli (linguistic units). Formation of such skills are the use of the mechanism of similarity and comparison, involuntary memorization, the regularity of the pattern falling on the brain of students, the complexity of mastering (combination of auditory, visual and motor images) meaningful imitation.

Formation of professional lexical competence of a foreign language is one of the important directions of improving the quality of language preparation of students. In order for university students who are non-philological to achieve a high level of formation of lexical competence, it seems necessary to work to ensure the sequence of appropriate stages of its formation in the learning process and the organization of

mastery. On the basis of interdisciplinary connections applied taking into account linguistic features, the linguistic material of the lexical material is also reflected in the knowledge, speech-thinking and educational activities of students .

Performing a nominative function and providing speech with meaningful material, vocabulary seems to be a unique phenomenon in terms of the range of functions it performs. Mastering vocabulary richness helps students develop a linguistic worldview. The meaning of lexical unity reveals the culture of another country, its history and the peculiarities of life. Therefore, the communicative activity-oriented approach has educational, general and communicative features and helps to increase the cognitive activity in the learning process.

CONCLUSION

Achieving a high level of development of linguistic competence is manifested in the ease with which a person can use direct lexical resources in direct and indirect communication, adequate use of phraseological expressions, proverbs, words specific to the speech of native speakers. Vitol A.B wrote, "... just as you cannot build a house without bricks, you cannot master a language without mastering the required number of words." The content is that the learning competence is a set of competencies for the study of foreign languages and cultures in the independent learning activities of the learner, the logical, methodological and general aspects associated with the use of modern educational technologies. 'lim includes tasks. Foreign language teaching is based on didactic, methodological, linguistic principles and the use of modern educational technologies.

The existence of special tasks in all forms of international examinations aimed at assessing the ability to use vocabulary in different types of speech activities also indicates the recognition of the special importance of lexical material mastery. This will help students establish a new vocabulary, ideas about the sound and graphic representation of a particular lexical unit, and the connections between a word in a foreign language and its meaning.

REFERENCES.

1. Shokirova Ddilfuza Zoidovna, & Ochilova Nilufar Kabilovna. (2021). Issues Of National Methodological Identity And Expression Of National Color In Translation. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(02), 383–390. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue02-60>
2. Daniyarov B. Issues of formation of basic competencies in teaching subjects in general secondary education 2016 y.

3. Shokirova Ddilfuza Zoidovna, and Ochilova Nilufar Kabilovna. "Issues Of National Methodological Identity And Expression Of National Color In Translation". *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, vol. 3, no. 02, Feb. 2021, pp. 383-90, doi:10.37547/tajssei/Volume03Issue02-60.
4. Zilola Xabibullayevna Abidova (2022). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TAFAKKUR FE’LLARINING TAHLILI. *Scientific progress*, 3 (2), 736-739.
5. Rishatovna B.K., Utkurovna I.G, Habibullaevna A.Z, Maratovna K.Z, Kakhramonovna M.D. "Modern foreign popular music as a means of teaching an english language to students of a non-linguistic profile." *International journal of psychosocial rehabilitation*, (2020). ISSN: 1475-7192.
6. Akramxodjaeva, D., M. Nasretdinova, and M. Abdullayeva. "Translation of national events and concepts in fiction." *International Journal of Scientific and Technology Research* 9.2 (2020): 2984-2986.
7. Zilola Xabibullayevna Abidova INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TAFAKKUR FE’LLARINING TAHLILI // *Scientific progress*. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-o-zbek-tillaridagi-tafakkur-fe-llarining-tahlili> (дата обращения: 23.04.2022).
8. Abbasovna, Saidova M., and Mukhammadieva N. Ayubovna. "Some Deficiencies in the Development of Oral Speech Through Listening." *JournalNX*, vol. 6, no. 09, 2020, pp. 146-149.
9. Mukhammadieva, N. A. (2021). DEVELOPMENT OF SYNCHRONICAL TRANSLATION METHODS IN EUROPEAN COUNTRIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 173-182.
10. Saidova, M. A. (2021). WAYS TO EVALUATE THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND ITS FORMATION. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 168-172.

HUDUDLARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI AMALGA OSHIRISHDA TUMANLARNING O‘RNI (NORIN TUMANI MISOLIDA)

Ismoilova Sarvinoz Qahramon qizi

Namangan davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

noz98.98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda tumanlarning o‘rni haqida gap boradi. Bunda Namangan viloyatining Norin tumani misol qilib olingan. Maqolani tayyorlash jarayonida iqtisodiy ko‘rsatkichlar 2019-yil 1-iyun holatiga ko‘ra olingan.

Kalit so‘zlar: Kapitalizm, xalqaro tashkilotlar, AJ, korxonalar, mikrofirmalar, xorijiy kapital, investitsiya, shirkat xo‘jaliklari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль районов в реализации программ социально-экономического развития. Примером может служить Нарынский район Наманганской области. На момент написания экономические показатели приведены по состоянию на 1 июня 2019 года.

Ключевые слова: Капитализм, международные организации, АО, предприятия, микрофирмы, иностранный капитал, инвестиции, компании.

ABSTRACT

This article discusses the role of districts in the implementation of socio-economic development programs. An example is the Naryn district of the Namangan region. At the time of writing, economic figures are as of June 1, 2019.

Keywords: Capitalism, international organizations, joint-stock companies, enterprises, micro-firms, foreign capital, investments, companies.

KIRISH

"Marksizmning kapitalizm oldida yengilishining eng katta sababi - kapitalizmga katta baho berganida edi. Chunki katta baho berilgan hamma narsa, o‘ziga berilgan katta baho bilan yanada kuchli bo‘lib ketadi. Kuchli bo‘lgan narsani yiqitish esa, juda mushkul ishdir. Kapitalizmni kapitalga katta baho bermagan insonlarga yiqita oladi. Chunki, kapitalizmga katta baho bermagan insonlarga kapitalizm ta'sir qilmaydi va kapitalizm ularga hech narsa qildiradi olmaydi. Shu bilan birga, xalqaro shirkatlarga bog‘liq bo‘lgan kapitalizmni tahlil qilib chiqsangiz, ikki oyoq ustida tik turishga

majbur bo'lgan ushbu hayvonning bir oyog'i ishlab chiqarishning ustida, ikkinchi oyog'i esa, iste'mol qilishning ustida ekanligini ko'rasiz. Insonlarni ochiqchasiga qonini so'rayotgan bu kapitalizmga qarshi kurashmoqchi bo'lgan inson, avvalo, ikki oyoqdan qaysi biri bilan, qanday kurashishini oldindan belgilab olishi kerak. Bugungi kundagi bilim va texnologiyalar kimlarga xizmat qilayotganini e'tiborga olsak, kapitalizmga qarshi ishlab chiqarish sohasida kurashga va raqobatga kirishish, uni zaiflashtirmaydi, aksincha, yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Chunki ishlab chiqarishning umumiy nazorati xalqaro shirkatlarning qo'lida. Ishlab chiqarish sohasini bir piramida deb, tasavvur qiladigan bo'lsak, bu piramidaning eng pastidagi ishlab chiqaruvchi o'n lira topsa, undan tepadagisi yigirma, undan ham tepadagisi esa qirq lira foyda topadi. Biz pastki pog'onada o'n lira foyda topsak, biz qilgan ishdan yuz lira foyda topadiganlarni zaiflashtirishimiz va ularning zulmiga to'sqinlik qila olishimiz juda mushkul. Yana ham ochiqroq aytadigan bo'lsak, bu dunyodagi bechora insonlar ishlab chiqarish sohasida kapitalizm bilan bellasha oladigan ahvolda emas. Lekin bu hayvonning ikkinchi oyog'i bo'lmish iste'mol qilish sohasi esa, unday emas. Iste'mol qilish sohasining asl egalari dunyodagi bechoralardir. Ular iste'mol qilish kuchi o'z qo'llarida bo'lishiga qaramay, kapitalizm sohiblari ularni media va reklama orqali o'zlarining xohlagan ko'chasiga yetaklab kirmoqda. Vaholanki, xalqaro kapitalizmga qarshi tura oladigan va uni yo'q qila oladigan yagina soha - iste'moldir. Barcha insonlar bir yoqadan bosh chiqarib, bor kuchlari bilan harakat qilsalar, kapitalizmning yer bilan yakson bo'lishiga erishadilar...

Masalan, Coca-Cola ichimligini olaylik. Dunyodagi bechora insonlar ishlab chiqarish va marketing sohasida Coca-Cola bilan ellik yil kurashsalar ham, hech narsaga erisha olmaydilar. Lekin bu kurashni ishlab chiqarishdan iste'mol qilish sohasiga o'zgartirsalar va ellik kun Coca-Cola ichmay qo'ysalar, bu ulkan xalqaro shirkatning ayyuhannoslarini o'z quloqlari bilan eshita boshlaydilar. Chunki iste'mol qilinmagan mahsulotni ishlab chiqarishdan hech qanday ma'no yo'q".

Bu Mahmud Olaqoshning "Hayotimni o'zgartirgan olov" nomli asaridan iqtibos edi. Mazkur fikrlar muallifning o'ziga tekishli. Olaqoshning mulohazalari qanchalik to'g'ri?! Menimcha ham u haq. Katta gegemon korxonani misol qilib keltirilishi ham hayotga yaqin. Sababi, barchamiz shu ichimlikdan iste'mol qilamiz. Bayramlarimizda, albatta, Coca-Cola ichimligi dasturxonga tortilishi shart. Vaholanki, o'zimizda ham o'zimizning mahalliy ichimliklarimiz yo'q emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Respublikamizda dunyo standartlariga javob bera oladigan va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni eksport qilish va bu orqali iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ko'zni quvontiradi, albatta. Jumladan, Namangan viloyatining Norin tumanida ham shu kabi chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Raqamlarga murojaat etishdan oldin, tuman haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Norin tumani Namangan viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan tumandir. Mazkur tuman aholisi 2019-yil yakunlariga ko'ra 158,3 ming kishini tashkil etadi. Ma'muriy markazi Haqullobod shaharchasi hisoblanadi. Tumanga 1926-yilda asos solingan. Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Bu yerda sanoat, transport, aloqa va non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Shirkat xo'jaliklari paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik va pillachilik bilan shug'ullanadi.

Tumanda "UzTex Norin" aksiyadorlik jamiyati, "Norintex" AJ, "Norin paxta tozalash" AJ va boshqa korxonalar mavjud. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i - paxtachilik. Shuningdek, tumanda to'qimachilikka ixtisoslashgan O'zbekiston - Litva "Klayna-Tekstil", "Haqullobod-PIK" (2009), "Norin Mechanical Plant" qo'shma korxonalari ishlab turibdi.

Raqamlarga nazar soladigan bo'lsak, Norin tumani viloyatdagi yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. 2019-yil ko'rsatkichlari bilan qisqacha tanishib chiqsak. Tumanda ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni 1064 tani tashkil etmoqda. Fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari tumanda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1051 tani tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar esa 197 ta.

Namangan viloyatida 2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 173 tani tashkil etdi. Bu davlatlar: Rossiya, Koreya, Turkiya, Xitoy, Qozog'iston va boshqalar. Hududlar kesimida esa Norin tumanida 7 ta korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) ning salmog'i tumanda pastroq. Viloyat bo'yicha tumanning ulushi 4,0% ga teng. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni esa 191 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar esa 18 ta.

Tumanda iqtisodiyotimizning rivojiga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, kuni kecha xitoylik investor faoliyati qo'llab-quvvatlandi. Viloyat hokimi Shavkatjon Abdurazzaqov ishtirokida tumanda yangi tashkil etilgan "SHAANXI COAL-CHEMICAL NAMANGAN CONSTRUCTION CO" MChJ shaklidagi xorijiy

korxonalar rahbari janob Mu Anin va uning Norin tumanidagi vakili Li Jianjun hamda tuman hokimi Dilmurod Kadirov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda xorijiy korxonalar rahbari tomonidan Norin tumanida qurilish sohasining ko‘p qavatli uylar, ko‘priklar, yo‘l qurilishi, kanalizatsiya tarmoqlarini tortish sohalarida zamonaviy Xitoy texnologiyalarini joriy etgan holda yangi loyihalarni amalga oshirish takliflari bildirildi.

Muzokaralar davomida viloyat hokimi xorijiy korxonalar vakiliga ushbu loyihalarni amalga oshirish va kelgusida viloyat miqyosida amalga oshiriladigan yirik qurilish loyihalari jumladan, "NAMANGAN CITY" kabi yirik loyihalarda ishtirok etishiga taklif etdi va kelgusida korxonaning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tumanning ajoyib geografik joylashuvi mavjud. Tumanning g‘arbiy chegaralari bo‘ylab Qoradaryo oqib o‘tadi. Relefi past-baland tekkisliklardan iborat. Tuman hududining shimolidan janubga tomon katta Andijon kanali kesib o‘tadi. Tumanning janubiy g‘arbiy tomonidan Qoradaryoning eski o‘zanidan o‘tadigan Qolgandaryo barcha sizot suvlarini yig‘ib Qoradaryoga quyiladi. Shu va shunga o‘xshash tumanning geografik afzalliklarini hisobga olgan va suv rezervlaridan oqilona foydalangan holda yana yangi ishlab chiqarish sohalarini yaratish mumkin. Qo‘shni davlatlar bilan ham hamkorlikni yanada mustahkamlash bu yo‘lda nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.

REFERENCES

1. Mahmud O‘laqosh. "Hayotimni o‘zgartirgan olov".
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Norin_tumani_\(O%CA%BBzbekiston\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Norin_tumani_(O%CA%BBzbekiston)).
3. <https://namstat.uz>

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA HARBIY TRANSPORT VA YUKLARNI TASHISHGA OID BAJARILADIGAN TADBIRLAR

Voxidjon Erkinovich Shaxobidinov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi,
rezervdagi podpolkovnik
e-mail: voso uz71@gmail.com
telefon: +99897 740-10-57

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hozirgi kunda turli davlatlarda kechayotgan urushlar, milliy nizolarni o‘z vaqtida oldini olish yoki mamlakatga bostirib kirishga urungan terroristik tashkilotlar hamda dushman davlatlar qo‘shinidan mudofaalanishda Temir yo‘l transportida harbiy transport va yuklarni tashish yo‘l yo‘riqlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, bu tadbirlarda qanday yo‘l tutish kerakligi va bu yo‘l yo‘riqlarga amal qilish naqadar samarali ekanligi haqida fikr yuritimiz.

Kalit so‘zlar: *Rossiya-Yaponiya urushi, Harbiy eshelon, Harbiy transport, komandirlar (boshliqlar) va shtablar, temir yo‘l, dengiz, daryo va havo transporti, ko‘priklar va tunnellar, Harbiy yuk, tashish, yuk ortish va tushirish, jangovar yordam, intizom, xulq-atvor qoidalari va xavfsizlik choralari.*

ABSTRACT

This article focuses on the current war in different countries, the prevention of national conflicts or terrorist organizations that try to invade the country, as well as the training of military transport and cargo transportation in rail transport, how to proceed in these activities and how to do it. we think about how effective it is to follow the instructions.

Keywords: *Russian-Japanese War, Military Echelon, Military Transport, Commanders (Chiefs) and Staffs, rail, sea, river and air transport, bridges and tunnels, military cargo, transportation, loading and unloading, combat assistance, discipline, rules of conduct and safety measures.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье основное внимание уделяется текущей войне в разных странах, предотвращению национальных конфликтов или террористических организаций, которые пытаются вторгнуться в страну, а также обучению военно-транспортных и грузовых перевозок на железнодорожном транспорте,

как действовать в этих мероприятиях и как делаем это, думаем о том, насколько эффективно следовать инструкциям.

Ключевые слова: Русско-японская война, Военный эшелон, Военный транспорт, Командиры и штабы, Железные дороги, Морской, речной и воздушный транспорт, Мосты и тоннели, Военные грузы, Перевозки, Погрузка и разгрузка, Боевое обеспечение, Дисциплина, Правила поведения и техника безопасности.

KIRISH

Qo‘shinlarning harakati ularning jangovar faoliyatida katta o‘rin tutadi va dushman ustidan g‘alaba qozonishni belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Qo‘shinlar marsh bilan harakatlanadi, ya‘ni o‘z kuchi ostida, shuningdek, temir yo‘l, havo va suv transportlari orqali ham shaxsiy tarkib va harbiy yuklar tashiladi. Qo‘shinlar tashish jarayonlarida har qanday harakat vositalariga doimo tayyor bo‘lishi kerak. Rossiya-Yaponiya urushi davrida 5227 ta poezd, Birinchi jahon urushi davrida 119362 ta poezd, Ulug‘ Vatan urushi davrida 419157 ta poezd (19 mln vagon) lar bilan harbiy yuklar tashilgan⁶⁰. 1945-yil bahorida Sovet Ittifoqi Qurolli Kuchlarining Oliy qo‘mondonligi g‘arbiy operatsiyalar teatridan Uzoq Sharqqa temir yo‘l orqali qo‘shinlarni katta tashishni amalga oshirdi. Qisqa vaqt ichida 12 ta korpus, 39 ta diviziya va brigadalarni o‘z ichiga olgan 3 ta qo‘shma qo‘shinlar va bitta tank armiyasi bitta temir yo‘l bo‘ylab joylashtirildi. Hammasi bo‘lib 800 ga yaqin T-34 tanklari va boshqa ko‘plab harbiy texnika tashildi⁶¹. Ushbu qayta guruhlash natijasida Uzoq Sharqdagi qo‘shinlarimizning jangovar kuchi Yaponiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlanishi bilan deyarli ikki baravar oshdi. Bu davrda harbiy temir yo‘l tashishning umumiy hajmi 135 ming 456 vagondan ortiq turli yuklarni tashkil etdi.

Zamonaviy sharoitda qo‘shinlar harakatining tezkorlik bilan qaror qabul qilish ahamiyati urushda beqiyos rol o‘ynaydi.

Urush davrida amalga oshiriladigan harbiy tashish tadbirlari komandir va shtablar, harbiy harakatlar (yo‘l organlari) va transport organlaridan harbiy tashish tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish davomida puxta hamkorlik olib borilishi va ijrochilik saviyasi nihoyatda yuqori bo‘lishini, shu jumladan, ta‘minotning barcha turlariga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rilishini taqozo etadi.

Qo‘shinlarni temir yo‘l, dengiz, daryo va havo transportida tashish harbiy nizomlar, shuningdek harbiy tashish qoidalari, yo‘riqnomalar va tegishli vazirliklar

⁶⁰ «История Русско-Японской войны». Том 1. Редакторы-издатели: М. Е. Бархатов и В. В. Функе.

⁶¹ Кокцинский И. М. Морские бои и сражения русско-японской войны, или причина поражения: кризис управления. — 2-е изд. — Фонд Андрея Первозванного, 2002. — 436 с.

bilan kelishilgan boshqa normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday tashishlar eng yuqori tezlikda amalga oshirilishi kerak. Belgilangan muddatlarda qo‘shinlar harakatini amalga oshirish, tashish bilan shug‘ullanadigan mansabdor shaxslarning eng muhim vazifalaridan biridir. Qo‘shinlarni tashish vaqtini o‘zgartirish faqat harbiy harakatlar organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qo‘shinni tashishda harbiy transportni va buni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan tashilayotgan qo‘shinlarning mansabdor shaxslari, harbiy harakatlar organlari va transport mansabdor shaxslari ushbu qo‘llanma talablarini bilishlari va ularga rioya qilishlari shart⁶².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Harbiy harakatlar organlari mansabdor shaxslarining qo‘shinlarni tashish masalalari bo‘yicha ko‘rsatmalari barcha harbiy xizmatchilar tomonidan bajarilishi kerak. Tashish bilan bog‘liq barcha masalalar olib borilayotgan qo‘shinlarning mansabdor shaxslari tomonidan harbiy aloqa organlarining vakillari orqali, ular bo‘lmaganda esa stansiyada transportdagi mansabdor shaxslar orqali hal qilinishi kerak.

Harbiy eshelon - bir poezdda, bir yoki bir nechta bo‘linmalarda tashish uchun tashkil etilgan harbiy qism, katta harbiy jamoa - bir yoki bir nechta yo‘lovchi yoki yo‘lovchi vagonlari zarur bo‘lgan jamoa. Qurol-yarog‘ va harbiy texnika, qo‘riqchilar himoyasi ostida, ba’zi hollarda harbiy eshelonlar tomonidan tashilishi mumkin. Harbiy eshelon jangovar topshiriqni bajarishga doimo shay holatda bo‘lishi kerak.

Harbiy transport - bir jo‘natuvchi tomonidan bitta qabul qiluvchiga bir yoki bir nechta vagon miqdoridagi harbiy yuklarni bir martalik jo‘natish. Har bir harbiy eshelonga, harbiy jamoaga va harbiy transportga harbiy aloqalarni rejalashtirish organi tomonidan shakllanish joyidan belgilangan punktgacha (shu jumladan bir transport turidan boshqasiga qayta yuklashda) o‘zgarmaydigan raqam beriladi.

Bir poezdda bir nechta harbiy eshelonlarni tashishda ularning har biri o‘z tashkiliyiligini va belgilangan raqamini saqlab qoladi. Harbiy eshelon bir nechta poezdlarga qayta yuklangan taqdirda, uning bo‘linmalari – tegishli harf qo‘shilgan holda bir xil eshelon raqamini saqlab qoladi.

Harbiy qismni yuklashdan oldin boshlang‘ich zona, kutish zonasi va tushirishdan keyin yig‘ish, konsentratsiya zonasi, shuningdek asosiy va muqobil yuklash (tushirish) joylari, shu jumladan har birida bir nechta yuk ortish (tushirish)

⁶² перевозок пассажиров, багажа и грузобагажа железнодорожным транспортом Республики Узбекистан

temir yo‘l stansiyalari belgilanadi. Harbiy qismning (bo‘linmaning) joylashgan hududi yuklash zonasiga yaqin bo‘lsa, boshlang‘ich hudud belgilanmasligi mumkin.

Yuk yuklashdan oldin qo‘shinlar harbiy eshelonlar (jamoalar) o‘rtasida taqsimlanishini hisobga olgan holda, shuningdek, yuklash joylariga o‘tish tartibini hisobga olgan holda boshlang‘ich hududda joylashtiriladi. Yuklashdan oldin darhol bitta poezdda tashiladigan bitta harbiy eshelonning bo‘linmalari (jamoalar) boshlang‘ich hududdan yoki bo‘linma joylashgan joydan kutish joyiga, tushirishdan so‘ng esa yig‘ish, konsentratsiya zonasiga to‘planadi⁶³.

Temir yo‘l kesishmalari, ko‘priklar va tunnellar vayron bo‘lgan taqdirda tashishning uzluksizligini ta‘minlash uchun harbiy harakatlar yo‘nalishlarida vaqtincha yuk tashish joylari o‘rnatiladi. Yuklash joylarini himoya qilish (tushirish, qayta yuklash), shuningdek bo‘linmalarning yuklash punktlariga chiqish yo‘llari qism komandirining qarori bilan belgilanadi.

Harbiy eshelonlarni yuklash (tushirish) uchun doimiy yoki vaqtincha tashkil etilgan harbiy yuklash va tushirish joylari, shuningdek umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan yuklash va tushirish joylari ishlatilishi mumkin.

Harbiy yuk tushirish va tushirish joyi deganda qo‘shinlarni yuklash (tushirish) uchun mo‘ljallangan tuzilmalar va qurilmalar (shu jumladan, maxsus qurilmalar) to‘plami tushuniladi.

Tashishni o‘z vaqtida amalga oshirish va harbiy eshelonlarning (jamoalarning) jangovar topshiriqni bajarishga tayyor holda tushirish maydoniga kelishi uchun quyidagilar zarur:

- **komandirlar (boshliqlar) va shtablardan:** birlik va bo‘linmalarning tashishga doimiy tayyorligini ta‘minlash; topshiriqlarni bo‘linmalar komandirlariga (yeshelon, otryad boshliqlariga) o‘z vaqtida etkazish; shaxsiy tarkibni qurol-yarog‘, harbiy texnika, mulk va boshqa materiallarni yuklash (tushirish) va himoya qilish qoidalariga o‘rgatish; birliklarning dastlabki maydonga, kutish zonasiga, yuklash joylariga tez chiqishini ta‘minlash; yuklash (tushirish, qayta yuklash)ni o‘z vaqtida bajarish; to‘satdan tushirish, marsh va qayta yuklashga tayyorlik; havo hujumidan mudofaa, jangovar, texnik va moddiy-texnik ta‘minotni, shuningdek, yuk ortish (tushirish, qayta yuklash) hududida va yo‘lda qo‘mondonlik-boshqaruv va aloqani tashkil etish; belgilangan materiallar, qurol va harbiy texnikani biriktirish va kamuflyajlash vositalari bilan ta‘minlash; harbiy aloqa va transport organlari bilan o‘zaro hamkorlik;

⁶³ Устав железной дороги Республики Узбекистан 2008 г., № 43, ст.

- **harbiy harakatlar organlaridan:** o‘z vaqtida rejalashtirish va tegishli transport organlariga tashish bo‘yicha rejalar va topshiriqlarni taqdim etish; temir yo‘l harakatlanuvchi tarkibi, dengiz, daryo va havo kemalari va qo‘shinlarni ortish (tushirish, qayta yuklash) vositalaridan eng oqilona foydalanishni tashkil etish; barqaror, uzluksiz, operativ va yashirin transport boshqaruvi; qo‘mondonlar, olib ketilayotgan qo‘shinlar shtablari, harbiy eshelonlar boshliqlari va transportdagi mansabdor shaxslar bilan yaqindan hamkorlik qilish;

- **transport organlaridan:** tashish, yuk ortish va tushirish uchun tayyorlangan avtotransport vositalarini, qurol va harbiy texnikani birlashtirish uchun o‘rnatilgan materiallar va moslamalarni o‘z vaqtida ta‘minlash, yuk ortishni ta‘minlash uchun manevr teplovozlari, lokomotiv va chaqiruv brigadalari, kranlarni ajratish; harakat jadvallari amalga oshirish va ular bo‘yicha harbiy tashish xavfsizligini ta‘minlash.

Urush davrida qo‘shinlarni tashish komandirlar va shtablar, harbiy harakatlar va transport organlaridan tashishga tayyorgarlik ko‘rish va bajarishda, shuningdek, barcha turdagi qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq o‘zaro hamkorlik va tirishqoqlikni talab qiladi. Qo‘shinlar, transport muassasalari va harbiy harakatlar organlari harakatlanish marshrutida transport vositalari vayron bo‘lgan taqdirda tashishni davom ettirish choralarini ko‘rishlari shart⁶⁴.

Harbiy qismlarning komandirlari va shtablari, harbiy harakatlar organlari va transport xodimlarining eng muhim vazifasi qo‘shinlar harakati sirini ta‘minlash va u bilan bog‘liq ma‘lumotlarni oshkor qilingan taqdirda esa oshkor qilganlik uchun aybdorlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Qo‘shinlarni yashirin tarzda tashish tadbirlari quyidagilar orqali erishiladi:

- tayyorgarlik ishlari va tashish sirini saqlash; konsentratsiya (kutish), yuklash (tushirish, qayta yuklash) joylarida va yo‘lda qo‘shinlarni yashirin boshqarish va himoyalash;

- tashishni tashkil etish va ta‘minlash bilan shug‘ullanadigan shaxslar doirasini cheklash va ularni faqat o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bilan tanishtirish;

– yuk tashish bo‘yicha arizalar, topshiriqlar berishning belgilangan tartibiga rioya qilish, harbiy transport va transport hujjatlarini berish qoidalari, shuningdek

⁶⁴ За въезд и транзит по территории Республики Узбекистан с иностранных грузовых автотранспортных средств и автобусов, пересекающих Государственную границу Республики Узбекистан с Республикой Таджикистан, наряду с уплатой сбора по ставкам, предусмотренным настоящим приложением, дополнительно взимаются сборы в размерах, установленных постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 декабря 2008 года № 274.

mansabdor shaxslar tomonidan qo'shinlarni tashish masalalari bo'yicha yozishmalar va muzokaralar olib borishda maxfiylik rejimi;

- yuk ortish (tushirish, qayta yuklash) hududlarida qo'shinlarni tarqatish, niqoblash, shuningdek, yo'l da harakatda niqoblash, tashishga tayyorlash va qo'shinlarni kuzatib borishni tashkil etish;

- harbiy eshelon (jamo) shaxsiy tarkibining ruxsati bo'lmagan begona shaxslar bilan tashish to'g'risida gaplashishini, bu haqda xat va telegrammalarda eslatib o'tishini, zarur hollarda esa yozishmalarni vaqtinchalik taqiqlash, suv kemalarning yuqori palubasiga xodimlarning chiqishini cheklash, harbiy eshelonli poezdlarni eshiklari va vagonlar lyuklari yopiq alohida uchastkalar orqali stansiyalarda yoki tungi vaqtda to'xtamasdan o'tkazish;

- harbiy eshelon (jamo) bilan begona shaxslarni tashishni taqiqlash⁶⁵.

XULOSA

Harbiy harakatlar organlarining bevosita boshliqlari va mansabdor shaxslari bundan mustasno, hech kimga yuk ortish (tushirish, qayta yuklash) stansiyalarining nomi, marshrut, harbiy eshelon (jamo) tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, harbiy xizmatchilarning nomi va harbiy xizmatchilarning nomi to'g'risida ma'lumot berish taqiqlanadi.

Harbiy eshelonda (komanda bilan) eshelonga (komandaga) tegishli bo'lmagan yuklarni tashishga yo'l qo'yilmaydi. Qo'shinlar transportining xavfsizligi transportda amalda bo'lgan qoidalar va ko'rsatmalarga rioya qilish, shuningdek, jangovar yordam tadbirlarini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Shaxsiy tarkibi yuk ortish (tushirish, qayta yuklash) va marshrutda harbiy eshelon (jamo) shaxsiy tarkibiga nisbatan intizom, xulq-atvor qoidalariga va xavfsizlik choralariga rioya qilishi shart⁶⁶.

Harbiy qismlar komandirlari jangovar tayyorgarlik dasturlariga muvofiq shtablar va shaxsiy tarkibni temir yo'l, dengiz, daryo va havo transportida tashishga oid ishlarni maxsus sinflarda hamda amaldagi tashish jarayonlardan foydalangan holda tashishga o'rgatishlari shart.

⁶⁵ При перевозке грузов из третьих стран в Республику Узбекистан и вывоза грузов с территории Республики Узбекистан с грузовых автотранспортных средств Туркменистана дополнительно взимается сбор в размере 175 долл.США в соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28 сентября 1999 года № 447.

⁶⁶ Включена в Резолюцию 48/11 от 29.10.2001г. Экономической и социальной комиссии ООН по Азии и Тихоокеанскому региону.

REFERENCES

1. Военные сообщения общие основы (учебник) Ордена Трудового Красного Знамени военное издательство Министерства обороны СССР Москва -1971.
2. Наставление по перевозкам войск железнодорожным, морским, речным и воздушным транспортом, 6 июня 1983 года.
3. Приложение 6 и 15 к наставлению по перевозкам войск, 6 июня 1983 года.
4. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ, «Uzbekistan Airways» АЖ ва «Uzbekistan Airports» АЖнинг 2021 йил “01” март 9/01/61-21хдфу/69/1-сонли қарорига илова «Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги қўшинларини темир йўл, ҳаво ва автомобил транспортида ташишни ташкиллаштириш тартиби тўғрисида йўриқнома».
5. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 15 апрелдаги 766-1сонли «Темир йўл транспорти тўғрисидаги қонун».
6. Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 13 апрелдаги 109-сонли «Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортида йўловчилар, багаж ва юк багаж ташиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисидаги қарор».
7. Shahobiddinov, V. E., Khodjayev, O. S., & Oripov, S. G. (2021). TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA SODIR BO‘LGAN TABIIY VA TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA AVARIYA QUTQARUV ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 987-994.
8. Kh, A. S., Shahobidinov, V. E., & Sh, K. O. PROTECTION OF TRANSPORT FACILITIES FROM FLOOD AND EARTHQUAKE.
9. Muratova, D. A., & Abdazimov, S. X. (2019). TECHNOLOGICAL GEN STRUCTURAL ELEMENTS AND FUNCTIONAL CONNECTIONS THAT DETERMINE THE TRANSFORMATION OF HUMAN CONSCIOUSNESS IN CIVILIZATION. Экономика и социум, (11), 78-82.

JAMIYATDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH-DEMOKRATIK DAVLAT QURISHNING ASOSIDIR

**Matyakubov Bekzod Qadamboyevich,
Ruzmetov Mustafo Ismayil o'g'li,
Ibragimova Zulayxo Karimboyevna,
Sharipov Otabek Shuxrat o'g'li,**
Xorazm viloyati yuridik texnikum o'qituvchilari
otabeksharipov94@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada eng dolzarb masalalaridan biri sifatida jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish, yoshlarning umuman olganda fuqarolarning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari bayon qilingan.

***Kalit so'zlar:** Konstitutsiyasi, korrupsiya, huquqiy axborot, huquqbuzarlik huquqiy ong va huquqiy madaniyat.*

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ – ОСНОВА ПОСТРОЕНИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА

АННОТАЦИЯ

Одним из наиболее актуальных вопросов является формирование высокой правовой культуры в обществе, правовой грамотности молодежи в целом, высокого уровня правосознания и умения применять правовые знания в повседневной жизни.

***Ключевые слова:** Конституция, коррупция, правовая информация, правонарушения, правосознание и правовая культура.*

IMPROVING THE LEGAL CULTURE OF YOUNG PEOPLE IN SOCIETY IS THE BASIS OF BUILDING A DEMOCRATIC STATE

ABSTRACT

One of the most pressing issues is the formation of a high legal culture in society, the legal literacy of young people in general, a high level of legal awareness and the ability to apply legal knowledge in everyday life.

Keywords: *Constitution, corruption, legal information, delinquency, legal awareness and legal culture.*

KIRISH

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish desak, mubolag'a bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyatiga erishish uchun fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishlari zarur. Zero inson huquqi va asosiy erkinliklari xalqaro huquqning yetakchi tamoyillari sirasiga kiradi. Shu sababli, bugungi rivojlangan dunyoda ko'pgina davlatlarda inson huquq va erkinliklarini, xavfsizligini, yashash sharoitini ta'minlash borasidagi xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlarni maqullagan. Bu hujjatlarga og'ishmay amal qilish esa fuqarolarning huquqiy madaniyati qay darajada shakllanganiga bog'liq.

Huquqiy madaniyat - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bois huquqiy madaniyat deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqealigi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topdigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda mamlakatda huquqiy-tartibot o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.⁶⁷

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelingan, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlash maqsadida qolaversa yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odoq-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan muhosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"⁶⁸ gi farmoni aynan yangicha talab va ma'suliyatni oshiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

⁶⁷ Davlat va huquq nazariyasi Sh.A.Saydullayev Toshkent "Yuridik adabiyotlar publish" ikkinchi nashir 116-bet

⁶⁸ O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"⁶⁸gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. lex.uz

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida talab yuqori bo‘lgan tor doiradagi va ixtisosli mutaxassisliklar bo‘yicha yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, shuningdek, kasbiy yuridik ta‘lim sifatini oshirish maqsadida,⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23-oktabrdagi 858-sonli O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida o‘qishni tashkil qilish choralari to‘g‘risida qarori⁷⁰ga muvofiq Adliya vazirligi tuzilmasida har bir hududda bittadan — 14 ta yuridik texnikum tashkil etilishi aynan yoshlarning huquqiy bilimini oshirish qolaversa yetuk professional ta‘lim olishlari uchun xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarning qolaversa fuqarolarning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy savodxonligini oshirish, qonun hujjatlari mazmun mohiyatini keng aholi ommasiga tezkor va tushunarli etkazish maqsadida huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari va yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilish, yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ta‘lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmi ishlab chikilgan. Shunga asosan joriy yilda Adliya vazirligi tomonidan “Umummilliy Konstitutsiya imtihoni”ning o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlanib qo‘yilgan huquq va majburiyatlarning anglab yetishlari va bajarilishida katta ahamiyat kasb etdi. Umummilliy Konstitutsiya imtihonida 50 ming nafardan ortiq fuqarolarning qatnashishi (shundan 53 foizi erkaklar, 47 foizi ayollar) ishtirokchilarining 61 foizini aynan yoshlar va eng yoshi katta fuqaro 71 yoshni tashkil qilganligi jamiyatda huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlikni oshirishdagi ishlarning mevasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.04.2018-y lex.uz

⁷⁰ Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-oktabrdagi 858-son qarori. qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018-y., 09/18/858/2095-son

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7-sentabrdagi O‘RQ-443-sonli “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi qonuni⁷¹ aynan aholining huquqiy savodxonligini oshirish, qonun hujjatlari mazmun mohiyatini keng aholi ommasiga tezkor va tushunarli etkazish va yoshlar o‘rtasidagi turli xil huquqbuzarliklarni oldinin olishda qolaversa huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda kata axamiyat kasb etadi.

“Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi qonun, qaror va farmonlar doirasida navqiron avlod vakillari bilan yuzma-yuz muloqot va uchrashuvlar tashkil etilib, ularning muammolari o‘rganilganda, aholining qonunlarimizga, huquqiy masalalarga bo‘lgan qiziqishi ortganining guvohi bo‘lamiz⁷².

Huquq umumiy madaniyatning shunchaki bir qismi emas, balki uning o‘zagi, negizi asosidir. Huquqiy madaniyat deganda, har bir davlatning qonun asoslari huquq me‘yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarini bilishi va o‘z faoliyatida ularga rioya etishi – huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti haqida fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma’naviyati, ularning huquqiy burch va mas’uliyatlari tushuniladi. Jumaladan shuni takidlash kerakki jamiyatni huquqiy madaniyatini oshirishda oliy ta’limning o‘zida huquqiy bilim berish darajasi ya’ni amaliy jarayonlarda qatnashishini tashkillashtirishni yanada jadallashtirish, Masalan “Milliy go‘ya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida qolavaersa o‘rta ta’lim maktablarida huquqiy fanlarni ko‘proq qo‘yilishiga etibor qaratilsa yanada ko‘proq natijalarga erishishimiz mumkin. Yoshlar huquqiy madaniyati va ularni huquqiy tarbiyalashning moxiyatini faqat amaldagi qonun xujjatlarining meyorlari va prinsiplari to‘g‘risida bir qator bilimlarni qo‘lga kiritishdan iborat deb qarash mumkin emasligi mutlaqo to‘g‘ri.

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.09.2017 yildagi O‘RQ-443-son O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami

⁷² O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. lex.uz

O'zbekiston aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishi, yurtimiz ertasi ularning bugun qanday inson bo'lib shakillanayotgani bilan chambarchas bog'liqligi yosh avlod vakillariga jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

XULOSA

Yoshlarni huquqiy tarbiyalash va ularni huquqiy madaniyatini maqsadi qonunga itoatkorlikni qonunga va shaxsning qonunni hurmat qilishni shakillantirishdan iboratdir. Qonunni hurmat qilish huquqiy meyorlarga individga nisbatan tashqi bo'lmish ko'rsatmalar va taqiqilar sifatida shunchaki g'oya qilishligina emas, balki ularni shaxs bilan jamiyatning bir biriga mos tushgan qadriyatlari sifatida uzviy idrok etishni anglatadi. Zero, huquqiy madaniyat va ma'naviyat umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «O'zbekiston» NMIU 2021 yil
2. Davlat va huquq nazariyasi Toshkent 2021 yil
3. maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni
4. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun O'RQ-419
2017 yil 03-yanvar
5. "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun, O'RQ-443-son 2017 yil 07-sentabr

Elektron saytlar:

1. lex.uz
2. constitution.uz
3. Adliya vazirligi huquqiy axborot telegram bot <https://t.me/huquqiyaxborot>

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Дедаханов Абдумалик Муталлиевич

Преподаватель Наманганского государственного университета

АННОТЦИЯ

В данной статье раскрывается формирование познавательных универсальных учебных действий учащихся начальных классов при обучении родному языку. В школьном образовании перемещается с усвоения определенной суммы факторов на формирование умения и потребности самостоятельно пополнять свои знания, ориентироваться в постоянно растущем потоке информации, а также на развитие коммуникативной готовности сотрудничать друг с другом.

Ключевые слова: универсальные учебные действия, способность к обучению, психологии способна выявить действия ученика его навыки к работе.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ONA TILINI O'QITISHDA KOGNITIV UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Dedaxanov Abdumalik Mutallievich

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilini o'qitishda kognitiv universal ta'lim faoliyatining shakllanishi ochib berilgan. Maktab ta'limida u ma'lum miqdordagi omillarni o'zlashtirishdan o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirish qobiliyati va ehtiyojini shakllantirishga, doimiy ravishda o'sib borayotgan ma'lumotlar oqimini boshqarishga, shuningdek hamkorlikka kommunikativ tayyorlikni rivojlantirishga o'tadi. bir-biri bilan.

Kalit so'zlar: universal tarbiyaviy harakatlar, o'rganish qobiliyati, psixologiya o'quvchining harakatlarini va uning mehnat qobiliyatini ochib berishga qodir.

FORMATION OF COGNITIVE UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN TEACHING THEIR NATIVE LANGUAGE

Dedakhanov Abdumalik Mutallievich.

Lecturer at Namangan State University

ABSTRACT

This article reveals the formation of cognitive universal educational actions of primary school students when teaching their native language. In school education, it moves from the assimilation of a certain amount of factors to the formation of the ability and need to independently replenish one's knowledge, to navigate the ever-growing flow of information, as well as to the development of communicative readiness to cooperate with each other.

Keywords: *universal learning activities, learning ability, psychology is able to reveal the student's actions and his skills for work.*

ВВЕДЕНИЕ

В связи формирования познавательных универсальных учебных действий учащихся начальных классов при обучении родному языку в педагогике появилось новое понятие «универсальные учебные действия» (УУД). Рассмотрим данное понятие более подробно. Согласно определению, начального общего образования.

Универсальные учебные действия – это обобщённые действия, которые порождают масштабную ориентацию учеников в пределах разных областей, а также мотивацию к учебной деятельности. В широком понимании УУД – это способность к обучению либо некоторая способность субъекта к саморазвитию и самосовершенствованию путем сознательного присвоения нового опыта. В узком же понимании это универсальные учебные действия совокупность которых с точки зрения психологии способна выявить действия ученика его навыки к работе, которая в свою очередь обеспечит его способность к самостоятельному восприятию новых знаний, умений, опыта. УУД включают: организацию действия которая входит в систему УУД.

Mafkura – bu muayyan bir maqsadga yo'naltirilgan, o'zida xalq manfaatini aks ettirgan g'oyalar tizimi ekan, u jamiyatning ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy, ham huquqiy, ham madaniy hayotiga asosiy tayanch va kuch sifatida xizmat qiluvchi omildir. U ijtimoiy borliqning ya'ni, keng ma'noda jamiyat hayotining ma'naviy siyosiy in'ikosidir. Uning shaxs ongida aks etishi va shaxs tomonidan anglanib, bir butun tizim holiga keltirilishi (masalan, milliy mafkuraning) bilan jamiyat hayotida ruxiy tayanch bulib xizmat qiladi. Chunki mafkura jamiyat hayotida inson ongi orqali uning amaliy hatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi.

Muhtaram Prezidentimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ezgu g'oyaning bugungi taraqqiyot davrining ustivor shiori ekanini alohida ta'kidlab, ushbu g'oyani hayotga to'liq tadbiiq qilinishida xalq birligi va umumiy manffat yo'lida ishonch bilan fidoiylk ko'rsata olishlari uchun barcha imkoniyatlarni va sharoitlarni yaratishimiz zarur ekanligini o'qtiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugun jamiyatimizda fuqarolarning to'liq erkinligini ta'minlash - mamlakatimizda fuqarolarga o'z iqtidorini ko'rsata olish va orzularini ro'yobga chiqarish imkon beradigan tizim shakllanmoqda. Amaliyotga tatbiiq etilgan qonun ustuvorligi tamoyili fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani tufayli jamiyatimizda ochiqlik va erkinlik muhiti tobora kuchayib bormoqda. Fuqarolarimizning tashabbus ko'rsatib, insonlarning dardu tashvishlarini hal qilish uchun davlat idoralari bilan hamkorlikda ishlashining takomillashuvchi fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Tarix shundan dalolat beradiki, har qanday jamiyatni yuksalishi muayyan bir g'oya, umumxalq mafkuraga asoslanadi. Bu mafkura jamiyat orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirganligi tufayli xalqni birlashtirish kuchiga ega bo'ladi. Demak, har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, birlik, hamjihatlik zarurdir.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashning mavkuraviy omillaridan biri – mafkuraviy immunitetdir.

⁷³ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: 2003й., 5-6.

Mafkuraviy immunitet - (lot.immunitas - ozod bo'lish, qutilish) shaxs, ijtimoiy gurux, millat jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy qarashlar va qadiriyaatlari tizimi. Insonda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o'ziga xos hususiyatga ega. Immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi bu – bilim. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, vaqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatini boyitish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish lozim. Ular o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmag'i kerak.⁷⁴ Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadiriyaatlari tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadiriyaatlari ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda qadiriyaatlari tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadiriyaatlari tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, yani ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat-goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyqlarga duchor bo'laveradi⁷⁵.

Yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va taraqqiy ettirish orqali ma'naviy yetuk, sog'lom va mustaqil fikirlaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, har qanday buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga nisbatan o'z pozitsiyasida turib hujim qilishga qurbi yetadigan, irodali avlodni vujudga keltirish mumkin. Inson ma'naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, ota-onalar o'g'itlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa, o'z navbatida, odamni to'g'ri yo'ldan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan

⁷⁴ Мамашокиров С, Тогаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари - Т.: Маънавият, 2007.

⁷⁵ Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати, Т.: Ғофур Ғулом, 2013й. 146-14766.

asrab turadi. Demak, mafkuraviy immunitet –davlat va millatning ma’naviy birligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi⁷⁶.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashda eng muhim mafkuraviy omil - fuqarolarning yetuk siyosiy ongidir. Chunki siyosiy ong voqelikni idrok etish asosida, xamda uning tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g‘oyalar me’yorlar tasavvurlar va e’tiqodlar negizida kishilarning ijtimoiy xulqatvorlarini tartibga soladi. Siyosiy mafkura esa - turli xil ijtimoiy guruh, qatlamlarning siyosiy hokimiyat, unga ega bo‘lish, himoya qilish va foydalanish bilan bog‘liq manfaatlarining ifodasi asosida siyosiy munosabatlarni amalga oshirishda tegishli institutlar, tashkilotlar va korxonalarining faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq siyosiy ongning, yadrosi, g‘oyaviy qarashlarning tizimlashgan majmuidir. Siyosiy ong jamiyat yangilanishiga beqiyos ta’sir etgani bois, milliy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘lanadi. Ijtimoiy hayot o‘z-o‘zidan transformatsiyaga uchramaydi, hatto siyosiy ong ham mazkur jarayonga befarq qolishi mumkin. Ammo u ijtimoiy ong va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga nazariy – konseptual va amaliy-strategik yo‘nalish berishda davom etadi⁷⁷.

Fikrimizcha, siyosiy ong strategik maqsadni belgilab berish, sotsial boshqaruvni yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sir etadi. Lekin inson faqat moddiy hayotini yaxshilash, farovonlikka erishish bilangina qanoatlanib qolmaydi, uni yon-atrofiga bo‘layotgan siyosiy voqealar, davlat va jamiyat ishlari, insoniyatning taraqqiyot yo‘llari, modellari, bu boradagi turli yondashuvlar ham qiziqtiradi. Demak, siyosiy ong davlat va jamiyat hayoti taraqqiyotidagi nazariy-konseptual va amaliy-strategik maqsadlarni belgilab berish orqali barcha sohalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu ma’noda, u ijtimoiy ongning o‘zagidir.

Siyosiy ong jamiyat yangilanishiga beqiyos ta’sir etgani bois, milliy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘lanadi. Ijtimoiy hayot o‘z-o‘zidan transformatsiyaga uchramaydi, hatto siyosiy ong ham mazkur jarayonga befarq qolishi mumkin. Ammo u ijtimoiy ong va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga nazariy – konseptual va amaliy-strategik yo‘nalish berishda davom etadi.

Fikrimizcha, siyosiy ong strategik maqsadni belgilab berish, sotsial boshqaruvni yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sir etadi. Lekin inson faqat moddiy hayotini yaxshilash, farovonlikka erishish bilangina qanoatlanib qolmaydi, uni yon-atrofiga bo‘layotgan siyosiy voqealar, davlat va jamiyat ishlari, insoniyatning taraqqiyot yo‘llari, modellari, bu boradagi turli yondashuvlar ham qiziqtiradi. Demak,

⁷⁶ Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. - Т.: Янги аср авлоди, 2001.

⁷⁷ Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. - Т.: Академия, 2011.

siyosiy ong davlat va jamiyat hayoti taraqqiyotidagi nazariy-konseptual va amaliy-strategik maqsadlarni belgilab berish orqali barcha sohalarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu ma'noda, u ijtimoiy ongning o'zagidir⁷⁸.

Mafkuraviy kurashda eng mustahkam va tarixiy sinalgan qurollar – bu milliy va umuminsoniy qadriyatlardir. Qadriyatlar asosida mustahkamlangan ma'naviy kuch – jamiyatning hal qiluvchi tayanchidir. Shu bois jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda buyuk bobolarimizning hayot tajribalarini darslik sifatida qo'llab, ularni davr talablariga moslashtirish alohida katta ahamiyatga egadir. Bu esa, o'z navbatida o'zlikni anglashni takomillashib borishiga xizmat qiladi. O'zlikni talab darajasida anglay olish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarning eng birinchisi milliy tili va milliy qadriyatlarni mukammal egallashdir.

Shuningdek, shaxsning o'zligini anglashi uning qaysi yurtning farzandi ekanligi, ya'ni nasl-nasabi kimligi, yashashdan maqsadi, o'z sha'ni, qadr-qimmatini tushunib yetishidan boshlanadi.

Mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda har bir vatandoshimiz “Vatanimga men nima uchun kerakman?”, “Kelajak avlodimga qaysi ibratlarim bilan namuna bo'laman”, “Farzandim mening nimam bilan g'ururlanishi kerak?” fikrlashiga, fuqarolarimizning Vatan manfaati va ravnaqi uchun fidoyi bo'lishiga erishish asosiy maqsadimizdir.

Shu boisdan har bir inson uchun Vatan, insoniylik tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Xalqimizning “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, degan maqoli zamirida ulkan ma'no yashiringanligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada oilaning tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, mafkuraviy immunitetni shakllantirish oson kechmaydi⁷⁹.

XULOSA

Hozirgi axborot va texnologiya asrida yoshlarni tarbiyasi yanada muhim bo'lib bormoqda. Yoshlar har qadamda e'tiqodi, ong shu'uriga zid ma'lumotlar, hodisalarga guvoh bo'lmoqdalarki, buni mas'ul shaxslar – ota-ona, ustoz hamda mahalla ko'y nazorat qilishlari darkor. Chunki dunyoda analogi yo'q mahalla instituti – g'oyaviy, mafkuraviy, ma'naviy tarbiya zamini hisoblanadi. Bu zamin muhiti jamiyatning ma'naviy qiyofasini ifodalaydi.

⁷⁸ <https://oyina.uz/kiril/article/139>

⁷⁹ Ўраев Ж.Н. Мafкурaвий иммунитет. – Т.: «Маънавият», 2001.

Xulosa qilib aytganda, muayyan bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyalar tizimi – mafkura buladigan bulsa, barcha mafkuraviy omillar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta‘minlashni maqsad qilib olishini ta‘minlash davrimizning ustuvor vazifasi bo‘lizi darkordir.

REFERENCES

1. Ma‘naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati ,T.: G‘ofur G‘ulom, 2013y. 146-147bb.
2. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
3. Mamashokirov S, Tog‘aev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari -T.: Ma‘naviyat, 2007.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2003y., 5-b.
5. Nazarov Q. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsad va vazifalari. - T.: Yangi asr avlodi, 2001.
6. O‘rayev J.N. Mafkuraviy immunitet. – T.: «Ma‘naviyat», 2001.
7. <https://oyina.uz/kiril/article/139>

YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI

Ho‘jaxonov Islomxo‘ja Abdullohon o‘g‘li
O‘zMU doktranti

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning muammolari ochib berilgan hamda amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy ko‘nikma*

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются проблемы развития правовой культуры молодежи и даются практические предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *право, правовая культура, правовые знания, юридические навыки.*

ABSTRACT

The article reveals the problems of the development of the legal culture of young people and gives practical suggestions and recommendations.

Keywords: *law, legal culture, legal knowledge, legal skills.*

KIRISH

Mamlakat rivojlanishida huquqiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda yuksaltirish jamiyatdagi insonlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Huquqiy madaniyati yuksak rivojlangan davlatning kelajagi ham ravnaq topib boradi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. “Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo‘lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz”⁸⁰ – deb ta’rif berilgan.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Huquqiy demokratik davlat qurish va

⁸⁰ Таджиханов У., Саидов А. *Хукукий маданият назарияси*. 1-том. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998, 11-бет.

jamiyat taraqqiyotining rivoji, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim darajasi, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bog'liqdir. Yaxshi ta'lim – tarbiya olgan barkamol avlod hech qanday huquqbuzarlikning ko'chasiga kirmaydi, uning botqog'iga botmaydi. Bu borada davlatimiz tomonidan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2019 yil 13 dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-son qarori, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasidagi ko'plab vazifalarni belgilab berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lekin, hozirda jamiyatdagi insonlarning huquqiy saviyasini yetarli emasligiga, huquqiy ta'lim va tarbiya doirasida tizimli va uzviy olib borilmayotganligidir. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida huquqiy ong va madaniyat darajasiga alohida to'xtalib quyidagi fikrni ya'ni "Kanadaning 1 milliondan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan Kalgari shahrida joriy yilning 10 oyida avtohalokatlardan tufayli 10 nafar shaxs nobud bo'lgan. O'zingiz solishtirib ko'ring: jami 2 yarim milliondan ziyod avtotransport mavjud bo'lgan bizning yurtimizda esa, shu davrda 1 ming 600 dan ortiq kishi avtohalokat qurboni bo'lgan. Bu – og'ir kulfat, katta yo'qotish emasmi?! Biz yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirdik. Lekin shuning o'zi bilan muammoni to'liq yechish mumkinmi? Menimcha, yo'q! Buning sababi jamiyatda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani bilan bevosita bog'liq. Biz jamiyatimizda huquqiy madaniyatni lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, huquqbuzarlikka chek qo'ymas ekanmiz, qonunni buzish holatlari davom etaveradi"⁸¹ deb ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy bilimlari yetarli emasligiga, huquqiy ta'lim borasidagi olib borilayotgan ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi kabi holatlar sabab bo'lmoqda.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda avvalo ularning o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilib olishlari hamda ulardan hech qanday to'siq va moneliklarsiz to'liq va keng foydalanish imkoniyatlarini amalda

⁸¹ <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>

ta'minlanishi muhim mezon bo'lib hisoblanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Jamiyatda yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish uchun yoshlar tarbiyasida huquqiy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish zarur. Yoshlarni tarbiyalashda huquq nazariyasini uni o'qitish metodologiyasini va globallashuv jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish zarur. Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim fanlarini mazmunan yangilash. Oliy ta'lim muassasalarini mutaxassisligidan kelib chiqib huquqiy ta'lim fanlarini moslashtirish. Shu bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy mavzulardagi ruknlariga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan huquqiy muammolarni davriy nashrlar saxifalarida, televidenie va radio eshittirishlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish hamda huquqiy targ'ibot masalasi bugungi kunda huquqiy madaniyati shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

XULOSA

“Huquqiy targ'ibot-jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini kishilarga, ommaga yetkazishga qaratilgan ma'rifiy va targ'ibiy usullar. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibot ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga bog'liq. Shuning uchun, huquqiy targ'ibot huquqiy jamiyat nazariyasi, huquq loyihasi, huquq sotsiologiyasi kabi ilm sohalarining natijalariga tayanadi”⁸².

Har bir davlatning rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu huquqiy madaniyat hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

REFERENCES

1. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998, 11-bet
2. Odilqoriev H., Yakubov Sh. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T.:2011, 56-bet.
3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –Toshkent: Adolat, 2009. 654-b.

⁸²Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Тошкент: Адолат, 2009. 654-б.

**SPORT MAKTABLARI FAOLIYATI VA “BO‘SM”
TARBIYALANUVCHILARI O‘RTASIDA SPORT TADBIRLARINI
HAMKORLIKDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI**

Shoimqulov Hayrullo

Termiz davlat universitetining

Termiz pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

xayrulloshoimkulov1990@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada muassasa tarbiyalanuvchilarining yosh toifasi, ularning jismoniy shakllanish bosqichlari zarurati xususida to‘xtalindi. Asosiy jihatlardan biri sifatida sport tadbirlarining barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishidagi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o‘tkaziladigan istiqbolli ishlarning tadrijiyligi va muhimligi yoritib berildi.

***Kalit so‘zlar:** Bola shaxsiyati, sport maktablari, sport tadbirlari, hamkorlik dasturi, yo‘l xaritasi, jismoniy yetuklik, tarbiyalanuvchi, jismoniy tarbiya.*

АННОТАЦИЯ

В статье акцентировано внимание на возрастной категории студентов учреждения, необходимости проведения ими этапов физического становления. Одним из ключевых моментов стала постепенность и важность перспективной работы, проводимой совместно с организациями-партнерами в развитии спортивных мероприятий как гармонично развитого поколения.

***Ключевые слова:** Детская идентичность, спортивные школы, спортивные мероприятия, партнерская программа, дорожная карта, физическая зрелость, приемная семья, физическое воспитание.*

KIRISH

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga ko‘ra voyaga yetmagan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxs (o‘g‘il yoki qiz) bola maqomida bo‘ladi. Jamiyatdagi ko‘p faoliyat turida ham aynan shu yosh mezon qilib olingan: haydovchilik guvohnomasi, nikoh bilan bog‘liq holatlar va hokazolar. Inson shu yoshdan keyin ham aqlan, ham jismonan shakllangan hisoblanadi. U yoshiga nisbatan mehnat bilan band bo‘lishi, sport yuklamalarini imkoniyati doirasida qabul qilishi mumkin bo‘ladi. Sport bilan shug‘ullanishida ota-ona farzandini nafaqat ma‘nan, shuningdek, jismonan ham baquvvat, yetuk, har tomonlama kamolotga yetishini istaydi. Shu maqsadda sportning qaysidir turi bilan bandligini ta‘minlashga harakat qiladi. Shu jarayonda ota-ona farzandining qiziqishlarini, yoshi va jinsini, funkcionallik xususiyatlarini, jismoniy

potensialini umuman har tomonlarga farzandining imkoniyatlarini inobatga olgan holda sport turini tanlashi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yurtimizda har bir o'g'il-qiz uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Xususan jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanishi uchun bir qator sport maktablari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Sport maktablari – yuqori malakali sportchilarni tayyorlaydigan ixtisoslashgan o'quv-tarbiya muassasasi. O'zbekistonda sport maktablarining 3 asosiy turi mavjud: bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar ixtisoslashgan olimpiya maktablari hamda oliy sport mahorati maktablari.

2020 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sport ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 90-sonli Qaroriga muvofiq 2020-2024 yillar oralig'ida bosqichma-bosqich qurilidigan sport inshootlarida 23 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari, shu bilan birga yetarli sport inshootlariga ega 68 ta bolalar va o'smirlar sport maktablarining filiallarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Shulardan 5 tasi Surxondaryo viloyatida tashkil etiladi. Jumladan, Sariosiyo tuman 2-sonli BO'SM (Sariosiyo tumani 1-sonli BO'SM filiali) 2020 yil, Sho'rchi tumani 2-sonli BO'SM (Sho'rchi tumani 1-sonli BO'SM filiali) 2020 yil, Denov tumani 1-sonli BO'SM (Denov tumani 1-sonli BO'SM filiali) 2021 yil, Jarqo'rg'on tumani 2-sonli BO'SM (Jarqo'rg'on tumani 1-sonli BO'SM filiali) 2022 yil, Qumqo'rg'on tumani 2-sonli BO'SM (Qumqo'rg'on tumani 1-sonli BO'SM filiali) 2023 yil. Bu juda muhim va istiqbolli ish bo'layapti. Chunki BO'SMlar soni va undagi tarbiyalanuvchilar qamrovi qancha ko'p bo'lsa, shuncha ular orasidagi raqobat va shunga mos ravishda sifat samaradorlik oshishiga olib keladi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari shahar va tumanlardagi mavjud BO'SMlarga xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablaridagi o'quvchi yoshlarni a'zo qilgan holda sport to'garaklarini yo'lga qo'yishgan. Termiz shahridagi 19-sonli maktabda futbol to'garagi rahbari Xasanov To'lqin 14 nafardan 2 ta guruh shakllantirib sport mashg'ulotlarini olib bormoqda. Agar sportchilari soni guruhlarda oshgan taqdirda bolalarning ota-onalari ixtiyoriy ravishda oylik to'lovni amalga oshirgan holda farzandini to'garak mashg'ulotlariga berishmoqda. Vaholanki, guruh jurnalida mavjud sport maktabi tarbiyalanuvchilari qatori qolgan o'quvchilar ham mashg'ulotlarga to'lovsiz shug'ullunishsa, qamrov soni ortadi. Bunda albatta, homiylik topish, moliya tashkilotlari bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish,

guruhlar sonini ko'paytirish va ular uchun trenerga BO'SMtomonidan qo'shimcha maosh yoki ustama haqlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Sportning karate turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar haftasiga 1 marotaba o'zaro guruhga bo'linishib, futbol o'yinini tashkillashtirishar ekan. Kuzatishlarimiz davomida avvalo ularning guruhga qo'yishgan nomlari "Real" va "Barsa". Bizningcha har bir narsaning boshlanishi juda muhim. Avvalo, guruhga nom qo'yishda milliylikka va jamoani ruhlantirishga chorlovchi nom qo'yilishi, jamoa sardori ham o'z guruhini haqiqiy yetakchisi bo'lib, jamoasini oldinga intiltirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Jamolarga "*Alpomish*", "*Kuntug'mish*", "*Temuriylar*", "*Boburiylar*" kabi nomlar tanlansa maqsadga muvofiq. Sababi o'z xalqi tarixini yaxshi bilish, jamoasi nomining ahamiyati, uning sha'ni uchun kurashish, ajdodlarga munosib avlod bo'lish kabi hislatlar shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu kabi holatni milliy kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar orasida ham kuzatdik. Lekin Karateda yakka va jamoaviy holatda gilamda kuch sinashish holatlari mavjudligini inobatga olsak, bu kabi holat ularga notanish emas. Lekin doimo individual sport turlaridagi sportchi tarbiyalanuvchilar ruhiyatida "men" shakllanib boradi, jamoa uchun kurashish, guruh manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi hislatlar sustroq bo'ladi. Bu borada yakka sport turlari bilan shug'ullanuvchilarni jamoaviy sport o'yinlari bilan, jamoaviy sport turlari bilan mashg'ul sportchilarni esa yakka sport turi bilan almashtirib turish yaxshi samara beradi. Bunda albatta, yoshlar ishlari agentligi, yoshlar ittifoqi, xalq ta'limi soha vakillari, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda sport tadbirlari o'tkazilsa, bu orqali BO'SM tarbiyalanuvchilari muntazam rag'batlantirib turilsa, sportchilarda mas'uliyat hissi, ichki shaxsiyatini, qobiliyatini yuzaga chiqarishga intilish kuchi paydo bo'ladi.

XULOSA

Pedagogika ilmidan ma'lumki, tarbiya turlaridan jismoniy va mehnat tarbiyasi o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Bunda azaldan ajdodlarimiz tomonidan bizgacha milliy meros bo'lib kelayotgan qadriyatlarimiz, milliy tarbiyaning mavjudligi asosiy omildir. Shaxs kamolotining yetukligida ham sport muhim ahamiyat kasb etgan. BO'SM tarbiyalanuvchilarining yetuklik, jismoniy va aqliy rivojlanish bosqichlarida ham muhim bo'lgan vosita bu sport va u bilan aloqador tadbirlar hisoblanadi. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda sport tadbirlarini o'tkazish uchun yo'l xaritasi ishlab chiqish va doimiy izchillikda o'tkazish samarali natija beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deb bejizga aytishmaydi. Zero, hamkorlikda, hamjihatlikda bajarilgan ishning natijasi ham, foydalilik koeffisienti ham yuqori bo‘ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sport ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 17.02.2020 yil 17 fevraldagi 90-sonli Qarori
2. Atayeva N., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, Fan va texnologiya, 2012.
3. Goncharova O. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2005.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
5. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasining huquqiy-normativ hujjatlar portali

XO‘JALIK JAMIYATI ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN KORPORATIV HUQUQLARNING SUIISTE’MOL QILINISHI MASALALARI

Matkarimov Faridjon Umrbek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

mkfaridjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xo‘jalik jamiyatlari tushunchasi, ularning tashkiliy huquqiy jihatdan bir-biridan farqi, jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari, ushbu huquqlarni amalga oshirish usullari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, korporativ boshqaruvning tashkiliy huquqiy mexanizmi tadqiq etilgan hamda uning yangi tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati, uning elementlari aniqlanib, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati belgilangan va o‘z navbatida xorij tajribasi ham o‘rganilgan. Bundan tashqari, jamiyat ishtirokchilari tomonidan huquqlar suiiste‘mol qilingan holatda javobgarlik masalasi, ushbu holat yuzasidan sudga murojaat qilinganda sudlovga taalluqlilik va tegishlik masalalari, huquqlar suiistemol qilinishi sababli nizo kelib chiqqan taqdirda ushbu nizolarni sudgacha hal qilish tartib taomillari ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *xo‘jalik jamiyatlari, ishtirokchi, korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruvning tashkiliy huquqiy mexanizmi, korporativ nizo, talabnoma tartibi, sudlovga taalluqlilik, sudlovga tegishlilik.*

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье систематически проанализированы понятия хозяйственных обществ, их различия по организационно-правовым параметрам, права и обязанности участников обществ, методы осуществления данных (настоящих) прав. Так же, исследованы организационно-правовой механизм кооперативного правления и в качестве нового понятия определены его смысл и элементы, установлены научные новости и практическое значение, и в свою очередь изучены зарубежные опыт. Кроме того, освещены вопросы ответственности в случае злоупотребления прав участниками обществ, вопросы подсудности и подведомственности дел судам при обращении в суды в таких случаях, порядок досудебного решения споров, возникших в следствии злоупотреблений прав.

Ключевые слова: *хозяйствующих субъектов, участник, корпоративное право, организационно-правовой механизм кооперативного правления,*

корпоративный споры, порядок претензии, подсудности и подведомственности дел судам,

ABSTRACT

This article provides a systematic analysis of the concept of business societies, their organizational and legal differences, the rights and obligations of participants, ways to exercise these rights. The organizational and legal mechanism of corporate governance is also studied, its content as a new concept, its elements are identified, its scientific novelty and practical significance are identified, and foreign experience is studied. In addition, the issue of liability in case of abuse of rights by participants of the society, the issues of jurisdiction and appropriateness in the case of a lawsuit in this case, the procedure for pre-trial settlement of disputes in the event of a dispute over the abuse of rights.

Keywords: *business entities, participant, corporate governance, organizational legal mechanism of corporate governance, corporate disputes, application procedure, jurisdiction of cases, cases falling within competence.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 58-moddasiga ko‘ra ulushlarga (qo‘shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo‘lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilotlar xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo‘shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo‘jalik shirkati yoki jamiyati o‘z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari to‘liq shirkat, kommandit shirkat, mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin [1].

Shulardan xo‘jalik jamiyatlari ya’ni mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat va aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari, ularning huquqlari, ishtirokchilar tomonidan ushbu huquqlarning suistemol qilinishi va ushbu holatlarda nizolarni hal etish masalalariga to‘xtalsak. Fuqarolik kodeksiga asosan ushbu xo‘jalik jamiyatlari tijorat tashkilotlari hisoblanadi va o‘z navbatida ular tadbirkorlik subyektlari hamdir.

Tadbirkorlik subyektlari kollegial yoki yakkaboshchilik asosida boshqariladi. Bu ularning tashkiliy-huquqiy tuzilishiga bevosita bog‘liq bo‘lib, xususiy firma, xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda bir shaxs tomonidan tashkil etiladigan

mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda boshqaruv jamiyatning yagona ta'sischisi tomonidan amalga oshirilsa, ikki yoki undan ortiq ishtirokchi tomonidan tashkil etiladigan mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, ya'ni korporatsiyalar kollegial organ orqali boshqariladi.

Bitta shaxs tomonidan qarorning qabul qilinishi jarayoni nisbatan sodda bo'lib, qaror qabul qilinishida alohida tartib qoidalar, kelishuvlar va boshqa mexanizmlarni taqozo qilmaydi. Ammo boshqaruv sohasida muayyan qarorning qabul qilinishi, ikki va undan ortiq shaxsga bog'liq bo'lib qolganda-chi?

Bunda "har bir ishtirokchi korporatsiya (shirkat va jamiyat) faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega"[2]. Albatta, mazkur holatda ushbu shaxslarning manfaatdorligi, dunyoqarashi va fikrlarining xilma-xilligi nuqtayi nazaridan qaraganda bir to'xtamga kelishda kelishmovchiliklar vujudga kelishi tabiiy hol.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ishtirokchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar keyinchalik jamiyatning faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda jamiyatning to'lovga qobiliyatsizlik holatiga kelib qolishiga ham sabab bo'lmoqda. Bunday kelishmovchiliklarni hal etish va oldini olishning birdan-bir yo'li, korporatsiyalar ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini amalga oshirish, himoya qilish va ta'minlashning moddiy va protsessual huquqiy asoslarini mustahkamlashdir.

Mazkur jarayonda korporativ huquqning maqsadi – muayyan shaxslarning mustaqil manfaatlarini emas, balki bir nechta shaxslarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan bo'ladi [3, 36-b].

Demak, korporativ huquqiy munosabatlar bu – nafaqat korporatsiyaning alohida ishtirokchisining huquq va manfaatlari, balki bu ishtirokchilarning korporatsiyani tashkil etish, boshqarish bu faoliyat natijasida foyda olishga qaratilgan umumiy huquq va manfaatlaridan kelib chiqadi [4].

D.N. Severin fikricha, korporativ nizo – bu tadbirkorlik va boshqa (iqtisodiy) faoliyat bilan bog'liq, korporatsiya ishlarini boshqarish va yuritishda yoki uning kapitalida ishtirok etish korporatsiya ishtirokchilari, korporatsiya va uning ishtirokchilari, organlari (organlari a'zolari) va korporatsiya ishtirokchiligiga talabgor yoki talabgor bo'lmagan, lekin ulushga bo'lgan huquqlari orqali korporatsiyaga talab qo'yishga haqli boshqa shaxslar o'rtasidagi nizo hisoblanadi [5].

Jamiyat yoki korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish, ishtirokchining nomulkiy huquqi hisoblanib, uning bu huquqlari amaldagi qonunchilik normalarida

mustahkamlab qo'yilganligi bilan bir qatorda, jamiyat ta'sis hujjatlari yoki umumiy yig'ilish qarori bilan qabul qilingan boshqa ichki lokal normativ hujjatlar bilan ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Korporatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar hamda korporatsiyaning ta'sis hujjatlari va lokal hujjatlari bilan belgilanadi [6].

Ingliz-amerika huquq tizimlarida korporativ huquqqa nisbatan **"company law"** atamasi qo'llaniladi va bu sohani o'rganuvchi va tadqiq etuvchi fan sifatida xuddi bizdagi kabi **"comparative company law"** asosiy o'rin tutadi [7].

O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'RQ-310-II-sonli hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-sonli Qonunlari xo'jalik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishda foydalaniladigan asosiy normativ hujjatlar hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'RQ-310-II-sonli Qonunning 3-moddasiga muvofiq, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar [8].

Bu degani, misol uchun siz o'zingiz yoki sheriklikda mas'uliyati cheklangan jamiyat (keyingi o'rinlarda MChJ) tashkil qilib faoliyat yuritayapsiz va shunday holat bo'ldiki, sizing ushbu korxonangiz yoki tashkilotiningiz to'lovga qobilyatsizlik va qarzdorlik holatiga kelib qoldi. Kreditorlaringiz qarzni undirishni xohlagan taqdirda ham sizning korxonangiz yoki tashkilotiningizga tegishli mol mulklar ushbu qarzlarni yopish uchun yetarli emas. Mazkur holatda, sizning kreditorlaringiz pullarini to'liq undirish uchun undiruvni sud orqali sizning shaxsiy (korxonangizga tegishli mulklaringizdan tashqari) mol-mulklaringizga qaratishni so'rab da'vo kiritishlari tabiiy hol, biroq, yuqoridagi norma ushbu da'vo arizasining sudlar tomonidan rad qilinishi uchun asos sanaladi. Ya'ni, Qonunda nazarda tutilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar [9] degan norma kreditorlar talablarining rad etilish uchun asos hisoblanadi. Ushbu holatda kreditorlar pullarini undirishlarining yagona yo'li bu – qarzdor MChJni bankrot deb topishni so'rab sudga murojaat qilish bo'lib qoladi.

Ushbu o'ziga xos xususiyat aksiyadorlik jamiyatlari uchun ham xos bo'lib, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda AJ) deb e'tirof etiladi.

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi [10].

Bundan ko'rinadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida ham (keyingi o'rinlarda AJ deb yuritiladi) javobgarlik masalasi MChJga o'xshash, ya'ni AJ aksiyadori bo'lsangiz faqat o'z aksiyalaringiz doirasidagina javobgar bo'lasiz. Qachondir sizning AJingiz to'lovga qobilyatsiz va qarzdor bo'lgan taqdirda sud tomonidan sizning aksiyalaringiz tegishli miqdorda boshqa kimgadir sotilib yoki berilib undan tushgan pul bilan yoki shu aksiyalar bilan qarzdorlik qoplanishi mumkin.

Qisqa qilib aytganda, MChJ va AJda ishtirokchilar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulkulari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustavida nazarda tutiladi[11].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatda javobgarlik masalasi mas'uliyati cheklangan va aksiyadorlik jamiyatlaridan farq qiladi. Xo'jalik jamiyatlarining barchasida yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo'la oladilar. Misol uchun, Akbar ismli shaxs ham "Baraka" MChJ nomli yuridik shaxs ham boshqa bir MChJning ishtirokchisi, ta'sischi bo'lishi mumkin. Qonunda ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning jamiyatda ishtirok etishi taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-son va “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 370-son Qonunga ko‘ra davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, jamiyatning ishtirokchilari bo‘lishga haqli emaslar.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-310-II-sonli Qonunning 8-moddasiga muvofiq jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

ushbu Qonunda va jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonunchilikda va jamiyat ta’sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to‘g‘risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o‘z ulushini yoxud uning bir qismini ushbu Qonunda va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o‘zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat’i nazar ushbu Qonunda va jamiyatning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Jami ulushlari jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o‘n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o‘z majburiyatlarini qo‘pol buzayotgan yoxud o‘z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko‘rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar. Jamiyat ishtirokchilari qonunchilikda va jamiyatning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin [12].

Jamiyat ishtirokchilari tomonidan shu va boshqa huquqlarning huquqlarning suiiste’mol qilinishi o‘z navbatida yuqoridgai Qonun normasida nazarda tutilgani kabi ishtirokchilar tomonidan sudga murojaat qilinishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning salmoqli qismini tashkil etuvchi xo‘jalik jamiyatlari, ya’ni mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hamda aksiyali jamiyatlar shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida jamiyatning umumiy manfaati

bo'lgan o'z ustav vazifalarini bajarish, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, belgilangan iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishning samarali va maqbul vositalarini tanlash, ulushlarga mansublikni belgilash, dividend va foydani taqsimlash hamda jamiyat faoliyatiga oid boshqa masalalarda ishtirokchilar orasida turli xil fikrlar, yondoshuvlar va ularning eng maqbulini tanlash va tasdiqlashda ziddiyatlar, nizolarning kelib chiqishi tabiiy hol.

Biroq, ushbu nizolar, ya'ni korporativ nizolar o'zining to'g'ri, qonuniy va adolatli yechiminitopgandagina jamiyatning belgilangan vazifalarini hal qilishda harakatlantiruvchi kuchga aylanib, uning keyingi rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, qonunchilikda xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilari o'rtasidagi korporativ nizolarni hal qilishning ikki usuli: nizolarni sudgacha barataraf qilish va sud tartibida hal qilish belgilab qo'yilgan. Ishtirokchilar har kanday masalani umumiy yigilishda o'zaro hal kilib olishlari mumkin. Agar bu usulda nizolarni hal qilishga erishilmagan hollarda sudga murojaat qilish va nizoni sud tartibida hal qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni sudga qadar va

suddan tashqari bartaraf etishning bugungi kunda bir nechta usullari mavjud bo'lib bular:

talabnoma tartibi yoki muzokaralar, vositachilik (mediatsiya) tartibini keltirish mumkin.

Korporativ nizolarning sudga taalluqliligi, ya'ni mazkur toifadagi nizolarning qaysi sud tomonidan ko'rib chiqilishi protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ular murakkab toifadagi nizolar hisoblanadi. Chunki bunday nizolarda aksariyat hollarda taraflarning soni ko'p miqdorda bo'ladi va ularning hal etilishi bir qancha huquq subyektlarining, shu jumladan, davlat organlarining huquq va majburiyatlariga ta'sir qiladi. Korporativ nizolarning subyektlari sifatida ham yuridik shaxslar, ham jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Shu sababli bunday toifadagi nizolarni ko'rishda huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan barcha shaxslarni aniqlash hamda ularni ishga jalb qilish orqali taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda IPK) 25-moddasi birinchi qismining 5-bandiga ko'ra, korporativ nizolar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi

Korporativ nizolarning sudlovga tegishliligi, ya'ni bunday nizo vujudga kelganda huquqi buzilgan shaxsning aynan qaysi iqtisodiy sudga murojaat qilishi lozimligini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki IPK 155-moddasi birinchi qismining 3-bandiga ko'ra, ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa, da'vo arizasi qaytariladi. Ya'ni da'vo nizoni ko'rishga vakolatli bo'lmagan sudga taqdim etilgan taqdirda, u qaytariladi. Bu esa o'z navbatida da'vogarga o'z huquqlarini sudlarda himoya qilish bilan bog'liq muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Odatda bunday muammolar sudga murojaat qilish uchun belgilangan qisqartirilgan protsessual muddatlarning o'tib ketishi oqibatida vujudga keladi.

Korporativ nizolarning sudlovga tegishliligi umumiy sudlovga tegishlilik qoidasidan farq qiladi. Masalan, umumiy sudlovga tegishlilik qoidalariga ko'ra, yuridik shaxslarga nisbatan da'volar ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi, yuridik shaxslarga nisbatan ularning alohida bo'linmalari faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar alohida bo'linmalar davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi, fuqarolarga nisbatan da'volar ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga taqdim etiladi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, da'volarning sudga taqdim etilishi javobgarining davlat ro'yxatidan o'tgan joy bilan bog'liq bo'lsa, korporativ nizolar bo'yicha esa da'volar korporativ nizo vujudga kelgan yuridik shaxsning joylashgan joydagi sudga taqdim etiladi. Amaliyotda ayrim holatlarda korporativ nizoning sudlovga tegishliligini aniqlashda xatoliklar va ikkilanishlar ham uchrab turadi[13].

Masalan, ta'sischining yuridik shaxs tomonidan tuzilgan ko'chmas mulkni oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi da'vosi bo'yicha, agar yuridik shaxsning joylashgan joyi va ko'chmas mulkning joylashgan joyi boshqa-boshqa hududlarda bo'lsa, da'voni ko'rib chiqilishi qaysi sudga tegishli ekanligini aniqlash borasida ikkilanishlar ham yo'q emas. Chunki IPKda ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqini tan olish to'g'risidagi da'volar, ko'chmas mulk haqidagi nizolar, shu jumladan ko'chmas mulkni boshqa shaxsning g'ayriqonuniy egaligidan talab qilib olish to'g'risidagi yoxud mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan holda buzilishini bartaraf etish haqidagi va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi boshqa da'volar ko'chmas mulk joylashgan yerdagi sudga taqdim etilishi belgilab qo'yilgan. Fikrimizcha, ko'chmas mulk bilan bog'liq korporativ nizolarga oid murojaatlar yuridik shaxs joylashgan yerdagi iqtisodiy sudga taqdim etilishi lozim [14].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qonunchilikda ayrim korporativ nizolar bo'yicha sudga murojaat qilmoqchi bo'lgan shaxslar uchun alohida muddatlar ham belgilangan. Masalan, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 41-moddasining birinchi qismiga ko'ra, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari, jamiyatning ustavi talablari buzilgan holda qabul qilingan hamda jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarori ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat ishtirokchisining arizasiga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday ariza jamiyat ishtirokchisi qabul qilingan qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran ikki oy ichida berilishi mumkin. Bunda ikki oylik muddat yig'ilishda ishtirok etgan ishtirokchi uchun qaror qabul qilingan kundan, yig'ilishda ishtirok etmagan ishtirokchi uchun esa, u qaror to'g'risida bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi [15].

XULOSA

Ushbu Qonun normasida nazarda tutilgan umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risida, asosan huquqlari buzilgan yoki suistemol qilingan jamiyat ishtirokchisi sudga murojaat qilishi mumkin.

Xuddi shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga ko'ra, aksiyador tomonidan o'ziga tegishli aksiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan aksiyadori va (yoki) jamiyat bunday qoidabuzarlik to'g'risida aksiyador yoki jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida o'ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega. Sudlar shuni e'tiborga olishlari lozimki, ushbu ikki va uch oylik muddatlar maxsus da'vo muddatlari hisoblanadi va u sud tomonidan faqat nizodagi tarafning hal qiluv qarori qabul qilungunga qadar bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi [16]. Shu bilan birga, ushbu muddat o'tkazib yuborilgan bo'lib, uning sabablari da'vogarning iltimosnomasida ko'rsatilgan bo'lsa, sud uni uzrli deb topib, Fuqarolik kodeksining 159-moddasiga muvofiq tiklashi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>.
2. H.R.Rahmonqulov, S.S.Gulyamov. Korporativ huquq. TDYI. Toshkent, 2007.

3. 2. M.N.Saidov. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko‘rishning o‘ziga xos jihatlari. Toshkent, 2019.
4. D.U.Eshimbetova. Korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning iqtisodiy sudlarga taalluqliligi masalalari. 5A240121 – “Sud faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan. Toshkent, 2020.
5. Д.Н. Северин Д.Н. Рассмотрение судами споров, вытекающих из условий учредительства хозяйственных обществ (корпоративных споров). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Минск, 2014. <http://dep.nlb.by/jspui/handle/nlb/45667>.
6. Д.В.Ломакин. Корпоративное право как составная часть системы гражданско-правовых отношений: первое хозяйственное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. Москва, 2009, с. 363
7. Andreas Cahn and David C. Donald. “Comparative Company Law- text and Cases on the Laws Governing”. Published in the United States of America by Cambridge University Press, New York, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>
10. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 370-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>.
11. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525/>
12. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 370-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>
13. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko‘rishning o‘ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalar va aholi uchun amaliy qo‘llanma / M.Saidov. –Toshkent: , 2019. – 196 b.

-
14. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko‘rishning o‘ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalari va aholi uchun amaliy qo‘llanma / M.Saidov. –Toshkent: , 2019. – 196 b.
 15. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525/>
 16. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 370-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>

MAMLAKAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNI TA'MINLASHDA SANOAT KORXONALARINING O'RNINI VA TA'SIRI

To'rayev Shohrux Halimovich

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

2-bosqich magistranti

Buxoro, O'zbekiston

e-mail: shohrux.turaev@mail.ru

+99 893 655 77 26

ANNOTATSIYA

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarining bankrotlik sabablarini chuqur o'rganish hamda bankrotlikni oldini olib, o'z vaqtida bartaraf etishdan iborat. Har bir korxonaga uchun raqobat kuchayishi sharoitida o'zining raqobatbardoshligini saqlab qolish va oshirish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Mazkur maqolada korxonalarni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish va rag'batlantirish mexanizmlari, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy nochor korxonalarni rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Raqobatbardoshlikni o'rganish mikroiqtisodiyotning asosiy tamoyillari, sanoat iqtisodiyoti va sanoat bozorlari iqtisodiyoti, birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xatti-harakatlari va sanoat tashkilotining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: bankrotlik, moliyaviy sog'lomlashtirish, innovatsion sanoat siyosati, bankrotlik instituti, restrukturizatsiya, bozor kontsentratsiyasi, vertikal model, gorizontal model.

ABSTRACT

Improving the competitiveness of the country's economy, in-depth study of the causes of bankruptcy of industrial enterprises and timely prevention and elimination of bankruptcy. For each enterprise in the conditions of increased competition, the task of preserving and increasing its competitiveness comes to the fore. This article discusses the mechanisms of financial and economic support, rehabilitation and stimulation of enterprises, stimulation of economically insolvent enterprises in the conditions of economic modernization. The study of competitiveness presupposes knowledge of the basic principles of microeconomics, sectoral economics and the economics of industrial markets, primarily related to the behavior of economic entities and the peculiarities of the organization of industry.

Keywords: *bankruptcy, financial recovery, innovative industrial policy, institution of bankruptcy, restructuring, market concentration, vertical model, horizontal model.*

KIRISH

Korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashning zarur sharti davlat tomonidan raqobatni qo'llab-quvvatlash va monopoliyalarni tartibga solish bo'yicha maxsus sanoat siyosatni amalga oshirishdir. Sanoat siyosati - bu davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, biznes va jamiyat o'rtasidagi tizimli muvozanatli raqobatbardosh iqtisodiyotni va sanoat ishlab chiqarishining yuqori texnologiyali intellektual yadrosini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar tizimidir.

Zamonaviy iqtisodiyotda bozor tuzilmalarining ko'plab potentsial ijtimoiy ehtiyojlarni qondira olmasligi bilan bog'liq bo'lgan bozorni tartibga solish nuqsonlarining mavjudligi, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy farqlanishning kuchayishi, bozor konsentratsiyasining o'sishi, ishtirokchilarning qiziqishining yo'qligi, fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish, ilmiy-texnik sohani qo'llab-quvvatlash zarurati investitsiya talabini rag'batlantirish, moliya-kredit sektori faoliyatini muvofiqlashtirish chora-tadbirlari nuqtai nazaridan davlat aralashuvini talab qiladi. Milliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatning texnologik rivojlanishining ustuvorligini belgilaydigan innovatsion tarmoqlarni shakllantirishga ko'maklashish uchun bojxona tariflarini ham tartibga solish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

Sanoat siyosati iqtisodiyotga davlat ta'sirining boshqa sohalari, shu jumladan tashqi iqtisodiy, mintaqaviy monopoliyaga qarshi siyosat, ekologik va ijtimoiy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, iqtisodiyot faoliyati va rivojlanishining turli bosqichlarida sanoat siyosati aniq maqsadlarga va amalga oshirish vositalariga ega. Tsiklik rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida, tarkibiy inqirozni bartaraf etish bosqichida sanoat siyosati ustunlik bilan sanoat sektorining yangi turdagi sanoat tuzilmasini shakllantirishga yordam beradi. Yuqori darajadagi ishlab chiqarish texnologik tuzilmasidan, iqtisodiy o'sish bosqichida – shakllanayotgan kompleksni rivojlantirish va mustahkamlash, barqarorlashtirish bosqichida mavjud ishlab chiqarish, ilmiy, texnik va innovatsion salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish bosqichiga qarab, sanoat siyosati sanoatning mavjud tuzilishini qo'llab-quvvatlaydi yoki yangi turdagi sanoat tuzilmasini shakllantiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dirijizm (fransuzcha dirigisme) - Fransiyada XX asrning 40-yillari o'rtalarida davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishga faol aralashish siyosati ro'y bergan. Davlatning iqtisodiy kompleksga ta'siri darajasi va xususiyatiga ko'ra, iqtisodiy nazariyada sanoat siyosatining ikkita muqobil modelini ajratish odatiy holdir:

- 1) dirijizm modeli - "qattiq" yoki vertikal model;
- 2) liberal model- "yumshoq" yoki gorizontal model.

"Qattiq" siyosat odatda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan siyosat sifatida tushuniladi. Davlat idoralari byudjet subsidiyalari va ustuvor tarmoqlardagi korxonalariga berilgan kreditlar, kompaniyalarga bilvosita subsidiyalar berish mexanizmlari va tashqi savdoda proteksionizm asosida uzoq muddatli o'sish strategiyasini shakllantiradi. Iqtisodiy kompleks sub'ektlarining o'zaro bog'liqligi yetakchi tarmoqlarning yutuqlaridan foydalanish va iqtisodiyotning yangi turini shakllantirish asosida turdosh tarmoqlarning zanjirli rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlatning iqtisodiyotga bevosita faol aralashuvini nazarda tutadigan sanoat siyosatining "qattiq" modelidan farqli o'laroq faol tashkilot, davlat tadbirkor va investor sifatida, liberal "yumshoq" siyosat raqobatbardoshlikni oshirish uchun sharoit yaratishga va milliy kompaniyalar samaradorligini oshiradigan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Gorizontal model barcha tarmoqlar uchun umumiy bo'lgan ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu model tarafdorlarining fikriga ko'ra, sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash paydo bo'layotgan nisbatlarning saqlanishiga olib kelishi mumkin; bu bozor kuchlari ta'siriga asoslangan tuzilmani doimiy ravishda sozlash strategiyasining afzalligini belgilaydi. Biroq, hozirgi kon'yunktura va cheklangan resurslar sharoitida bozor mexanizmining nomukammalligi, masalan, xom ashyo sektorini ishlab chiqarish tarmoqlari zarariga haddan tashqari kapitallashtirishda namoyon bo'lmoqda, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotning innovatsion, texnologik va boshqa sohalarida orqada qolib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda sezilarli nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunga kelib dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, AQSh va boshqa davlatlarda) sanoat siyosati amalga oshirilmoqda. Davlat organlari sanoat tarkibini jahon iqtisodiyoti muammolariga moslashtirishga, milliy sanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilashga, yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirishga va boshqalarga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradilar. Davlat

tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari sanoat siyosatining vositalari sifatida ajralib turadi.

Sanoat siyosatining bilvosita usullari - ishlab chiqarish uchun resurslarni taqsimlash yoki qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyatning ayrim sohalarini rag'batlantirish yoki to'xtatish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu usullarga tarmoqlar, korxonalar yoki hududlarni subsidiyalash, to'g'ridan-to'g'ri davlat investitsiyalari, davlat korxonalarini yaratish, foiz stavkalarini subsidiyalash va boshqalar kiradi. Bilvosita usullar, shu jumladan pul-kredit va fiskal siyosat elementlari barcha iqtisodiy sub'ektlarning faoliyati uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Ular ishlab chiqaruvchilarning rejalarini o'zgartirish va birinchi navbatda ishlab chiqarish faoliyatining ayrim turlari bilan bog'liq xatarlarni baholash uchun mo'ljallangan. Ushbu vositalar yordamida davlat talab va taklif nisbatini kerakli yo'nalishda o'zgartirishga intiladi. Sanoat siyosatining bilvosita usullariga quyidagilar kiradi:

- tarmoqlarning yoki umuman sanoatning faoliyatini tartibga soluvchi, lekin aniq tarmoqlarni bevosita qo'llab-quvvatlamaydigan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish (texnik tartibga solish, yeksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va boshqalar.);

- milliy korxonalarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashda bojxona va tariflarni tartibga solish;

- ishlab chiqarishning moliyaviy infratuzilmasini va xususan, innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish (diskontlash stavkasini tartibga solish va boshqalar);

- ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha cheklovlarni olib tashlash va uning institutsional xarajatlarini kamaytirish (ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun soliq va boshqa imtiyozlarga ega hududlarni yaratish-texnoparklar, erkin savdo zonalar);

- nodavlat xo'jalik sub'ektlari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish (infratuzilma ob'ektlarini qurish va boshqalar.);

- davlat xaridlari siyosati va boshqalar.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda tez o'zgaruvchan postindustrial iqtisodiy muhitda alohida tarmoqlar va ishlab chiqarish majmualarini to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlashning an'anaviy vositalari juda qimmat va samarasiz. Zamonaviy sanoat siyosati maqsadlarini amalga oshirishning asosiy vositasi bu bilvosita usullardir.

Shu bilan birga, milliy va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tizimini saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy sohaning barqaror ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning davlat sektoridagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida davlat organlari bevosita ta'sir vositalaridan foydalanadilar, muayyan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun byudjet mablag'larini ajratadilar. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasida ma'lum vositalar to'plamining tarqalishi, yuqori darajada qayta ishlangan eng yangi texnologiyalar va mahsulotlar, shuningdek, iqtisodiy o'sishning eng muhim omili sifatida innovatsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq zamonaviy sanoat siyosatining asosiy xususiyati davlat tomonidan olib borilayotgan sanoat siyosatining turini belgilaydi.

Hozirgi kunda dunyoda sanoat siyosatining quyidagi asosiy turlari rivojlangan:

- Eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatini amalga oshirish;
- Import o'rnini bosish siyosatini amalga oshirish;
- Innovatsion sanoat siyosati.

Eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatining mohiyati o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltirilgan tarmoqlarni to'liq rag'batlantirishdan iborat. Asosiy rag'batlantirish choralari jahon bozorining mumkin bo'lgan eng katta ulushini egallash uchun raqobatbardosh eksport tarmoqlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu turdagi sanoat siyosatini amalga oshirish soliq va bojxona imtiyozlari, eksport qiluvchi korxonalarni kreditlash, valyuta kursining pastligini qo'llab-quvvatlash va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarning ishlashi uchun boshqa qulay sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu turdagi sanoat siyosatining muhim afzalliklari bu mamlakatni jahon iqtisodiyotiga kiritish va jahon resurslari va texnologiyalaridan foydalanish; boshqa "mahalliy" tarmoqlar rivojlanishining multiplikatsion samarasini beradigan va byudjetga asosiy mablag' yetkazib beruvchi vazifasini bajaradigan iqtisodiyotning kuchli raqobatbardosh tarmoqlarini rivojlantirish; mamlakatga chet el valyutasidagi mablag'larni jalb qilish va ularni milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmatlarini rivojlantirishga sarflash.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Chili, "osiyo yo'lbarlari" (Malayziya, Tailand, Singapur) va Xitoy kabi mamlakatlar eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatini amalga oshirishda muvaffaqiyatli misol bo'la oladi. Ushbu turdagi siyosatni amalga oshirishda salbiy omillar asosan xom ashyo eksporti bilan bog'liq, chunki eksport qilinadigan mahsulotlar tarkibida "eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosat"ninghaddan tashqari mavjudligimamlakat ishlab chiqarish sanoatidan milliy

sanoat tarkibini primitivizatsiya qilishga, hukumatda korrupsiyaning o'sishiga, kadrlar va moliyaviy resurslarning chiqib ketishiga olib keladi. Uzoq muddatli istiqbolda bu ishlab chiqarish sanoatining raqobatbardoshligining pasayishiga, iqtisodiy o'sishning pasayishiga va to'plangan bilim darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki bilimlarni to'plash va inson kapitali o'sishining eng intensiv jarayoni aynan ishlab chiqarish sohasida sodir bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada bu holat "golland kasalligi" deb nomlangan. Ishlab chiqarish sanoatidagi turg'unlik uning global texnologik rivojlanishdan orqada qolishiga va yangi uskunalarni import qilish zarurligiga olib kelishi mumkin, chunki bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini xorijiy ishlab chiqaruvchilarga bog'liq qiladi. Bundan tashqari, mamlakat yuqori sifatli sanoat uskunalarini eksport qilishga yo'naltirilganda salbiy jihatlar mavjud, agar ushbu uskunani ishlab chiqarishda import qilinadigan butlovchi qismlarning ulushi yuqori bo'lsa, bu eksport qilinadigan mashinalar va dastgohlar narxini ularning import qilinadigan qismlari narxiga bog'lashga olib keladi, shuningdek import qiluvchi mamlakatning ushbu korxonalariga, sanoat sohasiga va umuman mamlakat iqtisodiyotiga iqtisodiy bo'lmagan boshqasalbiy ta'sirlari mavjud bo'ladi.

Import o'rnini bosishning sanoat siyosati-bu proteksionistik siyosat orqali milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida ichki bozorni ta'minlash va milliy valyutaning qat'iy kursini saqlash (shu bilan inflyatsiyaning oldini olish) strategiyasidir. Import o'rnini bosuvchi sanoat siyosati to'lov balansi tarkibini yaxshilashga, ichki talabni normallashtirishga, ish bilan ta'minlashga, mashinasozlik ishlab chiqarishini rivojlantirishga va ilmiy salohiyatga yordam beradi.

Sanoat siyosatining import o'rnini bosuvchi modelining salbiy tomonlari quyidagilardir: jahon iqtisodiyotidagi yangi tendentsiyalardan o'zini izolyatsiya qilish; rivojlangan mamlakatlardan texnologik va raqobatbardoshlik jihatidan orqada qolish imkoniyati; resurslarni samarasiz boshqarish xavfi; xalqaro mehnat taqsimotidan qat'i nazar, boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lganlarga qaraganda ko'proq kapital va resurslarni talab qiladigan to'liq ishlab chiqarish zanjirlarini qurish zarurati.

Innovatsion sanoat siyosati - mamlakatning ichki va tashqi bozorlaridagi iqtisodiy rivojlanish jarayoniga asoslangan bo'lib, yuqori texnologiyali va kapital talab qiladigan ishlab chiqarishni qo'llagan holda texnologik va ijtimoiy rivojlanishning so'nggi tendentsiyalariga asoslanadi. Innovatsion model davlatning ilmiy-texnik salohiyatini, binobarin, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi; ta'lim muassasalarining rivojlanishini rag'batlantiradi va iqtisodiyotni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi; mamlakat ichida ish o'rinlari tashkil

etishga ko'maklashadi va ichki talabni ta'minlaydi; milliy valyutaning yuqori va barqaror darajada bo'lishini hamda aholi farovonligini ta'minlaydi; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori qo'shimcha qiymatiga ega bo'lgan mashinasozlik majmuasini, dastgohlarni va asbob - uskunalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Misol tariqasida, XX asrning 90-yillari boshidan beri Rossiyada bozor o'zgarishlari amalga oshirildi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlar tajribasini qo'llagan holda, Rossiya Federatsiyasi hukumati bozor mexanizmlarining samaradorligi va o'zini o'zi boshqarishga pul tikib, sanoat siyosatining liberal modelini qabul qildi.

Radikal bozor islohotlarining boshida iqtisodiy siyosat kontseptsiyasi institutsional muhitning umumiy iqtisodiy islohotlari, bozor mexanizmlarini yaratish sanoat va korxonalar muammolarini davlat aralashuvisiz hal qiladi degan fikrga asoslangan edi. Biroq, narxlash jarayonini liberallashtirish, davlat buyruqbozlik iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'plab nazorat funktsiyalaridan voz kechishi va hali rivojlanmagan bozor mexanizmlari bilan sovet iqtisodiyotining barcha tarkibiy buzilishlarini to'liq ochib berdi, natijada yuqori inflyatsiya, byudjet taqchilligi, aholining qashshoqlashishi va ishlab chiqarishning turg'unligini keltirib chiqardi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sanoatning rivojlanishiga davlatning ta'siri rag'batlantirishga urinishlar bilan ajralib turadi, mavjud quvvatlardan foydalanishni oshirish uchun korxonalarni arzon aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, proteksionistik tashqi iqtisodiy siyosat orqali import o'rnini bosishni rivojlantirish, sanoat ichidagi integratsiyani tezlashtirish va barqaror ishlab chiqarish "zanjirlari"ni yaratish. Liberal g'oyalar inqirozi fonida davlat hatto turli xil "yumshoq choralar" doirasida, masalan, muayyan loyihalarni amalga oshirish uchun qarzdorlik, bankrotlik protseduralari va davlat korxonalarining aktivlarini boshqarish orqali biznes bilan hamkorlik qilib, unga har tomonlama ko'maklashishi mumkin.

Hozirgi kunda davlat sanoat siyosati rivojlanishining yangi bosqichi shakllanmoqda, uning rivojlanishi innovatsiyalarni joriy etishga asoslangan. Ushbu bosqichdagi asosiy vazifa raqobatbardosh yuqori texnologiyali mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish uchun sharoit va mexanizmlarni yaratishdir. Kelajakda sanoat kompleksi doimiy ravishda o'rganish va aqlli ishlab chiqarishga aylanishi kerak, tashqi muhit muammolarini yengib o'tishga, uning turli xil ichki potentsiallarini yaratishga va uni boshqarishga qodir. Ushbu bosqichda sanoat siyosatini ishlab chiqishda prognoz qilinayotgan global tendentsiyalarni, shu jumladan zamonaviy iqtisodiy tizimlarning yangi texnologik yadrosini jadal shakllantirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, yangi ta'lim

texnologiyalarining tarqalishi, yangi texnologiyalarnikengaytirishni hisobga olish kerak. Sanoatni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar diqqat markazida bo'lishi kerak:

1) tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradigan va iqtisodiyotga kapitalni jalb qiladigan yuqori raqobatbardosh institutsional muhitni yaratish (raqobatbardosh bozorlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni izchil monopoliyadan chiqarish, innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash; jamg'armalarning kapitalga aylanishini ta'minlaydigan moliyaviy sektorni rivojlantirish) ;

2) innovatsion texnologik rivojlanish asosida iqtisodiyotni tarkibiy diversifikatsiya qilish (muhandislik biznesi, innovatsion infratuzilma, intellektual mulk bozori institutlarini o'z ichiga olgan milliy innovatsion tizimni shakllantirish; kuchli ilmiy-texnologik kompleksni yaratish; davlatxususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish orqali iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish);

3) mustahkamlash va an'anaviy sohalar(energetika, transport, qishloq xo'jaligi sektori, tabiiy resurslarni qayta ishlash)da raqobat afzalliklarini kengaytirish, yangi energiya texnologiyalaridan foydalangan holda xalqaro energetika infratuzilmasi bo'g'inlari; sanoat miqyosida ekologik toza energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va boshqalar.

XULOSA

Bugungi kunda ishlab chiqarishning past texnologik darajasi, ishlab chiqarish zanjirlarining bir qismi bo'lgan boshqa tarmoq korxonalarini tomonidan innovatsion mahsulotlarga talabning yetishmasligi, yuqori sifatli inson kapitalining yetishmasligi innovatsiyalarning tarqalishi va joriy etilishiga to'sqinlik qiladi, innovatorlarning boshqa rivojlangan davlatlarga chiqib ketishini tezlashtiradi.

Texnologiyalarni sotib olish uchun katta moliyaviy resurslarga, shuningdek yutuqlarni moslashtirish uchun rivojlangan ilmiy va texnologik bazaga bo'lgan ehtiyoj xoldinglarga birlashtirilgan yirik korxonalar, shuningdek davlat korporatsiyalarining bir qismi bo'lgan kompaniyalar orasida innovatorlarning yuqori ulushini belgilaydi. Kichik biznes bunday xarajatlarni ko'tara olmaydi. Bunday vaziyatda davlatning vazifasi rivojlanish institutlarini (venchur fondlari, texnoparklar, innovatsiya va texnologiya markazlari, texnologiyalarni uzatish markazlari va boshqalar) shakllantirish, mahalliy kompaniyalarga litsenziyalar sotib olishga ko'maklashish, shuningdek, turdosh tarmoqlar korxonalarini o'rtasida innovatsiyalarning tarqalishini ta'minlashdan iborat. Bunga qo'shimcha ravishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tashqi savdo (eksport va import

operatsiyalarini amalga oshirishda raqobatning mavjudligi), ta'limni yangilash (ilg'or texnologiyalarni o'rganish, xorijiy tajriba), g'arb mutaxassislari bilan hamkorlik (tajriba almashish, xorijiy amaliyot) orqali amalga oshirilishi mumkin.

REFERENCES

1. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU. – T.: Iqtisod va moliya, 2014.
2. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A – Marketing asoslari. 2019
3. Toshkent Moliya Instituti – “Strategik menejment” fanidan o'quv-uslubiy majmua. 2018
4. Бланк И.О. (2003). Управление финансовой стабилизацией предприятий. Киев: Ника-Центр, Желга.
5. Baird, D. G. 1993. The Elements of Bankruptcy. New York: The Foundation Press.
6. Antonowicz, P. 2014. The multi-dimensional structural analysis of bankruptcy of enterprises in Poland in 2013 – results of empirical studies. Journal of International Studies, 7(1): 35-45.
7. Garškienė, A.; Garškaitė, K. 2004. Enterprise bankruptcy in Lithuania. Journal of Business Economics and Management, 5(1): 51-58.
8. Говорова Н. Конкурентоспособность – основной фактор развития современной экономики / Н. Говорова // Проблемы теории и практики управления. 2006. № 4. С. 25–37.
9. Зварикова К., Спучлакова Е., Сопкова Г. (2017). Международное сравнение соответствующих переменных в выбранных моделях банкротства, используемых в управлении рисками. Oeconomia Copernicana, 8(1), 145-157.
10. Исмоилова М.Н., Тураева Г.Х. Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. №8(111), 2021. С. 65-67.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INTELLEKTUAL MULK MUHOFAZASI BO‘YICHA BUTUNJAHON INTELLEKTUAL MULK TASHKILOTI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI

Ismoilov Shahboz Baxtiyorjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik univesiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo‘yicha Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, uning rivojlanib borishi hamda o‘zaro hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan intellektual mulk muhofazasini ta‘minlashda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar va uning tahliliga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *intellektual mulk muhofazasi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), SIZAK, Texnologiyalar va innovasiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazi (TIQQM), Intellektual mulkni rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ становления, развития и сотрудничества Республики Узбекистан со Всемирной организацией интеллектуальной собственности в сфере защиты интеллектуальной собственности. Он также коснулся мер, предпринимаемых Республикой Узбекистан в последние годы по дальнейшему расширению сотрудничества со Всемирной организацией интеллектуальной собственности в сфере защиты интеллектуальной собственности и ее анализа.

Ключевые слова: *защита интеллектуальной собственности, Всемирная организация интеллектуальной собственности (ВОИС), СИЗАК, Центр поддержки технологий и инноваций (ТИQQM), Национальная стратегия Республики Узбекистан в области развития интеллектуальной собственности.*

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Respublikamizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa barcha sohalarda keng miqyosda islohotlar amalga oshirishga kirishildi. Bunda ushbu islohotlari amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qilivchi milliy qonunchilik asoslarini yaratish, ushbu sohalarni rivojlantirishning uzoq

muddatli istiqbollarini belgilash bilan bir qatorda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatishga katta eʼtibor qaratildi.

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov taʼkidlaganidek, mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan birini tashkil etdi⁸³.

Bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi va uni rivojlantirishning asosiy omillarida biri sifatida intellektual mulkni rivojlantirish, uning muhofazasini taʼminlashda huquqiy asoslarni yaratish, xalqaro hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyish mamlakatni rivojlantirishda muhim yoʻnalishlardan biri etib belgilandi. Ushbu sohada, eng avvalo, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatishga muhim eʼtibor qaratildi. Oʻzbekiston Respublikasi 1991-yilning oʻzidayoq Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga aʼzo boʻlib kirdi. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) intellektual mulk (IP) xizmatlari, siyosati, axborot va hamkorlik sohasidagi global forumdir. BIMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining oʻz-oʻzini moliyalashtiruvchi tuzilmasi boʻlib, unga 193 davlat hisoblanadi⁸⁴. BIMT 1970-yil 26-aprelda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti konvensiyasi (1967-yil 14-iyul, Stokgolm) kuchga kirgandan soʻng tashkil etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasi mazkur tashkilotga aʼzo boʻlib kirgach intellektual mulkning turli yoʻnalishlari boʻyicha hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyishga kirishildi. Oʻtgan davr mobaynida Oʻzbekiston BIMTning 20 ga yaqin shartnomalarini ratifikatsiya qilgan:

- Butunjahon intellektual mulk tashkilotini taʼsis etish Konvensiyasi;
- Sanoat mulkini muhofaza qilish toʻgʻrisidagi Parij konvensiyasi;
- Patent kooperatsiyasi toʻgʻrisidagi shartnoma;
- Tovar belgilari boʻyicha qonunchilik toʻgʻrisidagi shartnoma;
- Patent jarayondari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponenlashtirishni tan olish toʻgʻrisidagi Budapesht shartnomasi;
- Xalqaro patent klassifikatsiyasi toʻgʻrisidagi Strasburg bitimi;
- Belgilarni roʻyxatdan oʻtkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro klassifikatsiyasi toʻgʻrisidagi Nitssa bitimi;
- Oʻsimliklarning yangi navlarini muhofazalash boʻyicha Konvensiya;

⁸³ Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash – davr talabi. T.5. – T.: “Oʻzbekiston”, 1997. – B. 61-bet.

⁸⁴ <https://www.wipo.int/about-wipo/en/>

Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi;
Sanoat namunalarining xalqaro klassifikatsiyasini ta'sis etish to'g'risidagi
Lokarno bitimi;

Patent qonunlari to'g'risidagi shartnoma;

Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risida Madrid Bitimiga Bayonnoma;

Mualliflik huquqi bo'yicha shartnoma;

Ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnoma;

Ko'zi o'jiz, ko'rishda nuqsoni bo'lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa
jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini
yengillashtirish to'g'risidagi Marokash shartnomasi⁸⁵.

O'zbekiston Respublikasi mazkur shartnoma va konvensiyalarni ratifikatsiya
qilish asnosida ularning talab va tavsiyalaridan kelib chiqqan holda turli intellektual
mulk obyektlarini muhofaza qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar
qabul qilingan hamda ilgari qabul qilinganlari milliy manfaatlardan kelib chiqqan
holda ushbu shartnoma va konvensiyalarga muvofiqlashtirilgan. Bularga misol
sifatida "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun, "Tovar
belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi
qonun, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun,
"Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar
bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonun, "Integral mikrosxemalar
topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va boshqalarni
ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston BIMTga a'zo bo'lgach o'zaro aloqalar yildan-yilga rivojlanib
bordi. O'zbekiston vakillari BIMT tomonidan tashkil etilgan bir qator xalqaro
konferensiyalarda ishtirok etdilar. Shuningdek, BIMTning vakillari O'zbekistonga
tashrif buyurib, o'zaro hamkorlikda Toshkent va boshqa shaharlarda konferensiya va
anjumanlar tashkil etildi. Xususan, 1996-yilda BIMT Bosh direktori Arpad Bogsha
va 2000-yilda Kamil Idris boshchiligida BIMT Xalqaro byurosi vakillarining rasmiy
tashrifi davomida O'zbekistonning davlat patentlash va litsenziyalash siyosatini
amalga oshirishdagi nufuzi va mavqeyi rasman tan olindi. Buning yorqin misoli
sifatida jahondagi davlatlar rahbarlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston
Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy patentlash tizimini
shakllantirish va rivojlantirishdagi ulkan hissasi, ixtirochilik faoliyatidagi ko'magi
hamda mamlakatimizning sanoat mulk obyektlarini xalqaro patentlash huquqiy

⁸⁵ <https://ima.uz/uz/services/idoralararo-hamkorlik/>

jarayonlaridagi faol ishtiroki uchun Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Katta oltin medali bilan mukofotlandi⁸⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-maydagi PQ-1536-son Qaroriga asosan Intellektual mulk agentligi tashkil etilgach, BIMT bilan hamkorlik aloqalari yanada jadallashdi. BIMT va Agentlik o‘rtasida turli anjuman va seminarlar tashkil etildi.

Xususan, 2012 yil 3-4 aprelda Toshkent shahrida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan Mualliflar va bastakorlar jamiyatlari xalqaro konfederatsiyasi (SIZAK) va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning himoyasi va mulkiy huquqlarni jamoatchilik asosida boshqarish” mavzusidagi subregional seminari o‘tkazildi. Ushbu tadbir 26-aprelda nishonlanadigan Butunjahon intellektual mulk kuniga bag‘ishlangan. Seminarda quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

BIMTning mualliflik huquqlari va mulkiy huquqlarni jamoatchilik asosidaboshqarish sohasidagi faoliyati; mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoatchilik asosida boshqarish va Mualliflar va bastakorlar jamiyatlari xalqaro konfederatsiyasi (SIZAK)ning roli;

foydalanuvchilar bilan muzokaralar olib borish va litsenziya bitimlarini tuzish tajribasi;

mulkiy huquqlarni jamoatchilik asosida boshqarish bo‘yicha tashkilotlarni tashkil qilish va faoliyatini olib borishning huquqiy jihatlari va boshqa masalalar.

Seminar ishida BIMT va SIZAK vakillari, Rossiya, Ruminiya, Moldova, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekistonning mulkiy huquqlarni jamoatchilik asosida boshqarish bo‘yicha tashkilotlari, va shuningdek, respublikaning soliq va sud organlari, efir va kabel ko‘rsatish va eshittirish tashkilotlari vakillari, asarlar mualliflari, ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va boshqa manfaatdor shaxslar qatnashdilar.

2013-yil 1-mayda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan tashkil etilgan Patent kooperatsiyasi shartnomasi (RST) tizimi bo‘yicha Milliy seminar o‘tkazildi. Seminar ishi jarayonida BIMT vakili va Agentlik mutaxassisleri tomonidan xalqaro talabnomalarni tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish (PCT-SAFE namoyishi), xalqaro patent qidiruvi, xalqaro dastlabki ekspertizasi, RST talabnomalarini elektron yo‘l

⁸⁶ Intellektual mulk huquqi: rivojlantirish istiqbollari / Ma’sul muharrir: A. G‘afurov. –T.: “Adolat”, 2012. 68-bet.

bilan topshirish, talabnoma beruvchilar uchun xizmatlar (ePCT) va RST bo'yicha axborot resurslari masalalari muhokama qilindi⁸⁷.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi o'zaro hamkorlikda 2014-yilning 20-23-may kunlari "Oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida intellektual mulk" mavzusida, 2015-yilning 12-15-may kunlari "Tovar belgilarining huquqiy muhofazasi masalalari va belgilarni ro'yxatga olishning Madrid tizimi" mavzusida, 2016-yilning 12-15-may kunlari "Innovatsiya va intellektual mulk" mavzusida va boshqa qator mavzularda turli darajadagi seminar va uchrashuvlar o'tkazildi.

Agentlik vakillari 2017-yilda Jeneva shahrida o'tkazilgan BIMTga a'zo davlatlar vakillarining Assambleya yig'ililishida ishtirok etdilar. Mazkur yig'ilish doirasida agentlik vakillari BIMT bosh direktori F.Garri bilan uchrashdilar. F.Garri O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholab, O'zbekistonning BIMT faoliyatidagi sezilarli ishtirokini ta'kidladi. Shuningdek, agentlik mutaxassislarining malakasini oshirish masalalarida zaruriy yordam ko'rsatishga va'da berdi. Mazkur uchrashuvda erishilgan o'zaro kelishuvga muvofiq 2017-yil 6-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi va Jahon intellektual mulk tashkiloti o'rtasida "O'zbekiston Respublikasida texnologiyalarni va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish to'g'risidagi memorandum" imzolandi. Ushbu kelishuvda o'zaro hamkorlikda texnologiyalarni va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3365-son Qaroriga asosan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmoqlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Ushbu Memorandumga muvofiq 2017-yildan davomida Agentlikning Intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazi "IP-CENTER" DUK tomonidan respublikamiz Oliy o'quv yurtlari va Fanlar Akademiyasi ilmiy-tekshirish institutlarida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari (Markaz) tashkil qilib kelmoqda.

Hozirgi kunga kelib respublikamizda jami 9 ta, jumladan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti, Berdaq nomidagi

⁸⁷ <https://ima.uz/uz/nashrlar/yillik-hisobot/>

Qoraqalpog'iston Davlat universiteti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Farg'ona davlat universiteti, "Fizika-quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi Fizika texnika instituti, Jizzax politexnika instituti, Namangan muhandislik texnologiya instituti va Andijon davlat universiteti qoshlarida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilgan⁸⁸

Mazkur mazkazzlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- ixtirolar va foydali modellar bo'yicha patent olish, jumladan RST protsedurasi bo'yicha patentlarni xalqaro muhofaza qilishga ko'maklashish;

- ilmiy-texnik axborotlardan, jumladan intellektual mulk sohasidagi ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish, innovatsion faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari va individual ixtirochilarga IMA hamda BIMTning patent va nopatent axborot resurslari, shuningdek, boshqa axborot resurslariga kirish imkoniyatiga erishishda yordam ko'rsatish orqali mamlakatning innovatsion tarqqiyotiga xizmat qilish;

- intellektual faoliyat natijalarini yaratishni va ulardan samarali foydalanishni rag'batlantirish;

- intellektual mulk natijalaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish nazariyasi hamda amaliyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferentsiyalar va o'quv seminarlari tashkil etish, ularga tayyorgarlik ko'rish hamda o'tkazishda, shuningdek, intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi asoslari to'g'risidagi ilmiy-uslubiy va axborot materiallarini tarqatishda ishtirok etish orqali jamiyatda innovatsion faoliyatni targ'ib qilish va ommalashtirish;

- huquqiy muhofazaga ega bo'lgan intellektual mulk ob'ektlarini ularni xalqaro bozorga kiritish bilan birga kelgusida kommertsializatsiya qilish maqsadida texnologiyalar transferini amalga oshirishda ko'mak ko'rsatish.

Bugungi kunda mazkazzlar belgilangan ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritib kelmoqda. Birgina Guliston davlat universitetida tashkil etilgan texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazida 2021-yilning 11 oyi mobaynida TIQQM tomonidan 7 ta patent olishga, 35 ta talabnoma topshirishga ko'maklashilgan. Shuningdek, xorijiy ilmiy jurnallarda 190 dan ortiq maqolalar chop etilgan. Universitet ilmiy bo'limi bilan hamkorlikda TIQQM 2021 yilda 10 dan ortiq tadbirlarni tashkil etib, 700 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan⁸⁹.

⁸⁸ <https://ima.uz/uz/exhibition/rahbariyatning-chiqish-va-bayonnomalari/>

⁸⁹ <https://guldu.uz/uz/universitet/tuzilma/markazlar/innovation-support-center/18596-texnologiyalar-va-innovatsiyalarni-qollab-quvvatlash-markazi.html>

Keltirib o‘tilgan ushbu raqamlar markalar tashkil etishda BIMT hamkorlik qay darajada samarali ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi “Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4168-son Qaroriga asosan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”da Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish vazifasi qo‘yilgan. Xususan, quyidagi masalalar bo‘yicha BIMT bilan hamkorlikni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan:

- “Tashkent Law Spring” xalqaro yuridik forumi doirasida intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilishning dolzarb tendensiyalarini muhokama qilish;

- Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, BIMTning texnik qo‘llanmalari va ilmiy kitoblarini tarjima qilish va moslashtirish bo‘yicha BIMTning texnik ko‘magini oshirish;

- Intellektual mulk, shu jumladan uning huquqiy himoyasi sohasidagi milliy mutaxassislarni JIMTning shtab-kvartirasiga stajirovkaga yuborish;

- Jamiyatda intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqqa nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot choralari va ishlarini o‘tkazish.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Intellektual mulk agentligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2019-yil 11-12-sentyabr kunlari Agentlik tomonidan BIMT bilan hamkorlikda “Intellectual mulkka nisbatan hurmat munosabatini oshirish” mavzusida seminar tashkil etildi. Mazkur seminarda BIMT, Estoniya, Belgiya va boshqa davlatlardan vakillar ishtirok etishdi. Ushbu seminar davomida intellektual mulk obyektlariga nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirish va oshirishning konsepsual asoslari, mazkur sohada BIMTning tutgan roli, intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha xalqaro hamkorlik va bu boradagi rivojlangan davlatlarning tajribasi muhokama qilindi. Seminar yakunida “Intellectual mulk sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha bo‘yicha strategik hamkorlik” mavzusida davra suhbat tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-yanvardagi “Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4965-son Qaroriga asosan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda “Intellectual mulkni rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi”ni ishlab chiqish belgilangan.

Ushbu milliy strategiyani qabul qilish qilishdan maqsad intellektual mulk sohasini rivojlantirishning keyingi yo‘nalishlarini va intellektual mulk tizimidagi

manfaatdor davlat tashkilotlari, ularning vazifalari va vakolatlarini belgilash, shuningdek, alohida e'tiborga molik asosiy muammolarni ochib berishdan iboratdir. Strategiya vazifalari quyidagilardan iborat:

intellektual mulk sohasini rivojlantirish masalasiga tizimli yondoshuvni va muammoli masalalarning bartaraf etilishini ta'minlash;

davlat idoralarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, jumladan, intellektual mulk borasidagi qonunchilikni bir xilda talqin etilishi borasida; qatnashuvchi tomonlarning mas'uliyatini oshirish;

ilmiy-texnik ijodkorlik va innovasion fikrlash tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratish;

qatnashuvchi barcha tomonlarda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish.

Bugungi kunda ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida BIMT bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, milliy strategiyani ishlab chiqish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirililmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik munosabatlari O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasini ta'minlash, uning huquqiy asoslarini yaratish hamda ushbu sohada davlat boshqaruvini takomillashtirib borilishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston tomonidan BIMTning 20 ga yaqin xalqaro konvensiya va shartnomalari ratifikatsiya qilindi. Mazkur xalqaro hujjatlar asosida intellektual mulkni tartibga solish, uning huquqiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va BIMTning taklif va tavsiyalari asosida takomillashtirib borildi. Bu esa intellektual mulk huquqining buzilishining oldini olish, intellektual mulk subyektlarining buzilgan huquqlarini tiklashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, O'zbekiston tarafi tashabbusi bilan BIMT bilan hamkorlikda turli tadbir va konferensiyalar tashkil etildi. Amalga oshirilgan ushbu chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida O'zbekiston mavqeyini oshirib, intellektual mulk sohasida boshqa tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilishiga imkon yaratdi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash – davr talabi. T.5. – T.: “O'zbekiston”, 1997. – B. 61-bet;
2. Intellektual mulk huquqi: rivojlantirish istiqbollari / Ma'sul muharrir: A. G'afurov. –T.: “Adolat”, 2012. 68-bet;

3. Интеллектуал мулк хукуқининг долзарб муаммолари / хорижий экспертлар иштирокида (видеоконференция шаклида) Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2020. – 336 бет;
4. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул мухаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Окюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019. – 588 бет.
5. Рустамбеков И.Р., Мусаев С.Ф. Международное авторское и патентное право. – Т.: ТГЮУ, 2016. – 280 стр.

Foydalanilgan internet manbalari:

1. <https://lex.uz/>
2. <https://www.wipo.int/about-wipo/en/>
3. <https://ima.uz/uz/services/idoralararo-hamkorlik/>
4. <https://ima.uz/uz/nashrlar/yillik-hisobot/>
5. <https://ima.uz/uz/exhibition/rahbariyatning-chiqish-va-bayonnomalari/>
6. <https://guldu.uz/uz/universitet/tuzilma/markazlar/innovation-support-center/18596-texnologiyalar-va-innovatsiyalarni-qollab-quvvatlash-markazi.html>

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Narqulova Muqaddas Ulug‘bekovna

Xorazm viloyati yuridik texnikumi yuridik klinika rahbari,

Matyaqubova Manzura Shuxratovna

Xorazm viloyati yuridik texnikumi ARM rahbari,

Raxmanov Mavlonbek Maratdurdievich

Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi,

Matyaqubov Bekzod Qadamboyevich

Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi,

ANNOTATSIYA

Maqolada aholining huquqiy madaniyati muammolari yoritilgan. Aholining huquqiy savodsizligi, huquqiy hujjatlarning nomuvofiqligi, qonun ustuvorligi mafkurasining rivojlanmaganligi O‘zbekiston fuqarolarining huquqiy nigilizmining sabablari hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilishda, jamiyatning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan turli chora-tadbirlar o‘tkazish zarurdir.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy nigilizm, rus jamiyati.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются проблемы правовой культуры населения. Правовая безграмотность населения, несогласованность правовых документов, неразвитость законности являются причинами правового нигилизма граждан Узбекистана. Для решения этих проблем необходимо принимать различные меры, направленные на повышение правосознания и правовой культуры общества.

Ключевые слова: правовая культура, правосознание, правовой нигилизм, российское общество.

ABSTRACT

The article deals with the problems of the legal culture of the population. The legal illiteracy of the population, the inconsistency of legal documents, the underdevelopment of the rule of law are the causes of the legal nihilism of the citizens of Uzbekistan. To solve these problems, it is necessary to take various measures aimed at increasing the legal awareness and legal culture of society.

Keywords: legal culture, legal awareness, legal nihilism, Russian society.

KIRISH

Hozirgi o'zbek jamiyati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan chuqur axloqiy, estetik va ma'naviy inqirozni boshidan kechirmoqda. Inqiroz fuqarolarning huquqiy ongida ham kuzatilmoqda: zamonaviy jamiyatda huquqiy nigilizm, anomiya, huquqiy madaniyatning yetishmasligi keng tarqalgan.

Afsuski, bugungi kunda zamonaviy O'zbekiston jamiyatidagi huquqiy madaniyatning nafaqat yuqori, balki o'rtacha darajasi haqida gapirish qiyin, chunki zamonaviy huquqiy ongning inqirozi ko'p jihatdan huquqiy madaniyatning pastligi bilan belgilanadi. Ommaviy axborot vositalarida puxta o'ylangan huquqiy targ'ibot, qonunchilik bazasidan keng foydalanish, fuqarolarni qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga jalb etishning samarali shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish uni yanada oshirish imkonini beradi.

Huquq va qonun haqidagi bilimlarni tarqatish uchun davlat o'z ixtiyoridagi barcha vositalardan: adabiyot, san'at, ta'lim, cherkov, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi kerak.

Shaxs rivojlanishiga maqsadli ta'sir ko'rsatishning asosiy elementi huquqiy ta'lim bo'lib, u ko'p bosqichli va uzluksiz qurilishi kerak. U maktabda boshlanib, butun umr davom etishi kerak. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish zarur, chunki O'zbekistonning kelajagi yoshning qanchalik ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarning huquqni muhofaza qilish organlariga yordam berishga munosabatini o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar orqali tahlil qilish mumkin. Sotsiologik so'rovlarga ko'ra, quyidagilar aniqlandi:

- 16-20 yosh - 3,7%;
- 20-25 yosh - 25,1%;
- 25 yoshdan kattalar - 19,5%.

Va, o'z navbatida, yoshlarning 64% huquq-targ'ibot idoralari nafaqat ularning manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qiladigan tashkilot sifatida, balki, aksincha, ularni dushman sifatida qabul qilib kelmoqda. Qonun va huquqni tushunishda aniq qarama-qarshilik mavjud bo'lib, ikkinchisi ko'pincha zo'ravonlik bilan bog'liq. So'nggi paytlarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada oshgan, bu esa jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakillanmaganligi haqida dalolat beradi [2].

Yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda turli ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim muassasalari, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlari, madaniyat muassasalari ishtirok etishi zarur. Ularning sa’y-harakatlari hamjihat va tizimli bo‘lishi, xatti-harakatlari va ishlari qonun bilan tartibga solinishi kerak.

Ta’kidlash joizki, jamiyat huquqiy madaniyatining holati ko‘p jihatdan yuridik mutaxassislarning fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish borasidagi ishlardagi ishtiroki darajasi, shuningdek, ularning o‘ziga xos madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy ta’lim va targ‘ibot advokatlar kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi kerak, kasb huquqiy vositalarni mukammal egallashga asoslangan.

Mamlakatimizda fuqarolarni qonunlar to‘g‘risida xabardor qilish va ularning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi: huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotchilari, yuridik maslahatchilarni jalb qilgan holda faol ma’ruza va nashriyot ishlari xanuzgacha olib borilmoqdi. Bugungi kunda advokatlarning huquqiy ta’lim va huquqiy targ‘ibot ishlarida ishtirok etishi amalda ularning rasmiy burchi deb hisoblanmaydi. Amaldagi qonun hujjatlarini jamoatchilikka tushuntirish, ularda advokatlarning bevosita ishtirokida maslahatlar berish, ma’ruzalar o‘qish, matbuotda, televideniya va radio orqali so‘zlash huquqiy targ‘ibot va huquqiy ta’lim-tarbiya olib borish ham mumkin [3].

3) kredit-modul tizimi sharoitida OTM talabalarining o'quv faoliyatini individuallashtirish quyidagi tizimli xususiyatlar bilan belgilanadi: uning tarkibiy qismlari diagnostika (dastlabki, oraliq, yakuniy), darajadagi guruhlar bo'yicha taqsimot, individual traektoriyalarni loyihalashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash, shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirish, tuzatish; element shaxsiylashtirilgan o'quv faoliyatini amalga oshirishning pedagogik vazifasidir; tizimli omil-talabalarining o'quv faoliyatini individuallashtirishni boshqarish va o'z-o'zini boshqarish; yaxlitlik dastlabki, teskari, qarshi, parallel yo'nalishdagi aloqalarning mavjudligi bilan ta'minlanadi;

4) kredit-modul tizimida ta'lim olish jarayonida talabaning o'quv faoliyatini individuallashtirish quyidagi faoliyat bilan tavsiflanadi: uning sub'ektlari o'qituvchi va talaba, ob'ekt-talabaning o'quv faoliyati, talabaning o'quv-uslubiy majmuasi, Syllabus, shaxsiy o'quv rejasi, elektron darslik, metodlar-munozara, rol o'ynash va didaktik o'yinlari, faol tinglash, muayyan vaziyatlar usuli, aqliy hujm, natija - talabaning shaxsiylashtirilgan ta'lim faoliyati.

Tizimli va faol yondoshuvni qo'shimcha ravishda, birinchi navbatda, OTMda o'qish jarayonining qulayligini ta'minlaydigan va talabalarining ta'lim sifatini oshirishga yordam beradigan sub'ektlarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan bog'liq bo'ladi.

XULOSA

Bu aytilganlardan asoslanib quyidagi masalalar: mavjud ta'lim tizimida o'quv faoliyatini individuallashtirish bo'yicha ta'limning umumiy o'rta maktab, kasb-hunar maktabi xamda Oliy ta'lim muassasasida uzluksizligini ta'minlash, yuzakilashgan qismlarini didaktik printsiplarga bo'ysundirish, talabalarda fazoviy tasavvurni va konstruktorlik tafakkurni shakllantirish, talabalarining bilish faolligini orttirish shu kunning dolzarb masalalari deyish mumkin.

REFERENCES

1. Gleeson, J. (2011). The European Credit Transfer System and curriculum design: product before process? *Studies in Higher Education*, 14 Sep. 2011, 1-18.
2. Костюк И. «Кредитно-модульная система: особенности ее внедрения в Львовском государственном институте современных технологий и управления им. Вячеслава Черновила», *Международная конференция «Современные проблемы радиотехники, телекоммуникаций и информатики» (ТКСЕТ)*, 2008 г. Львов-Славско, 2008, с. 652-653.
3. Jessica Shedd (2003), "The History of the Student Credit Hour". *New Directions for Higher Education*. 122 (Summer) (122): 5–12.
4. Ш.Мутафакулов., М.Султанов. «Кредит-модуль тизимига ўтиш нима учун керак? Мақсад, моҳият ва афзаллик». *Жамият* 2020й.
5. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.
6. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>
7. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.
8. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.
9. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.
10. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195

11. Muslimov, SherzodNazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
12. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrova, MuslimovSherzodNarzullaugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
13. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
14. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
15. Xalimov M., &Farxodova, Z. (2021). DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY MAKING PROBLEM SOLUTION SITUATION IN DRAWING SUBJECT. *ЗбірникнауковихпрацьЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.62>
16. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILİYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *БошқаруваЭтикаҚоидаларионлайнилмийжурнали*, 2(3), 27-32.
17. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
18. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *ЗбірникнауковихпрацьЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
19. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS

- OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>
20. Rustam Ravshanovich, J. . (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
21. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
22. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
23. Xalimov, M. K., & Asanova, A. S. (2022, January). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING DASTLABKI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
24. Гуломова, Н. (2021). "Uzatmalar" mavzusini o 'qitishda "iSpring Quiz Maker" dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. *Общество и инновации*, 2(5), 8-18.
25. Адиллов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2021). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, 2(2015-2), 34–35. извлечено от <https://science.ndpi.uz/index.php/science/article/view/68>
26. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
27. ПОВЕРХНОСТЕЙ, С. 2-ГО ПОРЯДКА ОБЩЕГО ВИДА ПО ЭЛЛИПСУ ЗАДАННОЙ ПЛОЩАДИ МУРАДОВ ШМИДТ КАРИМОВИЧ. ТАШИМОВ НУРЛАН ЭРПОЛАТОВИЧ, РАХМАТОВА ИКБОЛХОН ИНОМЖАНОВНА,

КУКИЕВ БОБУРМИРЗО БАХОДИР УГЛИ Ташкентский государственный университет имени Низами.

28. Tashimov Nurlan, Samandar Zaitov. (2021) Improving the quality and efficiency of teaching descriptive geometry in a credit-modular system. ACADEMICIA: ANINTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. Volume:11, Issue:2, pp-730-733. DOI : [10.5958/2249-7137.2021.00398.0](https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00398.0)

29. Gulomova, N. (2021). “Uzatmalar” mavzusini o‘qitishda “iSpring Quiz Maker” dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. *Жамият ва инновациялар*, 2(5), 8–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp8-18>

30. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o‘lcham qo‘yishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.

**MUHANDISLIK GRAFIKASIDA LOYIHALASHGA OID
MASALALARNI YECHISH ORQALI TALABALARNING FAZOVIIY
TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH**

Tashimov Nurlan Erpolatovich

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

Tuxtaqulova Zebiniso Barat qizi

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chizmachilikda loyihalash elementlarini o'z ichiga olgan mashqlar orqali, grafik faoliyatda talabalardan fazoviy tasavvurning qo'zg'aluvchanligi, rivojlangan mantiq va obrazli tafakkurni, loyihalash qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Kalt so'zlar: metodika, loyihalash, almashtirish, fazoviy tasavvur, vosita, konstruktiv elementlar, o'lcham, qobiliyat, xavas, qiziqish ko'nikma, malaka, ijod, yangilik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены пути развития у студентов мотивации пространственного воображения, развитой логики и образного мышления, проектных способностей посредством упражнений, содержащих элементы проектирования в черчении.

Ключевые слова: методика, проектирование, замена, пространственное воображение, инструмент, конструктивные элементы, размер, способность, энтузиазм, навыки интереса, навыки, творчество, инновации.

ABSTRACT

This article highlights the ways of developing students' motivation of spatial imagination, developed logic and creative thinking, design abilities through exercises containing elements of design in drawing.

Keywords: technique, design, replacement, spatial imagination, tool, design elements, size, ability, enthusiasm, interest skills, skills, creativity, innovation.

KIRISH

Loyihalash jarayonida grafik obrazlar vositasida turli buyumlarning qiyofasini fikran almashtirishga to'g'ri keladi. Bunday almashtirishda buyumlarning o'lchamlari, qismlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi.

Metodik adabiyotlar tahliliga ko'ra bu masalalarni uch guruhga ajratish mumkin. Bular buyumning fazoviy holatini o'zgartirish, buyum qismining fazoviy holatini

o'zgartirish, buyum shaklini o'zgartirish bilan bog'liq masalalardir. Buyumlarda turli almashtirishlarni bajarishni amalga oshirish inson uchun eng zarur bo'lgan kombinatsiyalash qobiliyatini, dastlabki ma'lumotlarni turli nuqtai nazardan talqin qilish va shunga o'xshash sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarda fazoviy munosabatlarni dinamik ravishda tasavvur qilish talab etilganda grafik materialning dastlabki holatini fikran o'zgartirish jarayoni yana ham murakkablashadi. Shuning uchun ham yuqorida qayd etilgan masalalarni yechish talabalarning texnik ijodiyotini o'stirishga yordam beradi. Yuqorida bayon qilingan metodik usullar talabalarning ijodiy va yaratuvchanlik faoliyatining tayorgarlik bosqichi deyish mumkin. Chunki ular bir-birlari bilan o'zaro bog'lanib, yagona tarkibni tashkil etadi. Bu ishlarning barchasi talabalarning fazoviy tasavvurlarini statik jihatdan rivojlantirib, dinamik bosqichga tayyorlaydi.

Muhandislik grafikasida loyihalash elementlarini o'z ichiga olgan mashqlar grafik faoliyatda talabalardan fazoviy tasavurning qo'zg'aluvchanligi, rivojlangan mantiq va obrazli tafakkurni, boshqacha qilib aytganda yaratuvchanlik faoliyatiga xos bo'lgan sifatlarni talab qiladi.

Insonning ijodiy yaratuvchanlik faoliyatida grafik tasvir o'zaro bog'langan ikki vazifani bajaradi. Birinchidan, chizma fikrlashning o'ziga xos quroli; ikkinchidan fikr (g'oya) beruvchi vositadir. Shuning uchun ham loyihachilik faoliyatida eng birinchi navbatda uning grafik jihatlariga e'tibor qaratiladi. Buyumning obrozinu fikran miyada yaratib, uni ong orqali grafik tasvirlash loyihalash faoliyatining muvaffaqiyatli tomoni deyish mumkin.

Loyihalash jarayonida talabalar turli umumiy texnika fanlaridan egallagan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga fanlararo bog'lanishlarga ehtiyoj sezadilar, texnik hisoblash ishlarini bajaradilar, ma'lumotnomalardan foydalanadilar. Loyihalash jarayonida, ayiniqsa ishlab chiqarish ta'limida egallangan bilimlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy faoliyatning eng oliy ko'rinishi bo'lgan loyihalashning texnikaviy tomonlari qanchalik takomillashgan bo'lishiga qaramay, uning pedagogik-psixologik tomonlari etarlicha o'rganilmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhandislik grafikasida loyihalashga qaratilgan masalalarning an'anaviy masalalardan printsiptial farqi, ularni yechish bosqichlari va ta'limdagi ahamiyati haqida to'xtalaylik. Ma'lumki, texnik detallar ayrim qismlardan (teshiklar, o'yiqlar, chiqiqlar va hokazo) tuzilib, ularni konstruktiv elementlar deymiz.

Shunday qilib loyihalash deganda mehnat unumdorligini oshirish uchun texnik-texnologik sharoitlar asosida butunlay yangi ob'ektlar yaratish, ya'ni amaldagisini takomillashtirish, rekonstruksiyalash bilan bog'liq texnik xujjatlar to'plami ishlab chiqishni tushinish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirishda mashina detallarining shakli, og'irligi, o'lchami kabi parametrlari o'zgarishi tabiiy. Loyihalash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

Birinchi bosqich - tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda texnik ehtiyojlar aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda - shu sohadagi ilmiy axborotlar tahlil qilinib, masalani yechish vositalari va variantlari tanlanadi.

Uchinchi izlanish bosqichida - tug'ilgan g'oyalar solishtirilib chiqiladi hamda ulardan eng maqbuli tanlab olinadi.

To'rtinchi, amalga oshirish bosqichida - loyiha axborotlarining grafik vositasi bilan rasmiylashtiriladi hamda echim tekshirib chiqiladi.

Yangi konstruktsiyani joriy qilish yoki amaldagisini modernizatsiyalaganda turli texnik ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy va shunga o'xshash talablar bajariladi.

Bu talablar quyidagicha bo'lishi mumkin.

- 1) Amaldagi konstruktsiyani soddalashtirish;
- 2) Materiallarning mustahkamlik xususiyatlaridan to'liq foydalanish;
- 3) Buyumga ishlov berishda chiqindilarni kamaytirish maqsadida detalning shaklini to'g'ri tanlash hamda chiqindisiz texnologiyani ishlab chiqish;
- 4) Detailarning xizmat muddatini oshirish va boshqalar.

Loyihalashga doir masalalar yuqoridagi masalalardan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi? Loyihalashga oid masalalarni yechishda talabalarda qanday bilim va amaliy ko'nikmalar shakllanadi?


Ikkinchi savolga psixologik tadqiqotlarning natijalaridan kelib chiqib javob berish mumkin.

Tafakkurimizda yangi loyiha va uning barcha detallari, avvalo fikran yaratiladi. Chizma esa loyihachining fikrini ifoda etish vositasidir. Zero, yangi loyiha haqidagi tasavvur umumiy ko'rinishda paydo bo'ladi.

Chizmalar tuzish jarayonida ob'ektning tafakkurimizda dastlab namoyon bo'lgan obraziga muhim o'zgarishlar kiritiladi. Bu ish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'lanishi lozim bo'lgan fazoviy faraz va bajariladigan chizma biri ikkinchisini to'ldirib boyitadi. Demak ijodiy yaratuvchanlikning bosh rejasida grafik faoliyat turadi. Shu sababli ham talabalarda loyihalash bilan bog'liq ob'ektlarni rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan fanning fazoviy xossa va munosabatlarini almashtirishga yordam beradigan muhim sifatlar-fazoviy faraz va tasavvurni tarkib

toptirish lozim. Bunday sifatga fazoviy almashtirishlar sohasida muntazam va maqsadga yo'naltirilgan mashqlarni bajarish bilan erishish mumkin. Amaliyotdagi detalning konstruktiv tuzilishi yoqimli va ko'rkam qilib o'zgartirilsa, vazni ham kamayadi, uni foydalanish uchun qulay va samarasi yuqori qilib qayta loyihalashga dizayn deyiladi. Dizayn inglizchada "Dezing"-chizma, rasm, loyiha degani.

Hozirda har bir narsani o'ziga jalb qiladigan, yengil, chiroyli va ko'rkam qilib tayyorlashda dizayn talablariga javob beradigan darajada loyihalangan deyish qabul qilingan.



1-rasm

Masalan, 1-rasm, a dagi detalning vazni (og'irligi)ni kamaytirish maqsadida uning shakli (geometriyasi) qisman dizayn talabiga o'zgartirilgan. Natijada u 1-rasm, a,b,d va ye lardagi ko'rinishga o'zgaradi.

XULOSA

Xulosa qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Talabalardagi qobiliyat, xavas, qiziqish ko'nikma, malaka singari xususiyatlarning psixologik asoslari ko'rsatiladi.
2. Ijod, yangilik va loyihalash tushunchalari o'rganiladi va ular grafik fanlarga tadbqiqiy qaraladi.
3. Talabalarda ijod va loyihalashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari qaraladi.

REFERENCES

1. Adilov P., Tashimov N., Zaitov S. Chizmachilikda o'quvchilarning loyihalash qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari. Kasb-hunar ta'limi. 2020/2
2. I.Rahmonov, N.Qirg'izboyeva, A.Ashirboyev, A.Valiyev, B.Nigmanov. Chizmachilik. "Voriz-nashriyot", Toshkent-2016, 428 bet.
3. ПОВЕРХНОСТЕЙ, С. 2-ГО ПОРЯДКА ОБЩЕГО ВИДА ПО ЭЛЛИПСУ ЗАДАННОЙ ПЛОЩАДИ МУРАДОВ ШМИДТ КАРИМОВИЧ. ТАШИМОВ НУРЛАН ЭРПОЛАТОВИЧ, РАХМАТОВА ИКБОЛХОН ИНОМЖАНОВНА,

КУКИЕВ БОБУРМИРЗО БАХОДИР УГЛИ Ташкентский государственный университет имени Низами.

4. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.

5. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

6. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.

7. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.

8. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNII. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.

9. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195

10. Muslimov, SherzodNazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.

11. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

12. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, MuslimovSherzodNarzullaugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN

TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from

<https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>

13. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.

14. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

15. Xalimov M., & Farxodova, Z. (2021). DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY MAKING PROBLEM SOLUTION SITUATION IN DRAWING SUBJECT. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.62>

16. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Бошқарува Этика Қоидалари онлайн илмий журналы*, 2(3), 27-32.

17. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).

18. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-02-19>

19. Rustam Ravshanovich, J. . (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>

20. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

21. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К.

- Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
22. Xalimov, M. K., & Asanova, A. S. (2022, January). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING DASTLABKI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
23. Адиллов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2021). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, 2(2015-2), 34–35. извлечено
от <https://science.ndpi.uz/index.php/science/article/view/68>
24. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
25. Tashimov Nurlan, Samandar Zaitov. (2021) Improving the quality and efficiency of teaching descriptive geometry in a credit-modular system. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. Volume:11, Issue:2, pp-730-733. DOI : [10.5958/2249-7137.2021.00398.0](https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00398.0)
26. Gulomova, N. (2021). “Uzatmalar” mavzusini o‘qitishda “iSpring Quiz Maker” dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. *Жамият ва инновациялар*, 2(5), 8–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp8-18>
27. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o‘lcham qo‘yishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.

O‘ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN DINIY-MA’RIFIY JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirkamolova G.

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohaga oid islohotlarning amalga oshirilayotganligi va uning bugungi kundagi samarasi haqida fikr-mulohazalar keng yoritildi. Diniy-ma’rifiy islohatlarning jamiyat miqyosidagi o‘rni beqiyos ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: Ma’rifat, diniy bag‘rikenglik, taraqqiyot, sharq allomalari, qadimgi sharq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются проводимые реформы в сфере религиозного образования в Узбекистане и их эффективность на сегодняшний день. Неоценима роль религиозно-просветительских реформ в обществе.

Ключевые слова: Просвещение, веротерпимость, прогресс, востоковеды, древний востоковед.

ANNOTATION

This article discusses the ongoing reforms in the field of religious education in Uzbekistan and their effectiveness to date. The role of religious and educational reforms in society is invaluable.

Keywords: Enlightenment, religious tolerance, progress, Orientalists, ancient Orientalist.

KIRISH

Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik – tinchlik va taraqqiyot asosidir. Fan insoniyat jamiyati taraqqiyotining asoslaridan biri hisoblanadi. Ma’rifat va ma’naviyat esa komillik ustunlaridir. Darhaqiqat, Qadimgi Sharqda ta’lim va tarbiya hech qachon bir-biridan ajratilmagan, ularning hech biri bir-biridan yuqori baholanmagan. Bu jahon sivilizatsiyasiga asos solgan buyuk qomusiy olimlar – Imom al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Imom an-Nasafiy va Ahmad al-Farg‘oniylarning bebaho merosida o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida buyuk ajdodlarimizning hikmatli an‘analariga amal qilmoqda. Buni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy-ma’rifiy sohalarda, tashqi va ichki siyosatda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar misolida ham ko‘rish mumkin.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan islohotlar xalq farovonligi va mamlakatimiz taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro hamjamiyat respublikamizning turli millat va konfessiya vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlarning muloqotni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatda tinchlik va totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan izchil va puxta o‘ylangan siyosatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida taklif etilgan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi BMTga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma‘qullangani e‘tiborga molik. Qarordan ko‘zlangan asosiy maqsad – barchaning ta‘lim olishini ta‘minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishdir. Hujjatda bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy e‘tiqod erkinligini ta‘minlash, dindorlarning huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan kamsitishning oldini olish muhimligi ta‘kidlangan. Dunyoda ekstremizm va terrorizm hanuz davom etayotgan, turli din va e‘tiqod vakillariga nisbatan muvazir munosabat hukm surayotgan bir paytda global tahdidlarga qarshi samarali kurashish vositasi sifatida ta‘lim va ogohlik masalasi ko‘tarilmoqda. Turli mintaqa va mamlakatlarda insonning yashashi, ta‘lim olishi, mehnat qilishi, qobiliyat ko‘rsatishi va diniy e‘tiqodlarini amalga oshirishi kabi huquqlari ko‘pincha buziladi. O‘zbekistonda 16 konfessiyaga mansub 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va totuvlik, bag‘rikenglik ruhida yashab kelmoqda. Turli din va millat vakillarining o‘z ehtiyojlarini xavfsiz va erkin qondirishi jamiyat barqarorligining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Turli millat va din vakillarining har qanday tajovuzdan behavotir o‘z ibodatlarini emin-erkin ado etishlari jamiyat barqarorligining muhim ko‘rsatkichlaridan sanaladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 16 ta konfessiyaga qarashli 2315 ta diniy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda. 2124 ta musulmon diniy tashkilotlari bilan bir qatorda 191 ta noislomiy diniy tashkilotlar ham mavjud. Ulardan 17 tasi 2019 va 2020-yillarda ro‘yxatga olingan. Davlat ro‘yxatidan o‘tgan noislomiy diniy tashkilotlarning 174 tasi xristian, 8 tasi yahudiylar, 6 tasi baxaylar, bittasi Xare Krishna va bitta buddistlar ibodatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston dinlararo Injil jamiyati ham mavjud. Diniy-ma‘rifiy sohadagi o‘zgarishlar asrlar davomida islom diniga amal qilib kelayotgan xalqimizning boy ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonida diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish, diniy-ma‘rifiy sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga asoslangan ta‘lim sifatini oshirishning yaxlit tizimi yaratildi.

Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi jamoatchilik maslahat organi hisoblangan Din ishlari bo'yicha kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Kengash a'zolari soni 9 tadan 17 taga kengaytirildi. Uning tarkibiga O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha diniy konfessiyalar vakillari kiradi. Mamlakatimiz ta'lim markazi sifatida tanilgan. Bu yerda ilmiy-ma'rifiy markazlar, jumladan, diniy-ma'naviy tadqiqotlarga bag'ishlangan markazlar tashkil etilmoqda. Toshkentda – ko'p asrlik ma'rifat xazinasi timsoli bo'lgan va fundamental tadqiqotlar olib boruvchi Islom sivilizatsiyasi markaziga asos solindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muqaddas islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, hadis ilmining sultoni, buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning ulkan merosini ilmiy asosda o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligiga targ'ib etish, azaliy milliy qadriyatlarimizni saqlash va ulug'lash asosida yosh avlodning ruhiy va ma'naviy olamini boyitish, imon-e'tiqodini mustahkamlash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 23 maydagi PQ № 875-sonli qaroriga muvofiq Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etilgan edi.⁹⁰ Ezgu ishlarning davomi sifatida va hadis ilmining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan vatandoshimiz Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 27 martdagi PQ-2855-son qarori qabul qilindi.⁹¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Sherobod tumanidagi Iso Termiziy maqbarasi obod qilingan edi. 2017 yil 14 fevralda davlatimiz rahbarining Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qurildi. Unda islom dini, jumladan, hadis ilmi, Iso Termiziy hamda termiziy allomalar merosi chuqur o'rganiladi. Diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanishga qaratilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ommabop nashrlar, ilmiy-

⁹⁰ . http://old.bukhari.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=85:imom-bukhorij-khal-aro-markazi&catid=53&Itemid=451&lang=ru

⁹¹ . <https://lex.uz/docs/3263382>

amaliy tavsiyalar tayyorlanadi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining asosiy vazifasi qilib islom dinining, Qur'oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda termiziy allomalar, yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish belgilandi.⁹²

Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish maqsadida qilinayotgan ezgu ishlardandir. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori qabul qilindi (693-son, 06.11.2020 y.).⁹³

Qaror bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tuzilmasi va ustavi tasdiqlandi.

Aqida va kalom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Moturidiy va uning izdoshlari bo'lgan allomalarning ulkan ilmiy, diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, xalq va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish;

- islom dinining insonparvarlik mohiyati, ma'rifiy-madaniy roli va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng afkor ommaga, jumladan, xalqaro jamoatchilikka yetkazish;

- Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi allomalarning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi va uning taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqur tadqiq etish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinchlik-totuvlik kabi islom dinining asl qadriyatlari ruhida tarbiyalash;

- mamlakatda hamda xorijiy davlatlarning kutubxonalari va arxiv fondlarida saqlanayotgan buyuk allomalarning kalom ilmiga oid merosi hamda islom dunyosi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozma, toshbosma asarlarning aql hamda elektron nusxalarini to'plash va kelajak avlodga yetkazish uchun tizimli ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish;

⁹² . <https://lex.uz/docs/3113645>

⁹³ . <https://religions.uz/news/detail?id=1494>

- islomiy ilmlar, xususan, kalom ilmi tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish sohasidagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ilmiy-nazariy va uslubiy masalalarga bag'ishlangan anjuman, konferensiya, simpozium, ko'rgazma, ilmiy ma'ruza, seminar-trening va tanlovlar hamda boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

- tadqiqot natijalari yuzasidan qomuslar, kataloglar, albomlar, ilmiy-ommabop hujjatli filmlar, axborot-resurs bazasini tayyorlash va ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida e'lon qilishni tashkil qilish;

- islom tarixi va kalom ilmi yo'nalishidagi yangi tadqiqotlar natijalaridan ilmiy jamoatchilikni keng xabardor etish ularning barchasi markazning asosiy vazifalari etib belgilandi.⁹⁴

Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Samarqanddagi Hadis ilmi maktabi ham oliy o'quv yurtlarida ham yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. 2018-yilda O'zbekiston Islom akademiyasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.⁹⁵ Uning tuzilmasida Malaka oshirish markazi mavjud. Akademiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida hududiy filiallari mavjud. Agar 2017-yilgacha uchta oliy (bitta islom, ikkita noislomiy) va to'qqizta o'rta maxsus diniy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda O'zbekistonda beshta oliy (uchta islom va ikkita noislomiy) va 10 ta o'rta maxsus diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular islom ma'rifatini keng targ'ib etish, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish borasida keng ko'lamlil ilmiy-tadqiqot ishlarini boshlab yubordilar. O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etilgani ham tarixiy ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifalari masjidlar, muqaddas ziyoratgohlarni rekonstruksiya qilish ishlarini moliyalashtirish, mamlakatimizning barcha hududlarida ularga va shunga o'xshash ob'yektlarga ziyoratlarni tashkil etish, shuningdek, moddiy-texnik bazani ta'minlash va soha xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashdan iborat. 2018-yildan boshlab respublika fuqarolari uchun Saudiya Arabistoniga umra ziyorati uchun kvotalar bekor qilindi. 2019-yil dekabr oyidan boshlab Toshkent – Jidda – Toshkent yo'nalishi bo'yicha kuniga ikki marta qatnov tashkil etildi. 2020-yil fevral oyidan esa Toshkent-Madina-Toshkent yo'nalishi bo'yicha qatnov yo'lga qo'yildi. Demak, 2017-yilda 6

⁹⁴ . <https://lex.uz/docs/4945427>

⁹⁵ 466-сон 22.06.2018. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-3791929>

ming, 2018-yilda 16 ming, 2019-yilda 38 ming, 2020-yilning birinchi choragida 28 ming o'zbekistonlik umra ziyoratiga bordi. O'zbekistonda diniy ta'limning ochiqligi umumiy o'rta maxsus ta'lim olgandan keyingina va faqat rasmiy ta'lim muassasalarida ta'minlanadi. Diniy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida xorijdan olib kelinayotgan bosma va elektron nashrlar soni ko'paydi. Jumladan, Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga 644 nomdagi 3500 dona, Hadis ilmiy maktabiga 356 nomdagi 1500 ga yaqin kitob va islom ilmlariga oid 7 ming nusxadan ortiq elektron adabiyotlar topshirildi. Shu bilan birga, Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan Markaziy Osiyo musulmon mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojida o'rni haqida 10 dan ortiq kitob va risolalar tayyorlandi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Imom Termiziy, Hakim at-Termiziy va boshqa allomalarning 20 dan ortiq asarlarini termizlik o'zbek tiliga tarjima qilgan. Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buyuk allomalarning jumladan Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy, Imom an-Nasafiy, Saffor al-Buxoriy va boshqalarning aksariyat asarlarini tarjima qilgan, 50 dan ortiq kitoblari nashr etilgan. O'zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yondashuvlar kontseptual jihatdan qayta ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor uning oldini olish va aholi ogohliligini oshirishga qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ham "Jaholatga qarshi ma'rifat" degan ulug'vor g'oya asosida din sohasidagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish, buzg'unchi g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholi, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish kabi ustuvor yonalishlar e'tirof etilgan.⁹⁶ Hududlarda 31 mingdan ortiq targ'ibot va madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili keng tushuntirildi. Vataniga qaytgan 63 ming 857 nafar mehnat muhojirlari bilan ma'rifiy suhbatlar tashkil etildi. Xorijga ketayotgan 65 ming 527 nafar fuqaroning ma'naviy-mafkuraviy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan 675 dan ortiq treninglar, mingdan ortiq targ'ibot tadbirlari o'tkazildi, 32 ming 400 ga yaqin bukletlar tarqatildi.

So'nggi 4 yil mobaynida mamlakatimizda inson huquqi va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan izchil siyosat samarasi o'laroq, nafaqat yurtimizda istiqomat qilayotgan, balki o'zga yurtlarda murakkab ahvolga tushib qolgan O'zbekiston fuqorolariga ham alohida e'tibor qaratilib, ularning manfaati, sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilinmoqda. Shuningdek, 2019-2020 yillarda tashkil etilgan

⁹⁶ . <https://lex.uz/docs/3686277>

«Mehr» operatsiyasi doirasida Yaqin Sharqning jangovar harakatlar olib borilayotgan hududlaridan 318 nafar ayollar va bolalar Vatanga qaytarildi.⁹⁷ Taqiqlangan diniy oqimlar safiga qoʻshilib qolgan fuqarolarni jamiyatga qayta moslashtirish bilan bogʻliq tizimli ishlar muntazam olib borilmoqda. Oʻz navbatida, hukumat tomonidan islom dinini musaffoligini asrash, uni turli buzgʻunchi oqimlar gʻoyalaridan holi ekanini yosh avlodga singdirishga qaratilgan tadbirlar ham tashkil etilmoqda. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida soʻzlagan tarixiy nutqi alohida eʼtiborga molik. Yurtboshimiz oʻz nutqida islom dinini zoʻravonlik va qon toʻkish bilan bir qatorga qoʻyadiganlarni qoralab, ular bilan hech qachon murosa qilib boʻlmashligini taʼkidlagan edi.⁹⁸ Bu fikrning amaliy ifodasi oʻlaroq BMT Xavfsizlik Kengashining 2017 yil 21 dekabrda 2396-sonli rezolyusiyasida: «Terrorizm, zoʻravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bogʻliq holda talqin qilinmasligi kerak», deya qayd etildi. Shu bilan birga Oʻzbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik» rezolyusiyasi BMT Bosh Assambleyasining 2018 yil 12 dekabr kunidagi yalpi sessiyasida qoʻllab-quvvatlanib, bir ovozdan qabul qilindi.⁹⁹

Oʻz navbatida bu oʻzgarishlar respublikamizning xalqaro imijini yanada yuksalishiga zamin hozirladi. Jumladan, 2020 yil dekabr oyida AQShning Xalqaro diniy erkinlik boʻyicha komissiyasi (USCIRF) Oʻzbekistonni maxsus kuzatuvdagi mamlakatlar roʻyxatidan olib tashladi. Bu haqidagi xabarni AQSh davlat kotibi Maykl Pompeo 2020 yil 7- dekabrda maʼlum qilgan¹⁰⁰. Xususan, Pompeo oʻz bayonotda diniy erkinlik bu insonning ajralmas huquqi ekanini alohida taʼkidlab, «Maxsus kuzatuvdagi davlatlar roʻyxati»da oʻzgarishlar boʻlganini aytib oʻtgan.

«Soʻnggi bir yil ichida Oʻzbekiston hukumati erishgan muhim, aniq yutuqlarga asoslanib, Oʻzbekistonni maxsus kuzatuv roʻyxatidan chiqarilganligini eʼlon qilishdan mamnunman. Oʻzbekistonning qonunlari va amaliyotdagi jasoratli islohotlari boshqalar uchun namuna boʻlmoqda», deya Maykl Pompeo respublikamiz erishayotgan yutuqlarni eʼtirof etib oʻtgan¹⁰¹. Qayd etish lozimki, Oʻzbekiston 2006 yildan 2018 yilgacha «alohida xavotirdagi mamlakatlar roʻyxati»da edi. Diniy

⁹⁷ . https://uza.uz/uz/posts/mehr-3-operatsiyasi-doirasida-suriyadan-98-nafar-yurtdoshimiz-ayollar-va-bolalar-olib-kelindi_192694

⁹⁸ . <https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/%2013/bmt-rezolyutsiya>

⁹⁹ . БМТ Бош Ассамблеяси Ўзбекистон ишлаб чиққан резолюцияни қабул қилди – Газета.уз

<https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/%2013/bmt-rezolyutsiya>

¹⁰⁰ . <https://huquqiyportal.uz/news/2020/12/29/uzbekistonda-diniy-tashkilotlar-faoliyatini-tartibga-solishda-normativ-huquqiy-asoslarni-takomillashtirishning-ahamiyati>

¹⁰¹ . <https://podrobno.uz/cat/politic/gossekreter-ssha-mayk-pompeo-pokhvalil-uzbekistan-za-bolshie-uspekhi-i-realnye-progress-v-dele-po-ul/>

erkinliklar borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz 12 yildan soʻng ushbu roʻyxatdan chiqarilib, «Maxsus kuzatuvdagi davlatlar roʻyxati»ga oʻtkazildi. Oradan ikki yil oʻtib, Oʻzbekiston mazkur roʻyxatdan toʻliq chiqarildi. Ushbu jarayon respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning xalqaro eʼtirofi va ortga qaytmasligining tasdigʻidir. Diniy-maʼrifiy soha faoliyatini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida Prezident qarori qabul qilindi (PQ–4436-son, 04.09.2019 y.). Bu haqda "Huruqiy axborot" kanali xabar berdi.¹⁰²

Qarorga muvofiq jamiyatda vijdon erkinligi kafolatlari va diniy-maʼrifiy muhit barqarorligini taʼminlash boʻyicha soha uchun masʼul organlarning mustahkam va doimiy hamkorligini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etiladi.

XULOSA

Din sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va prinsiplarini keng jamoatchilikka tushuntirish, vijdon erkinligi kafolatlari buzilishi holatlariga nisbatan tezkor choralar koʻrish yangi tizim doirasidagi hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlaridan etib belgilandi. Shuningdek, qaror bilan Din ishlari boʻyicha qoʻmitaning yangilangan asosiy vazifalari belgilandi. Qoʻmita vijdon erkinligi va din ishlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, dinning asl insonparvarlik mohiyatini targʻib etish maqsadida barcha davlat va nodavlat notijorat tashkilotlariga bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda koʻmaklashadi. Qarorga koʻra, sud tomonidan ekstremistik yoki terroristik deb topilgan hamda Oʻzbekiston Respublikasi hududida faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlar roʻyxati Adliya vazirligi va Oliy sud rasmiy veb-saytlarida va boshqa OAVlarda eʼlon qilib, nazorat qilib boriladi.

REFERENCES

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, <http://strategy.gov.uz/ru>
2. 2018 йил январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. ЎзР Статистика давлат қўмитаси, Тошкент, 2019.
3. <https://cabar.asia/uz/uzbekiston-dinij-erkinlikni-taminlash-sari>
4. <https://lex.uz/>

¹⁰² . <https://sangzor.uz/uzbekiston/1296-onunchilikdagi-yangiliklar-endi-ekstremistik-saytlar-ryhati-oavda-elon-ilinadi-va-yangilab-boriladi.html>

ЭВРИСТИК ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВНИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРТИ

Разикова Феруза Камилджановна

Тошкент давлат педагогика университети

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада компетенцияга асосланган ёндашувга асосланган таълим натижалари тўғрисида умумий тушунчани ишлаб чиқишга умумевропа ёндашувлари, таълимга қўйиладиган талаблар — таълим мазмуни» триадасидаги мувофиқликни компетенциялар нуқтаи назаридан аниқ шакллантириш қобилиятида ифодаланади. Жараён – ўқув натижалари ҳақида фикрлар ёритилган.

Калим сўзлар: Эвристик таълим, натижалар, таълим мазмуни, ижодий фаолият, ностандарт вазият, касбий фаоллик.

АННОТАЦИЯ

В данной статье общеевропейский подход к выработке общего понимания результатов обучения на основе компетентностного подхода, требования образования - содержание образования» выражается в умении четко сформулировать соответствие в терминах компетенций. процесс – выделяются представления о результатах обучения.

Ключевые слова: эвристическое обучение, результаты, содержание обучения, творческая деятельность, нестандартная ситуация, профессиональная деятельность.

КИРИШ

Анъанавий таълим парадигмасининг инкирозига сабаб бўлган сабаблар орасида замонавий шароитда маълумотларнинг эскириши табиий ўқув цикли тугашидан анча тезроқ содир бўлади, бунинг натижасида зарур билимлар захирасини узатишга анъанавий муносабат йўқолади. унинг маъноси. Бундан ташқари, меҳнат бозорида билимларни қандай эгаллашни ўрганиш жуда муҳимроқ бўлади, чунки талаб қилинадиган нарса бу ўз-ўзидан билим эмас, балки мутахассиснинг уларни амалда қўллаш, муайян касбий ва ижтимоий функцияларни бажариш қобилиятидир (Ф. Ялолов).

Шу муносабат билан касб-хунар таълимининг амалий йўналишини кучайтириш, лекин унинг фундаментал моҳиятини сақлаб қолган ҳолда таълим мазмунини янгилаш вазифаси қўйилди. Амалиёт йўналтирилган таълим рус

таълими учун анъанавий фундаментал фанларни технологик ёки ижтимоий йўналишдаги амалий фанлар билан биргаликда ўрганишни ўз ичига олади. Янгиланган таълим рус жамиятининг барқарор ривожланиши учун зарур бўлган амалий фанларни ривожлантириш билан бир қаторда фундаментал фанни сақлашда асосий роль ўйнаши керак.

Маълумки, таълим мазмуни, унинг вазифасини бажариш усули, реал таълим жараёнида фаолият кўрсатиш шакли бугунги кунда мавжуд бўлган шаклда шахс камолоти қонуниятларига амалда мос келмайди. Ижтимоий тажрибага изоморф бўлган модернизация бўйича замонавий ҳужжатларда акс этирилган таълим мазмуни анъанавий равишда унинг тўртта асосий таркибий элементидан иборат: 1) унинг натижалари (билим) шаклида мустаҳкамланган когнитив фаолият; 2) фаолиятнинг маълум усуллари амалга ошириш (репродуктив қобилиятлар шаклида); 3) ижодий фаолият («ижодий» кўникмалар шаклида); 4) ташқи дунёга ҳиссий-қадрият муносабатлари тизимини ўзлаштириш (шахсий йўналишлар ва устуворликлар шаклида). Ушбу тўрт жиҳатдаги мазмунни ўзлаштириш, маданиятшунослик концепциясини ишлаб чиқувчиларнинг фикрига кўра, янги таълим стандартининг асоси бўлган «компетентлик» ёндашувини амалга ошириш имконини беради.

Асосий қисм: Ушбу стандарт доирасида биз касбий таълим мазмунининг фаоллиги ва когнитив жиҳатларининг маълум бир уйғунлиги ҳақида гапиришимиз мумкин, уларнинг бирликлари кўникмалар (интеллектуал ҳаракатлар алгоритмлари) ва тушунчалар тўпламини ўз ичига олади, яъни объектлар, ходисалар, қонунлар ва фактларнинг муҳим хусусиятлари ва хусусиятлари. Шу сабабли, фаоллик ва когнитив жиҳатларда мавзу билимлари ва маънолари (қадриятлари) нинг махсус тузилишида намоён бўладиган тизимли табиатнинг мазмуни, шунингдек, талабаларга уларнинг келажакдаги касбий фаолиятидаги ваколатлари амалга оширишга имкон берадиган ҳаракатларни амалга оширишнинг боғлиқ усуллари ажратиб кўрсатиш муҳимдир.

Эркин ва фаол фикрлаш, ишлаб чиқариш жараёнини моделлаштириш, янги ғоялар ва технологияларни мустақил ишлаб чиқиш ва амалга оширишга қодир бўлажак мутахассиснинг касбий малака даражасини ошириш муаммоси замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитда долзарб ҳисобланади. Биринчидан, касбий малакали мутахассис бутун ишлаб чиқариш жараёнига ижобий таъсир кўрсатади; иккинчидан, у ўз касбий фаолиятида яхши натижаларга эриша олади; учинчидан, ўз касбий имкониятларини рўёбга чиқаришга ёрдам беради.

Компетенцияга асосланган ёндашувнинг тоифали асоси ўқув жараёнининг мақсад ва вазифалари билан боғлиқ бўлиб, унда компетенциялар талабанинг кўникма ва қобилиятларининг энг юқори, умумлаштирилган даражасини белгилайди ва таълим мазмуни тушунчалар (билим, малака, ижодий фаолият тажрибаси, қадрият муносабати тажрибаси ва бошқалар) асосий таълим мазмуни билан белгиланади.

Компетенцияга асосланган ёндашув назариясида иккита асосий тушунча ажралиб туради: компетенция ва компетенция, биринчиси эса, маълум бир доирадаги объектлар ва жараёнларга нисбатан ўзаро боғлиқ бўлган шахсий хусусиятлар тўпламини ўз ичига олади, иккинчиси шахснинг тегишли компетенцияга эгаллиги, шу жумладан унинг унга ва фаолият предметида шахсий муносабати. «Компетенция» ва «компетентлик» тушунчаларини, умуман, инсон фаолиятига нисбатан, баркамол мутахассиснинг моҳиятини ҳисобга олган ҳолда назарий таҳлил қилишга В.В. Баталов, М.Г. Эвдокимова, И.А. Зимняя, Н.В. Кузмина, А.К. Маркова ва бошқа тадқиқотчилар катта ҳисса қўшдилар.

Натижа ва муҳокамалар: Шахсий касбий компетенция одатий ва ностандарт вазиятларда касбий муаммоларни самарали ҳал қилиш учун зарур бўлган шахсий ресурсларни (билимлар, кўникмалар, қобилиятлар ва шахсий фазилятлар тизимида ташкил этилган) сафарбар этишга тайёрлик сифатида таълимнинг яхлит натижаси сифатида махсус касбий компетенциялар ва асосий компетенцияларни ўз ичига олади. Биринчиси, шахснинг касбий вазифаларнинг маълум бир синфини (лойиҳалаш, диагностика ва бошқалар) муайян вазиятга адекват равишда самарали ҳал қилиш қобилиятини ифодалайди, иккинчиси касбий фаолият тури ва турига нисбатан ўзгармасдир. Биринчиси бир ёки бир нечта ўқув фанлари доирасида шакллантирилиши (ва баҳоланиши) мумкин, иккинчиси эса тубдан ортиқча мавзудир. Ҳар иккисининг ривожланиши шахснинг фаолият йўлини ўзлаштириш (қобилиятни ривожлантириш) жараёни билан боғлиқдир.

Кўриб турганингиздек, компетенциялар билим, кўникма ва қобилиятларни истисно қилмайди, гарчи улар улардан тубдан фарқ қилади. Билимдан — улар нафақат бу ҳақда маълумот, балки фаолият шаклида мавжудлиги билан. Кўникмалардан — компетенцияларни ҳар хил турдаги муаммоларни ҳал қилишда ва турли вазиятларда қўллаш мумкинлиги билан (улар ўтказиш хусусиятига эга). Кўникмалардан — улар онгли ва автоматлаштирилмаганлиги билан, бу одамга нафақат одатий, балки ностандарт вазиятда ҳам ҳаракат

қилиш имконини беради. Шундай қилиб, касбий компетенция — бу шахсининг маълум бир махсус ва асосий ваколатлар тўпламига эга бўлиши, шу жумладан ўзи ҳаракат қиладиган касбий вазиятга қадрият муносабати.

Шу нуқтаи назардан, мутахассислар тайёрлашга компетенцияга асосланган ёндашувнинг асосий хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

- шаклланган билим, малака, сифат ва ишлаб чиқариш фаолияти усулларининг умумий ижтимоий ва шахсий аҳамияти;
- хулқ-атвор ва баҳолашда ифодаланган касбий ва шахсий такомиллаштириш мақсадларини аниқ белгилаш;
- шахсни ривожлантириш мақсадлари ҳам бўлган муайян компетенцияларни аниқлаш;
- миллий ва умуминсоний маданиятни идрок этишга асосланган семантик йўналишлар мажмуи сифатида компетенцияларни шакллантириш;
- статистик усуллар билан қайта ишланиши мумкин бўлган ўлчов мезонларининг аниқ тизимининг мавжудлиги;
- шаклланаётган шахсга педагогик ёрдам кўрсатиш ва унинг учун «муваффақият зонаси» ни яратиш;
- мақсадга эришиш учун стратегия танлаш дастурини индивидуаллаштириш;
- билимлардан амалий фойдаланиш ва қимматли ҳаётий тажрибани ўзлаштириш кўникмаларини ҳар томонлама текшириш учун вазиятлар яратиш;
- мавжуд билим, кўникма ва фаолият усулларини такомиллаштириш қобилияти билан боғлиқ бўлган шахсият намоёнларининг интеграл характеристикаси ижтимоийлашув ва ҳаётий тажрибани тўплаш.

Талабаларнинг касбий нутқий компетенциясини компетенцияга асосланган ёндашув доирасида шакллантириш учун касбий нутқий компетенцияси даражаси учун замонавий таълим талабларига жавоб бермайдиган ва рағбатлантиришга ҳисса қўшмайдиган мавжуд таълим тизимини оптималлаштириш керак. кундалик университет ҳаётидаги инновациялар. Бугунги кунда анъанавий таълимнинг эски дидактик тизими, унинг таркибий қисмлари, айниқса, олий ўқув юртларида талабаларни ўқитиш технологиясида жамиятдаги қадрият йўналишларининг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда, жиддий ўзгаришлар рўй бермаган.

Университетларда касбий нутқ компетенциясини ўзлаштириш жараёни, афсуски, баъзан жуда қийин. Биз турли фанлар ўқитувчиларининг технократик тафаккурининг инерциясини ва нутқ маданиятини ривожлантириш ғоясининг

нафақат ҳозир, балки яқин келажакда ҳам муҳимлигини тушунмасликни енгишимиз керак .

Инновацион технологияларда амалга ошириш индивидуалдир Ижодий ёндашув талабаларда ўзларининг «мен» нинг идеал қиёфасини шакллантиришни ўз ичига олади: мен касбий уста, касбий ижодкор бўлиш учун нима бўлишим керак. Бу келажакдаги мутахассиснинг мотивацион соҳасини қайта қуриш билан боғлиқ. Бундайларнинг ички мақсадлар, талабаларнинг касбий нутқий билимлари ва кўникмаларининг «шахсий маъноси» ни англаш натижаси ростлаш ҳодисасидир.

Шу муносабат билан талабаларда қуйидаги фазилатлар шаклланиши керак:

- ўз-ўзини ривожлантириш учун вазифаларни мустақил равишда шакллантириш ва уларни ҳал қилиш стратегияси ва тактикасини ишлаб чиқиш қобилияти;

- илмий ва касбий маълумотларни олишда мустақиллик ва ундан қўйилган вазифаларни ҳал қилишда фойдаланиш қобилияти;

- келажакдаги касбий мулоқотда зарур бўлган муаммолар ва вазифаларни ҳал қилишда янги билимларни эгаллаш қобилияти.

Касб-ҳунар таълимининг компетенцияга йўналтирилган тизимини янгилаш таълим муассасалари фаолиятининг инновацион моделларини, янги турдаги касб эгаларини шакллантиришга хизмат қилувчи шахс ва малака ошириш педагогик технологияларини излаш ва таълим жараёнига жорий этишга олиб келди. Бунинг учун талабанинг нафақат касбий ривожланишига, балки унинг шахсий ривожланишига ҳам жиддий эътибор қаратиш лозим. Олий таълим томонидан амалга оширилаётган кўплаб инновациялар қаторида барқарор ўринни эгаллаган ва аҳамияти бўйича биринчи ўринлардан бирини эгаллаган ривожлантирувчи таълим ҳам бор. Бизнинг фикримизча, олий ўқув юртларида ривожлантирувчи таълим жорий этилиши билан компетенциявий ёндашувни жорий этиш таъминланади.

Шу билан бирга, ривожлантирувчи таълим назарияси ва технологиясини ишлаб чиқиш, айниқса, олий ўқув юртларида ҳали тўлиқ эмас. Бундан ташқари, ривожланиш таълимининг турли хил тушунчалари мавжуд бўлиб, у ҳатто мутахассислар томонидан ҳам бир маънода талқин қилинишидан йироқ.

Ривожланаётган таълимнинг биринчи таърифларидан бири В.В. Давыдовнинг ўз асарларида таъкидлашича, ривожланиш — бу шахс томонидан тарихан шаклланган фаолият турларини ва уларга мос келадиган қобилиятларни қайта ишлаб чиқариш, уларни ўзлаштириш ва шунинг учун

ўзлаштириш жараёнида (кенг маънода уни таълим ва тарбия жараёни сифатида ифодалаш мумкин) — ақлий инсон ривожланишининг универсал шакли .

Келажакда ривожлантирувчи таълим технологияси ривожланиши билан яна бир тушунча — ўқув фаолияти биринчи ўринга чиқди, уни ривожлантириш назарий тафаккурни ривожлантириш билан бирга ривожлантирувчи таълимнинг асосий вазифаларидан бирига айланди.

Ривожланаётган таълим концепциясининг яна бир талқини инсон билимлари ҳақидаги тизимли ғояларга асосланади. Шундай қилиб, масалан, Н.И. Чуприкованинг таъкидлашича, «когнитив тузилмалар ва жараёнларнинг дифференциацияси ақлий ривожланишнинг етакчи мазмуни (Вернер, Виткин) ва ҳукмларда турли хусусиятлар ва муносабатларни ажратиш тўғридан-тўғри ҳиссий билишдан мавҳум фикрлашга ўтишнинг асосий моментидир» Ва бундан кейин: «Ақлий ривожланиш муаммосининг асосий муаммоси — бу ривожланиш субстратини таъкидлаш, ёш ва ўқув жараёнида аниқ нима ривожланишини аниқлашдир. Замонавий психология субъектнинг ички когнитив тузилмаларини ривожланишнинг бундай субстрати сифатида кўриб чиқишга имкон беради.

Юқорида қайд этилган талқинлар бир-бирини истисно этмайди, балки бир-бирини тўлдирди, чунки ўқув жараёнида маълум билимлар тизими яратилиши, маълум фикрлаш услуги ва билим олиш ва ундан фойдаланишнинг илғор фаолият технологияси ишлаб чиқилиши керак.

Ривожланаётган таълимнинг қизиқарли таҳлилини В.В.Репкин [157] беради, у қонуний савол беради — ўрганиш ривожланмаган бўлиши мумкинми? Саволни бундай шакллантиришнинг парадоксал табиати деярли аниқ. Дарҳақиқат, ўқувчига нима ўргатмайлик, у ёки бу тарзда ривожланади, онгида, шахсиятида, қобилиятида қандайдир ўзгаришлар бўлади. Турли хил машғулотлар ривожланишга турли хил ҳисса қўшиши, бошқа ривожланиш эффектини бериши мумкин, аммо бу бошқа масала — ривожланиш таъсирини баҳолаш. Бу таълимни ривожланаётган ва ривожланмайдиганларга ажратишга асос берадими? Шубҳасиз, ҳар қандай машғулот ривожланиш билан ички боғлиқ бўлиб, унинг натижаларидан бири ривожланишдир. Муаммо шундаки, ўрганиш ва ривожланиш ўзаро боғлиқдир.

Таълим ва ривожланиш жараёнларининг нисбати ҳар хил бўлиши мумкин. Шундай қилиб, вариантлардан бирида ҳар қандай тренинг натижаси ривожланишдаги баъзи силжишлар деб ҳисобланади, аммо улар тўғридан-тўғри натижа, таълим йўналтирилган маҳсулот ёки шунчаки ён таъсирдир. Тренинг

инсонни ривожлантиришга эмас, балки унинг функционал тайёргарлигига қаратилган бўлиши мумкин. Бундай ҳолда, машғулот одамнинг қандай ривожланишини ҳисобга олмайди. Мана яна бир мезон: инсон қандай қилиб муайян функцияларни бажаради. Бундай тренингнинг мақсади билим, кўникма ва кўникмаларни оптималлаштириш шаклидаги маълум бир минимумдир. Ривожланиш содир бўладими? Ҳа, бу содир бўлади, лекин режалаштирилмайди, у ўз-ўзидан ва олдиндан айтиб бўлмайдиган тарзда давом этади, у катта, кичик ва ҳоказо бўлиши мумкин. Ривожланиш бу ерда ўрганиш учун зарурий шарт бўлиб хизмат қилади ва гўё ўз-ўзидан пайдо бўладиган натижалардан, ривожланишнинг ўз-ўзидан ютуқларидан фойдаланади, уларга мослашади, ҳисобга олади ва ҳоказо. (масалан, машғулотларни қизиқиш, қобилиятга қараб дифференциация қилиш; синовдан ўтказиш, танлаш ва бошқалар). Аммо шу билан бирга, тренингнинг ўзи ривожланишни режалаштирмайди, йўналтирилмайди ва унга мўлжалланмаган.

ХУЛОСА

Мутахассисларнинг коммуникатив ва нутқий муҳити нафақат унинг билим ва кўникмаларига, балки ривожланиши ва таълимига ҳам сезиларли таъсир кўрсатадиган шундай ўқитиш технологиясини яратиш жуда муҳимдир.

Технологиялар ёрдамида ақлли ахборот амалий ечимлар тилига таржима қилинади. Технология ҳам фаолият усули, ҳам инсоннинг фаолиятда қандай иштирок этиши ҳар қандай фаолият технология ёки санъат бўлиши мумкин. Санъат сезгига, технология илмга асосланади. Ҳамма нарса санъатдан бошланади, технология билан тугайди, шунда бутун жараён яна бошланади»

Таълимдаги замонавий технологиялар янги таълим парадигмасини амалга ошириш воситаси сифатида қаралади.

REFERENCES

1. Baxtiyarovna, S. S. (2021). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA VA DO 'STLIK MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
2. Mukhammadieva, N. A. (2021). DEVELOPMENT OF SYNCHRONICAL TRANSLATION METHODS IN EUROPEAN COUNTRIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 173-182.
3. Sadikova, S. B. (2022). MATERIAL EXISTENCE IN NAVOI PHILOSOPHY. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 311-314.

4. Abbasovna, Saidova M., and Mukhammadieva N. Ayubovna. "Some Deficiencies in the Development of Oral Speech Through Listening." *JournalNX*, vol. 6, no. 09, 2020, pp. 146-149.
5. Feruza Razikova Kamildjanovna. (2021). FEATURES OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL SPEECH COMPETENCE OF A MODERN SPECIALIST. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(06), 14–18. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NPHBS>
6. Abduganiyevna, Akramxodjayeva D. "Effective Teaching of a Foreign Language Through a Contextual Approach." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 180-181.
7. Feruza Razikova Kamildjanovna. (2021). FEATURES OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL SPEECH COMPETENCE OF A MODERN SPECIALIST. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(06), 14–18.
8. Akramxodjayeva Dilfuza Abduganiyevna. (2021). Og'zaki nutqni o'stirishda monologik nutqdan foydalanish. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 2(2), 205-211. Retrieved from <http://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/615>
9. Sodiqova Shirin Baxtiyarovna (2021). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA VA DO'STLIK MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (1), 94-97.

“БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА КАСБИЙ ЙЎНАЛТИРИЛГАН МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ (ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎРГАНИШ ЖАРАЁНИДА)”

Турсунова Умидахон Агзамовна

Инглиз тили кафедраси катта ўқитувчиси,

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бўлажак иқтисодчиларда касбий компетентликни шакллантириш ва унинг мазмун-моҳияти, таянч компетенциялар уларнинг касбий фаолиятга тайёрлашдаги ўрни ва аҳамияти, фанлараро алоқалар орқали талабаларнинг умумкасбий ва ихтисослик фанлардан билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш, педагогик ва техник билимлар асосида талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш механизми ҳамда унга интегратив-дифференциал ёндашув каби масалалар ёритиб берилган.

Таянч сўз ва иборалар: бўлажак иқтисодчилар, касб таълими, компетенция, компетентлик, касбий компетентлик, фанлараро интеграция.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования и содержания профессиональных компетенций у будущих экономистов, роль и значение базовых компетенций в их подготовке к профессиональной деятельности, механизм формирования знаний, умений и навыков студентов по общеобразовательным и специальным дисциплинам через междисциплинарные связи, механизм педагогического и технического знания, освещаются такие вопросы, как интегративно-дифференциальный подход.

Ключевые слова и фразы: будущие экономисты, профессиональное образование, компетентность, компетенция, профессиональная компетентность, междисциплинарная интеграция.

КИРИШ

Бўлажак иқтисодчиларда касб таълими мазмунини янгилашнинг концептуал қоидаларидан бири компетентлик нуқтаи назаридан ёндашув ҳисобланади. Уни амалда жорий этиш эса таълим мазмуни, метод ва технологиясига янгича ёндашишга олиб келади. Таълим мазмунини янгилашнинг асосий бирликларидан бири компетентлик тушунчасидир. У шахснинг интегратив хусусиятини, бошқача айтганда, бўлажак мутахассиснинг шахсий сифатлари – билими, кўникмалари, амалий тажрибаси, қобилиятлари,

қадрият йўналишларини ифода этади. Компетентлик шахнинг касбий фаолиятга тайёргарлигини таъминлайди ва кучайтиради .

Хорижий тилларни ўқитишда интеграция ва дифференциациянинг ўзаро таъсири исботланган бўлиб, у касб-хунар таълимини тартибга солиш, иерархик модель куриш учун зарур шарт-шароитлар яратиш имкониятини беради. Замонавий жамиятда у мамлакатларнинг ривожланиш даражасини нафақат унинг техник ҳолати, балки олий таълим муассасаларида тайёрланаётган мутахассислар касбий компетентлигини ҳам белгилайди. Таълим тизимини модернизациялаш, касб таълими тизимида юзага келадиган ўзгаришлар таълим муассасаси ходимларининг касбий компетентлигини ривожлантириш учун зарурият туғдиради. Ҳозирги вақтда олий касбий таълимнинг давлат таълим стандартлари жорий этилиб, бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини оширишга қаратилган таълим мазмуни ва технологиясида инновациялар кенг жорий этилмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Инглизча “competence” тушунчаси луғавий жиҳатдан бевосита “қобилият” маъносини ифодалайди. Мазмунан эса “фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоеън эта олиш” маъносини англатади. “Компетентлик” тушунчаси таълим соҳасига психологик изланишлар натижасида кириб келган. Шу сабабли компетентлик “ноанъанавий вазиятлар, қутилмаган ҳолларда мутахассиснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблар билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб боровчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалик”ни англатади .

Давлат таълим стандартида касбий ва умумий компетенциялар, яъни, битирувчилар эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар белгилаб қўйилган. Уларга асосий касбий таълим дастурларини ишлаб чиқишда интегратив ёндашув орқали эришиш мумкин. Дастурнинг вариатив қисми таълим муассасасининг, минтақанинг ўзига хослигини, ҳудуддаги иш берувчиларнинг аниқ касбий компетенцияларни эгаллаган мутахассисларга бўлган эҳтиёжини акс эттириш имконини беради. Бизнинг назаримизда, айнан интегратив таълим (таълим интеграцияси) бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлиги шаклланиши жараёни ва келгусидаги касбий фаолияти учун муҳим аҳамият касб этади. Замонавий меҳнат бозори, бугун таълим сифатиغا

ошаётган талабларни тақдим этиб, бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлиги ва касбий тайёргарлиги, ўз навбатида олий таълим муассасалари, шу жумладан техник олий таълим муассасаларининг “Касб таълими” йўналиши битирувчилари ўртасида рақобат кучайишига олиб келади. Агар мутахассиснинг дастлабки малакаси фақат иш ўринларига мувофиқлиги ва тор ахборотни эгаллашни назарда тутса, “компетентлик” нафақат умумий турдаги, балки, хусусан кенг соҳада билимларни ўзлаштиришни талаб қилади. Мутахассиснинг ўз кўникмаларини муваффақиятли амалга оширишда тайёргарлиги ва қобилиятлилиги, ўзининг фаолияти самарадорлиги ва сифатини яхшилашни назарда тутди.

Касбий фаолият билан боғлиқ турли хил вазифаларни талаба шахси фазилатлари ишлаб чиқилган мажмуаси сифатида белгилаш мумкин. Н.А.Муслимов ва бошқа тадқиқотчилар компетентлик тушунчаларига риоя қилган ҳолда, ушбу соҳада фаолият олиб бораётганлар, техника олий таълим муассасалари талабалари касбий компетентлигини шахс фазилатлари бирлашмасини ташкил этиш сифатида, кейинчалик уларга муҳандислик фаолиятида ўз билим, кўникма ва малакаларини муваффақиятли амалга оширишда ёрдам беради, деб таъкидлашган. Ўз навбатида, компетент ёндашув таълим технологиясида муҳим ўзгаришларни талаб қилади. Шунинг учун олий таълим муассасалари олдида бугун махсус технологиялар ва уларни таълим жараёнида амалга ошириш усуллари ишлаб чиқиш вазифаси туради. Лекин биз ҳам кўп тадқиқотчилар каби техника олий таълим муассасалари бўлажак мутахассислари касбий компетентлигини шакллантириш ҳали мазмунли таълим ва фанлараро алоқалардан фойдаланиш етарли даражада эмас, деб ҳисоблаймиз. Чунки мазмунли таълимда бўлажак муҳандислик фаолиятининг касбий ва ижтимоий жиҳатларини моделлаштириш содир бўлади, ва фанлараро интеграция, ўз навбатида илм-фаннинг турли соҳаларида бирлаштирувчи элементи сифатида чиқади. Замонавий битирувчи – бўлажак техник мутахассис (касб таълими ўқитувчиси) – ўз касбий фаолиятида турли фанлар бўйича билимлар мажмуасини қўллашга эга бўлиши керак. Фанлараро интеграцияни билиш (билим) ва технологик муаммолар асосида ўқув фанларини бирлаштириш жараёни сифатида изоҳлаш мумкин. Биз учун фанлараро интеграция таълим дастурининг барча ўқув фанларини кенг қўламли ўзаро алоқасини яратишда таълим мақсади, тамойиллари ва маънолари мажмуани ифодалайди. Шунинг учун, талабалар таълимининг биринчи босқичидаёқ касбий компетентлик ривожлана бошлайди, катта курс талабаларига ҳар қандай

мураккаб касбий вазиятларда тезкор оптимал қарорлар қабул қилишга қаратилган, уларда мустақил равишда муайян ҳаракатларни амалга ошириш кўникмаларини шакллантиришни фанлараро алоқаларни ўрнатиш ёрдамида амалга ошириш мумкин.

Бундан ташқари таъкидлаш керакки, бўлажак иктисодчиларда талабалар билимини ташхис қилиш, фанлараро алоқалар билан машғулотларда эгаллашлари, бу оралик босқичларда мунтазам амалга оширилиши керак – назорат қилиш нуқталари ва билимларни текшириш режалаштирилган жойларда – якуний нуқтага ўтади. Шундай қилиб, касбий фаолият, фанлараро интеграция томонидан амалга оширилиши асосли, агар техника олий таълим муассасалари талабалари интеграция вазифаларини мунтазам фойдаланиш билан амалга ошириб, амалий машғулотларда бажарса, фақат амалий машғулотларгина назарий материалларни ўрганишда олинган билимларни мустаҳкамлаш имконини беради. У ёки бу лаборатория ишларини бажаришда, мураккаб ўқув вазифасини ҳал этиб, талаба муваффақиятли касбий фаолият учун зарур амалий кўникмаларни эгаллайди. Битирувчи, касбий кўникмаларни мукамал ўзлаштириб, меҳнат бозорида муваффақиятли рақобат имкониятига эга, касбий кўникмаларини ижодий фойдаланишга имкон беради, энг юқори миқдор ва сифат кўрсаткичларига эришиш имконини беради. Олий таълим муассасалари талабалари ўқиши фанлараро интеграцияси талабаларни илмий-назарий ва амалий тайёрлаш сифатини яхшилашда муҳим вазифаларни бажаради, чунки фанлараро ёндашувни қўллашда амалга ошириш муаммолари ҳар бир босқичда нафақат таълим (ўқув) дастури, балки замонавий талабаларни тарбиялаш ва ривожлантириш масалалари ҳал этилади.

ХУЛОСА

Бўлажак иктисодчиларда касбий тайёргарликни тўлақонли таъминлашга қаратилган узвийлик тизимини ташкил қилишнинг диалектик жараёни ич-ичида зиддиятли ҳамда интеграция ва дезинтеграция, анализ ва синтез каби қарама-қарши тенденциялар курашида кечади.

Узлуксиз таълим тизимида ўқитишда интеграцияни таъминловчи муҳим омиллардан бири узвийликдир. Узвийлик таълим тизимида таълим-тарбия ва унинг натижаларини яхлитлигига олиб келадиган интегрatív жараёнларни таъминлашнинг хусусийлашган функциясидир. Узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида интеграл билимларнинг вужудга келиши ҳамда мазмун ва шакл узвийлигини таълим-тарбия жараёнида таъминлашда қўлланилаётган

ташкилий воситалар муҳим ўрин тутади. 3. Таълимга интегратив ёндашув ҳам шу ўринда, интеграл тизимга нисбатан мақсадли ёндашувнинг таълим мазмунида ифодаланиши бўлажак мутахассисларнинг касбий тайёргарлигини юқори даражага кўтаришда муҳим аҳамият касб этади.

REFERENCES

1. Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2017 й.
2. Қўйсинов О.А., Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ., Гаипова Н., Каримова Н., Қодиров М. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. – Т.: “Фан ва технология”, 2013. - 128 б.
3. Qizi, A. K. N. (2021). IMPROVING LITERACY SKILLS THROUGH LEARNING READING. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 85-86.
4. Ibragimova, S. (2020). Study of phrasal verbs in innovative activity of English teachers. *Архив научных исследований*, (18).
5. SevaraBaxodirovna, I., Sharipjanovna, R., BarnoAliyevna, T. (2021). Development Of Lexical Competence In Students Of Higher Educational Institutions. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(3), 2938-2943.
6. Ibragimova Sevara Bakhodirovna (2020). ‘Use of New Pedagogical Technologies in Foreign Language Lessons’, *IJAPR*, ISSN: 2643-9123 Vol. 4 Issue 12, December - 2020, Pages: 38-39.
7. Akramxodjaeva, D., M. Nasretdinova, and M. Abdullayeva. "Translation of national events and concepts in fiction." *International Journal of Scientific and Technology Research* 9.2 (2020): 2984-2986.
8. M.R.Abdullayeva. “INGLIZ VA O‘ZBEK TILLATIRIDA SEMANTIK TARJIMA MA’NOSINI BERISH.” *XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI* –2/2022. 314-316 .
9. Абдуллаева Мархабо Рахмонкуловна, (2020). ‘ИНСОНИЯТНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТИДАГИ МИЛЛИЙ КОЛОРИТНИ ИФОДАЛОВЧИ ФЕЪЛИ ФРАЗЕМАЛАР (Агата кристи асарлари талкинида)’ “МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЛЕКСИКОЛОГИЯ ВА ЛЕКСИКОГРАФИЯ: АНЪАНАЛАР ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН ИЛМИЙ МАКТАБЛАРИ” республика илмий-амалий конференцияси илмий тўплами, 153-158.

-
10. Abbasovna, Saidova M., and Mukhammadieva N. Ayubovna. "Some Deficiencies in the Development of Oral Speech Through Listening." *JournalNX*, vol. 6, no. 09, 2020, pp. 146-149.
11. Mukhammadieva, N. A. (2021). DEVELOPMENT OF SYNCHRONICAL TRANSLATION METHODS IN EUROPEAN COUNTRIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 173-182.

JINOYAT PROTSESSIDA TERGOVGA TEGISHLILIKNING AHAMIYATI VA UNING XALQARO HAMDA MILLIY HUQUQIY ASOSLARI

Obidjonov Abdurasul Rustam o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Obidjonovrasul9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada jinoyat ishini sudga qadar yuritishning asosini tashkil qiluvchi tergovning qanday vazifalarni ado etishi lozimligi, tergovga tegishlilik masalalarini to'g'ri hal qilinishining jinoyat ishidagi ahamiyati, tergovga tegishlilik turlari va asoslari, shuningdek ushbu masalalarning milliy qonunchilikdagi ba'zi kamchiliklari hamda xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlili o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: tergov, dastlabki tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv, tegishlilik, tergov organlari, dalil, prokuratura, tergovchi, ichki ishlar organlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, farmoyish, ijtimoiy xavflilik darajasi, hududiylik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль следствия, составляющего основу досудебного уголовного производства, значение правильного разрешения вопросов по уголовному делу, виды и основания расследования, а также отражены некоторые недостатки отечественного законодательства и сравнительная анализ этих вопросов с учетом международного опыта.

Ключевые слова: следствие, судебное следствие, дознание, доследственное постановление, принадлежность, следственные органы, доказательства, прокуратура, следователь, правоохранительные органы, подозреваемый, обвиняемый, свидетель, порядок, общественное правонарушение, территориальность.

ABSTRACT

The article discusses the role of the investigation, which is the basis of pre-trial criminal proceedings, the importance of proper resolution of issues in the criminal case, the types and grounds of investigation, it also reflects some shortcomings in national legislation and a comparative analysis of these issues with international experience.

Keywords: investigation, preliminary investigation, inquiry, pre-investigation investigation, affiliation, investigative bodies, evidence, prosecutor's office,

investigator, law enforcement, suspect, accused, witness, order, degree of social danger, territoriality.

KIRISH

Jinoyat protsessual huquqida tergov jinoyat ishlarini yuritishning alohida mustaqil bosqichi hisoblanadi va jinoyat ishini sudga qadar yuritishning asosini tashkil qiladi. Jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish aynan tergov organlarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'lib, shu sababli tergov sifatini yaxshilash, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmini joriy etish hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarning tergovini soddalashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmogda. Chunki statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, butun O'zbekiston hududida jami ro'yxatga olingan jinoyatlar soni *2021-yilga kelib 111 082 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu 2020-yilgi ko'rsatkichlardan 1.5 barobar (62081 ta) va 2019-yilgidan esa 2.5 (46089 ta) barobardan ham ko'proqdir*¹⁰³.

Bu davrda umumiy jinoyatchilik hamda uning og'ir va o'ta og'ir turlarini fosh etish miqdorlari ham doimiy ravishda ortib bordi. Umumiy jinoyatchilikning ochilishi *1999-yilda 78 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik bu miqdor 82 foizga, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning ochilishi esa 75,3 foizdan 85,5 foizga yetdi*. Tergov sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ham o'zining ijobiy natijasini berdi. Jumladan, *10 oy davomida prokuratura organlari tomonidan 16406 jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilib, ulaming 11011 tasiyablov xulosalari bilan sudlarga yuborilgan*. Jazoning muqarrarligini ta'minlash bilan birga jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararlarni aybdorlardan undirishga alohida e'tibor qaratildi¹⁰⁴.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu statistik ma'lumotlar jinoyat ishini sudga ko'rilishi uchun yetarli dalillar to'plash, protsessual majburlov choralarini asosli tarzda qo'llash, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlash kabilarda tergovning qanchalar muhimligini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston hududida tergovni amalga oshirish. O'zbekiston hududida tergov harakatlari 2 xil ko'rinishda: dastlabki tergov va surishtiruv asosida amalga oshiriladi. So'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasi o'laroq, 2017-yil 6-sentyabrda «Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston

¹⁰³ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

¹⁰⁴ O.M.Madaliyev Sud statistikasi: O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: K.P. Irkaxodjayev y.f.n. dosent. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. -289 bet.

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga asosan yuqoridagi norma, ya'ni jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi belgilandi. Bu orqali esa tergov ancha soddalashtirilib, jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab bir oy ichida (qo'shimcha surishtiruv muddati o'n kun) tamomlanishi kerak. Dastlabki tergov esa jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch oy ichida (yetti oygacha uzaytirilishi mumkin) tugatilishi shart¹⁰⁵. Bugungi kunda ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya surishtiruvchilari surishtiruv va tergovni amalga oshiradi. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi¹⁰⁶.

Jinoyat protsessida tergovga tegishlilik masalalari. JPKning 345 hamda 381²-moddalarida jinoyat ishining tergovga tegishlilikiga oid munosabatlar tartibga solingan. Bu institut jinoyat huquqida eng muhimlaridan hisoblani, undan keyin sodir etiladigan huquqiy harakatlarning barchasi tergovga bog'liq bo'ladi. Zeroki, *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi kafedra boshlig'i, yu.f.f.d. Xurshid Karimov* aytganlaridek: "Tergovga tegishlilikning ahamiyati shundaki, jinoyat sodir etilganda u bo'yicha qaysi tergov organi tergov o'tkazishi lozimligini biladi. Tergovga tegishlilikni tartibga soluvchi normada Jinoyat kodeksida belgilangan barcha jinoyatlar aks etgan bo'lishi shart, aks holda muayyan jinoyat sodir etilganda u bo'yicha qaysi organ tergov o'tkazishi lozimligi haqida savollar paydo bo'lishda davom etaveradi"¹⁰⁷.

Jinoyat protsessual qonunchilikda quyidagi tergovga tegishlilik turlari belgilab o'tilgan: 1) predmetli, ya'ni jinoyat turiga ko'ra (turdosh); 2) muqobil (alternativ); 4) mustasno tergovga tegishlilik. 5) jinoyat sodir etilish hududiga ko'ra – hududiy jihatdan tergovga tegishlilik.

1. Jinoyat turiga ko'ra tergovga tegishlilik. Bu Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalaridan kelib chiqqan holda JPKning 345-moddasiga asoslanib dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan 3 organdan biri – prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, agar xavfli qilmishni 210-modda bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'lsa, 345-moddaga

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik // Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 635 b.

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси Бosh прокуратураси Академияси кафедра бoshлиғи, ю.ф.ф.д. Хуршид Каримов: "ТЕРГОВГА ОИД НОРМАЛАР ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ".- 16.12.2020

ko'ra bunday ishlar prokuraturaning yurisdiksiyasiga tegishli bo'lsa, JKning 169-moddasi (o'g'rilik) – ichki ishlar organlari tergovchilarining tergoviga tegishlidir.

2. Aralash (alternativ) tergovga tegishlilik. Bunda ishning alohida holatlaridan kelib chiqqan holda bir turdagi jinoyat ishlari bo'yicha turli organlar tomonidan dastlabki tergov olib borilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

3. Mustasno tergovga tegishlilik. ba'zi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarning alohida qoidalar asosida, qat'iy ravishda bir tergov organiga tegishli bo'lishini belgilab beradi. Maxsus tergovga tegishlilik jinoyat subyekting xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u harbiy prokuratura organlarining tergoviga tegishlikni belgilaydi. Jumladan, JPK 345-moddasining 3-qismiga muvofiq, harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan Jinoyat kodeksining 279—302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, shuningdek harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov olib boriladi¹⁰⁸.

4. Hududiy jihatdan tergovga tegishlilik. Jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha tuman (shahar) tergovchisining tergoviga tegishli bo'ladi. Dastlabki tergov, bosharti ish holatlarini ancha tez, puxta, to'la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, ish qo'zg'atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko'pchiligi turgan yerda o'tkazilishi ham mumkin. *Yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori tergov bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan dastlabki tergov hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilishi ham mumkin.* Tergov harakatlari o'tkazish joyi hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalari asosida aniqlanadi. Zarur hollarda tergov harakatlari boshqa joylarda tergovchining shaxsan o'zi borishi yoki tegishli organga alohida topshiriq berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, protsessual qonunchilikda yuqoridagi qoidalarga bo'ysunmaydigan, to'g'ridan to'g'ri kodeksning o'zi bilan tartibga solinadigan holatlar ham mavjud:

a) Turli dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, prokuror tergovni olib borishni *og'irroq jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining* tergovi qaysi organga tegishli bo'lsa, shu organga, jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishini *uzoqroq muddat davomida* tergov qilayotgan organga topshiradi;

a) Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida jinoyat ishini, tergovga tegishlilik qoidalaridan qat'i nazar JPKning 345-moddasi 11-bandida aks ettirilgan

¹⁰⁸ Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. – 406 bet.

holatlar mavjud bo'lganda jinoyat ishini asoslantirilgan qarorga binoan bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazishga haqli¹⁰⁹.

Endigi navbatda xorijiy davlatlardagi jinoyat ishining tergovga tegishlilikini hal etish tartiblariga to'xtalib o'tsak:

Fransiya. Jinoiy tergov odatda Fransiya Jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan jinoyat qonunlarining mumkin bo'lgan buzilishini o'z ichiga oladi. Fransiyadagi jinoiy tergovlar odatda ikki toifaga bo'linadi: oddiy va doimiy ishlar, ular **prokuror** tomonidan ko'rib chiqiladi; va murakkab hamda muhim masalalar, ular ba'zan **tergov magistratiga** havola qilinadi. Prokurorlar tomonidan olib borilgan tergov harakatlari barcha jinoyat ishlarining 97 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bunday hollarda prokuror politsiya bilan ish olib boradi va masalani tergov qiladi va dalillarni qayd qiladi. Quyida muhokama qilingan sud tergovidan farqli o'laroq, *gumonlanuvchilarning ushbu bosqichda ishtirok etish va o'zini himoya qilish huquqi juda kam*. Prokuror bayonnoma bilan qanoatlansa, ish odatda huquqbuzarlik sodir etilgan joyda mahalliy bo'lgan va ayblovning og'irligiga bog'liq bo'lgan tegishli sudga yuboriladi. O'sha paytda ayblanuvchi va uning himoyachisi sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish uchun asos bo'ladigan fayl bilan tanishish huquqiga ega bo'ladi.

Og'ir jinoyatlar uchun tergov magistratini tayinlash majburiydir. Oddiy jinoyatlarga kelsak, tergovchiga prokurorning buyrug'i bilan tergovni boshlash huquqi berilishi mumkin. Prokurorlar odatda faqat shu qadar murakkab ko'rinadigan ishlar bo'yicha tergovchilarni tayinlashni so'raydilar, shuning uchun faktlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish juda ko'p vaqtni oladi va katta resurslarni o'zlashtiradi yoki prokurorlar o'zlari qila olmaydigan harakatlarni talab qiladilar, masalan gumon qilinuvchi shaxslarni tergovga qadar vaqtincha qamoqqa olish joylariga joylashtirish. Amalda, xalqaro masalalar bilan bog'liq jinoiy tergovlarning aksariyati tergov magistrati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Shuningdek bu vaziyatga qo'shimcha sifatida Fransiyadagi jinoyatlarlarning turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, *Yuqori darajadagi jinoyatlar* 10 yildan ortiq qamoq jazosi bilan jazolanadigan jinoiy ishlardir. Og'ir jinoyatda ayblanayotgan shaxs og'ir jinoyatlar sudi deb ataladigan *maxsus sud*da hakamlar hay'ati tomonidan ishi ko'rib chiqiladi. *Oddiy jinoyatlar* - ikki oydan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va moliyaviy jazo bilan jazolanadigan huquqbuzarliklar; *korrupsiya jinoyati* va aksariyat tadbirkorlik jinoyatlari shu toifaga kiradi. Ularning ishlari *mahalliy okrug sudida* ko'rib chiqiladi. *Uchinchi esa* noqonuniy xatti-harakatlar, ya'ni moliyaviy

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.

jarimalar bilan jazolanadigan qonunbuzarliklar bo‘lib, *quyi sudlarda* ko‘rib chiqiladi¹¹⁰.

Angliya. Jinoiy protsessual va tergov to‘g‘risidagi 1996 yilgi Aktga ko‘ra Angliya va Uelsda jinoyatni tergov qilish - bu shaxsni jinoyat sodir etganlikda ayblash kerakmi yoki yo‘qligini yoki jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning aybdorligini aniqlash maqsadida militsiya xodimlari tomonidan olib boriladigan harakat sifatida tavsiflanadi.

Tergovga tegishlilik esa sodir etilgan jinoyatga qarab tergovchi, tergovga mas‘ul xodim va fosh qiluvchi xodimning vazifalari alohida hisoblanadi. Ular bir, ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan amalga oshiriladimi, ishning murakkabligiga va har bir politsiya kuchlari tarkibidagi ma‘muriy tartiblarga bog‘liq bo‘ladi.

Har bir militsiya bo‘limi boshlig‘i fosh etish bo‘yicha ofitserlar va fosh etish bo‘yicha o‘rinbosarlari tergovning murakkabligiga mos ravishda o‘z vazifalarini samarali bajarish uchun yetarli malaka va vakolatlarga ega bo‘lishini ta‘minlashi shart. Xizmat vazifasini o‘tayotgan shaxs agar bu vaziyatda *manfaatlar to‘qnashuviga* olib kelishi mumkin bo‘lsa, masalan, tergov bo‘yicha xodim tergov predmeti sifatida taxmin qilinayotgan jinoyat qurboni bo‘lsa, fosh etish bo‘yicha xodim sifatida tayinlanmasligi yoki shu lavozimda davom etmasligi kerak¹¹¹. Agar manfaatlar to‘qnashuvi ushbu ish bo‘yicha xizmat xodimining faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmasligiga shubha tug‘ilsa, har doim yuqori martabali ofitserning maslahatiga murojaat qilish kerak. Agar bundan keyin ham shubha qolsa, prokuror maslahatiga murojaat qilish kerak bo‘ladi¹¹².

Jinoyat protsessual qonunchilikda ko‘rsatilganidek, har qanday tan olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatni tergov qilish jarayoni *faqat politsiya organlariga* tegishli. Ularning vakolatlarni qonuniy ravishda va qonun qoidalariga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshiradilar. Tergovchi tomonidan to‘plangan materiallar bo‘yicha sudning tergovga aralashishi mumkin emas. Sud faqat tergov organiga huquqbuzarlik sodir etilganligi yoki sodir etilganligi to‘g‘risida hisobot taqdim etishi mumkin. Shundan keyingina sudya tegishli choralar ko‘rish huquqiga ega. Agar tergovchi birinchi ma‘lumot hisobotida da‘voni tasdiqlovchi material topmasa, magistr hisobotni qabul qilishi yoki qo‘shimcha surishtiruvni buyurishi mumkin. Shuningdek, u sudga,

¹¹⁰ The International Investigations Review: France. Antoine Kirry and Alexandre Bisch Debevoise & Plimpton LLP 01 August 2021. (<https://thelawreviews.co.uk/title/the-international-investigations-review/france>)

¹¹¹ Criminal Procedure and Investigations Act 1996 (section 23(1)) Code of Practice Revised in accordance with section 25(4) of the Criminal Procedure and Investigations Act 1996

¹¹² Criminal Procedure and Investigations Act 1996 (section 23(1)) Code of Practice Revised in accordance with section 25(4) of the Criminal Procedure and Investigations Act 1996

tegishli holatda tezkor choralar ko‘rish uchun ochiqdir. Biroq, sud tergov organiga ushbu fikrga muvofiq hisobot taqdim etishi mumkin emas¹¹³.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tergovga oid milliy qonunchilikdagi kamchiliklar va ularning xalqaro qiyosiy tahlili.

Jinoyat protsessual qonunchiligidagi tergovga oid normalarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularni kamchiliklardan xoli emasligiga guvoh bo‘lamiz: jinoyat kodeksining maxsus qismidagi moddalarning tergovga tegishliligi tahlil qilinganda, *bir qator moddalarning tergovga tegishliligi belgilanmagani oqibatida qonunchilikda bo‘shliq vujudga kelgani aniqlangan*. Jumladan professor ustozlar ta‘kidlab o‘tganidek, JKning 125²-moddasi (Nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish), 216¹-moddasi (G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash) va 216²-moddasida (Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatning qaysi surishtiruv organiga tegishliligi JPKning 381²-moddasida belgilab berilmagan. Bundan tashqari JKning 168-moddasining 4-qismi (Firibgarlik), 230¹-moddasi (Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) va 230²-moddasida (Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) belgilangan jinoyat qaysi dastlabki tergov organiga tegishliligi JPKning 345-moddasida belgilab berilmagan oqibatida qonunchilikda kollizion normalar vujudga kelib qolgan¹¹⁴.

Fikrimizcha, milliy qonunchilikni yuqorida keltirib o‘tilgan rivojlangan davlatlardan hisoblangan Buyuk Britaniya (AQSH qonunchiligi ham bu huquq oilasiga juda o‘xshash) yoki Fransiyaning tizimiga solishtiradigan bo‘lsak, jinoyatlarni tergov qilish va ishlarni tegishlilikka qarab tavsiflash ancha oddiy ekanligiga, ushbu vakolatni amalga oshiruvchi organlarning sanoqli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki bu orqali bizdagi tizimdan farqli ravishda bir-birini takrorlovchi lavozim va vazifalar oldini oladi hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish osonlashadi.

Bundan tashqari yana bir e‘tiborli jihati, bu davlatlarda vakolatli organlar o‘rtasida bir-biridan ustun yoki quyi turuvchi holatlarning deyarli yoq‘ligi. Masalan, birgina Angliya va Uelsda hatto sud ham tergov organlarini ishiga aralashishi mumkin emas. Milliy qonunchiligimizda esa bunday holatlarni talaygina uchratish

¹¹³ <https://www.legalserviceindia.com/legal/article-3535-powers-of-police-in-investigation.html>

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси кафедра бошлиғи, ю.ф.ф.д. Хуршид Каримов: “ТЕРГОВГА ОИД НОРМАЛАР ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ”.- 16.12.2020

mumkin. Bunday holatlar o'sha organlarning to'la qonuniy va samarali vakolat yuritishiga to'sqinlik qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 76 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
4. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. – 406 bet.7
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik // Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2012. – 635 b.
6. O.M.Madaliyev Sud statistikasi: O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: K.P. Irkaxodjayev y.f.n. dosent. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. -289 bet.
7. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси кафедра бошлиғи, ю.ф.ф.д. Хуршид Каримов: “ТЕРГОВГА ОИД НОРМАЛАР ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ”.- 16.12.2020
8. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
9. The International Investigations Review: France. Antoine Kirry and Alexandre Bisch Debevoise & Plimpton LLP 01August 2021. (<https://thelawreviews.co.uk/title/the-international-investigations-review/france>)
10. Criminal Procedure and Investigations Act 1996 (section 23(1)) Code of Practice Revised in accordance with section 25(4) of the Criminal Procedure and Investigations Act 1996.
11. <https://www.legalserviceindia.com/legal/article-3535-powers-of-police-in-investigation.html>

MADMON MAYDONINING GEOLOGIK VA TEKTONIK TUZILISHI

Yuldoshev Sirojiddin Muhiddin o'g'li

Islom Karimov nomidagi TDTU, Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi kafedrasida magistranti

Rahmatov Elbek Abduraxmonovich

Xisor Davlat Geologiya Qidiruv Ekspeditsiyasi, geolog

Dusmamatov Sayyod Akbar o'g'li

Geologiya fanlari universiteti, Yerni masofadan zondlash va muhandislik geologiyasi kafedrasida magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Madmon maydonining o'rganilganlik tarixi, ushbu maydonda olib borilgan geologik qidiruv, baholash ishlari, maydonning geologiyasi va tektonikasi(qisqacha) keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Madmon maydoni. Qizilturuk, Yutansay, Bashir istiqbolli maydonlari. Qashqadaryo GQE. Stratigrafiya. Kaynozoy guruhi. Tektonika. Strukturaviy-formatsion zona.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена история изучения месторождения Мадмона, геологоразведочные, оценочные работы, проведенные на этом месторождении, геология и тектоника месторождения(вкратце).

***Ключевые слова:** площадь Мадмона. Перспективные месторождения Кызылтурук, Ютансай, Башир. Кашкадарьинской ГРЭ. Стратиграфия. Кайнозойская группа. Тектоника. Структурно-формационная зона.*

KIRISH

1971-yilda E.G.Fedorovning ishi Novchamok daryosining yuqori qismida (Akba uchastkasining Sharqiy tomoni) karbon yoshdagi terrigen jinslarida oltin zonasini aniqladi va 2 km shimoli-g'arbiy qismida quyi karbonning terrigen konlarini o'rta devon ohaktoshlari bilan kontakt zonasida kichik oltin tarqalish oreollari ajratildi. Keyinchalik (1974-1977 yy.) Mchetlin partiyasi tomonidan ushbu shlix oreollari "Novserzor" maydoni ma'lum namunalarda oltin miqdori 2-3 g/t bo'lgan.


1974-1977 yillarda Qashqadaryo GQE (32) Mchetlin partiyasi tomonidan Chakilkalon Zarafshon tog' tizmasi tog'larida oltin qidirish ishlari olib borildi. Ushbu ishlar natijasida tumanda Qizilturuk, Novserzor, Murinak, Aksu, Egri-Bugri oltin zonalari topilgan.

1976-yilda Qashqadaryo GQE shahridagi Machetlin partiyasi faoliyati natijalariga ko'ra, Chakilkalian oralig'ida oltin va boshqa foydali qazilmalarni qidirish va qidiruv-baholash ishlarini olib borish maqsadida Atkulak partiyasi tashkil etildi.

1976-yildan boshlab Qashqadaryo GQE geokimyoviy partiyasi tomonidan G.N.Korobeynikov rahbarligida Zarafshon (1956-y.) va Gissar-Zeravshan (1957y.) geokimyoviy va geofizik materiallar natijalarini tahlil qilish asosida, Chakilkalyan tog'larining Janubiy yonbag'ridagi partiyalar metallometrik anomaliyalarning oltin istiqbolli beshta maydonga ajratildi: Qizilturuk, Yutansay, Bashir hamda, Madmon va Shutskiy. 1978-yildan 1982-yilgacha Bashir qidiruv partiyasi bashirdagi oltin va boshqa foydali qazilmalarni umumiy va batafsil qidirishni amalga oshirdi. Yuqorida keltirilgan ishlar 2000-yilda baholash ishlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qildi. 2004-yilda Akba uchastkasida baholash ishlari natijalariga ko'ra Shimoliy-Madmon zonasi ta'sirida ajratilgan, o'rta devon ohaktosh va quyi karbon terrigen jinslari kontakti va 6 ruda tanalari baholandi, C₂ kategoriyadagi zaxira va bashorat resurslarni baholangan. Yuqorida keltirilgan ishlar 2008-yilda chuqur gorizontlar va Akba (Yangalik uchastkasi) konining sharqiy qismida baholash ishlarini tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Stratigrafiya: Madmon maydoni Zarafshon-Oloy struktura-formatsion zonasi doirasida joylashgan va asosan cho'kindi jinslardan iborat bo'lib, paleozoy yoshidagi vulkanogen jinslaridan iborat. Mezozoy jinslari juda cheklangan. Kaynozoy yoshining jinslari keng tarqalgan. Intruziv jinslar noyob, kam qalinlikdagi lamprofirlardir. Quyida ish maydonining geologik tuzilishi tasvirlangan.



Hududning 1:25000 masshtabli geologik xaritasi

Ordovik davri-O. Madmon maydonida ordovik davrining o'rta va yuqori bo'limlari (O_{2-3}) karadokskiy yarusining shaxriomon svita jinslari yotadi. Ular ish joyining Janubiy qismida keng tarqalgan va qumtoshlar, gilli slanets, alevrolitlar, kamroq konglomeralar, gravelitlar, tuflar, tufopeschanik va karbonat jinslar bilan ifodalanadi. Qalinligi 450-462 m.

Silur davri-S. (Llandoveriy yarusi – $S_1\ell n$) - qatlam cho'kindilarida terrigen kompleksi ustunlik qiladi. Kesmaning yuqori qismida gilli ohaktoshlar paydo bo'lgan. Yarus jinslari xlorit, seritsit va boshqalar.slanets, alevrolitlar, qumtoshlar, gravelitlar va kvartsit va effuziv jinslarning noyob qatlamlari bilan ifodalanadi. Qalinligi 100-300 m.

Devon davri-D. Devon davrining maydondagi jinslari quyi va o'rta bo'limlarda kuzatiladi. Quyi devon loxkovskiy va prajskiy yaruslari bilan ifodalanadi, ularning jinslari Madmon svitasida jamlangan. Ikkinchisi pastki va yuqori pastki qismlarga bo'linadi.

Madmon svitasining pastki subsvitasining ($D_1 md_1$) birikmalari organogen ohaktosh brekcheyalari qatlamlari bilan massiv ohaktoshlar bilan ifodalanadi. Madmon svitasining pastki subsvitasining jinslari bursixirman gorizonti nomi bilan mashhur. Qalinligi 418 m.

Karbon davri-C. Karbon davrining jinslarida quyi va o'rta devon ohaktoshlari bilan keskin burchak va stratigrafik nomutanosiblik kuzatiladi. Ushbu jinslar turney va moskva yaruslariga va pushnevatskiy svitasining tarkibida uchraydi. Turney yarusi jinslari ikki to'plamga bo'linadi: pastki va yuqori.

Yura davri-J. Maydonning Shimoliy-Sharqiy yon qismida paleozoy yoshdagi formatsiyalarning yuzasida keskin burchak bilan yuzaga kelgan yura tizimining quyi qismining (J_1) jinslari ma'lum..Quyi yura jinslarning bir qismi sifatida konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar, gil va alevrit, slanest, argillitlar qayd etilgan. Qalinlik 600 m ga etadi.

Bor davri-K.Maydonning Shimoliy-Sharqiy qismida, bor davrining yuqori bo'limi (K_2) ning konglomerat linzalari, ohaktosh, qumtoshlar, mergel, ohaktoshlar-gipsli gil qatlamli jinslari ajratiladi. Yuqori bor tuzilmalari qalinligi 200 m.

Kaynozoy guruhi.

Neogen davri-N. Ushbu davrning jinslari asosan kontinentalniy fatsiyalar bilan ifodalanadi va ular konglomeratlar, gravelitlar, valunniklar, gil, suglinka, qumtoshlar bilan ifodalanadi. Qalinlik 175 m.

To'rtlamchi davr-Q. Bu davrga Azkamar, Karnab, Sukaytiy va Amudaryo komplekslarining proluvial-allyuvial shakllanishlari, tegishli errozion-akkumulyativli sikllari kiradi. Qalinligi 200 m ga etadi.

XULOSA

***Ключевые слова:** художественная речь, поэтическая речь, словообразование, творческий стиль, стилстика, языкознание, литература, язык и речь, окказионализм, индивидуализм.*

LINGUISTIC RESEARCH OF POETIC SPEECH

Hilolaxon Ilhom qizi Umarova
Quva district 1st comprehensive school Uzbek language teacher

ABSTRACT

This article discusses the term artistic speech, its different names, the object of study of linguistics and literature, the direction in which it is studied. Particular

attention is paid to the role of poetry in the creative work and style. An attempt has been made to show the superiority of poetic speech over prose.

***Keywords:** artistic speech, poetic speech, word formation, creative style, stylistics, linguistics, literature, language and speech, occasionalism, individualism*

KIRISH

Til va shoir o'rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak shoir betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda shoir umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tilshunoslikda «badiiy til», «poetik til», «she'riy nutq», «badiiy asar tili», «badiiy nutq», «poetik nutq» kabi atamalar juda faol va ko'pincha bir-birining o'rnida, ya'ni sinonim o'laroq qo'llanilib keladi. Xususan, o'quv adabiyotlarida shu kabi terminologik anarxiya holati yaqqol ko'zga tashlanadi.¹ Holbuki, aslida, terminlarning qaysi birini qo'llash masalaga tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilayotganiga bog'liq bo'lishi lozim. Tilshunoslikda til va nutq bir-biridan farqlanganiga yuz yildan oshdi: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bu haqiqat Ferdinand de Sossyur tomonidan isbotlangan. Adabiyotshunoslikdagi yuqorida tavsiflangan holat esa mazkur haqiqatni yo tan olmaslik, yo ko'rib-ko'rmaslikka olishdirki, bularning ikkisi ham ilmiylikka xilofdir. Ikkinchi tomondan, badiiy asarlar tilining jonli so'zlashuv tiliga yaqinlasha boshlashi (Yevropada bu jarayon XVII - XVIII asrlarda, bizda XX asr boshlaridan kuzatiladi) bilan ikkalasi orasidagi farq yo'qola boradiki, buning natijasida «badiiy til» istilohi ham tobora mavhumlashib, ma'nosini yo'qotib boradi. Ya'ni ilgari, poeziya tili jonli so'zlashuv tilidan keskin farq qilgan vaqtda, istiloh ostida o'sha farqli til tushunilgan. Endilikda esa, ya'ni badiiy til bilan jonli so'zlashuv tili bir-biriga nihoyatda yaqinlashgan

sharoitda istiloh anglatayotgan narsani tasavvur qilish qiyinlashib, uning ortiqcha bo'lib qolgani yaqqol sezila boshladi. Fikrimizcha, mazkur holat ko'rilayotgan masalaga oid istilohlarning qo'llanishini tartibga solish zarurligini asoslash uchun yetarlidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy nutq masalasini qaysi soha o'rganishi borasida ham manbalarda turlicha qarashlarga duch kelamiz. Jumladan, B.Tomashevskiyga ko'ra, badiiy nutqni o'rganish vazifasi to'laligicha tilshunoslik zimmasida. Faqat an'anaviy ravishda, badiiy nutq bilan bog'liq masalalar ritorika va poetika bag'rida paydo bo'lgani uchungina ular keyinchalik tilshunoslik emas, adabiyot nazariyasi tarkibiga kiritiladi va ayni an'ana oqimida eskidan adabiyotshunoslik fanlari sirasida o'qitib kelinadi.¹³² Shuningdek, masalaga umumfilologik muammo sifatida qaraydigan yoxud uni muhim sanamagani sabab e'tiborsiz qoldiruvchi olimlar ham bor. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda *badiiy nutqni ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikning obyekt*i deb hisoblaydigan mutaxassislar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, V.Xalizevga ko'ra ham xuddi shunday, faqat bu ikki sohaning badiiy nutq masalasiga yondashuvi, uni o'rganishdan ko'zlaydigan maqsadlari farqli. Xususan, tilshunoslikni badiiy nutq eng avval tildan foydalanishning muayyan maqsadga yo'naltirilgan, shunga xoslangan vosita va me'yorlariga ega bir shakli o'laroq qiziqtiradi. Badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi *lingvistik poetika* deb atalib, u *badiiy asar tili* (yoki *poetik til*) tushunchasini tayanch — asos qilib oladi. Adabiyotshunoslik uchun esa tayanch — asos tushuncha *badiiy nutq* bo'lib, adabiyot ilmining uni o'rganuvchi bo'limi *stilistika* deb ataladi.¹³³ Shu o'rinda «tilshunoslikda nutqning funksional-uslubiy shakllarini, jumladan, badiiy nutqni ham o'rganuvchi *stilistika* bo'limi mavjud, bu ikkisining munosabati qanday?» degan savol tug'iladi. Asosiy farq shundaki, lingvistik stilistika badiiy nutqqa funksional uslublardan biri deb qaraydi va uning til xususiyatlarini o'rganadi. Ya'ni tilshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy nutq (badiiy matn) til qonuniyatlarini o'rganish uchun material, vosita bo'lsa, adabiyotshunos uchun u — estetik obyektini yuzaga keltiruvchi yagona asos. Zero, shaklning uch aspektidan birgina badiiy nutq moddiy bo'lib, o'quvchi faqat uni tovush yoki yozuv o'laroq bevosita qabul qiladi, unga asoslanibgina tasavvurida badiiy voqelikni jonlantira oladi. Shunga ko'ra, birinchidan, tilshunoslikdan farqli o'laroq, adabiyotshunoslik uchun badiiy nutq vosita emas — ayni maqsad; ikkinchidan,

¹³²

¹³³ Хализев В.Е. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 2002. - С.260;

badiiy nutqning qanday qurilgani, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilish asar poetik olamiga kirish uchun ko'prik vazifasini o'taydi.

Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari uni amaliy nutq kundalik muloqot amalga oshiriladigan nutq bilan qiyoslaganda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Amaliy nutq uchun muhimi — muayyan informatsiyani yetkazish, uning qanday yetkazilishi muhim emas. Badiiy nutqda esa, aksincha, o'sha informatsiyaning qanday yetkazilishi ham g'oyat muhim, unda ifodaga e'tibor ustuvorlik qiladi. Shu bois badiiy nutq tasvir vositasigina emas, ayni paytda, tasvir predmeti ham sanaladi. Amaliy nutq axborot-kommunikativ funksiyani, badiiy nutq esa badiiy-kommunikativ, aniqroq aytsak, badiiy muloqot asosida *estetik* funksiyani bajaradi. Badiiy nutqning xususiyatlari haqida so'z borganda eng avval uning *obrazlilik* tilga olinadi. Ma'lumki, tilda mavjud so'zlarning ko'pchiligi shundoq ham obrazli tabiatga ega, Biroq badiiy nutqning obrazlilikini bu bilan chalkashtirmaslik kerak. Zero, badiiy nutqning obrazlilik o'sha so'zlarning o'zaro mazmuniy-grammatik aloqa-munosabatda izchil bir qatorga tizilishidan voqe bo'ladi, ya'ni u *ikkilamchi obrazlilikdir*. Badiiy nutq shunchaki informatsiya yetkazmaydi, balki lisoniy obrazlar qatorini davriy ketma-ketlikda yaratib boradi va pirovardida o'quvchini yalang fikr-xulosaga emas, badiiy voqelikka ro'baro' qiladi. Shu bois ham o'quvchi o'sha badiiy voqelik haqida shunchaki ma'lumotga ega bo'libgina qolmaydi, uning ichida yashab, his qilib o'tadi.¹³⁴ Zamonaviy adabiyot nuqtayi nazaridan qaralsa, badiiy nutq obrazlilik go'zal tashbeh-u istioralar yoxud boshqa tasvir va ifoda vositalari (o'xshatish, metafora, ramz va b.) ga boyllk, bezakdorlik, bo'yoqdorlik, ko'tarinkilig-u jimjimadorlik kabi sifatlar bilan belgilanligini ham unutmaslik lozim. Ilgari aytilganidek, mazkur xususiyatlar badiiy nutq hali jonli so'zlashuvga yaqinlashmagan davrlarda belgilovchilik maqomida edi. Hozirgi adabiyotda esa bu xil vositalar mutlaqo yoki deyarli ishlatilmagan asarlar ham juda ko'p, biroq bu bilan ulardagi nutq «badiiy» sifatidan mahrum bo'lib qolmaydi. Masalan, Zulfiyaning “Sensiz” she'riga diqqat qilaylik:

*Nega tirik ekan, tashlab ketmading,
Tashlab ketmading-da, boshlab ketmading?!*

Ushbu satrlar badiiy tasvir vositalaridan holi, ammo bu misralar badiiy nutqdan holi emas. Unda lirik qahramonning alami, afg'oni, o'kinchi, qiynalganligi va kuchli muhabbati shu ikki satrga sig'dirib yuborilgan. Lirik qahramonning his-tuyg'ulari bir onda o'quvchiga ham ko'chishini sezish qiyin emas. Shu sababdan, birinchi galda badiiylikni ta'minlovchi omil sifatida obrazlilik va emotsionallik beradi.

¹³⁴ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: “Akademnashr”2018

She`riy nutq - badiiy nutqning nasriy (sochma) va she`riy (tizma) tarzidagi ikki shaklidan biri bo`lib, tilning muayyan ichki o`lchamga solingan, ma`no ko`chishiga asoslangan, hissiyotga to`yingan alohida ko`rinishi.

She`riy nutq she`rning yaratilishi uchun eng muhim birlamchi vosita bo`lib, kelib chiqishiga ko`ra nasriy nutqdan qadimiydir. U inson tamaddunining dastlabki paytida uzoq vaqtgacha badiiy nutqning yagona shakli bo`lgan. Chunki She`riy nutq qurilishidagi tartiblilik, musiqiylik, hissiylik, o`lchovlilik uni kundalik qora so`zdan farqlagan, u orqali ifodalanayotgan axborotning san`atga tegishlilikini ko`rsatib turgan. She`riy nutq muayyan o`lchov asosida takrorlanib turadigan tartibli zarb (ritm) ga qurilgan, inson sezimlarini uyg`otishga yo`naltirilgan, hissiyotga to`yingan ko`tarinki nutqdir. Uning o`ziga xosligini ritmik bo`lak va ritmik vositalar ta`min etadi. Butun borliq harakati zarblarning izchil takroriga asoslangani kabi she`riy nutq ham qat`iy ritmga tayanadi. Tabiatdagi tartibli takrorlar kun va tun hamda fasllar almashinishini ta`minlagani, inson tanasining ritmikasi yurak urishi, nafas olishi maromini tashkil etgani kabi bo`g`in, turoq, rukn, misra va band shaklidagi ritmik bo`laklar takrori She`riy nutqning ta`sirli va yashovchan bo`lishiga olib keladi. Uni shakllantirishda pauza, qofiya va qofiya tizimi singari ritmik vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, She`riy nutqni yuzaga keltirishda poetik sintaksisning inversiya, sintaktik parallelizm kabi ko`rinishlari, fonetik vositalarning vokal va konsonans alliteratsiya, anafora, epifora, gradatsiya singari turlari ham katta samara beradi.

She`riy nutqni ijodkorning individual uslubisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Sababi har bir ijodkor boshqalarga o`xshamaydigan o`ziga xos “ovozi” ajralib turishi kerak. Har bir inson individ bo`lgani kabi har bir ijodkor she`riy nutqi ham individualdir. Zulfiya she`riyati misolida buni tahlil qilib chiqamiz.

Quyida berilgan “Muhabbat tonggi kulganda” she`rida assonans va alliteratsiya vositalarining uyg`un holda qo`llanishi ekspressivlik namoyon bo`lmoqda:

Oqshom edi, oydin ko`prikda

Barno qiz-u yigit turardi,

Oyni kutgan oqshomgi ko`kda

Beshik-beshik bulut yurardi.

Ushbu she`rda *O* tovushi bilan bog`liq assonans va *K* va *B* tovushlari bilan bog`liq alliteratsiyaga duch kelamiz. “Oqshom” so`zi “kechki g`ira-shira payt” ma`nosini, “oydin” so`zi esa “oy chiqib hammayoq yorigan, yorug`” ma`nosini anglatadi. Lekin she`riy parchada oyni “beshik-beshik bulutlar” to`sganligi aytiladi. Demak bu yerda oydin so`zining ko`chma ma`nosi “aniq, ko`rinib, bilinib tungan”ni

qo'llanilgan. Bulutlarning kattakattaligi va ko'pligini ifodalsh maqsadida esa "beshik-beshik" so'zidan foydalanadi, natijada shoira ham yangi individual so'z takrorini yaratmoqda, ham ajoyib metaforik o'xshatish hosil qilmoqda. Bu jarayon takroriy so'z va metaforik o'xshatish kompozitsiyasini hosil qilish bilan birgalikda she'rga o'ziga xos ohang, musiqiylik berib, badiiylikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. She'riy parchani o'qir ekanmiz, tasvirlanayotgan joy, voqealar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Badiiy uslub til birliklaridan foydalanishda ijodkorga nihoyatda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunda biror mazmun va obraz yaratishda ijodkor tilida mavjud shakllardan tashqari yangi modellar ham hosil qilish mumkin. Zero bunda eng asosiy maqsad badiiylikni yuzaga chiqarishdan iborat bo'ladi. Badiiy matnda biror maqsad yo'lida hosil qilingan ijodkorning individual uslubigagina xos bo'lgan yangi shakllar okkazonalizmlar deyiladi.

Zulfiyaning "Oltin kuz" she'rida mana shunday individual, hech kimda uchramaydigan so'zga guvoh bo'lamiz:

*Men g'amgin boqmayman, ko'nglimda bahor,
Oltin yaproqlarga qarab tolmayman.
Yasan kelinchakday har bir daraxtni
Sevaman! Nigohim uza olmayman.¹³⁵*

Kuz ko'pincha ayriliq ramzi sifatida shoira asarlarida tasvir ob'ektiga aylangan. Yuqoridagi she'rda lirik qahramon, ya'ni shoira o'zi kuzga o'zgacha yondashadi. Chunki uning qalbida bahor kayfiyati hukm surmoqda. *Oltin yaproqlar* bezangan daraxtni *yasan kelinchakka* o'xshatmoqda. "Yasan" so'zi aslida fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, *yasamoq* fe'lining o'zlik nisbatdagi shakli hisoblanadi. Yasanmoq fe'li 3-shaxs birlikdagi buyruq istak shaklida matnda qo'llangan. Ammo bu fe'l boshqargan *kelinchakday* so'zi *yasan* fe'lini o'tgan zamon *-gan* formasida bo'lishini talab qiladi. Agar shoira ushbu birikmani *kelinchakday yasangan* tarzida aslida qo'llasa, inversiya sodir bo'lmasa, misralar ohangdoshligiga putur etishi mumkin edi. Bu misolda shoira tomonidan qo'llangan *yasan* so'zi morfologik-sintaktik okkazonallik hosil qilmoqda.

Shoira oltin kuz she'rida ham so'zni noodatiy qo'llanishiga guvoh bo'lamiz:

*Sof yel esar... Parvona uchar,
Chiroq atrofida o'grilib,
O'zin urib part bo'ladi-yu,*

¹³⁵ Зулфия. Сайланма. Тошкент. Шарқ. 2006. Б. 7

*Stolimga tushadi kelib.*¹³⁶

Shoira she'r misralarida o'z o'limini tezlashtirgan parvonaning haqiqiy holatini tasvirlash uchun *part bo'lmoq* qo'shma fe'lidan foydalanadi. Natijada oddiy xalqona ibora parvonaning holatini tez va aniq idrok qiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *part bo'lmoq* so'ziga "qaynoq suvda kuymoq" deb ta'rif berilgan. Ammo shoira chiroq issiqligida qanotlari kuygan parvonaga nisbatan *part bo'lmoq* fe'lini qo'llashni ma'qul topadi. Demak, bu o'rinda shoira *part bo'lmoq* fe'lining yangi ma'no qirrasini yaratadi va bir xillikdan qochish, betakrorlikka erishadi.

Zulfiyaning "Ko'ngil" she'rida shunday misralar bor:

*Ko'ngil, bo'lma shisha singari siniq,
Behuda bir so'z yo nigohdan chil-chil?
Borliqni sig'dirgan buloq bo'l, tiniq,
O'zni o'zing bosma og'ir yuk shekil.*

Shekil so'zi og'zaki nutqda qo'llanadigan shekilli so'zining varianti hisoblanadi. Shekilli so'zi fikrning gumon, taxmin, tasmol bilan aytilganligini bildirib, "balki", "ehtimol", "... bo'lsa kerak" ma'nolarini ifodalaydi. Ammo bu o'rinda shekil so'zi shekilli so'zining og'zaki nutqdagi variantini ifodalab kelmaganligini sezishimiz mumkin. Bu yerda shekil so'zi ko'proq "kabi" so'zi ma'nosiga to'g'ri keladi. SHuningdek, bu so'z ikkinchi misradagi chil-chil so'ziga ohangdosh juftlik sifatida ham shu tarzda qo'langan. Bu so'z ham ijodkorning o'ziga xos til uslubini ko'rsatib bermoqda.

Ma'lumki, taniqli shoir va ijodkorlar frazeologik birliklar, frazeologizmlar, frazemalardan unumli foydalanib personaj nutqini individuallashtirish, asarning ta'sirchanligini oshirish sohasidagi zahmatli ijodiy mehnati haqida qator risolalar, monografiyalar yaratilgan. Bu o'rinda I.Qo'chqortoyevning "Badiiy nutq stilistikasi"(1975), H.Qahhorovanning "Abdulla Qodiriy frazeologiyasi"(1985), A.Mamatovning "Frazeologik stilistika masalalari"(1991), M.Yo'ldoshevning "Cho'lpon so'zining sirlari"(2002) nomli tadqiqotlari xarakterlidir. Jumladan, I.Qochqortoyevning asarida yozuvchi Abdulla Qahhorning tildan ijodiy foydalanish mahorati va matn talabi bilan "izvoshga ho'kiz qo'shilganday" – "izvoshga eshak qo'shib bo'lmaydi"; "kambag'al non deb bosh ko'tarsa, bu mushtumzo'rlar qon deb tosh ko'taradi"; "yerda turib oyda chorvachilik qilmoq" kabi yangi frazemalar hosil qilish usullarini yoritgan edi.¹³⁷ O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya ham o'z ijodi davomida umuman tilga, jumladan, ibora qo'llashga ana shunday ma'suliyat bilan

¹³⁶ Зулфия. Сайланма. Тошкент. Шарк. 2006. Б.8

¹³⁷ Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилстикаси. – Тошкент: ТошДУ нашри. 1975. Б.47-72

yondashadigan soʻz sanʼatkorlardan biri edi. Misollar asosida aytish mumkinki, shoira asarlarida yetti yuzga yaqin frazema qoʻllangan boʻlib, ularning asosiy qismi jonli soʻzlashuv nutqiga xoslangan va kitobiy frazemalar sanaladi. Shoira Zulfiya ijodida frazemalar birinchi navbatda matnning obrazlilik, taʼsirchanligini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi.¹³⁸ Xususan, shoiraning “Bahor keldi seni soʻroqlab” sheʼrida ham juda koʻplab iboralar qoʻllangan boʻlib, ularning asosiy qismi badiiy uslubga xos kitobiy frazemalardir:

*Topmay, sabri tugab boʻron boʻldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod togʻlaridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi togʻning toshini.*¹³⁹

Misrada Hamid Olimjon sogʻinchidan shoirmi izlab yoʻlga chiqqan shabboda holati jonlantirilar ekan, shoira hijrondagi matn referentining iztiroblarini tabiat hodisalariga qiyoslaydi. Natijada shabboda anemonimining semantik pogʻonada oʻzidan ancha yuqorida turadigan “esish”, “harakatli”, “”ёғинли” semantik uyadagi jufti - *boʻron* lekesmasini qoʻllashga olib keladi. Boʻron boʻlmoq harakat tushunchasi aslida shabboda ruhiy holatini, kechinmalarini ifodalashda aktual leksik birlik sifatida koʻzga tashlanadi. SHabboda holati *boshini olib ketmoq* iborasida obrazli ifodasini topgan, lirik qahramon ruhiyatidagi umidsizlikni yaqqol namoyon etgan. SHabboda shoiraning oʻzi. Bu timsol vositasida oʻz kechinmalarini sheʼriy misralarda ifoda etgan.

XULOSA

Nutqning aniq va ravshan boʻlishi, avvalo, soʻzdan toʻgʻri foydalanishga bogʻliq. Soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllay olish foydalanuvchining teran fikrlashi va yuksak mahorat egasi ekanligini koʻrsatadi. Soʻzni toʻgʻri qoʻllay olish soʻzlovchi (ijodkor) va tinglovchi (kitobxon) shuurida kechayotgan hislar va kechinmalarning koʻzda tutilgan tarzda idrok etilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy asar tili oʻz vazifasiga koʻra, oʻquvchiga estetik ruh bagʻishlash, yaʼni uning ichki kechinmalari, tuygʻularining u yoki bu maʼnoda taʼsirlanishini nazarda tutadi. Bunda sheʼriyatning oʻrni beqiyos. Ijodkor biror holatni tasvirlashda soʻz vositasidan foydalanar ekan, asarning qay darajada mukammal va yetuk boʻlishi, boshqacha aytganda, “badiiy

¹³⁸ Йўлдошев Б.Зулфия шеъриятида айрим фраземаларнинг қўлланиш хусусиятлари хақида//Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Андижон – 2015 Б.76

¹³⁹ Зулфия. Сайланма. Тошкент. Шарқ. 2006. Б.12

asarning sifati va qimmatini yozuvchining individual uslubi, birinchi navbatda uning maqsad o'qini nishonga bexato uradigan jozibador tili bilan belgilanadi.”¹⁴⁰

REFERENCES

1. Дониёров Н. Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. Тошкент, Фан. 1988. Б.79
2. Зулфия. Сайланма. Тошкент. Шарқ. 2006. Б.12
3. Кўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ нашри. 1975. Б.47-72
4. Йўлдошев Б. Зулфия шеъриятида айрим фраземаларнинг қўлланиш хусусиятлари ҳақида // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Андижон – 2015 Б.76
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: “Akademnashr” 2018
6. Хализев В.Е. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 2002. - С.260;
7. Зулфия. Сайланма. Т.: 2006. Б.125
8. Алдашева Ш. Поэтик шакл ва ижодкор индивидуаллиги // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. 2-сон, 54-бет.
9. Бадиий тил муаммолари. // «Инқилоб ва адабиёт» Т. 1977
10. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. – Тошкент, 2008.
11. Сиёев С. Сўз кадрили билмаган // “Ўзбек адабиёти ва санъати” газетаси 1997 йил 11 апрел №15
12. Зулфия. Асарлар: 3 жилдлик. 1-жилд: Шалола. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1985.
13. Зулфия. Асарлар: 3 жилдлик. 2-жилд: Мушоира. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1985.

¹⁴⁰ Дониёров Н. Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. Тошкент, Фан. 1988. Б.79

YOSH KURASHCHILARNI TAYYORLASHDA DASTLABKI TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI

Abdullayev Farhod Dilshodbekovich

ADU Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat
nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qtuvchisi

ANNOTATSIYA

So‘nggi paytlarda sport ilmiy va uslubiy adabiyotlarida sport geneziyasining dastlabki bosqichlarida tayyorgarlik mashg‘ulotlariga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Maqolada shunday mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sport, kurash, yosh kurashchilar, uslubiyat, astenotoraks, digestivlik, jismoniy tayyorgarlik.

АННОТАЦИЯ

За последнее время в спортивной научно-методической литературе интерес к построению тренировки на начальных этапах спортивного генеза значительно вырос. В статье описаны методы организации таких тренировок.

Ключевые слова: спорт, борьба, юные борцы, стиль, астенооторакс, дигестивность, физическая подготовка.

ANNOTATION

Recently, in the sports scientific and methodological literature, interest in building training at the initial stages of sports genesis has grown significantly. The article describes the methods of organizing such training.

Key words: sport, wrestling, young wrestlers, style, asthenothorax, digestion, physical training.

KIRISH

Kurash musobaqalarida sportchining muvaffaqiyati uning individual tayyorgarligining turli tomonlari: taktik, texnik, nazariy, jismoniy va boshqalarning optimal kombinatsiyasi bilan belgilanadi.

Kurash – bu sport turi, duel natijasi bo‘lib, u asosan hujum harakatlarning samarali o‘tkazilishi bilan belgilanadi. Ularning raqobat muhitida muvaffaqiyatli ishlashiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillardan biri kurashchilarning morfologik va tipologik xususiyatlaridir.

Sportdagi har qanday ixtisoslik inson biologiyasining muvofiqligi va uning faoliyatdagi qiziqishlariga asoslanishi kerak. Sport faoliyati quvonch keltirishi kerak, bu uning insonparvarlik mohiyati va yuqori natijalar garovidir.

Ma'lumki, inson genotipida uning tarixiy o'tmishi va u bilan bog'liq uning individual rivojlanish dasturi haqida ma'lumotlar mavjud. Turli xil ijtimoiy sharoitlar, turli sport tadbirlari boshqa funksional tizim kompleksini faollashtiradi va shuning uchun shaxsning genetik fondiga boshqacha ta'sir qiladi. Taqdim etilgan sport faoliyatining mazmuni boshlang'ich sportchining genotipiga qanchalik mos kelsa, sport iste'dodi sifatida individual genotipning amalga oshirilishini kutish mumkin. Sport faoliyati sharoitida biologik tizimning (odamning) ishonchliligi asosiy dastlabki parametrlar bilan belgilanadi. Birinchidan, bu adaptiv qobiliyatlar doirasi (genetik reaksiya normasi) va ikkinchidan, somatik holatning maksimal genetik jihatdan aniqlangan ko'rsatkichlari sport faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqori malakali sportchini tayyorlash juda qiyin ish bo'lib, insonning biologik xususiyatlariga asoslangan ko'plab ratsional yondashuvlar mavjud. Shaxsning harakat apparatini jismoniy sifatlari bo'yicha chempionlarnikidan sezilarli darajada oshib ketgan holda tayyorlash mumkin va harakatni amalga oshirishning noto'g'ri texnikasi tufayli kerakli natijani ololmaydi. Aksincha, to'g'ri qo'llanilgan harakat texnikasi bilan musobaqa davomida bir jismoniy sifat, fiziologik ko'rsatkichning "oqsoqlanishi" yoki ruhiy tushkunlik tufayli ham istalgan natijaga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy integrativ antropologiya o'z ixtiyorida turmush sharoiti va tarbiyasining o'ziga xosligini tipik va individual, irsiy va qatlamliligini ajratib ko'rsatishga imkon beradigan usullarga ega. Tug'ilganda odamda genetik shartlar va qobiliyatlarning anatomik va fiziologik moyilligi mavjud. Biologik rivojlanishning har bir davri bir xil ta'sirlarga reaksiya tezligida o'ziga xos o'zgarishlarga ega. Mavzu qanchalik katta bo'lsa va o'quv yuklari qanchalik ko'p farq qilsa, uning konstitutsiyaviy xususiyatlari shunchalik aniq namoyon bo'ladi va shu bilan birga, bir xil mutaxassislik doirasida individual xususiyatlar aniqroq namoyon bo'ladi, bir xil narsaga javob berishning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Bu farqlarni faqat sport geneziyasining turli bosqichlarida bir xil sportchilarni o'rganadigan turli profilli mutaxassislarning ishi natijasida aniqlash mumkin. Ontogenezning har bir davridagi o'quv jarayonining istiqbollari to'g'risida yagona xulosa faqat trener va turli mutaxassislar tomonidan olingan parcha-parcha ma'lumotlarni (bilimlarni) birlashtirish natijasida amalga oshirilishi mumkin. Yangi yondashuvlarni yaratishning faqat shu usuli istiqbolli bo'lishi mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilar ma'lum bir sport turidagi sportchini erta aniqlash mumkin emas deb hisoblashadi. Ular odatda sport guruhidagi somatik, funksional, jismoniy belgilar tasodifiy tartibda birlashtirilgan, o'z sporti uchun to'liq xos bo'lgan sportchilar kichik foizni tashkil qiladi, qolganlari esa o'rtacha turdan chetda qoladi, degan pozitsiyadan kelib chiqadi. Muayyan prinsiplarga ko'ra, bu sportchilar taqqoslanadigan guruhlarga xos bo'lgan guruhga kiritilishi mumkin, ammo xususiyatlarning umumiyliigi bo'yicha ular doimo o'z ixtisosligi bo'yicha sportchilarga yaqinroq bo'ladi. Yoshga oid materiallar bilan ishlash shuni ko'rsatdiki, turli mutaxassislar tomonidan sport o'ynashning dastlabki bosqichlarida olingan xususiyatlar to'plamidan foydalangan holda, bu usuldan foydalanish yosh sportchining ma'lum bir sport turiga eng katta moyilligini aniqlash imkonini beradi.

V.G. Nikitushkin, V.I. Shpanov [1, 2] kurashchilar guruhini individual tipologik belgilarga ko'ra ajratgan holda o'rganib, quyidagi natijalarga erishildi:

Guruhlarning har birining dominant jismoniy sifatini aniqlashda, chidamlilikning namoyon bo'lishini tavsiflovchi testlarda astenotorokal tipga mansub guruh eng yuqori natijalarni ko'rsatganligi aniqlandi.

Tezlik va tezlik-kuch sifatlarining namoyon bo'lishini tavsiflovchi testlarda mushak tipidagi sportchilar, digestiv tipidagi sportchilarning kuch xarakteridagi mashqlarda – sherik bilan cho'zilish, magistral ekstansorlarning kuchi va umurtqa pog'onasi mustahkamligi o'rganildi.

Jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish testlari natijalariga ko'ra, quyidagi natijalarga erishildi: 14 ta nazorat mashqlarida astenotoraks va digestiv turlari guruhlari o'rtasida sezilarli farqlar aniqlandi, 12 nazorat mashqlarida mushak turi ovqat hazm qilish turidan sezilarli darajada farq qiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, bu o'quv yuklarini tanlashda farqlash imkonini beradi. Yosh kurashchilarni tayyorlashda harakat sifatlarining rivojlanishi bilan jismoniy tarbiya vositalaridan alohida mashg'ulotlarda tezlik, kuch va chidamlilik mashqlarini qo'llagan holda yoki tezlik va tezlikka chidamlilikni ustun rivojlantirish bilan kompleks mashg'ulotlar eng samarali hisoblanadi. Ushbu murakkablikda, mashg'ulot vaqtining 35% – tezlikni rivojlantirishga, 30% – kuchni rivojlantirishga va 35% – chidamlilikni rivojlantirishga bag'ishlangan bo'lsa, boshqa vosita sifatlarining rivojlanish dinamikasi bilan solishtirganda eng samarali variant o'smirlarga nisbatan 13-14 yoshda, tezlikni yanada jadal rivojlanish davri boshlanadi.

XULOSA

Ko'p tadqiqotlar natijalari kurashda sportchi yoshlarni yo'naltirishda muhim rol o'ynaydigan mashq qilishning kompleks usuli, jumladan mobil va sport o'yinlari,

o‘yin mashqlari va vazifalari, shuningdek, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalangan holda sport mashg‘ulotlarining yuqori samaradorligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Шпанов В.И. Повышение общей и специальной физической подготовленности борцов 14-16 лет с учетом их индивидуально-типологических особенностей на основе применения тренажеров : дис.... канд. пед. наук : 13.00.04 / Шпанов Виталий Иванович; Всерос. науч.-исслед. ин-т физ. культуры и спорта. – М., 1998.
2. Никитушкин В.Г., Максименко Г.Н., Суслов Ф.П. Подготовка юных бегунов. – Киев: Здоровья, 1988.

МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ, СПОРТ ВА ХАЛҚ МИЛЛИЙ ҲИЙИЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Б.А. Рахимов

Андижон давлат университети жисмоний тарбия
назарияси ва методикаси кафедраси ўқитувчиси

АННАТАЦИЯ

Ўзбекистонда Мустақиллик йилларининг бу даврида асосий эътибор, спорт ва халқ миллий ҳиЙинларини тиклаш ва ривожлантиришига қаратилиб, катта тадбирлар амалга оширилди. Ушбу йилларда кўплаб оммавий спорт турларини ривожлантиришига катта эътибор берилди. Жисмоний тарбия ва спорт билан шугулланишни инсонларнинг ҳаёт тарзига айлантиришига қаратилган эди. Ўз ўринда эса оммавий спортни ривожлантириш орқали профессионал спорт захирасини мустаҳкамлаб, спорт кўрсаткичларини ўстиришни мақсад қилиб олинди.

Калит сўзлар: Оммавий спорт, миллий кураш, халқ миллий ҳиЙинлари, жисмоний тарбия, спорт, баркамол авлод, соғлом турмуш тарзи, универсиада, умид ниҳоллари, профессионал.

АННОТАЦИЯ

В этот период независимости в Узбекистане были проведены крупные мероприятия, направленные на восстановление и развитие спорта и национальных игр. В эти годы большое внимание стало уделяться развитию многих массовых видов спорта. Она была направлена на то, чтобы приобщить людей к образу жизни физкультуры и спорта. Вместо этого укрепление резерва профессионального спорта за счет развития массового спорта было направлено на рост спортивных показателей.

Ключевые слова: массовый спорт, национальная борьба, народные национальные игры, физкультура, спорт, гармоничное поколение, здоровый образ жизни, универсиада, ростки надежды, профессиональный.

ANNOTATION

During this period of independence in Uzbekistan, major events were held, focusing on the restoration and development of sports and National Games. Great attention has begun to develop many mass sports in these years. It was aimed at turning people into a way of life Physical education and sports. In its place, strengthening the reserve of professional sports through the development of mass sports, it was aimed at growing sports indicators.

Keywords: *Mass Sports, national struggle, folk National Games, physical education, sports, harmonious generation, healthy lifestyle, universiada, sprouts of hope, professional.*

КИРИШ

Илк 1991 йил 1 сентябрь халқимиз ҳаётида туб бурилиш ясаган кун сифатида тарихга кирди. Давлатимиз ўзи танлаб олган мустақиллик йўлидан демократик давлат барпо қилиш сари илдам қадам ташлади. Мустақиллик туфайли тарихимизни қайта ўрганиш, учун катта имкониятлар яратилди. Шу асосда янги тарихимиздаги жисмоний тарбия ва унинг ривожланиш босқичларини ўрганиш имконияти пайдо бўлди. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортнинг 1991–2006 йиллардаги ривожланиш тарихини ўрганар эканмиз, бевосита давлатимизнинг ушбу соҳада босқичма-босқич олиб борган сиёсатига тўхталиб ўтиш зарур. Бу биринчи ўринда оммавий спортни ривожлантириш орқали аҳолининг умумий саломатлигини яхшилашга, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишни инсонларнинг ҳаёт тарзига айлантиришга қаратилган эди.

Давлатимиз ўзи ўринда эса оммавий спортни ривожлантириш орқали профессионал спорт заҳирасини мустаҳкамлаб, спорт кўрсаткичларини ўстиришни мақсад қилиб олинди. Буларни қуйидаги даврларга бўлиб ўрганишимиз мумкин.

Биринчи босқич, 1991–1997 йилларни ўз ичига олиб, республикамиз ҳаётида туб бурилиш ясаган бу даврда, Республикада жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантиришга қаратилган тегишли қонунлар, Президент Фармонлари ва Вазирлар маҳкамасининг қарорлари ишлаб чиқилди. Унда спортнинг ҳуқуқий, иқтисодий, ташкилий асослари белгиланиб, спорт турларини ривожлантириш чора-тадбирлари аниқ кўрсатиб берилди.

Ушбу даврда:

- жисмоний тарбия ва спортни бошқаришнинг ташкилий асослари такомиллаштирилди;
- Ўзбекистон Миллий Олимпия қўмитаси, спорт турлари бўйича федерациялар ташкил этилди;
- жисмоний тарбия-соғломлаштириш, оммавий спорт ишлари, спортнинг миллий спорт турлари ва ўйинлари ривожлантирилди;
- жисмоний тарбияни ва спорт соҳасини маблағ билан таъминлаш тизимини такомиллаштирилди, моддий-техника базаси мустаҳкамланди.

Ушбу йилларда кўплаб оммавий спорт турларини ривожлантиришга катта эътибор берилди бошлади. Хусусан, 1992 йилдан миллий кураш бўйича жаҳон чемпионатлари, 1994 йилдан теннис бўйича «Президент Кубоги» халқаро турнири, 1996 йилдан «Тошкент Опен» халқаро аёллар турнирлари, шунингдек Фарғона, Самарқанд, Гулистон, Бухоро, Қарши шаҳарларида «Челенжер», «Фьючерс» ва «Сателлит» каби халқаро турнирлари ўтказилди бошланди.

Бундан ташқари бокс бўйича Осиё чемпионати (1996) ва кураш, бокс, шарқона якка курашлар, спорт ўйинлари бўйича жуда кўп расмий мусобақалар, халқаро турнирлар Тошкент, Бухоро, Қарши, Термиз ва бошқа шаҳарларда ўтказилди. Бунда кўплаб мамлакатларнинг энг нуфузли спортчилари ҳам иштирок этди, ўз навбатида ушбу спорт турларига бўлган қизиқувчилар сони ошиб, оммавийликни ўсишига сабаб бўлди.

Ушбу даврда халқаро майдонларда ҳам ўзбек спортчиларининг зафарли юришлари бошланди. Ўзбекистон илк бор мустақил жамоа сифатида 1994 йилда қишки Олимпия ўйинларида иштирок этиб биринчи олтин медални қўлга киритди (Л. Черязова), 1996 йилда ёзги Олимпия ўйинларида эса медаллар сони иккитага ошди (А. Багдасаров, К. Тўляганов).

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Мустақиллик йилларининг бу даврида асосий эътибор халқ миллий ўйинларини тиклаш ва ривожлантиришга қаратилиб, катта тадбирлар амалга оширилди. У.Қорабоев ташаббуси билан 1991 йил 25 апрелда Фориш туманида (Жиззах вилояти) илк бор Республика халқ миллий ўйинлари фестивали назарий ва амалий мусобақа шаклида ташкил этилди. Бунда собиқ Республика Давлат спорт кўмитаси, Жиззах вилояти ҳокимлиги, Кори-Ниёзий номидаги республика педагогика илмий-текшириш институти мутахассислари профессор Т.С.Усмонхужаев Жиззах ДПИ жамоаси катта ташаббус кўрсатиб, моддий, молиявий ва ташкилий тадбирлар амалга оширилди.

Бундай ўйинлар ҳар йили апрель-май ойларида Форишда такрорланди. 1994–1996 йилларда ўтказилган бу ўйинлар «Халқ миллий ўйинлари Республика олимпиадаси» номи билан тарихга муҳирланди.

1996 йил май ойида Фориш тумани маркази Янгиқошлоқ яқинидаги Қизилқир сайилгоҳида Соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган II Республика халқ ўйинлари олимпиадаси муваффақиятли ўтказилди. Унда 11 жамоа 9 тур ҳамда умумжамоа ҳисобида ғолибликни қўлга киритиш учун майдонга тушди. Мусобақани минглаб жаззахликлар қатори

мамлакатимизнинг бошқа вилоятларидан келганлар, шунингдек, АҚШ, Норвегия, Қозоғистондан ташриф буюрган меҳмонлар ҳам кузатиб боришди. Республика олимпиадасида пешқадам жамоалар охириги тур олдидан куйидагича баллар оркали очко тўплашган эди: Жиззах – 157, Сурхондарё – 103, Қашқадарё – 87, Самарқанд – 80, Фарғона – 68 очко. Мусобақа давомида спорт турлари бўйича 1–3 ўринларни эгаллаган жамоаларга Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси томонидан дипломлар ва олтин, кумуш, бронза медаллари тантанали равишда топширилди. Олимпиада сўнгида совриндор жамоаларнинг ҳар бир аъзосига қимматбаҳо эсталик совғалари такдим этилди.

Бу босқични ўрганиш тарихий жиҳатдан ниҳоят муҳимдир, чунки айнан шу давр мамлакатимиз жисмоний тарбия ва спортининг истиқболларини белгилаб берди. Шу сабабли мустақилликнинг илк йилларидаги бу даврни мустақил ўзбек спортининг «шаклланиш» даври деб аташимиз мумкин.

Иккинчи босқич, 1998–2006 йилларни ўз ичига олиб, бу давр ҳам юқоридаги амалий ишларни узвий ва мантиқий давоми сифатида жисмоний тарбия ва спортнинг «ривожланиш» даврини бошлаб берди. Бу даврда давлатимиз раҳбарияти томонидан миллий спорт турлари, профессионал ва оммавий спорт, аёллар ва болалар спорти, халқ миллий ўйинларини ривожлантириш учун махсус қарорлар қабул қилиниб, чора-тадбирлар ишлаб чиқилди.

Илк мустақиллик йилларида ёшларни спортга бўлган ҳавас ва интилишни, мамлакатимизда соғлом турмуш тарзи тамойилларини янада кучайтириш, мамлакатимизда ўқувчи ва талабаларни узлуксиз спорт машғулотларига жалб қилишга қаратилган спорт мусобақалари тизимини Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига мувофиқ ташкил этишни асосий мақсад қилиб қўйилди. Қарорда ўқувчи ва талаба-ёшларнинг «Умид ниҳоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада» спорт мусобақаларининг ҳар бирини уч йилда бир марта ўтказиш режаси белгиланди.

Мазкур спорт мусобақаларининг ҳудудларда республика финал босқичларини ўтказиш режаси ҳам ишлаб чиқилди.

Мусобақалар тамойиллари Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон болалар спортини ривожлантириш жамғармаси ҳомийлик кенгашининг йиғилишларидан бирида берган кўрсатмалари асосида шакллантирилди.

«Баркамол авлод» спорт мусобақаларини ташкил этишдаги расмий маълумотларга кура, республикада 300 га яқин ўрта махсус ўқув юртлари, академик лицейлар ва касб-хунар коллежларида 465 мингдан ортиқ ўқувчи ёшлар таҳсил олмоқда. Уларнинг 43 мингдан ортиғи жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиб, деярли ярмидан кўпроғи спорт тўғарақларида иштирок этади.

«Баркамол авлод» спорт мусобақасининг дастлабки финал қисми 2001 йилда Жиззах шаҳрида, 2003 йилда Андижонда ва кейингиси 2005 йилда Тошкент вилоятининг шаҳарларида (Чирчиқ, Ғазалкент ва ҳ.к.) ўтказилиб, бўлажак касб-хунар эгаларининг жисмоний баркамолликлари синовлардан ўтказилди. Мусобақаларнинг натижаларига қараганда Тошкент шаҳри, Самарқанд, Андижон, Фарғона, Бухоро вилоятларидаги ўрта махсус ўқув юртлари ва касб-хунар коллежларида кураш, футбол, енгил атлетика, сузиш ва бошқа спорт ўйинларининг ўтказилиши яхши йўлга қўйилган.

Шунингдек бир қатор вилоятларда бу соҳада ҳали жуда кўп меҳнат қилиш кераклиги мусобақаларнинг натижалари кўрсатиб берди.

Кўп босқичли спорт мусобақаларининг энг юқори чўққиси бу «Универсиада». 2000 йилда Наманганда ўтказилган биринчи универсиада қатнашчиларига табрикнома йўллаганда И.А. Каримов қуйидагиларни изҳор этди: «Спорт нафақат жисмоний, балки маънавий камолотга эришишда ҳам муҳим омилдир. У иродани тоблайди, аниқ мақсад сари интилиш, қийинчиликларни чидам ва бардош билан енгишга ўргатади.

Инсон қалбида ғалабага ишонч, ғурур ва ифтихор туйғуларини тарбиялайди. Соғлом, билимли ва фидойи фарзандлари бўлган халқ, албатта ўзининг буюк келажагини барпо этади.

Халқаро талабалар универсиадаси андозаси асосида талабаларнинг мусобақаларини «Универсиада» деб аташни давр тақозо этди. Шу сабабдан Наманган (2000), Бухоро (2002) ва Самарқандда (2004) универсиадалар ўтказилди. Халқаро дастурлар ва узлуксиз таълим асослари бўйича универсиадани ҳар уч йилда ўтказишга қарор қилинди. Биринчи универсиадада 60 дан ортиқ олий ўқув юртларининг спорт жамоалари (командалари) иштирок этди. 14 та спорт тури бўйича дастур тузилиб, мусобақалар шиддатли ва қизиқарли равишда ўтказилди. Унда ЎзДЖТИ 758 очко тўплаб, 37 та олтин, 48 та кумуш ва 18 та бронза медалларга эга бўлиб пешқадамлик қилди. Иккинчи ва учинчи ўринларни Наманган ДУ (21 олтин, 15 кумуш, 31 бронза медал, яъни 668 очко), ва 59 Ўзбекистон Фарғона ДУ (11

олтин, 15 кумуш, 8 бронза, яъни 316 очко) эгаллади. Кучли ўнликда эса Андижон ДУ, ГулистонДУ, Бухоро ДУ, Самарқанд ДУ, Жиззах ДПИ, Термиз ДУ, Тошкент аграр университети ўз ўринларига эга бўлдилар .

Универсиадаларнинг ижтимоий-тарбиявий ва давлат сиёсатига молик томонларидан бири шундаки, иқтидорли спортчилар синовдан ўтказилиб, саралаб олинганлари Халқаро турнирлар, жаҳон биринчиликлари ва Олимпия ўйинларига жалб этилмоқда.

Бугунги кунда «Баркамол авлод», «Умид ниҳоллари», «Универсиада» спорт мусобақаларини ўтказиш, терма жамоаларни туман-шаҳар, вилоят ва республика босқичларида ёшларни қатнаштиришда жисмоний тарбия ўқитувчилари, спорт турлари бўйича мураббийларнинг фаолияти ҳам асосий аҳамият касб этмоқда. Бунда аҳолининг барча қатламларини спортга жалб этиш йўлидаги тарғибот ҳамда амалий ишларда фақат спорт мутахассисларигина эмас, ҳатто атоқли ёзувчилар, таълим-тарбиянинг таниқли намоёндалари, давлат идоралари ходимлари, жамоадаги ташкилотларнинг масъуллари, меҳнат фахрийлари, маҳалла қишлоқ оқсоқоллари ҳам бевосита иштирок этади.

Шуни эътироф этиш лозимки, бу мусобақа узлуксиз («Умид ниҳоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада») спорт мусобақаларининг янги босқичи сифатида мазмун ва моҳият жиҳатдан энг муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Аҳолининг саломатлигини яхшилаш, ўқувчи ёшлар ва талабаларнинг жисмоний баркамоллигини тарбиялаш, иқтидорли спортчиларнинг маҳоратини давр талаблари ҳамда халқаро андозалар асосида такомиллаштириб бориш, шунингдек, меҳнаткаш омма, зиёлиларнинг иш қобилиятларини ва меҳнат унумдорлигини ошириш, энг муҳими эса, соғлом турмуш тарзи орқали умрни узайтиришга, соғлом авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор кучайди.

Мустақиллик йиллари даврида (1991–2006) жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши ҳақидаги далиллар тарихий жиҳатдан эътиборга лойиқдир. Республика спорт ташкилотлари, уюшмалари (жамиятлар, федерациялар), Халқ таълими, Олий ва ўрта-махсус таълим вазирликлари ҳамда Давлат Статистика қўмитасининг йиллик ҳисоботлари, расмий ҳужжатлари, архив материалларининг статистик (рақамли) маълумотларни келтириш мумкин. Мустақилликнинг дастлабки йилларидаги баъзи кўрсаткичларга қуйидаги шарҳлар мисол бўлади: Республика миқёсидаги 14577 та жисмоний маданият жамоаларида 5,5 млн. дан ортиқ киши жисмоний тарбия ва спорт билан

шуғулланган. Шу жумладан 60 га яқин олий ўқув юртларида 135 минг атрофида, 225 та ўрта махсус ўқув юртларида 147,5 мингдан ортиқ, 8300 дан ортиқроқ умумтаълим мактабларида эса 4,6 млн. га яқин ўқувчи ёшлар ва талабалар спорт турлари билан шуғулланган. 5,5 мингдан ортиқ ишлаб чиқариш корхоналарида 544 мингга яқин кишининг мунтазам равишда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланганликлари аниқланди.

Маълумки, республикада жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш иқтидорли ва истеъдодли спортчи ёшларни танлаш, уларни тарбиялаб, жаҳон спорт мусобақалари ҳамда Олимпия ўйинларига тайёрлаш ишлари яхши йўлга қўйилмоқда. Маҳалла ва қишлоқларда, шунингдек, меҳнат жамоаларида спортнинг жуда кўп турлари бўйича мусобақалар ташкил қилиш масаласига жиддий эътибор берилмоқда.

Умуман олганда, 30 йил давомида республика раҳбарияти томонидан, Марказий Осиё, Осиё ва жаҳон спорт мусобақалари ва Олимпия ўйинларининг совриндорлари ҳамда қатнашчиларига алоҳида эътибор берилиб, улар муносиб равишда тақдирланмоқда. Спортчиларнинг хизматлари ва эришган натижалари республика спорти тарихидан муносиб жой эгалламоқда. Бу даврда Республикада спортнинг тараққиёти, истеъдодли спортчиларнинг халқаро спорт майдонларида эришган ғалабаларини акс эттирувчи нуфузли тарихий манбалар яратилди. Юқорида айтилганидек, мустақиллик йиллари даврида халқ миллий ўйинларини ўрганиш ва уларни қайта тиклаш билан ўқувчи ёшларни маънавий ҳамда жисмоний баркамол қилиб тарбиялашда улардан мақсадли равишда фойдаланилмоқда. Шунинг ҳам таъкидлаш лозимки, меҳнаткашлар, қишлоқ ёшлари ва аҳоли истиқомат жойларида ҳам замонавий спорт турлари ва халқ миллий ўйинлари бўйича турли-туман спорт мусобақалари ташкил этилмоқда.

«Наврўз», «Мустақиллик куни», «Ҳосил байрами» ва турли улуғ саналарга бағишлаб ўтказилаётган анъанавий байрамлар, маданий тадбирларда кураш, бокс, куч синаш, тош кўтариш, шарқона якка курашлар ва бошқа халқ миллий ўйинлари, айниқса, кўпқари (улоқ), пойга, дорбоз каби томошабоп ўйинлар ҳам намоёиш этилмоқда. Бундан асосий мақсад жисмоний тарбия ва спортни тарғиб қилиш йўли билан аҳолининг саломатлигини яхшилаш, ўқувчи ёшларнинг маънавий ва жисмоний баркамоллигини оширишга қаратилгандир.

Миллий ўйинлар халқнинг қадриятлари таркибидаги энг сеvimли оммавий-маданий тадбирларидан биридир. «Наврўз» байрами, тўйлар ва турли хил анъанавий маросимлар, удумлар, қадимдан курашсиз, кўпқарисиз (улоқ),

пойгасиз ва бошқа ўйинларсиз ўтмаган. Бундай тадбирлар халқ оғзаки ижодининг барча турларида, жумладан дostonларида мадх этилган. Улуғ алломалар Абу Али Ибн Сино, Алишер Навоий, Мирзо Бобурларнинг асарларида қизиқарли ҳамда тўла баён этилган

Халқ миллий ўйинлари бир неча йўналишларга эга бўлиб, уларнинг таркибида рақслар, лапарлар, айтишувлар, аскиялар ва жуда кўп жанрлардаги санъат анча устун туради. Шунингдек, улар қаторида қадимги аждодлардан мерос бўлиб келаётган ҳаракатли халқ ўйинлари ва спортга хос ўйинлар ҳам жуда кўп. Уларни қуйидаги катта гуруҳларга ажратиш мумкин, яъни:

1. Курашлар (Бухороча, Фарғонача, Хоразмча ва ҳ.к.).
2. От ўйинлари (кўпкари-улоқ, пойга (ялов), қиз қувмоқ, отдан ағдариш, човгон ва ҳ.к.).
3. Дорбоз (дор устидаги машқлар, ҳазил ва айтишувлар).
4. Тош кўтариш.
5. Арқон тортиш.
6. Билак кучини синаш.
7. Ҳаракатли ўйинлар .

Бундай ўйинларнинг деярли барчаси ҳозирги даврдаги мусобақалар ва тўйларда ҳам кенг қўлланилмоқда.

Самарқанд, Бухоро, Қашқадарё, Сурхондарё, Жиззах, Наманган,

Сирдарё, Тошкент ва бошқа вилоятларнинг тоғли ҳудудларида кураш, кўпкари-улоқ, пойга ва турли ҳаракатли ўйинлар доимий равишда ўтказилмоқда. Бу ўйинлар тўйларга файз, барака киритиш билан биргаликда томошабинлар олқишига сазовор бўлмоқда, айниқса, ўқувчи ёшларнинг миллий халқ ўйинлар, замонавий спорт турларига қизиқишини тобора оширмоқда.

1998 йили «Алпомиш» дostonининг 1000 йиллигига бағишлаб Термизда «Алпомиш ўйинлари» Республика фестивали ўтказилди. 2000 йил-даги фестивал Фарғона шаҳрида, учинчи фестивал эса Гулистон шаҳрида 2002 йилда ташкил этилди. Халқ миллий ўйинлари Республика мусобақалари ва «Алпомиш ўйинлари» Республика фестиваллари дастурларида кураш, пойга, кўпкари (улоқ), «Бўрон», арқон тортишиш, билак кучини синаш, «Минди», «Қирқ тош» (қизлар ўйини) ва бошқа ҳаракатли ўйинлар ўрин олди .

Ушбу халқ миллий фестивалларни ўтказишдан мақсад, қадимий анъана ва урф-одатларимизни асраш, авлоддан авлодга ўтиб келаётган миллий тадбирларни тиклаш, келажак авлод учун уларни бузилмаган ҳолича етказиб беришдан иборат.

Таъкидлаш лозимки, халқ миллий ўйинлари (Жиззах, Термиз, 1991), «Алпомиш ўйинлари Республика фестиваллари»га (1998, 2000, 2002) бағишлаб Республика илмий-амалий анжуманлари ҳам ўтказилди. Уларда халқ миллий ўйинларининг мазмунлари ёритилди. Шунингдек, миллий кадриятлар мазмунида халқ миллий ўйинларининг ўрни, уларнинг тарбиявий аҳамиятига қаратилган жуда кўп маърузалар тингланди. Уларнинг қисқача мазмунлари анжуманнинг илмий тўпламларига киритилди. Ёшлари ўртасида от спорти клублари ташкил этилиб, кичик ёшдан бошлаб от ўйинларига ўргатиш йўлга қўйилса, ўсмир ёшларга эса отда бажариладиган ҳарбий-жисмоний машқлар ўргатилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Албатта, бу спорт турларининг ривожланиши учун махсус табиий муҳит зарур ёки мослаштирилган шароит талаб этилади.

Шунингдек, оила ва болалар боғчаларида ҳаракатли ўйинлар ва машғулотлар таркибида миллий ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш йўлга қўйилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, мустақиллик йилларида Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт ишларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди. Бугунги кунда мазкур ишларни амалга ошириш учун етарли даражада ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, улар асосида спортни ривожлантириш, халқаро мусобақаларда қатнашиш билан бирга миллий спорт турларини тарғиб қилиш жадаллашиб бормоқда.

Республикада спорт соҳасини ривожлантиришга йўналтирилган дастурларнинг бош мақсади, аҳоли барча қатламларининг жисмоний тарбияга қизиқишини ошириш ва зарурий шарт-шароитларни яратиш деб белгиланган.

Республикамизда мактаб ўқувчилари, ўрта-махсус ва касб-хунар коллежлари, олий ўқув юрти талабалари учун ташкил этилаётган «Умид ниҳоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада» кўп босқичли узлуксиз спорт мусобақалари жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, уни ёшларнинг ҳаёт тарзига айлантириш мақсадида ташкил этилди. Ушбу мусобақаларда саралаб олинган спортчилар миллий терма жамоалар сафини тўлдириб, халқаро мусобақаларда қатнашиш имкониятига эга бўлдилар.

Республикамизда халқ миллий ўйинларига ҳам катта аҳамият берилиб, бу борада кўплаб мусобақалар, илмий анжуманлар ташкил этилмоқда.

Авлоддан авлодга ўтиб келаётган халқимизнинг бу миллий қадриятини тикланиши ва ўрганилиши ёшларимизда миллий урф-одатлар ва анъаналар ҳақидаги билимларини кенгайтиради.

Аҳоли истиқомат жойларида оммавий спорт турлари бўйича мусобақалар ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бунда барча ёшдаги аҳоли учун мўлжалланган «Алпомиш», «Тўмарис» ўйинларини мамлакатимизда спортни оммалаштиришни маҳалла, ўз-ўзини бошқариш органларида машҳур спортчи, олим, психологлар билан учрашувлар ўтказиш, катта ёшдаги кишиларни спортга жалб қилиш орқали аҳолининг умр даражасини узайтириш. Оммавий спортни ривожлантириш учун халқаро амалиётдан келиб чиққан ҳолда барча ёшдаги аҳоли учун «Гимнастрада»лар уюштириш (оммавий гимнастика чиқишлари), эркак ва аёллар учун махсус жисмоний ҳаракатлар дастурини ишлаб чиқиш зарур;

– миллий урф-одатлар, анъаналарни билиш ва тарғиб қилиш мақсадида мактаб ўқувчиларининг жисмоний тарбия дарслари дастурига халқ миллий ўйинларидан ҳаракатли машқларни киритиш билан зарур.

– Ўзбекистон истиқлоли, жисмоний маданияти ҳамда спорти билан боғлиқ бўлган турли улуг саналар, нуфузли тадбирлар, спорт мусобақаларининг ўтказилишига бағишлаб, республика ва халқаро миқёсдаги илмий анжуманлар ўтказиш лозим;

«Спорт» телеканали, «Спорт», «Ўзбекистон футболлари» газеталари ҳамда «Фан спортга» журналининг дастур мавзуларини кенгайтириш лозим. Уларда халқаро спорт мусобақаларининг иштирокчилари, ғолиблари, мураббийлари ҳақида таҳлилий лавҳалар бериш, машҳур инсонлар иштирокида телевизион спорт ўйинлари ташкил этиш керак. Бундан ташқари мамлакатимизда спортнинг ривожланишига улкан ҳисса қўшган спорт фахрийларининг фаолияти ҳам кенг ёритилиб бориши керак.

Юқоридаги камчилик ва муаммоларни ҳал қилиш йўллари орқали мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортнинг янада ривожланишига, оммавий спортнинг ўсишига эришишимиз мумкин.

REFERENCES

1. Абдумаликов Р. Эшназаров Ж.Э. Аждодлар жисмоний маданият тарихини ўрганиш масалалари: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 64 б.
2. Абдумаликов Р. Акрамов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихини ўрганиш масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1994. – 42 б.

3. Абдумаликов Р. Жисмоний маданият ва спорт ихтисослигидаги назарий талабларни бошқарувчилик фаолиятларига ўргатишнинг амалий асослари. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти, 1994. – 62 б.
4. Абдумаликов Р. Абдуллаев А. ва бошқалар. Халқ миллий ўйинлари мазмунида маънавият масалалари. Методик қўлланма. – Тошкент, 1996. – 34 б.
5. Абдумаликов Р. Холдоров Т.Х. Туризм: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – 162 б.
6. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари / Тузувчилар: У. Каримов, Ҳ.Ҳикматуллаев. – Тошкент: Халқ мероси, 1994. 1-жилд. – 300 б.
7. Азимов О. Жисмоний тарбия ва шахснинг камолоти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – 40 б.
9. Ақромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 158 б.

VOLEYBOLCHILARNING TAKTIK TAYYORGARLIGI VAZIFALARI

O'rinboyev Qudratullo Nematullayevich

Fakultetlaro jismoniy madaniyat va
sport kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Texnikani mukammal egallash texnika va taktika bo'yicha mashqlarni, shuningdek, o'quv-tarbiyaviy o'yinlarni katta samaradorlik bilan bajarish imkonini beradi, bu esa ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: voleybol, taktik harakatlar, jismoniy tayyorgarlik, aqliy tayyorgarlik, psixik tayyorgarlik, reaksiya tezligi va oriyentatsiya, topqirlik.

АННОТАЦИЯ

Овладение техникой позволяет с большой эффективностью выполнять упражнения на технику и тактику, а также развивающие игры, что положительно сказывается на повышении уровня физической подготовленности участников.

Ключевые слова: волейбол, тактические движения, физическая подготовка, умственная подготовка, умственная подготовка, скорость реакции и ориентировка, сообразительность.

ANNOTATION

Mastering the technique allows you to perform exercises on technique and tactics with great efficiency, as well as developing games, which has a positive effect on increasing the level of physical fitness of the participants.

Keywords: volleyball, tactical movements, physical training, mental training, mental training, reaction speed and orientation, intelligence.

KIRISH

Voleybolda taktika – bu musobaqani muayyan individual, guruh va jamoaviy harakatlar yordamida tashkil etishdir. Shu bilan birga, voleybolchilarning barcha harakatlari ikkita asosiy toifaga bo'linadi: himoyadagi va hujumdagi taktik harakatlar.

Taktikaga o'rgatish, shuningdek, to'liq ma'lum darajadagi texnik tayyorgarlik bilan bog'liq. Har qanday taktik harakat faqat texnik usullarni yetarlicha yaxshi o'zlashtirgan holda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Voleybolchilarning texnikaviy tayyorgarligi qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning taktik imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Taktik harakatlarga tayyorgarlik yosh voleybolchilar bilan ishlashda ortda qolayotgan yoʻnalishlardan biridir. Taktika texnika va jismoniy tayyorgarlik bilan bogʻliq. Harakatning texnik usullarini kuchli egallashi va maxsus jismoniy sifatlarning yuqori darajada rivojlanishi taktik harakatlarda muvaffaqiyatli tayyorgarlikni belgilaydi.

Yosh voleybolchilarning taktik tayyorgarligi oʻquvchilarning yakka tartibda va boshqa oʻyinchilar bilan hamkorlikda dastlab toʻpsiz, soʻngra toʻldirilgan (voleybol, tennis va hokazo) toʻp bilan va nihoyat, oʻyinchilar bilan hamkorlikda harakat qilishlari shart boʻlgan sharoitlarning bosqichma-bosqich murakkablashuvidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Taktik koʻnikmalarni shakllantirish voleybolni oʻrgatishning dastlabki bosqichlaridan – reaksiya tezligi va oriyentatsiya, topqirlik, shuningdek, oʻyin faoliyatiga xos koʻnikmalarni rivojlantirishdan boshlanadi. Bunga toʻgʻri qaror qabul qilish va uni tezda amalga oshirish qobiliyati, sheriklar bilan oʻzaro munosabatda boʻlish qobiliyati, oʻyinni kuzatish va kuzatishlar asosida darhol javob berish qobiliyati va boshqalar kiradi.

Oʻqitish taktikasi oʻrganish texnikasi bilan birga keladi. Bu nafaqat texnikani oʻrgatishda ishtirokchilarga uning oʻyindagi taktik maqsadi haqida maʼlumot berilishida namoyon boʻladi. Taktika va texnika oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik shundan dalolat beradiki, allaqachon maxsus (tayyorgarlik va kirish) mashqlarni bajarish jarayonida oʻrganilayotgan texnika bilan bogʻliq taktik koʻnikmalar tinglovchilarda shakllanadi. Texnik mashqlar davomida ularni amalga oshirish uchun maʼlum sharoitlar yaratilgan hollarda taktik koʻnikmalarni shakllantirish jarayoni sezilarli darajada yaxshilanadi. Bunday shartlar uchun xarakterli jihat shundaki, toʻpning uchish yoʻnalishi va mashqlarda qatnashuvchilarning harakat xarakteri maʼlum darajada toʻpning uchish yoʻnalishiga va voleybol oʻyinidagi oʻyinchilarning harakatiga mos keladi. Taktik koʻnikmalarni shakllantirish taktik mashqlarda, oʻquv oʻyinlarida va voleybol musobaqalarida toʻliq namoyon boʻladi.

Birinchi bosqich. Muvaffaqiyatli taktik harakatlar asosini tashkil etuvchi maʼlum jismoniy, aqliy va psixik fazilatlar(reaksiya va orientatsiya tezligi, javob tezligi va bir harakatdan ikkinchisiga oʻtish, tezkor aql, kuzatuvchanlik)ni tarbiyalanuvchilarda rivojlantirish.

Ikkinchi bosqich. Oʻyin texnikasi bilan shugʻullanuvchilarni oʻrgatish jarayonida taktik koʻnikmalarni shakllantirish. Bunga ikki yoʻl bilan erishiladi. Birinchidan, texnikani oʻzlashtirganidek, u taktik harakatlar muvaffaqiyatini

belgilaydigan fazilatlar bilan “bog‘lanadi”. Masalan, texnikani bajarayotganda, tinglovchilar sherikning (yorug‘lik taxtasi) harakatlarini kuzatib boradilar: shartli signallarning xususiyatiga qarab, u yoki bu vazifani bajarish kerak. Ikkinchidan, texnikani takomillashtirish bosqichida taktik ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan murakkabliklar tizimi qo‘llaniladi. Masalan, voleybolda aniqlik uchun xizmat qilish. Shu asosda xizmat ko‘rsatishda individual taktik harakatlar oson o‘zlashtiriladi: texnikani yaxshi bilmaydigan o‘yinchiga, almashtirish vaqtida o‘yinga kirgan o‘yinchiga, orqa chiziqdan to‘rga o‘tish va h.k.

Sport o‘yinlarida jismoniy tayyorgarlikni aniqlash uchun testlar haqida gapirganda, shuni ta’kidlash kerakki, ularning aksariyati harakat tezligi, vizual ogohlantirishlarga javob berish tezligi, epchillik, sakrash qobiliyati kabi vosita fazilatlar va sport va texnik ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. va texnikani samarali joriy etish [1].

Uchinchi bosqich. Haqiqiy taktik harakatlarni o‘rganish: hujum va himoyada individual, guruh va jamoaviy. Bu yerda birinchi o‘rinda taktik mashqlar, o‘yin mashqlari va mashg‘ulot ikki tomonlama o‘yin orqali amalga oshiriladi. Ikki tomonlama o‘yin asta-sekin kiritiladi, undan oldin tayyorgarlik va ochiq o‘yinlar, estafeta poygalari o‘tkaziladi.

To‘rtinchi bosqich. Taktik harakatlarni o‘yin raqobat faoliyatiga integratsiya qilish. Buning uchun maxsus topshiriqlar o‘quv ikki tomonlama o‘yinda va nazorat o‘yinlarida va kalendar o‘yinlarida (musobaqalarda) sozlashlardan foydalaniladi.

Himoya o‘yining muammoli masalalari talabalar e’tiboriga havola etilishi kerak, ular sinfda ongli va izchil o‘rganilishi kerak:

1. Voleybolda o‘yin pozitsiyasining qiymati.
2. O‘yinchining to‘pga qarab harakat qilish usuli.
3. Yuqoridan to‘pni ikki qo‘l bilan qabul qilish.
4. Ikki qo‘l bilan pastdan to‘pni qabul qilish.
5. Himoyada bir qo‘l bilan to‘pni qabul qilish.
6. Bloklash [2, 18].

XULOSA

Shunday qilib, taktik ko‘nikmalarni shakllantirish tayyorgarlik va yetakchi mashqlardan boshlanadi, texnik mashqlarda davom etadi, taktik mashqlarda, mashg‘ulotlarda, nazorat o‘yinlarida va musobaqalarda eng yuqori ifodaga erishadi. Zamonaviy jamoaviy sportda yuqori tezlikdagi o‘yinning rivojlanishi va taktik kombinatsiyalarning murakkablashuvi aniq tendensiyaga ega. Shu sababli, sportchini

o'yinchilarning (o'zining va raqibining) maydondagi joylashishini, to'p (shayba) parvozining pozitsiyasi va yo'nalishini baholashga, sheriklar, raqiblarning harakatlarini bashorat qilish, mavjud vaziyatni tezda tahlil qilish va eng maqsadga muvofiq harakatni tanlab, uni samarali bajarish va niyatni amalga oshirishga o'rgatish ayniqsa muhimdir.

REFERENCES

1. Бубэ Х., Фэк Г., Штюблер Х., Трогш Ф. Тесты в спортивной практике. – М., 1968 (перевод с немецк.).
2. Никулин В.Т. Волейбол. Тактика, техника и правила игры. – Орёл: ОГУ имени И.С. Тургенева, 2017.

BO‘LAJAK VOLEYBOLCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Yuldashev Sardorbek Adilbekovich

Fakultetlararo jismoniy madaniyat va
sport kafedrası mudiri

Xolbutaev Jaxongir Oibek o‘g‘li

ADU magistranti

ANNOTATSIYA

Talaba nafaqat o‘rgatish (o‘qitish) obyekti va subyektidir, balki u bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyatning ham (o‘qituvchi, trener) obyekti va subyekti sifatida ta‘lim oladi. Maqolada bo‘lajak voleybolchilarga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sport, voleybol, o‘qituvchi-trener, talaba, malakaviy talablar, pedagogik funksiyalar, jismoniy tayyorgarlik.

АННОТАЦИЯ

Учащийся является не только объектом и субъектом обучения, но и объектом и субъектом будущей профессионально-педагогической деятельности (педагог, тренер). В статье рассматриваются требования к будущим волейболистам.

Ключевые слова: спорт, волейбол, педагог-тренер, воспитанник, квалификационные требования, педагогические функции, физическая подготовка.

ANNOTATION

The student is not only the object and subject of learning, but also the object and subject of future professional and pedagogical activity (teacher, coach). The article discusses the requirements for future volleyball players.

Keywords: sport, volleyball, teacher-trainer, student, qualification requirements, pedagogical functions, physical training.

KIRISH

XXI asr inson va jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning global miqyosda jadal sur‘atlar bilan shakllana borishi, ishlab chiqarish, uy-ro‘zg‘or, yo‘l harakatlari, hatto intellektual jarayonlarni “avtomatlar”, kompyuterlar va robotlar “qo‘liga” topshirmoqda. Ushbu vaziyat bir tomondan odamzot uchun barcha qulayliklarni muhayyo etsa, ish sifati va samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan jismoniy mehnat-mushaklar faoliya-tini nihoyatda chegaralab qo‘ymoqda. Aynan ikkinchi holatning ustuvorligi asta-sekin gipokineziya

(kam harakatlanish) dardiga muhtalo qiladi. Gipokineziya esa, o‘z navbatida hayotga xavf soluvchi zamon sivilizatsiyasiga xos hastaliklar (ishemiya, gipertoniya, bronx astmasi, nevroz, osteoxandroz va h.k.)ni keltirib chiqarishi isbot talab qilmaydi. To‘g‘ri, ushbu kasalliklardan xalos bo‘lish uchun “o‘tkir” doridarmonlar va zamonaviy muolaja usullari mavjud. Lekin bunday vositalar bir darddan “ozod” qilib, ikkinchi bir dardni “chaqirishi” ehtimoldan holi emas. Olimlar tomonidan azaldan ilmiy asosda isbot qilinganki, gipokine-ziyani oldini oluvchi yoki davolovchi yagona va o‘ta samarali “dori-darmon” – me‘yorlangan jismoniy tarbiya va sport mashqlaridir.

Demak, iftixor bilan ta’kidlash mumkinki, Yurtboshimiz tomonidan qo‘llabquvvatlanayotgan va davlat siyosati doirasida rivoj topayotgan jismoniy tarbiya va sport sharafli sohaga aylanib bormoqda. Shunday ekan, ayni vaqtda jismoniy tarbiya hamda ommaviy sportni aholining, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar-ning kundalik hayotiy ehtiyojiga aylantirish va, albatta, yurtimiz bayrog‘ini Olimp cho‘qqilariga olib chiqishga qodir iste’dodli sport zahiralari hamda raqobatbardosh sportchilar tayyorlovchi professional kadrlar yetishtirish soha-ning o‘ta dolzarb vazifalaridan biridir.

Jismoniy tarbiya va xususan voleybol bo‘yicha tayyorlanadigan o‘qituvchitrenerning modeli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muvofiq ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallangan DTS va fan dasturi talablari bilan belgilanadi.

Voleybol ixtisosligi bo‘yicha bakalavriaturada ta’lim olayotgan talaba – bo‘lajak o‘qituvchi-trenerda dasturda belgilangan kasbiypedagogik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Voleybol ixtisosligi bo‘yicha trener-o‘qituvchining ko‘p komponentli kasbiy-pedagogik funksiyalarining (boshqaruvchilik, mashq-lantirish, tashkilotchilik, tarbiyachilik va h.k.) tarkibiy tuzilishi, mohiyati, maz-muni haqida chuqur va keng tasavvurga ega bo‘lishi, mavjud ilg‘or tajribalar va ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma hamda malakalarni o‘zlashtirishini ta’minlash, ularni malakaviy amaliyotlar davomida mukammallashtirish, voleybolga tanlov o‘tkazish, diagnostik, seleksion-prognostik ishlar kabi kasbiy-funksional qobiliyatlarga ega bo‘lishi, turli yoshli va malakaga mansub voleybolchilar bilan mashg‘ulot hamda musobaqalar o‘tkazish, hakamlik qilish va musobaqani boshqarish sirlarini o‘rgatishga mo‘ljallanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu fan dasturiga asosan talabaga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi.
Talaba:

- "Voleybol nazariyasi va uslubiyati" fani dasturiga kiritilgan barcha ma'ruza mavzulari bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, malakaviy amaliyotlar davomida shakllantiriladigan kasbiy-pedagogik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi;

- mazkur jarayonda mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ilg'or tajribalari, innovatsion-pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan faol foydalanishi;

- fanga doir tarixiy-evolyutsion materiallar, jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik jarayonlarining mohiyati, mazmuni hamda ushbu jarayonlarni amalga oshirish texnologiyasi, uslublari, vositalari va prinsiplarini bilishi;

- o'yin texnikasi va taktikasi, ularga o'rgatish, tanlov va seleksion ishlar, turli yosh va malakaga mansub voleybolchilar hamda jamoalar bilan mashg'ulot o'tkazish texnologiyasini chuqur egallashi;

- musobaqa qoidalari, hakamlar va hakamlilik qilish, musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish, musobaqa samaradorligini ilmiy asosda aniqlash, olingan natijalar yordamida jamoani boshqarish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi;

- tayyorgarlik turlari mohiyati va mazmunini bilish, ularni rivojlantirish, ularni shakllanish dinamikasini ilmiy-pedagogik uslublar, test mashqlari yordamida baholash ko'nikmalari va mezonlarini bilish hamda qo'llash malakalariga ega bo'lishi;

- o'qituvchi-trenerning ko'p komponentli kasbiy-pedagogik funksiyalari – boshqaruvchilik, tashkilotchilik, tarbiyachilik, ijodkorlik, loyihachilik, kommunikativlik, diagnostik, seleksion-prognostik ishlarni tashkil qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishi;

- qayd etilgan kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni nazariy (ma'ruza), amaliy hamda seminar mashg'ulotlari, malakaviy amaliyotlar, turli ilmiy-amaliy anjumanlarda kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni bajarish davomida mukammallashtirishi;

- harakatlar zahirasini boyitish, texnik-taktik mahorat doirasini kengaytirish va sog'liqni mukammallashtirishda muhim rol o'ynovchi "o'naqay va chapa-qay" harakat funksiyalarini simmetrik tartibda shakllantirish texnologiyasi, vositalari hamda prinsiplarini o'rganish, o'zlashtirish va amalda qo'llash ko'nik-masiga ega bo'lishi;

- mashg'ulot va musobaqa davomida yuklamalardan toliqish alomatlarini vizual va maxsus testlar asosida aniqlash, ularni bartaraf etish vositalari, ish qobiliyatini tiklash bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi kerak.

REFERENCES

1. Айрапетьянц Л.Р. Волейбол. Учебник для высших учебных заведений. – Т.: Zar qalam. 2006.
2. Беляев А.В. Обучение технике игры в волейбол и её совершенствование. Методическое пособие. Олимпия. Человек. – М.: 2008.
3. Бергер Г.И., Бергер Ю.Г. Конспекты уроков для учителя физкультуры. // Спортивные игры, подвижные игры. – М.: Влад ос, 2003.

KURASH MUSOBAQALARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Suvonov Qodir Yo‘ldoshevich

Qarshi Davlat Universiteti

Jismoniy tarbiya va sport turlari kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuqori malakali mutaxassis o‘z kasb darajasini muntazam oshirib borishi lozim. Buning uchun u ilmiy-usuliy ish olib borish malakasiga ega bo‘lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo‘yishni bilishi, tegishli tadqiqot usullari hamda uslublarini tanlay olishi, olingan ma‘lumotlarni tahlil qila olishi lozim.

Kalit so‘zlar: milliy kurash; treyner; kurash texnikasi; trenirovka; musobaqa; milliy olimpiada.

АННОТАЦИЯ

Высококвалифицированный специалист в области физической культуры и спорта должен постоянно повышать свою профессиональную квалификацию. Для этого он должен иметь навыки ведения научно-методической работы, уметь ставить исследовательские задачи, уметь выбирать соответствующие методы и приемы исследования, анализировать полученные данные.

Ключевые слова: национальная борьба; тренер; приемы борьбы; обучение; соревнование; Всероссийская олимпиада.

ABSTRACT

A highly qualified specialist in the field of physical culture and sports must constantly improve his professional skills. To do this, he must have the skills of conducting scientific and methodological work, be able to set research tasks, be able to choose appropriate research methods and techniques, and analyze the data obtained.

Keywords: national wrestling; trainer; fighting techniques; education; competition; All-Russian Olympiad.

KIRISH

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Kurash milliy sport turini (keyingi o'rinlarda — kurash) rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- aholining barcha qatlamlarini kurash bilan shug'ullanishga keng jalb qilish hamda O'zbekistonda kurashni umumxalq sport turiga aylantirish;

- kurashni ommalashtirish, uning jahon sporti durdonasiga aylanishiga va Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishiga erishish;

- kurash bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilmani shakllantirish;

- Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurashni ustuvor sport turlari sifatida kiritish;

- kurash bo'yicha professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodologik bazasini kuchaytirish;

- o'zbek kurashi brendini yaratish, investitsiyalarni jalb etgan holda yaktak sport kiyimlari va kurash gilamlarini ishlab chiqarish, kurashni tijoratlashtirish choralari ko'rish;

- kurashni aholi o'rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish;

2. O'zbekiston kurash federatsiyasi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, Turizm va sport vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik), Moliya vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining:

a) 2021-yildan boshlab har ikki yilda bir marta oliy ta'lim muassasalar talabalari o'rtasida kurash bo'yicha xalqaro musobaqani ustuvor ravishda xorijiy davlatlarda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun kurash bo‘yicha xalqaro turnirlarni o‘tkazish;

b) 2020-yildan boshlab har yili bir marta davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari xodimlari o‘rtasida kurash bo‘yicha “O‘zbek polvoni” respublika musobaqasini o‘tkazish;

v) 2021 — 2025-yillarda viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida innovatsion texnologiyalarga asoslangan, arzon, energiya tejamkor va tez barpo etiladigan yengil konstruksiya va materiallardan quriladigan hamda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan Vazirlik huzuridagi kurash mahorat maktablarini (keyingi o‘rinlarda — kurash mahorat maktablari) bosqichma-bosqich tashkil etish;

g) Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va O‘zbekiston kurash federatsiyasi muassisligida Xalqaro kurash institutini qayta tashkil etish;

d) Vazirlik tasarrufidagi Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan sportning milliy kurash turiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini amaldagi moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda O‘zbekiston kurash federatsiyasiga bepul foydalanishga berish haqidagi takliflariga rozilik berilsin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

«Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi» fanining maqsadi talabalarni O‘zbekistonda keng tarqalgan “Kurash turlari”ni yoshlar orasida targ‘ib qilish va keng tarqatish, yoshlarni qiziqtirish ularga texnik – taktik usullarni va qonun qoidalarini o‘rgatish va tanishtirishdan iboratdir.

«Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi» fanidan darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg‘ulotlar o‘tkazilishi, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilinishi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo‘llanmalardan samarali foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o‘ylantiradigan muammo savollarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo‘naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar fan mavzularini chuqur egallashni ta‘minlaydi.

«Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi» kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107-sonli buyrug‘I bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim o‘quv rejalari fanlarining yangi o‘quv majmualarini tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma” asosida yaratilgan dastlabki o‘quv-uslubiy majmualardan biri bo‘lganligi sababli, unda ba‘zi kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin.

Sport kurashini o'qitish - bu sport kurashi nazariyasi va uni o'qitish usuliyati to'g'risidagi bilimlar kurashchining asosiy o'ziga xos musobaqa, hakamlilik, pedagogik, tashkiliy faoliyati hisoblangan ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tashkil qilingan pedagogik jarayondir.

O'qitish maqsadi shug'ullanuvchilarda trenerning kasb faoliyati kontseptsiyasini aks ettiruvchi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu kontseptsiya bilimlar va malakalar, ilmiy fikrlash uslublari, shug'ullanuvchilarda ongli hamda amaliy faoliyatga ijodiy munosabatni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Sport kurashi nazariyasi va o'qitish usuliyati o'quv fanining o'ziga xos sharoitlari hamda xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- sport turi nazariyasi va o'qitish usuliyati bo'yicha bilimlarning optimal hajmi, har tomonlamaligi va yetarlicha chuqur bo'lishini ta'minlash;
- ijodiy anglash imkoniyatlarini takomillashtirish;
- kurashchining umumiy tayyorgarlik mashqlarini bajarish malakalarini shakllantirish va takomillashtirish;
- kurash texnikasi usullari himoyalalanishlar va qarshi usullarni bajarishni shakllantirish hamda takomillashtirish;
- musobaqa bellashuvlaridagi texnik-taktik harakatlarning optimal hajmi va turli xilligini shakllantirish;
- o'quv, o'quv-trenirovka, nazorat, musobaqa va ko'rgazmali bellashuvlarni olib borish ko'nikmalari hamda malakalarini shakllantirish;
- kurash usullarini bajarish texnikasini taxlil qilish bilimlari malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;
- kurash texnikasini ko'rsatib berish va tushuntirish malakasini egallash;
- murakkab texnik-taktik harakatlarni bajarishga o'rgatish va takomillashtirish bilimlari, malakalari hamda ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;
- kurash bo'yicha darslarni tahlil qilish va o'tkazish malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;
- kurash musobaqalariga hakamlilik qilish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish.

Sport kurashi trenerining kasb-pedagogik faoliyati ko'p qirralidir. U bir qator majburiyatlarning bajarilishini o'z ichiga oladi. Ular orasida quyidagilarni ajratish lozim: o'quv-tabiiyaviy ishlar, kurashchilarning trenirovka va musobaqa faoliyatini boshqarish, sportga layoqatli va iqtidorli bolalar orasidan saralash, ilmiy-usuliy ishda qatnashish, musoba-qalarni tashkil etish va o'tkazish, trenirovkalar hamda

musobaqalarni moddiy-texnik ta'minlash, shaxsiy kasb mahoratini oshirish. Trenerning o'quv-tarbiyaviy vazifasi eng muhimlardan biri hisoblanadi. U shug'ullanuvchilarni sport kurashining texnik-taktik harakatlariga o'rgatish, jismoniy va ahloqiy-iroda sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan insonni shakllantirish malakasidan iborat.

O'qitish vazifasi trenerning texnik harakatlarni namunadek ko'rsatib berish, mashqni qisqa va oson tushuntirish, texnikadagi xatolar hamda uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, kuzatish uchun to'g'ri joy tanlash, bajarilayotgan mashq texnikasini o'quvchi bilan tahlil qilish, usul uchun tayyorgarlik harakatlarini, usul va yakunlovchi harakatni bajarishda mumkin bo'lgan ushlashlarni tanlash malakasini o'z ichiga oladi. Trener jismoniy va ahloqiy-iroda sifatlarini tarbiyalashda usuliy yondashishlarni tabaqalash, treneriovka nagruzkalarini me'yorlash, shug'ullanuvchilarning alohida xususiyatlariga qarab, tegishli vositalar hamda usullarni tanlashni bilishi zarur.

Trener sportchilar tayyorgarligini maqsadli boshqarish uchun quyidagilarni bilishi lozim:

- sportchilar, shuningdek ular yashaydigan, trenirovka qiladigan va musobaqalashadigan muhit to'g'risida axborot to'plash hamda uni tahlil qilish;
- sportchilar tayyorgarligi strategiyasi to'g'risida qaror chiqarish;
- ularning tayyorgarlik rejalari va dasturlarini tuzish; sportchilar tayyorgarligi dasturi hamda rejasini amalda ro'yobga chiqarish;
- tuzilgan dastur va rejalarning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- zarur hollarda trenirovka jarayoniga o'zgartirishlar kiritish.

Kurashchilar tayyorgarligi dasturlari va rejalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi trenerning trenirovka mashg'uloti, ish kuni, mikro-, mezo- va makrotsikllar davomida trenirovka jarayonini oqilona tuzishni amalga oshira olgandagina, shuningdek pedagogik, tibbiy-biologik va ruhiy vositalar hamda uslublardan iborat tiklanish tadbirlar to'g'ri foydalanilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Musobaqa faoliyatini boshqarish oldinda turgan musobaqa bellashuvlari rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Trener oldinda turgan bellashuv rejasini ishlab chiqishda o'quvchisining raqib ustidan g'alaba qozonishi uchun eng samarali taktik harakatlarni aniqlash maqsadida raqib to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. Musobaqa faoliyatini nazorat qilish va uni keyinchalik tahlil etish u yoki bu sportchi tayyorgarligidagi kuchli hamda bo'sh tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

Bellashuv davomida kurashchilar musobaqa faoliyatini boshqarish malakasi turli texnik-taktik vaziyatlarni kuzatish hamda tahlil qilish, shuningdek muayyan ko'rsatmalar shaklida zarur qarorlarni chiqarish malakasidan hosil bo'ladi. Kurashchilar tayyorgarligining ko'p qirrali tizimida saralash vazifasi muhim ahamiyatga ega. U trenerning bilimlari va pedagogik tajribasi asosida yosh hamda yuqori malakali sportchilar uchun turli holdagi saralash mezonlaridan foydalanib, eng iqtidorli sportchilarni aniqlash malakasi bilan ifodalanadi.

XULOSA

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuqori malakali mutaxassis o'z kasb darajasini muntazam oshirib borishi lozim. Buning uchun u ilmiy-usuliy ish olib borish malakasiga ega bo'lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo'yishni bilishi, tegishli tadqiqot usullari hamda uslublarini tanlay olishi, olingan ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim.

Trener o'z amaliy faoliyatida turli musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazishni bilishi zarur. Buning uchun u kurash turi qoidalarini bilishi, hakamlilik vazifalarini bajara olishi va musobaqalarni o'tkazish uchun barcha zarur hujjatlarni tayyorlay olishi lozim. Trenirovka jarayonini yuqori darajada tuzish uchun trenerning sport zalini moddiy-texnik jihozlash, kurash zallari va tiklanish markazini asbob-anjomlar bilan jihozlash malakasi katta ahamiyatga ega. Trenerning ko'p qirrali kasb faoliyati jarayonida ko'rsatib o'tilgan vazifalarning samarali amalga oshirilishi uning o'z kasbiga bo'lgan muhabbati va sadoqati, o'z mutaxassisligini mukammal darajada bilishi, pedagogik qobiliyatlar hamda yuksak shaxs sifatleri darajasi bilan aniqlanadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning asosiy yo'li shug'ullanuvchini o'zlashtirilgan materialni trenirovka va musobaqa faoliyatida qo'llashga yo'naltirishdan iborat. Kurash usullariga o'rgatishni ularning musobaqalarda qo'llanilishi bilan tanishtirishdan boshlash zarur. Kurashning murakkab texnik-taktik harakatlariga o'rgatishda, odatda, o'rgatishning bo'laklangan uslubidan foydalaniladi. Biroq, agar shug'ullanuvchi texnik harakatning alohida qismlarini o'zlashtirsa, lekin harakatni to'liqligicha bajarishni bilmasa, bunday hollarda harakatning alohida qismlarini o'zlashtirish uni butunlay egallab olishga yordam bermaydi. Bunday muvaffaqiyatsizlikning sababi shundan iboratki, shug'ullanuvchi, harakat qismlarini o'zlashtira turib, ularning o'rganilayotgan harakat vazifasi va faoliyat maqsadi bilan mantiqiy bog'liqligini belgilab olmagan. Shug'ullanuvchining musobaqa faoliyati harakatlarga o'rgatish natijalarini baholashga imkon beradi.

REFERENCES

1. Kerimov F. «Milliy kurash nazariyasi». T-2002.
2. Tashmuradov O., Ashurov A.D. Milliykurash turlari. SamDU. 2003 yil.
3. Milliykurashqoidalari O. Toymurodov., J. Nurshin. Toshkent 1997 yil.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Toshkent 2005.
5. Azizov N.X. Belbog'li turkiston kurashi. Toshkent: O'qituvchi 1998.
6. Atoev A. Yosh o'smirlar o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyati. T «O'qituvchi» 2005.
7. Yusupov K. Kurash halqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005.
8. Salomov R.S. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari" O'zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti Toshkent 2005 yil.
9. (3-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)
10. (2-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PF-98-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.04.2022-y., 06/22/98/0279-son)

BASKETBOLNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Ahmedov G‘ayratjon Qosimovich

Fakultetlaro jismoniy madaniyat va
sport kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Basketbol dunyoning eng mashhur va ommaga manzur bo‘lgan sport turlaridan biri hisoblanadi va maqolada basketbolning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** basketbol, basketbol tarixi, Springfield kolleji, ishtirok etuvchilar soni, basketbol qoidalari.*

АННОТАЦИЯ

Баскетбол является одним из самых массовых и популярных видов спорта в мире, и в статье рассматривается история возникновения и развития баскетбола.

***Ключевые слова:** баскетбол, история баскетбола, Спрингфилдский колледж, количество участников, баскетбольные правила.*

ANNOTATION

Basketball is one of the most massive and popular sports in the world, and the article discusses the history of the emergence and development of basketball.

***Keywords:** basketball, history of basketball, Springfield College, number of participants, basketball rules.*

KIRISH

Hozirgi zamon basketbol o‘yining rivojlanish tarixi 1891-yilning dekabr oyidan boshlangan. Sprigfild shahridagi (AQSh, Massachusets shtati) xristian – ishchilar maktabi (hozirgi Springfield kolledji)ning anatomiya va fiziologiya o‘qituvchisi doktor Djeyms A.Neysmit talabalarning qish faslidagi jismoniy mashg‘ulotlarini bir qator jonlantirishga qaror qildi. Neysmit tomonidan ijro qilingan o‘yinning dastlabki varianti beshta asosiy shartdan va 13 ta asosiy qoidalardan iborat bo‘lgan. Neysmit yangi o‘yin uchun futbol to‘pini tanlaydi, chunki bu to‘pni qo‘l bilan olib olish oson bo‘lib, uni oshirish qiyin hamda yerga urilgan vaqtda to‘p yerdan doimo yuqoriga otilib o‘ynashi unga ma’qul bo‘lgan.

Bunday o‘yinning avj olishi hozirgi zamon basketboli ishqibozlarini hayron qoldirishi mumkin (aytmoqchi, o‘sha zamonlarda ham o‘yinning nomi xuddi hozirgi singari: “basketbol” deb yozilgan). Neysmit shaftoli terishga mo‘ljallangan savatchani zal ichidagi balkonga o‘rnatib qo‘ygan, savatchaning yonidagi narvon

ustida farrosh o'tirgan. Uning vazifasi muvvafoqiyatli tashlangan va savatchaga tushirilgan to'pni savatcha ichidan olib, pastga o'yinchilarga uzatib turishdan iborat bo'lgan.

1891-yil 21-dekabrda Springfield kollejining gimnastika zalida basketbol bo'yicha birinchi match o'tkaziladi. Matbaa manbalari bu o'yinning uch xil tug'ilish sanasini qayd etadilar: 1891-yil 21-dekabr, 1892-yilning 15 va 20-yanvari. "O'yin yaratuvchi"ning ta'kidlanishiga esa birinchi uchrashuv 1891-yilning "rojstvo" bayrami oldidan o'tkazilgan ekan.

Guruhda 18 kishi bor edi. Shuning uchun o'yinda har biri 9 kishidan iborat 2 jamoa ishtirok etdi. O'yin ko'pchilikka shu qadar ma'qul bo'ldiki, tez orada o'yin qoidasidan nusxa ko'chirib berishni so'rab Neysmitni xoli-joniga qo'yishmadi. Keyinroq, 1892-yilda u o'z o'yinining birinchi "Qoidalar kitobi"ni nashr ettirdi. Unda 13 ta asosiy band bo'lib, ularning ko'pchiligi bizning hozirgi kunlarimizda ham amal qilmoqda. Prinsip jihatdan u "Qoidalar"ning hozirgilaridan farqi to'pni "olib yurish" qoidalari deb hisoblash mumkin.

Neysmit o'yinda ishtirok etuvchilar sonini qat'iy ravishda cheklab qo'ymagan. Uning ta'rificha, o'yinda uch kishidan boshlab 40 kishigacha qatnashishiga ruxsat berilgan. Holbuki, eng maqbul mezon har jamoada 9 kishi bo'lishi edi. Futbol o'yinidan nusxa ko'chirib o'yinchilarni uchta hujumchiga uchta himoyachiga ajratib qo'yilgan edi. Ularga faqat o'z "zonalarida" o'ynashga ruxsat berilgan edi.

1892-yil 11-martda mana shu qoidalar asosida birinchi marta tomoshabinlar huzurida o'yin o'tkazilib, uni tomosha qilish uchun 200 kishi to'plandi. Talabalar o'z o'qituvchilari bilan o'ynaydilar va 5:1 hisobida g'olib chiqtilar. Shundan keyin o'yin keng miqyosida rivojlanib ketdi va xuddi 1892-yilning o'zida Meksikada ham basketbol o'ynala boshladi. Oradan biroz vaqt o'tgach Lyu Allen Xartford shahrida noqulay savatchalarni – shaftoli terishga mo'ljallangan ushbu savatlarni simdan to'qilgan silindr shaklidagi og'ir savatchalar bilan almashtirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'yin-yildan-yilga rivojlanib borib, uning qoidalari ham ancha takomillashtirildi. Chunonchi, 1893-yilda birinchi marta shchitga tegib qaytadigan va to'pni tomoshabinlar orasiga borib tushishdan saqlaydigan qurilma va unga to'r xalta biriktirilgan temir halqa o'rnatildi. Shchitning kattaligi 3,6x 1,8 m bo'lgan. Oradan bir-yil o'tgach, to'pning kattaligi oshirilib aylanasing uzunligi 30-32 dyuymga (76,2-81,8 sm)ga yetkazildi. 1895-yilga kelib o'yin qoidalariga jarima to'pi tashlash kiritildi. Jarima to'pi 15 fut (5,25 sm) masofadan turib tashlanar edi.

Oradan ko'p o'tmay savatcha hozirgi zamon shaklini oladi, lekin shchit esa o'zining hozirgi kattaligiga 1895-yilda erishadi. Ayni maxalda shchitni oq rangga bo'yab qo'yganlar, 1909-yilga kelib esa shchitni yaltiroq plastinadan tayyorlay boshlaganlar. Maydonda to'pni olib yurish qoidasi 1896-yilda kiritilgan. To'pni tortib olish ham unga qiyin emas edi. Oradan uch-yil o'tgach, basketbolda foydalanilayotgan futbol to'pi maxsus tarzda tayyorlangan basketbol to'piga almashtirildi.

O'yin texnikasining tez takomillashishi va o'yinchilar harakatchanligining ortib borishi shunga olib keldiki, 1896-yilda jamoalar tarkibini 5,7 yoki 9 o'yinchi bilan cheklab qo'yish to'g'risida bir bitimga kelishildi. O'yinda necha kishilik jamoa ishtirok etishi o'yin maydonining kattaligiga bog'liq bo'lgan. Tez orada jamoadagi o'yinchilar soni butunlay standart holga keltirildi, ya'ni bir vaqtning o'zida 5 kishidan ortiq o'yinchi qatnashishiga ruxsat etilmaydigan bo'ldi va basketbol bosqichma-bosqich rivojlanib bordi.

I bosqich. 1891-1918-yillarni o'z ichiga olib, basketbolning yangi o'yin sifatida shakllanib borish bosqichi hisoblanadi. Avvaliga gimnastika mashg'ulotlarini biroz jonlantirish uchun yaratilgan basketbol asta-sekin sport o'yiniga aylanib, uning o'ziga xos barcha xususiyatlari shakllana boshlaydi. Uning dastlabki rasmiy o'yin qoidalari yaratiladi. Uning o'yin tekniikasi va taktikasi shakllanadi. O'yinda ishtirok etayotgan jamoa a'zolarining har biri uchun muayyan funktsiya vazifalar belgilab beriladi.

II bosqich. 1919-1931-yillardan iborat bo'lib, bu davr milliy basketbol federatsiyalari tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa basketbolning sport o'yini sifatida rivojlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu davrda dastlabki basketbol bo'yicha halqaro turnir – musobaqalar o'tkaziladi.

III bosqich. 1932-1947-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr butun dunyo bo'yicha basketbol o'yini har tomonlama rivojlanganligi bilan xarakterlidir. Bu davrda basketbol o'yini federatsiyasi (FIB) tashkil etiladi. Bu xodisa unutilmas voqea bilan basketbolni sportning Olimpiya turidagi o'yinlar qatoriga kiritilishi bilan birga sodir bo'ladi. Shu davrda sobiq sovet basketbolchilari ham halqaro maydoniga chiqadilar. Basketbol tekniikasi va taktikasiga yangiliklar kiritiladi.

IV bosqich. 1948-1965-yillarni o'z ichiga oladi. Bu-yillarda butun dunyoda basketbol o'yini shiddat bilan rivojlanibgina qolmay, muayyan sakrashlar tarzidagi taraqqiyot va sport mahoratining o'sishi ham ana shu davrga to'g'ri keladi. To'pni bir qo'l bilan otish qoidasipaydo bo'ladi, raqibning hujumiga qarshi o'zini himoya qilish tekniikasi va taktikasida ancha murakkab malakalar paydo bo'ladi. Mini-basketbol o'yini vujudga kelib, dunyo buylab tarqala boshlaydi.

V bosqich. 1986-1990-yillarda milliy Federatsiyalar soni ortadi. Milliy professional basketbol uyushmalari (NBA) paydo bo‘ladi. Basketbolchilarning halqaro aloqalari mustahkamlanadi, o‘yin texnikasi va taktikasida yangiliklar vujudga keladi. Musobaqalar qoidasi va hakamlik uslubi taqsimlashtiriladi.

REFERENCES

1. Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 1993.
2. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.
3. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебное пособие. – Ташкент: УзГосИФК 2007.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOMONIDAN RATIFIKATSIYA
QILINGAN, BIMT TOMONIDAN BOSHQARILADIGAN XALQARO
SHARTNOMA VA KONVENSIYALARNING INTELLEKTUAL MULKNI
TARTIBGA SOLISHDAGI AHAMIYATI**

Xoliqova Gavhar Ramazon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi yo'nalishi magistranti

Gavharkholiqova@gmail.com +998977838644

ANNOTATSIYA

Maqolada BIMT tomonidan boshqariladigan xalqaro shartnoma va konvensiyalar qabul qilinishining tarixiy zaruriyati va nazariy-huquqiy asoslari haqida so'z boradi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan BIMT tomonidan boshqariladigan xalqaro shartnoma va konvensiyalarning keltiriladi. BIMT xalqaro shartnoma va konvensiyalarining tasnifi keltiriladi. Ularning asosiy mazmuni yoritib o'tiladi, intellektual mulkka oid ushbu hujjatlardagi asosiy huquqiy terminlar sharhlanadi. BIMT tomonidan boshqariladigan xalqaro shartnoma va konvensiyalarga a'zo mamlakatlar huquq va majburiyatlari oid ma'lumotlar keltiriladi. Intellektual mulk huquqiga doir masalarni tartibga solishda BIMT tomonidan chiqarilgan xalqaro hujjatlarning o'rni va ahamiyati.

***Kalit so'zlar:** intellektual mulk, mualliflik huquqi, implementatsiya, patent huquqi, tovar belgisi, geografik ko'rsatkich, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, fonogramma.*

**ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ И КОНВЕНЦИЙ,
РАТИФИЦИРОВАННЫХ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН,
ВЫПОЛНЯЮЩИХ АДМИНИСТРАТИВНУЮ ФУНКЦИЮ ВОИС, В
РЕГУЛИРОВАНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ**

Халикова Гавхар

Ташкентский государственный юридический университет

Магистр права интеллектуальной собственности и информационных технологий

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается историческая необходимость и теоретико-правовая основа принятия международных договоров и конвенций, регулируемых ВОИС. Международные договоры и конвенции, регулируемые

ВОИС, ратифицированные Республикой Узбекистан. Дана классификация международных договоров и конвенций ВОИС. Объясняется их основное содержание, разъясняются основные юридические термины этих документов об интеллектуальной собственности. Информация о правах и обязанностях государств-участников международных договоров и конвенций, административные функции которых выполняет ВОИС. Роль и значение международных документов, выпущенных ВОИС, в регулировании прав интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, авторское право, реализация, патентное право, товарный знак, географическое указание, изобретение, полезная модель, промышленный образец, фонограмма.

IMPORTANCE OF WIPO- ADMINISTERED TREATIES AND CONVENTIONS RATIFIED BY THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE REGULATION OF INTELLECTUAL PROPERTY

Gavkhar Khalikova

Tashkent State Law University

Master in Intellectual Property Law and Information Technology

ANNOTATION

The article deals with the historical necessity and theoretical and legal basis for the adoption of international treaties and conventions regulated by WIPO. International treaties and conventions administered by WIPO, ratified by the Republic of Uzbekistan. The classification of international treaties and conventions of WIPO is given. Their main content is explained, the main legal terms of these documents on intellectual property are explained. Information on the rights and obligations of states parties to international treaties and conventions administered by WIPO. The role and significance of international documents issued by WIPO in the regulation of intellectual property rights.

Keywords: intellectual property, copyright, implementation, patent law, trademark, geographical indication, invention, industrial design, phonogram.

KIRISH

Bugungi kunga kelib intellektual mulk sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish nafaqat ayni bir davlat, balki jahon miqiyosidagi dolzarb masalalardan biri sifatida ko'riladi. Chunki jahonda internet tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanib, insonlar hayotini barcha jabhalariga kirib borishi intellektual mulkning omma orasida

keng tarqalishiga qanchalik ko'maklashsa, un himoya qilishni shunchalik murakkablashtirmoqda. Ma'lumki **intellektual mulk bu-** inson aqliy faoliyatining mahsulidir. 1967-yil 14-iyulda Butun jahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish to'g'ridagi konvensiyaning 2-moddasiga ko'ra intellektual mulk huquqi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

adabiy, badiiy va ilmiy asarlar,
artistlarning ijro faoliyati, ovoz yozish, radio va televideniye ko'rsatuvlari,
inson faoliyatining barcha sohalaridagi ixtirolar,
ilmiy kashfiyotlar,
sanoat namunalari,
tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari va tijorat belgilari,
nohalol raqobatga qarshi himoya,
sanoat, ilmiy, adabiy va badiiy sohalarda intellektual faoliyat bilan bog'liq boshqa barcha huquqlar.

Yuqorida sanalganlardan ko'rib turibmizki, intellektual mulk insoniyat taraqqiyotining qadimgi davrlaridan boshlab yaratilgan. Ammo uning huquqiy himoyasi amalga oshirish 19 asrga kelib alohida ahamiyat kasb etdi. Mulkiy munosabatlarning rivojlanishi va tartibga solinishi intellektual mulk atamasining shakllanishi va ularning alohida muhofaza tizimi shakllantirilishiga olib keldi.

Intellektual mulk fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga ham, davlatlararo munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijalarga bo'lgan huquqlar, intellektual faoliyat faoliyat eksteritoriallikka ega emas. Ya'ni maxsus xalqaro shartnomalar mavjud bo'lmaganda, bir davlat hududida tan olingan huquqlar boshqa davlat hududida mavjud bo'lmaydi. Bugungi kunda intellectual mulk sohasidagi munosabatlarni xalqaro darajada tartibga solishda BIMT asosiy o'rin egallaydi. Hozirda unga dunyoning 193 ta davlati a'zo hisoblanadi va ularning soni yildan yilga ortib bormoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda Butun jahon intellectual mulk tashkiloti intellektual mulkka oid 26 ta shartnoma va konvensiyalarda boshqaruvchilik funksiyasini amalga oshiradi. Ushbu hujjatlarni shartli ravishda 3 turga ajratish mumkin. Bular:

- intellektual mulk himoyasi
- global himoya tizimi
- klassifikatsiyaga oid hujjatlar.¹⁴¹

¹⁴¹ <https://www.wipo.int>

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi BIMT tomonidan boshqariladigan 16 ta xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro hujjatlarning har bir intellektual mulk sohasidagi milliy qonunchilikni shakllantirishda alohida ahamiyatda ega hisoblanadi. Quyida ularning mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Sanoat namunalarini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (1883).

1883-yilda Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi qabul qilindi. Hozirda ushbu shartnomaga 176 ta davlat a'zodir. Mazkur xalqaro shartnoma boshqa mamlakatlarda mualliflarning intellektual ijod mahsullarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan birinchi keng ko'lamli chora bo'ldi.

Parij konvensiyasi patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari, foydali modellar, firma nomlari, geografik ko'rsatkichlar (tovar kelib chiqishi ko'rsatkichlari va tovar kelib chiqqan joy nomlari) va adolatsiz raqobatni chek qo'yishga doir masalalarni tartibga soladi. Ushbu xalqaro hujjat mualliflarga o'z intellektual asarlarini boshqa mamlakatlarda himoya qilishda yordam berishga qaratilgan birinchi qadam bo'ldi. Konvensiyaning asosiy qoidalari uch toifaga bo'lingan: milliy rejim, ustuvorlik huquqi, umumiy qoidalar.

Parij konvensiyasining 1-moddasiga ko'ra sanoat mulki tushunchasi keng ma'noda talqin qilinadi va sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qazib olish sanoati, barcha mahsulotlar sanoati shular sirasiga kiritiladi.¹⁴²

Adabiy va san'at asarlarini himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi.

Bern konvensiyasi asarlar va ular mualliflarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liqdir. Ushbu konvensiya fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo va uning Xalqaro adabiyot va san'at uyushmasi tomonidan uyushtirilgan kompaniya natijasida qabul qilingan. Konvensiya mualliflarga o'z asarlariga nisbatan nazorat qilish va xalqaro darajada gonorarlarni qo'lga kiritish imkoniyatini bergan.

U uchta asosiy printsiptga asoslanadi va himoyaning minimal darajasini belgilovchi bir qator qoidalarni, shuningdek, ulardan foydalanishni istagan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mo'ljallangan maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi.

Uchta asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Milliy rejim
2. Avtomatik tarzda himoya
3. Himoya, asar kelib chiqqan mamlakatda himoya mavjudligiga bog'liq emas.

¹⁴² ВОЖЖОВ Р. А. ПРОМЫШЛЕННАЯ СОБСТВЕННОСТЬ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ //ИННОВАЦИОННАЯ НАУКА: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ, БУДУЩЕЕ. – 2016. – С. 36.

Ushbu prinsiplar jahonning ko'plab mamlakatlariga mualliflik huquqini himoya qilish yangi xalqaro tizimini yaratish, milliy qonunchilikni xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, axborot va texnologik almashinuv, xalqaro savdo bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyat berdi¹⁴³

Fonogramma ishlab chiqaruvchilarni ularning fonogrammalarini ruxsatsiz takrorlashdan himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konventsiyasi (1971)

Konventsiya ahdlashuvchi davlatlarning har birining boshqa ahdlashuvchi davlat fuqarosi bo'lgan fonogramma ishlab chiqaruvchisi manfaatlarini ushbu ishlab chiqaruvchining rozilgisiz ularning dublikatlarini yaratish, ishlab chiqarish yoki olib kirish aholiga tarqatish maqsadida amalga oshirilgan hollarda bunday dublikatlarni olib kirishdan, shuningdek bunday dublikatlarni aholiga tarqatishdan himoya qilish majburiyatini nazarda tutadi.¹⁴⁴

“Fonogramma” atamasi shakli (disk, plyonka va boshqalar)dan qat'i nazar, sof akustik yozuvni (ya'ni, masalan, kino yoki videokassetali saundtreklarni o'z ichiga olmaydi) anglatadi.

Tovar belgilari to'g'risidagi qonun shartnomasining (TLT) asosiy qoidalari (1994)

Tovar belgilari to'g'risidagi shartnomaning (TLT) asosiy maqsadi milliy va mintaqaviy tovar belgilarini ro'yxatga olish tartib-qoidalarini birlashtirish va tartibga solishdan iborat. Bunga ushbu tartib-qoidalarining ayrim elementlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish, bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlarda tovar belgisini topshirish va ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini soddaroq va oldindan aytib bo'ladigan qilish orqali erishiladi.

TLT qoidalarining aksariyati talabnoma beruvchining tovar belgisi idorasi bilan o'zaro hamkorligi jarayoniga taalluqlidir, uni quyidagi uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin: ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish, ro'yxatdan o'tgandan keyingi o'zgartirishlar va ro'yxatdan o'tishni uzaytirish. Bosqichlarning har biriga taalluqli qoidalar dastur yoki ma'lum bir dastur uchun barcha talablarni iloji boricha aniq qilib belgilab beradigan tarzda tuzilgan.

BIMT mualliflik huquqi shartnomasining (WCT) asosiy qoidalari (1996)

¹⁴³ Захарова И. А. и др. Бернская конвенция об охране литературных и художественных произведений и часть четвертая Гражданского кодекса РФ: сравнительный анализ //Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – 2012. – №. 7-1. – С. 80-84.

¹⁴⁴ Приходченко Р. И. АУДИОЗАПИСИ И ФОНОГРАММЫ КАК ОБЪЕКТЫ ОХРАНЫ МЕЖДУНАРОДНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО АВТОРСКОГО ПРАВА //ТРАДИЦИОННАЯ И ИННОВАЦИОННАЯ НАУКА: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОЕ. – 2020. – С. 169.

2. Inson olam to'g'risidagi ko'p narsalarni bilib olgandan so'ng, payg'ambarlar paydo bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga yetaklagan, lekin dunyoni o'rganish bilan insonning hafsalasi pir bo'la boshlagan davr;
3. Inson olam hodisalarini noto'g'ri talqin qilgan, jamiyatga illat va nuqsonlar, ziddiyatlar, urushlar va izdan chiqishlar boshlangan davr.

Muhammad Abdo o'zining Jamoliddin al-Afg'oniy bilan Parijda nashir etgan Ar-Uruvatul-Vusqo, Al-Manor” nomli gazeta va jurnallaridagi maqolalaridan birida: “Biz shuni bilamizki, barcha musulmonlar va barcha vatanparvarlar inglizlar harakatiga qarshilik ko'rsatishni, imkoniyati boricha, o'z e'tiqodi va o'z vatani talab etayotganidek, ularning yo'lini to'sishni o'z burchi deb hisoblaydi, islohiy shariat va tabiiy qonunlar yer yuzidagi barcha xalqlar va barcha mamlakatlarda ham har bir inson oldiga o'z vatanini o'z mol-mulkini himoya qilishini, bu yo'lda o'limdan ham qo'rqmasdan tajovuzkorlarga zarba berish talabni qo'ydi”. Abdo fikricha, nafaqat o'z vatanini sotgan, balki o'z vatanini tuprog'iga dushmaning bir qadam chekingan, dushmanga qarshi zarba bergish iskanjasiga ega bo'lib, uning vatan tuprog'iga

mustahkamlanib olishi uchun imkoniyati yaratib bergan ham xoindir. Bunday shaxs qanday kiyimda yoki qanday ko'rinishda maydonga chiqishdan qat'iy nazar xoindir.

Misrlik islohotchi olim Muhammad Abdo ham gender tenglikni o'z yozishmalarida tez-tez tilga olgan bo'lsada, uning bu masalaga doir qarashlari kam o'rganilgan. Bu maqolada ikki asosiy qarash: gender tenglik va islohot masalasiga chuquroq yondashib, bu masalalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganamiz. Turli umumiy kitoblarda "Islomiy islohotlarning otasi" deb atalgan Shayx Muhammad Abdo ijtimoiy islohotlar loyihalarida, ko'pincha "xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini isloh qilish" ostidagi mavzularga bir necha sahifalar bag'ishlangan va bir nechta risollar yozgan. Ushbu tanqidiy fikrlovchi olimning gender bo'yicha qarashlariga nisbatan noaniq yondashuvlar, ko'pincha asossiz umumlashmalar mavjud. Shuning uchun Abdoning ayollar haqidagi shaxsiy qarashlarini batafsil o'rganish va tahlil qilish orqali uning g'oyalari, o'ziga xos xususiyatlari, unda qo'yilgan savollar va berishga urinayotgan javoblari hamda undagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni aniqlashga harakat qilamamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, "xotin-qizlar islohoti"ga yondashuvlar va uslublar juda xilma-xil bo'lib, islom dinining me'yoriy manbalariga yuzaki yondoshadiganlar yoki bu manbalarni atayin o'zgartirib (missionerlik) talqin qilishga asoslangan yondashuvlar o'rtasida juda katta farq bor. Musulmon jamiyatlarining tarixi va evolyutsiyasini shakllantirgan asosiy manbalar Qur'on, Hadis va Sunnatdir, ulardan ishlab chiqilgan islom huquqshunosligi merosi hozirda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Bu manbalarning markaziyiligini tan oladigan va ularni o'z shartlari asosida tushunishga harakat qiladigan yondashuvlar musulmon jamiyatlarini jalb qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu sohaga qiziqishning kuchayishiga sabab, zamonaviy taraqqiyot tufayli ayollar o'z faoliyatida turli sohalarini qamrab olayotganligidadir. G'arbda islomdan qo'rqish – islomofobiya shakllantirilgandan beri, g'arb tafakkurida musulma ayollarning jamiyatdagi ishtirokining qoloqligi, o'z erlariga haddan tashqari bog'lanib qolganligi, kundalik hayotda eskicha tarzda ish yuritishi, ayniqsa, kiyinish borasida yopiq kiyimlar hijob orqali o'zlarini ozodlikdan mahrum etilganligi kabi noto'g'ri fikr yuritish shakillandi.

Ularning ichida mavjud bo'lgan ko'p yo'nalishlardanrni ikkitasi – "islomiy islohotchilik" va "musulmon feminizimi" yo'nalishlari kengroq tarqagan bo'lib, ko'proq, muhokama qilinadi. Ularning ichida mavjud bo'lgan ko'p yo'nalishlardanrni ikkitasi – "islomiy islohotchilik" va "musulmon feminizimi" yo'nalishlari kengroq tarqagan bo'lib, ko'proq, muhokama qilinadi. Har ikkala yondashuv ham o'z dalillari va xulosalarini Qur'ondan, Hadisdan va umuman islom

tafakkuridan olib, markaziy me'yoriy qonunlarni asoslashga va uni zamonaviy talablarga javoban sifatida qayta talqin qilishni taklif qiladilar.

Musulmon islohotchiligi va musulmon feminizimi orasidagi farqlar sharqdan ko'ra, birinchi bo'lib, G'arbdagi tahliliy jarayonlarida ko'proq kuzatiladi. G'arbda yuqoridagi ikkita atama o'rtasidagi farqlar ko'pincha bir-biridan farqli va qarama-qarshi deb hisoblanadigan holda o'rganilgan. Ammo, aslida ikkalasi o'rtasida aniq belgilangan fikrlar yo'q.

Gender islohotiga doir dunyoda ikki xil "liberal" va "islomiy" yondashuvlar keskinlashgan bo'lib, ularning mualliflari o'zlarining so'nggi tadqiqotlarda bu narsaga ko'roq e'tibor qarata boshladilar¹⁸⁷. Bu narsa XIX asr islohotchilik harakati namoyondalarining deyarli barchasida ko'zga tashlanadi.

Musulmon jamiyatlarida gender bo'yicha hozirgi bahslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Konservatorlar yoki an'anaviychilar - ijodiy yangi talqin bilan shug'ullanishni yoki fiqh an'alaridan oldingi olimlarning fikrlarini tanqid qilishni rad etadilar;

2. Liberallar yoki dunyoviylik (sekulyaristlar) tarafdorlari - diniy manbalarni chetlab o'tadigan, yangi tahlil yondashuvlarga, diniy bo'lmagan va ko'pincha G'arb atamalarida taqdim etilgan tahlilarga tayanadiganlar;

3. Islohotchilar yoki revivalist¹⁸⁸lar diniy matnlarni yangicha talqin qilishga chaqiruvchi, matnlarning haqiqiyliги va markaziyliğini hamda fiqh va diniy ilmlarning doimiy dolzarbligi va samaradorligini qabul qilib, ikkalasi bir-biridan farq qiladi, ikkinchisi esa insoniy sa'y-harakatlar ekanligini ta'kidlaydilar hamda ularni tanqid qilish va rad etish mumkin deb hisoblaydilar¹⁸⁹.

Musulmon feminizimi ko'pincha yangi "liberal islohotchi" larning g'oyaviy bir qismi sifatida, "islomiy islohotchilarga" qarama-qarshilikda vujudga kelgan. "Liberal islohotchilik" ta'limotiga ko'ra, islom va zamonaviylik bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-biriga mos keladi, bu esa asrning so'nggi yillarida siyosiy islomga ichki javob sifatida paydo bo'lgan islohotchilar Muhammad Arkun, Nasr Abu Zayd va Abdulkarim Sorush¹⁹⁰ kabi musulmon mutafakkirlarining g'oyalarida uchraydi.

¹⁸⁷ Misol uchun: Sherine Hafez, Lila Abu-Lughod, Leila Ahmed, Mervat Hatem and Margot Badran kabilarning tadqiqotida.

¹⁸⁸ Revivalist - bu diniy tiklanishlarni qo'llab-quvvatlovchi, targ'ib qiluvchi yoki ularga rahbarlik qiluvchi shaxs.

¹⁸⁹ Mir-Hosseini, Ziba, "The Construction of Gender in Islamic Legal Thought: Strategies for Reform". Hawwa: Journal of Women in the Middle East and the Islamic World, 1/1, 2003, pp 3-20.

¹⁹⁰ Ziba Mir-Hosseini, Voices of Islam, Volume 5, Voices of Change, edited by Vincent Cornell, Omid Safi and Virginia Gray Henry, Westport, Connecticut and London, 2007) pp. 85-113, p. 101.

Abdo ham o'z risolalarida bu qizg'in bahslarning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Turli raqiblaridan farqli ravishda Abdo ayollar va gender tengligi masalasini o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadi. Ammo musulmon feminizmi Abdoning islohotchilik qarashlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Abdoning xotin-qizlar haqidagi fikrlari ichida asosiy e'tiborni qaratgan mavzu: oila huquqi – erkaklar va ayollarning oila haqidagi tushunchalari hamda islomning nikoh, ko'pxotinlilik va ajralish haqidagi hukmlarini isloh qilish va bu qonunlarni qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Abdoning bu haqidagi qarashlari uning maqolalari, tafsir va fatvolaridan olingan.

Abdoning eng muhim diniy asari, uning Bayrutdagi surgunligida bir qator ma'ruzalari jamlangan "Risalat at-Tavhid" asaridir. Shuningdek, uning islomni tanqid qilgan ikki sharqshunoslarga javobi sifatida yozilgan risolalari ham mavjud. Bular Gabriel Xanotauxga qaratilgan, "Al-Islom va'l-Nasroniyya", "Bayna'l-Ilm val-Madaniyya" risolalari va Farah Antounga javoban "Al-Islom val-Radd al-muntaqidih" kabi risolalaridir. Bular uning "al-Vaq'ai al-Misriyya" va "al-Urva al-Vusqa" dagi saralangan maqolalari birinchi bo'lib Rashid Rid'o tomonidan tuzilgan bo'lsa, Muhammad Imroning to'plami esa uni to'ldirib, kengaytiradi. Imroning to'plamida Abdoning Quronning bir qancha boblariga qilgan tafsiri ham, Abdo tomonidan alohida nashr etish maqsadida "al-Manar" deb atalgan asarni ham va keyinchalik Rido tomonidan foydalanib nashr etilgan qismlari ham mavjud. Abdoning to'liq asarlarini yig'uvchi Muhammad Imro Abdoga tegishli bo'lgan matnlarni tahlil qilib, ma'lum darajada u yozgan va yozmaganlarini farqlab bergan. Bu haqida quydagilar qayd etilgan: "Biz bu shaxsning tafakkuri tarixida birinchi marta uning o'zi va al-Afg'oniy, Rashid Rido, Saqd Zag'lul va Abdull an-Nadim yozganlarini farqladik"¹⁹¹.

Samira Hojning "Islom an'analarini qayta qurish: islohot, ratsionallik va zamonaviylik" asarida ta'kidlanishicha, Abdoning maqsadi "ortadoksal islomiy qarashlarni qayta tartiblash orqali saodat asri haqiqiy islomini tiklash bosqichiga, yangi zamonaviy sharoitda ijtimoiy amaliyotda dinning o'rnini tartibga solish, isloh qilishga harakat qilardi"¹⁹². Abdo ta'lim, huquq va oila institutlarining islohotiga bog'liq bo'lgan "yangi musulmon sub'ektini qurish" jamiyat manfaati uchun g'amxo'rlik bilan axloqiy ahamiyatga ega bo'lishini nazarda tutgan nazariy-amaliy qarashlarni ilgari suradi.

¹⁹¹ Imora, al-Amal al-Kamila li'l-Ustadh al-Imom Muhammad Abduh, Cairo: Dar al-Shorouk, 2006, vol. 1, p. 18.

¹⁹² Samira Haj, Reconfiguring Islamic Tradition: Reform, Rationality, and Modernity, Stanford, CA: Stanford University Press, 2009, p. 74.

Hojning ta'kidlashicha, bu qarash “Yevropaning liberal zamonaviy jamiyatining nusxasi emas, balki sub'ektiv o'z an'analariga sodiqlik islom an'anasi doirasidagi uzoq yillik tarixga asoslangan axloqiy me'yorlardir”. Hojning fikrlariga ko'ra, “o'zining birinchi bo'lib musulmon xalqini jonlantirish strategiyasiga muvofiq Abdo oilaga axloqiy rivojlanish joyi” sifatida katta ahamiyat bergan. Hoji Abdo qarashlarida ayniqsa mo'tazilatlarning ratsionallilik g'oyalarini va Al-G'azzoliyning o'zlik germeneytikasi va gnoseologiyasi borlligini ta'kidlaydi¹⁹³.

XULOSA

Hojning ta'kidlashicha, “Abdo bo'lajak oilani ham nuklear, ham monogam bo'lishini tasavvur qilgan; nikoh ikki voyaga yetgan shaxs o'rtasidagi sevgi, rahm-shafqat va o'zaro hurmatga asoslanishi kerak”¹⁹⁴. Hoji Abdoning nikoh haqidagi qarashlari o'rganib, nikohning an'anaviy shaklini maqullagani va uyushtirilgan nikohni tanqid qilishi, shuningdek, uning ko'pxotinlilikni boshqa diniy konfessiyalar tomonidan ayollarni kamsitilishi deb qarashlarini inkor etib, ko'p nigohlilikni alohida ajratish va parda o'rnatishga qarshiligi haqidagi dalillarini faqat Tahrir-al-Mar'aning boblariga va Qosim Amin kitobining “Abdoning oila haqidagi qarashlari” bobiga asoslanib taqdim etadi.

Abdo tomonidan ayollar islohoti bilan bog'liq asosiy mavzular xotin-qizlarni tarbiyalash, ajralish to'g'risidagi qonunlarni isloh qilish va ko'pxotinlilikni nazorat qilishdir. Bu sohadagi izlanishlar yana davom etishi zarurdir.

REFERENCES

1. Abd al-Ati, Muhammad Hilmi. *Al-Mabadi' al-Amma fi Tashri'at al-Ahwal al-Shakhsiyya* (General Principles in the Laws concerning Personal Status). Cairo: Maktabat al-Qahira alHaditha, 1962.
2. Abd al-Raziq, Mustafa, Muhammad Abduh. Cairo: Dar al-Ma'rif lil-Tiba, 1946.
3. Abdel Aziz Salim, Sahar. “Image of Egyptian Women in Sources Reporting on the French Campaign in Egypt”, in *Al-Khitab hawla al-Mar'a: Le Discours sur la Femme*, F. Ghassani (ed.). Rabat: Faculté des Lettres et des Sciences Humaines, 1997, pp. 41-70.
4. Abdel-Haleem, M.A.S (tr.), *The Qur'an: A New Translation*. Oxford: Oxford University Press, 2004.

¹⁹³ Ibrahim Moosa, Ghazali and the Poetics of Imagination, quoted by Haj, p. 111.

¹⁹⁴ Samira Haj, *Reconfiguring Islamic Tradition: Reform, Rationality, and Modernity*, Stanford, CA: Stanford University Press, 2009, p. 127.

5. Abdelkader, Soha, *Egyptian Women in a Changing Society, 1899-1987*. Boulder, Colorado; London: Lynne Rienner, 1987
6. Abd al-Rahīm, μAbd al-Ghaffār, *Al-Imām Muhammad Abduh wa Manhajuhu fi al-Tafsir*. Cairo: Dār al-Ansār, 1980.
7. Abduh, Muhammad and Imara, Muhammad, (ed.), *Al-Amal al-kamila lil-Imam Muhammad Abduh*. Beirut: al-Mu’assasah al-Arabiyyah lil-Dirasat wa-al-Nashr, 1972.
8. *Al-Amal al-kamila lil-Imam Muhammad Abduh*. Cairo: Dar al-Shorouk, 2006.
9. Abou El Fadl, Khaled, *Speaking in God's Name: Islamic Law, Authority and Women*. Oxford: Oneworld Publications, 2001.
10. Abu Bakr, Umayma, “The Image of Man in Islamic Writings Between Old and New Interpretations”, in *Tahaddiyat al-Thabit wa’l mutaghayyir fi’l qarn al-Tasi μAshar*, H. El-Sadda (ed.), 2004.
11. Abu Ghadda, Zaki Ali al-Sayyid, *Al-Mar'ah bayna al-Sharia wa-Qasim Amin*. Al-Mansura: Daral-Wafa', 2004.
12. Abu Hayyan, Muhmmad Ibn Yusuf, *Al-Bahr al-Muhit, Zakariyya al-Nuti and Ahmad al-Jamal* (eds.). Beirut: Dar Al-Kutub Al-Ilmiyya, 1993.
13. Qodirov, M. (2022). *AKADEMIK XAYRULLAYEV–MA’NAVIYATIMIZ DARG’ASI (1931–2004)*. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 13-19.
14. Qodirov, M. (2021). *PIFAGOR VA AFLOTUNNING HARAKAT VA ZAMON TA’RIFI HAQIDA IBN SINO E’TIROFLARI*. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 16-19.

AUROBINDO GXOSHNING “INTEGRAL VEDANTA”SI SHAKLLANISHIDA YEVROPA FALSAFASINING TA’SIRI

Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq falsafasi va madaniyati” yo’nalishi 2-bosqich magistranti

a.shoqambarov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqola hind faylasufi Aurobindo Gxosh tomonidan yaratilgan “Integral vedanta” ta’limotida G’arb falsafasining ta’sir jarayonini tahlil qilishga bag’ishlangan. Ushbu maqolada Hind va g’arb falsafasi sintezi hisoblangan bu ta’limot shakllanishida Yevropadagi falsafiy qarashlarning roli, o’xshashligi va farqlanishi atroflicha tavsiflangan.

Kalit so’zlar: *Gegel, dialektika, dialektik mantiq, Bredli, Absolyut, idealizm, materializm, Freyd, irratsionalizm.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу процесса влияния западной философии на учение «Интегральная веданта», созданное индийским философом Ауробиндо Гхошем. В данной статье подробно описывается роль, сходства и различия философских воззрений в Европе в формировании этого учения, представляющего собой синтез индийской и западной философии.

Ключевые слова: *Гегел, диалектика, диалектическая логика, Брэдли, Абсолют, идеализм, материализм, Фрейд, иррационализм*

ABSTRACT

The article is devoted to the analysis of the influence of Western philosophy on the doctrine of "Integral Vedanta", created by the Indian philosopher Aurobindo Ghose. This article describes in detail the role, similarities and differences of philosophical views in Europe in the formation of this doctrine, which is a synthesis of Indian and Western philosophy.

Keywords: *Hegel, dialectic, dialectical logic, Bradley, Absolute, idealism, materialism, Freud, irrationalism.*

KIRISH

Aurobindo Gxosh falsafiy asarlarining ahamiyatini baholab, uning Hindistondagi izdoshlari ham, boshqa mamlakatlardagi burjua faylasuflari ham u yaratgan tizim hind va g’arb falsafasining eng muhim g’oyalari hamda bu g’oyalar ortidagi madaniy

qadriyatlarning sintezi ekanligini ta'kidlaydilar. Gxosh eng qadimgi Sharq hikmatlarini zamonaviy talqin etib, o'zining yangi ta'limoti –Integral vedantani ishlab chiqdi, uni G'arb falsafiy donishmadligi bilan, shuningdek, hozirgi davr fani va texnikasi tahlili bilan ham uzviy bog'lab, davrimizning yangi metafizikasini yaratdi. Biroq, Yevropadagi falsafiy g'oyalarning Gxosh dunyoqarashiga ta'sirining ko'lamini va xarakterini aniqlash juda qiyin. Chunki o'zining asarlarida g'arb falsafasini tanqid qilgan Gxosh asosan qadimiy hind falsafiy asarlariga iqtibos keltiradi. Zero, bunga sabab bo'luvchi bir qator ijtimoiy faktorlar mavjudligini aytish mumkin, masalan, mustamlakachilik siyosatini oqlovchi yevrosentrizm g'oyalari. Biroq, biz masalaga holis yondashib Hind va G'arb falsafasi sintezi hisoblangan bu ta'limot shakllanishida Yevropadagi falsafiy qarashlarning roli, o'xshashligi va farqlanishiga atroflicha to'xtalamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hind falsafiy merosining turli manbalariga minglab iqtiboslar keltirgan Aurobindo Gxosh o'zining ko'plab asarlarida deyarli g'arb faylasuflarining tushunchalariga to'g'ridan-to'g'ri va “ochiq-oydin” ma'noda murojaat qilmaydi. Biroq, bu holat uning bu sohadagi nodonligidan dalolat bermaydi. Gxosh ataylab Yevropa manbalariga havola qilishdan qochadi, bu borada o'zini XIX asr oxiridagi hind liberal yozuvchilari bilan taqqoslaydi, ular har qanday masalani muhokama qilishda yevropalik va birinchi navbatda ingliz mualliflaridan iqtibos keltiradilar. Qolaversa, u G'arb va Hindiston sivilizatsiyalari o'rtasidagi qarama-qarshilik haqidagi nazariyasiga asoslanib, butun boshli g'arb falsafasini samarasiz, befoyda va sxolastik (diniy aqidani nazariy isbotlashga uringan quruq safсата) deb qoralaydi. Masalan, S. Radxakrishnandan farqli o'laroq, Gxosh garchi ular iqtisodiy va siyosiy hayot, ilm-fan va boshqa sohalarida Yevropadan o'rganishlari kerak bo'lgan narsalar ko'p bo'lsa-da, falsafa sohasida hindlarning yevropaliklardan o'rganadigan deyarli hech narsasi yo'q, deb ishonadi. Nima bo'lganda ham, Gxosh falsafasining, shubhasiz, Yevropadagi bir qancha falsafiy qarashlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Gxoshning dunyoqarashi Gegel g'oyalari ta'sirida shakllangan, deb hisoblaydigan Charlz Mur fikrlari uchun ham yetarlicha sabablar bor. [1, 85-b.]. Ular sirasiga ruhiy borliqning moddiy jihatdan o'z-o'zidan begonalashishi va uning eng yuqori bosqichda - bilishdagi haqiqatga qaytishi, insoniyat tarixining samoviy jarayonlardagi alohida o'rni, zaruriyatdan erkinlikka sakrash g'oyalari, “xalq ruhi” va tarixiy davrlar ruhi, ijtimoiy ong shakllari (san'at, din, falsafa) ni rivojlantirish orqali mutlaq g'oyani amalga oshirish va hokazolar kiradi. Gegel dialektikasining Gxosh falsafasiga ta'sirini, xususan, dialektik inkor

haqidagi ta'limot, rivojlanishning pastdan yuqoriga o'sib boruvchi xususiyati, shuningdek, borliqdagi qarama-qarshi mavjudot kategoriyalarining o'zaro bir-biriga kirib borishi misollarida keltirish mumkin.

Shu bilan birga, Gegel va Gxoshning falsafiy tushunchalari bir qator muhim jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Gegel, inson tafakkurini mutlaqlashtiradi, mantiqiy kategoriyalarning oldindan mavjudligi haqidagi ta'limotni yaratadi, Gxosh supermantiqiy, tushunchalarda ifodalab bo'lmaydigan, Absolyut tabiatini ta'kidlaydi; Gegel ratsional bilishning metafizik cheklovlarini tanqid qilib, unga dialektik aqlni qarshi qo'yadi, Gxosh esa teskarisi, sezgini aqlga qarshi qo'yadi; Gegel falsafani ilmiy qilishni o'z vazifasi deb bilsa, Gxosh falsafiy muammolarga sof ilmiy yondashishning befoydaligi haqida gapiradi. Bu jihatlari bilan biz Gxosh falsafasi 19-asr oxiridagi ingliz neo-gegelchilarining qarashlariga ma'lum darajada o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. (Grin, Keyrd, Bredli).

Bredli, xususan, o'zining aql qabul qiladigan munosabatlar doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan inson tajribasi barcha jabhalarining (ong, iroda, his-tuyg'ular) eng yuqori sintezi sifatidagi Absolyut konsepsiyasi bilan Gegelning Absolyut g'oyasiga qarshi chiqadi. U bilish kategoriyalarining dialektik mohiyatini so'nggisining unga mos kelmasligi va mistik ichki tajribaga murojaat qilish zarurligining dalili sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Shu munosabat bilan, uning nuqtai nazaridan, falsafa va tabiiy fanlar ham metodologiya, ham o'rganish predmeti bo'yicha farqlanadi - birinchisi "voqelik", keyingisi esa "tashqi ko'rinish" bilan shug'ullanadi.

Bredli g'oyalarining Gxoshga ta'siri katta ehtimol; masalan, Gxoshning "supramental ong" (bo'linishsiz ko'plik, moddiydan farqli o'laroq maxsus "ruhiy" davr va boshqalar) tabiati haqidagi ba'zi g'oyalari bilan Bredlining "reallik" tabiati haqidagi qarashlari o'xshashligini ta'kidlash kerak. Biroq, bu ta'sirni bo'rttirib yubormaslik kerak. Birinchidan, Gxoshning mantiqdan yuqorida turuvchi Absolyut va ilohiy intuitsiya haqidagi g'oyalari qadimgi hind falsafiy an'alariga borib taqaladi. Ikkinchidan, uning nuqtai nazari bir qator jihatlar bo'yicha Bredlinikidan tubdan farq qiladi.

Shunday qilib, u dunyoning haqiqiy emasligini isbotlash uchun "salbiy dialektika" usulidan foydalanmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, empirik dunyoning g'ayritabiiyligi haqidagi tezisni inkor etish Gxosh falsafiy asarlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Bredli kabi falsafani o'ziga xos fanlarga qarama-qarshi qo'yib, ilmiy bilimlarning cheklanganligi, torligi, biryoqlamaligini ta'kidlasa-da,

Gxosh, undan farqli o'laroq, o'z falsafasining qoidalarini tasdiqlash uchun ko'pincha ilm-fanga murojaat qilishga harakat qiladi.

Gxoshning o'tgan asrning emas, balki XX asr ilm-faniga murojaat qilishi xarakterlidir. Bu ikki holatga bog'liq. Birinchidan, u ko'pincha XIX asrni Millning utilitarizmi, Spenserning pozitivizmi va boshqalar bilan, shuningdek, XIX asr oxirida inglizparast hind liberallari tomonidan qabul qilingan mafkura bilan izohlaydi. Ikkinchidan, u o'tgan asr ilm-fanini materialistik dunyoqarash bilan (mexanika bilan aniqlangan, deb hisoblaydi), XX asr boshlaridagi zamonaviy fanni esa idealistik dunyoqarash bilan bog'laydi.

Gxosh fizikaning inqirozi deb ataladigan ko'plab Yevropa idealizm maktablariga ergashib, XX asr boshidagi buyuk ilmiy kashfiyotlarni noto'g'ri talqin qiladi. Xususan, Ostvald fikrlaridan ilhomlangan Gxosh dunyoning materialistik nuqtai nazarini energiya bilan almashtirish haqida gapiradi, energiyani esa o'zining shakti tushunchasi bilan taqqoslaydi.

Yana boshqa yevropalik olimlar, favquloddagi evolyutsiya ta'limotining asoschilari Aleksandr va Lloyd Morganlarning hayot va ongni materiyadan kelib chiqmagan, ular mavjudlikning alohida turlari degan g'oyasi bilan Gxosh o'zining "uch olam" nazariyasini bog'laydi. [2, 7-bet]. Aleksandr konsepsiyasining boshqa ba'zi jihatlari ham Gxoshga yaqin, jumladan, evolyutsiyaning maqsadi ilohiy tamoyilni amalga oshirish, uning harakatlantiruvchi kuchi esa ruhning yaratuvchanlik istagi ("nizus") ekanligini e'tirof etish. Shu bilan birga, Gxosh yangi sifatning paydo bo'lishi nazariyasiga qo'shilmaydi; u miqdor va sifat o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlikni inkor etmaydi, garchi uni mistika qilib ko'rsatsa ham. U Aleksandrdagi evolyutsiyaning fazo-vaqt asoslari haqidagi ta'limotga ham qarshi chiqadi. [3, II jild 4-bet].

Gxosh, shuningdek, "zamonaviy ilm-fan" xulosalariga ishora qiladi, uning ong osti nazariyasini va uning insonning ongli faoliyatiga ta'sirini asoslaydi. Bunda u Freydni nazarda tutganga o'xshaydi, uning ta'siri, Gxoshning tushlarning ahamiyatini talqin qilishi, inson instinktlarining "sublimatsiyasi" haqidagi ba'zi fikrlar, inson psixikasining ongli va ongsiz tomoni o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish va boshqalarda ko'rinadi. Biroq, freydizmning Gxoshga ta'sirini bo'rttirib bo'lmaydi. Ongli va ongsiz o'rtasidagi munosabatlar muammosi hind falsafasida Freyddan ancha oldin qo'yilgan. Freydning eros rolini bo'rttirib ko'rsatishi, uning antiistorizmi, taraqqiyotni inkor etishi, urushlar, ekspluatatsiya uchun kechirim so'rashi va hokazolar inson ruhiyati ichki tabiatining majburiy ko'rinishlari sifatida Gxoshga begonadir.

Gxosh nafaqat Yevropa falsafasining idealistik maktablari g'oyalarini bevosita qo'llaganligini, balki aksariyat hollarda bu maktablar idealizmning zamonaviy irratsionalistik versiyasini, klassik idealizmning parchalanishi mahsulini ifodalovchi maktablar ekanligini ko'rish qiyin emas. Gxosh faqat Gegel falsafasidan haqiqatan ham Yevropa falsafasining haqiqiy yutuqlaridan biri bo'lgan ba'zi g'oyalarni olishga muvaffaq bo'ladi.

Integral Vedantaning idealist tarjimonlari Gxosh tomonidan Sharq va G'arbning falsafiy qadriyatlarini aynan qanday sintez qilinganligini aniqlashga harakat qilganda, faktlar ko'proq yuzaga chiqadi. Ularning ko'pchiligiga ko'ra, Gxosh rivojlanayotgan koinot va o'zgarmas mutlaq haqidagi, amaliy faoliyatning qadri va ma'naviy kamolotga intilishi haqidagi, hushyor aql va mistik sezgining afzalliklari haqidagi, ham o'ziga xosligi bilan noyob shaxs, ham dunyoning yagona va shaxssiz asosi mavjudligi haqidagi g'oyalarning "yarashishi" va o'zaro "muvozanati" ga erisha olgan. Biroq mana shunday va shunga o'xshash kategorik mulohazalar tarzida ifodalangan, G'arb va Sharq falsafiy merosiga qarshi bo'lgan antitezalar yolg'on bo'lib chiqadi.

Shunday qilib, shaxsning betakror o'ziga xosligini tan olish uchun Gxosh G'arb falsafasiga murojaat qilishi shart emas: bunday o'ziga xoslik Ramanujaning "Vishishta advayta" sida va boshqalarda ma'lum darajada tan olingan. [4, 86-bet]. Gxoshning amaliy faoliyat va aqlning qadr-qimmatini tan olishi o'z-o'zidan uning G'arb falsafiy an'alariga murojaat qilganidan dalolatdir, degan tushunchalar ham unchalik asoslanmagan. Aslini olganda, bu g'oyalar Gxosh juda qattiq kurashgan va ko'p jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan yevrosentrizmga hurmatdan boshqa narsa emas.

Aqlning roliga kelsak, shubhasiz, butun boshli tarixiy taraqqiyot davrining mazmuni sifatida insonda ratsional tamoyilning infraratsionallik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi Gxoshning g'oyasi, noan'anaviydir. Aql, o'rta asr xurofotlarini yengib, jamiyat uchun yangi istiqbollarni ochish, feodal kishanlaridan ozod bo'lgan shaxs, insoniyat taraqqiyoti, uning bunyodkorlik qudratini anglash g'oyalari haqiqatan ham o'z davrida G'arbning eng ilg'or burjua mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan. Gxosh, shubhasiz, ularning ta'sirini qisman Gegel falsafasi orqali, qisman esa rivojlangan Yevropa tafakkuri merosini o'zlashtirgan 19-asr hind mutafakkirlari falsafasi orqali his qilgan.

Ammo bu g'oyalar Gxosh falsafasida qanday noodatiy shaklda namoyon bo'ladi, degan savol tug'iladi. Javob quyidagicha: Aql diniy tushunchalarni buzib tashlaydi, faqat yanada takomillashtirilgan, "oliy ratsional" dinga yo'l ochib beradi. Inson an'alar yukidan faqat "erkin" va "ixtiyoriy ravishda" bu an'alarini (varnadxarma)

mos ravishda "tozalangan" va takomillashtirilgan holda o'rnatish zarurligini tan olish uchun ozod qilinadi. O'z-o'zini anglaydigan insonning yaratuvchanlik kuchini ro'yobga chiqaradigan taraqqiyot o'zining Xudoga mutlaq bog'liqligini tan olish, ya'ni o'zini o'zi kamsitish bilan yakunlanadi, shundan so'ng u bir marotaba va butunlayga tugaydi.

Aurobindo falsafasining xususiyatlaridan biri – uning involyutsiya va evolyutsiya haqidagi qoidasidir. Mutafakkir shundan kelib chiqadiki, «g'arbning» tadrijiy rivojlanish g'oyasi fizik va biologik tabiat tomonidan chegaralangan, «uning harakatida hech qanday ruhiy uyg'otish manbasi yo'q, balki faqat tolmas moddiy zaruriyat kuchi bor xolos».[5, 232-bet]. U o'zining tadrijiy rivojlanish haqidagi tushunchasini olg'a surib, unga qo'shimcha sifatida *involyutsiya* kategoriyasini kiritadi. Involyutsiya evolyutsiya (tadrijiy rivojlanish) dan oldin kelib, umumiy aql dunyoning tabiatidan kelib chiqadi.

XULOSA

Shu narsani ta'kidlash joizki, biz Sharq falsafasining jozibadorligi siri tufayli, uning ong evolyutsiyasining qanday bosqichiga tegishli ekanini tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ushbu sir inson ruhiyatining samoviy ilhom bulog'i bilan bog'lanishida ekan. Shu ma'noda A.Gxosh tasnifiga ko'ra foydalansak, Sharq poetik falsafasi G'arbning ratsionalistik falsafasidan ikki pog'ona baland turadi. Vaholanki, Gegel o'zining yevrosentrizm pozitsiyasidan turib G'arb ma'naviy madaniyatini Sharqnikidan ustun o'ringa qo'ygan edi. Boshqa ishida esa uning o'zi o'z dialektikasini ishlab chiqishda Rumiyning "Ma'naviy masnaviy"sidan ta'sirlanganini yozadi.

Chindan ham, Gxosh tasnifiga ko'ra Sharq falsafasi oliy aqlning emas, hatto nurlangan aqlning ham emas, balki intuitiv pog'onaning mahsuli ekani ko'rinadi. Shu munosabat bilan biz G'arb eksperimental ideologiyasining xavfli tomonlarini ko'rsatib bergan taniqli hind mutafakkiri A.Gxoshning fikrlarini, ayniqsa uning zamonaviy ideologiyada yo'l qo'yilayotgan xatolar oqibati haqida aytganlarini va bu borada G'arbning Sharqdan o'rganishi kerak bo'lgan juda katta bilim sohasi borligini ko'rsatadi.

Zamonaviy davrda taraqqiyotning ajralmas sharti sifatida xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini va barcha mazlum xalqlarning ozod bo'lishi zarurligini asoslash, xalqaro munosabatlarda tenglik tamoyilini himoya qilish, mustamlakachilikni nazariy asoslash sifatidagi yevrosentrizmi tanqid qilish, ozodlik

kurashida zo'ravonlikdan foydalanishning qonuniyligini qo'llab-quvvatlash - bu Gxosh ijtimoiy ta'limotining eng yaxshi tomonlaridir.

REFERENCES

1. «The Integral Philosophy of Sri Aurobindo. A Commemorative Symposium», London, 1960.
2. Sri Aurobindo, *Evolution*, Pondicherry, 1950.
3. Sri Aurobindo, *The Life Divine*, vol. I—II, Calcutta, 1944—1947.
4. Sri Aurobindo, *The Foundations of Indian Culture*, Pondicherry, 1959.
5. Aurobindo Sri. *Birth Centenary Library*, vol. 16, Pondicherry, 1972
6. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. *Theoretical & Applied Science*, (3), 72-75.
7. Qodirov, M. (2022). AKADEMIK XAYRULLAYEV—MA'NAVIYATIMIZ DARG'ASI (1931—2004). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 13-19.
8. Qodirov, M. (2021). PIFAGOR VA AFLOTUNNING HARAKAT VA ZAMON TA'RIFI HAQIDA IBN SINO E'TIROFLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 16-19.

HAKIM AT- TERMIZIY ILMIY MEROSIDA INSON MOHIYATINING GERMENEVTIK TAHLILI

Abdunazarova Mariya Farxodovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq falsafasi va madaniyati” mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d. dotsent Ja’far Xolmo’minov

+998903300906

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O’rta Osiyo hududida ilk tasavvuf tariqati- “hakimiya” ning asoschisi Hakim at-Termiziyning ilmiy merosi ilm-fan, xususan islom dini rivoji uchun muhim o’rin tutishi haqida fikr yuritiladi. Uning asarlarida inson mohiyati, insoniyatning kamolotga erishuvi faqatgina ilm orqali Allohni tanish mumkinligi haqida germeneytik tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *Tasavvuf, “Alloh nuri”, “Al-Jomi ‘as-sahih”, “Navodir al-usul”, “ruh”, “qalb” va “aql”, “Manozil ul-iboda”, Tavba, Zohidlik, Adovat un-nafs, Muhabbat, Qat’ ul-havo, Qurquv, Qurbat (yaqinlik), “jihad”, parhezkorlik, “Ixtilojoti a’zo”, “aqlning yordamchilari”.*

ABSTRACT

This article discusses the important role of the scientific heritage of Hakim al-Termizi, the founder of the first mystical sect in Central Asia - Hakimiya, for the development of science, especially Islam. In his works, a hermeneutic analysis of the essence of man, the perfection of mankind, is possible only through knowledge of God.

Keywords: *Sufism, “the light of Allah”, “Al-Jamias-sahih”, “Nawadir al-usul”, “soul”, “heart” and “mind”, “Manazil ul-ibada”, Tawba, Zahidlik, Hostility un-nafs, Love, Qat ul-hawa, Fear, Intimacy, “jihad”, diet, “Ihtilojo azo”, “helpers of the mind”.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важная роль научного наследия Хакима ат-Термизи, основателя первой мистической секты в Средней Азии - правительства, для развития науки, особенно ислама. В его произведениях герменевтический анализ сущности человека, совершенства человечества возможен только через познание Бога.

Ключевые слова: *Суфизм, “свет Аллаха”, “Аль-Джамиас-сахих”, “Навадир аль-усуль”, “душа”, “сердце” и “разум”, “Маназиль уль-ибада”,*

Тауба, Аскетизм, Враждебность ун-нафс, Любовь, Кат уль-хава, Страх, Близость, “джихад”, диета, “Ihtilojo azo”, “помощники ума”.

KIRISH

Tasavvuf ilmida inson mohiyatini ochib berishda “ilm – bu nurdir”, “Nur- Haqni nopokdan ajratadi”, “Nur- sodiq qulini iymonga yetaklaydi”, “Nur- Alloh tomonidan banda qalbiga joylashtirilgan”, “Qalblarni munavvar etuvchi narsa- Alloh nuri” singari g’oyalarni ilgari surgan buyuk allomalarimizdan biri Hakim at-Termiziy sanaladi. Uning inson ma’naviyati haqidagi fikr-mulohazalarini o’zining mashhur “Al-Jomi’ as-sahih” asaridan tashqari ‘Shimoili Nabavariya”(“Payg’ambar alayhissalomning shakl va sifatleri”), “Kitob uz-Zuhd” (“Zohidlik kitobi”), “Asomi’u as-sahoba” (“Sahobalarning ismlari”), “Al-asma’ valkuno” (“Ismlar va kun’yalar”), “Kitobul ilal” (“Illatlar kitobi”) va boshqa kitoblarida bayon etdi¹⁹⁵.

Uning ta’kidlashicha, inson ma’naviy kamolotini shakllantirishda va uni yanada rivojlantirishda bilim muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, uning hikmatlarining ma’no- mazmuni beqiyos, ayniqsa ularda dunyo iztiroblari, bandalarining nojoiz qiliqlari qoralangan. U “Navodir al-usul” asarida ayrim kimsalarning goho o’zini ojiz va notavon deb his qilishi, o’zini xurlangan deb bilishining asosiy sabab qilib, “Insonning umidsizlikka tushishi bu uning Allohni bilmaganidandir”¹⁹⁶, - deb ko’rsatadi. Alloh insonni yaratib, nega umidsizlikka tushuradi degan savol tug’iladi. Bunda alloma aytmoqchiki, Allohni tanigan banda zinhor umidsizlikka tushmaydi, u doim Allohga suyanadi. Inson taqdiridan nolish bandaga xos ish emas, inson taqdiridan emas, o’zini umidsizlik botqog’iga kishanlagan- nafsidan o’pkalashi kerak. Shuningdek, asarda inson butun umr sinovlarda sinalib, Allohning imtihonidan o’tadi. “Navodir al-usul” bayonida “Alloh bandasiga bu dunyoda boylik, faqirlik, izzat, ulug’lik va tubanlik kabi xislatlarni ato etib, ularni imtihon qiladi”¹⁹⁷. Shunday ekan, inson dunyoda Allohning imtihonidan qochib qutalolmaydi, Alloh ham faqirlik ortidan bandasi boylik bilan siylaydi. Bu kabi yaxshi-yomon tushunchalar inson hayotida yonma-yon va uzluksiz davom etib boradi. Allomaning hikmatlarida bir nechta insonlar toifasiga ta’rif beradi, xususan:

- Aziz odam shuki, gunoh uni xor qilmagan bo’ladi
- Ozod odam shuki, ta’ma uni qul qilmagan bo’ladi;
- Xoja odam shuki, shayton uni asir etmagan bo’ladi;

¹⁹⁵ Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1993, 8-bet.

¹⁹⁶ S. Tursunov. B Murtozoyev. Termiziylarning ilmiy tafakkuri. Toshkent.: “O’zbekiston” 2016. 74 b

¹⁹⁷ Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1993, 50-bet.

- Oqil odam shuki, xudo yo'lida zararli qiliqlardan o'zini tiygan va o'z nafsining hisobini qilgan insondir¹⁹⁸.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alloma insondagi ichki xilqatlar "ruh", "qalb" va "aql" to'g'risida ham purma'no hikmatlar qoldirgan. Uning fikricha, "ruh" ning qarorgohi inson boshida, nafsning qarogohi inson qornida bo'ladi. "Qalb" Allohning rahmatini, Uning nuri xususiyatlarini va bulardagi sirlarni idrok etadi. "Aql" esa Allohning tadbiri va uning xususiyatlari hamda undagi hikmatni anglaydi. "Qalb" "aql" ustida hukmdordir. Keyinchalik allomaning qarashlarini Ibn al-Arabiy rivojlantirib : "Inson dunyosining asosi- "qalb"dir, uning vaziri- "aql"dir", - degan qarashni ilgari suradi¹⁹⁹.

Hatim at-Termiziyning "Manozil ul-iboda" asarida Alloh bandalarining yetti manzili haqida so'z yuritiladi. Asarda har bir manzilning asl xususiyatlari, ularning talablari, maqomi va mavqeyi bayon etilgan. Har bir manzilda inson nafsga duch kelib, manzilga yetmoqlik uchun inson shu nafs bilan kurash olib borib, uni yengishga undaydi. Asarning umriboqiyliigi ham shunda, ya'ni nafs insonni ko'zini ko'r, quloqlarini kar qiladi, unga qarshi kurash esa "qalb" ko'zini nurli qiladi, zotan bu insonni teran mushohadaga yetaklaydi. Ushbu asar insonni islomiy ma'naviyatni anglashga, yosh avlodni kamolot sari mushohada etishga da'vat etadi. Asar ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobida inson yetishi kerak bo'lgan yetti manzil bayoni keltirilgan. Bular quyidagilar: Tavba, Zohidlik, Adovat un-nafs, Muhabbat, Qat' ul-havo, Qurquv, Qurbat (yaqinlik). Ikkinchi bobda birinchi bobdagi ayrim manzillar Qur'oni Karim oyatlari va hadislar bilan sharhlanadi.

Birinchi manzil-Tavba manzili, "Allohni izlovchi va unga talpinuvchilarning eng avvalgi manzilidir. Bu manzilga yetishish sharafiga erishgan bandalar Allohning buyruqlariga so'zsiz amal qilguvchi, U man etgan narsalardan tiyiluvchilardir"²⁰⁰. Bu manzilda nafsga, kibr-u havoga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu "jihod"(kurash) uning ta'biricha, ikki xil bo'lib, botiniy jihod nafs, hasadga qarshi qilingan ichki jihod bo'lsa, ikkinchisi- dushmanga qarshi kamon, nayza bilan urushib, uning molini tortib olish zohiriy jihoddir"²⁰¹.

¹⁹⁸ Hakim at-Termiziy. Hadislarning biz anglagan va anglamagan hikmatlari. Ibrohimjon Usmonov tarjimai. Toshkent.: Movarounnahr, 2006.-60b.

¹⁹⁹ Ibrohimjon Usmonov. "Navodir al-usul" hikmatlari. Toshkent.: Fan, 2009. 116-119 b.

²⁰⁰ Hakim at- Termiziy. Manozil ul-ibod min al-iboda. Abdulqahhor Shoshiy tarjimai. Toshkent.: Movarounnahr, 2003- 9 b.

²⁰¹ O'sha asar. -22 b

Ikkinchi manzil- Zohid(parhexkor)lik yo'lidagi insonlarning odatlari sharhlanadi. Zohid (nobop harakat va nopok qiliqlardan tiyilish)lik yo'li mashaqqatli yo'l, uni bosib o'tish, zabt etish uchun sobitlik talabi ustuvor turadi, chunki "dunyo shayton tuzoqlari"ga limmo-limdir.²⁰² Bu yo'lni faqat banda gunohlaridan poklansagina, banda "qalb ko'zi" bilan bu dunyoga nazar tashlasa maqsadiga erishadi. Zotan, hadislarimizda bejizga "Bu dunyo mo'min kishi uchun hibsxona, kufr ahli uchun jannatdir"- deb aytilmagan.

Uchinchi manzil- adovatun nafs, ya'ni nafsga dushmanlik manzilidir. Banda nafsga qarshi kurashni doimo olib borish, shuningdek kurash oxirida o'z samarasini berib, banda yuvosh va itoatgo'y bo'lishi shu manzilda namayon bo'ladi. Hakim at-Termiziy nafsga jihod bu- "xalq uchun mezon. U bilan odamlarning darajasi o'lchanadi. Chunki nafs Allohning dushmanidir" ,- deydi.²⁰³

To'rtinchi manzil- muhabbat manzili bo'lib, muhabbat kalomi, uning ijtimoiy negizi, hayotiy o'zagi tasavvuf ilmida boshqa talqinda uchraydi. Xususan, "Manozil ul-ibod min al-iboda" asarida muhabbatga "xabbat ul-qalb" deb murojaat qilib, bu yerda qalbning tomirlari jam bo'ladigan makonidir deb ta'kidlaydi.

Beshinchi manzil- Qatul- havo manzilidir. Bu manzilda banda xoy-u havasni yengib o'tishi, uning "o'ta yashovchanligi", u bandalarni mag'lub etishi mumkinligi aytib o'tilgan. Uni yo'q qilguvchi qurol esa insonning iroda kuchi ekanligi "Toxa", "A'lo" va "Tavba" suralari bilan fikrini asoslaydi.²⁰⁴

Oltinchi manzil- qurquv manzilida bandaning Allohga shak keltirishi va uning ziddi bo'lgan Alloh rizoligi uchun yomon yo'llardan qaytishi bayon etilgan. Bu manzil boshqa manzillardan farq qilib, uning asosi insonni Alloh ma'rifatiga yo'llash hisoblanadi.

Oxirgi manzil esa- bu qurbat, ya'ni yaqinlik manzilidir. Bu manzil banda uchun eng og'ir sinovlar badaliga vosil bo'ladi. Alloh vasliga munosib bandalar "qurbat" manzilida mustahkam makom egallaydilar. Ushbu bob quyidagi so'zlar bilan tugallanadi: "Hidoyat(to'g'ri so'z), tavfiq(madad), qurquv va quvvat- barchasi ulug' Alloh dandir"²⁰⁵. Shuningdek, alloma nafs va dunyo boylıklariga xirs qo'yish yomon illatlardan biri deb hisoblab, "Dunyo sevgisi-achchiq suv, nafs sevgisi esa sho'r suv deb ta'rif beradi. Hakim at-Termiziy o'z asarida Allohning bandalarini uch toifaga ajratadi, bular: Allohning maxbuslari- mo'minlar, shaxvatning maxbuslari-fosiqlar,

²⁰² O'sha asar. -9 b

²⁰³ O'sha asar. -13-14 b

²⁰⁴ Hakim at- Termiziy. Manozil ul-ibod min al-iboda. Abdulqahhor Shoshiy tarjimai. Toshkent.: Movarounnahr, 2003- 35 b.

²⁰⁵ O'sha asar. -19 b

shaytonning maxbuslari- kofirlardir. Xullas, ushbu asarda bandaning eng katta jihodlaridan biri- o'z nafsiga qilingan jihod ekanligi, haqiqiy mo'min banda esa Allohga yaqinlik maqomiga erishish uchun bir necha mashaqqatli sinovdan o'tishi kerakligi, bu imtihonda "xurmo bargigek yonishi" mumkinligiga qaramay iroda orqali Allohning madadiga tayanib bosib o'tib, "qalb nuri" ila manzilni yakunlashi bayon etilgan. Asarning qiymati ham, uning bandani Allohga ixlos, chin e'tiqod, itoat, so'ng ilmga amal qilishlikni targ'ib qiladi.

Allomaning "Navro'znoma" risolasi alohida tahlil etish uchun muhim manba hisoblanadi. Risolada tabiat va jamiyat, tabiat va insoniyat aloqalari, ular o'rtasidagi mutanosiblik va nomutanosiblik holatlari, shuningdek tabiat mo'jizakorligi oldida insonning ojizligi bilan bayon etiladi. Insoniyatning necha asrlik turmush tarzi, ularning hayotiy tajribalari mujassam etilgan. Sharq olamida yetti raqami ulug'lanib kelingani, hatto inson a'zolarini ham yetti sayyora bilan nomlangan. Masalan, orqa miya-Zuhul, qalb (qon aylanish tizimi)- Quyosh, oshqozon- Oy, bosh miya-Mirrix, o'pka (nafas yo'llari)-Atorud, jigar- Mushtariy, buyrak- Zuhra. Allomaning fikricha, inson tabiatida ham yettita xulq mavjud: g'azab, rag'bat, raxbat (hadik, qo'rquv), shaxvat, g'aflat, shak, shirk. Shuningdek, "Ixtilojoti a'zo" deb nomlangan risola debochasida inson sochi yoki ko'zining rangi, bundan tashqari, qosh, kiprik, yuzining ranglari va ularning inson tabiatiga, fazilatiga, xususiyatiga ta'siri haqida sharh berilgan.²⁰⁶

Hakim at-Termiziyning ya'na bir risolasi "Aql va havo" da "aql va havoning ellikta yordamchisi" ni sanab o'tadi. Shuningdek, risolada insonning har bir xususiyatlari ziddi orqali tafsir etgan. Xususan, "aqlning yordamchilari"- aql, fahm, basar(ko'rish), ma'rifat, yaqiyn(shak-shubhasiz),fiqh, vaqf(to'xtab turish), hilm(yumshoqlik),ilhom, ixlos, tavozu', saxovat, to'g'rilik, nasihat, xisba, niyat, shafqat, murosayu madora, vara', shukr, rizo, sabr, xavf, taqvo, jaxd, istiqomat, zuhd,farosat, ulfat, inobat, shavq, tazarru',muhabbat, xifz, sidq, hidoyat, zehn, farog'at, omonlik, tavakkul, ishonch, qanoat, to'lib toshmoq, ofiyat, rohat, xushu', tafakkur, ibrat, istixora, salomatlik, hurmat-e'tibor, uzlat, tayyorgarlik.

XULOSA

Xulosa o'rnida, allomaning ilmiy merosi nechog'lik inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim manba ekanligini anglamoq uchun Abdurahmon as-Sulamiyning "Tabaqot us-sufiya" tazkirasida Hakim at-Termiziyning purma'no hikmatni keltirib o'tadi. Ushbu hikmatga ko'ra, "Bolalarning tuzatuvchi, tarbiyasi-

²⁰⁶ S. Tursunov. B Murtozoyev. Termiziylarning ilmiy tafakkuri. Toshkent.: "O'zbekiston" 2016. 46b

maktablarda, qaroqchilarning tuzatuvchi, tarbiyasi- qamoqxonalarda, ayollarniki- uylarda, yoshlarniki- ilmda, keksalarniki esa masjidlardadir”²⁰⁷, - degan soʻzlari keng mushohadaga yoʻl ochadi.

REFERENCES

1. Tursunov S., Murtozoyev B. Termiziylarning ilmiy tafakkuri. Toshkent.: “Oʻzbekiston” 2016. 46b
2. Ibrohimjon Usmonov. “Navodir al-usul” hikmatlari. Toshkent.: Fan, 2009. 116-119 b.
3. Hakim at-Termiziy. Nodir masalalar. Ibrohimjon Usmonov tarjimasini. Toshkent.: Movarounnahr, 2007.-88b
4. Hakim at-Termiziy. Hadislarning biz anglagan va anglamagan hikmatlari. Ibrohimjon Usmonov tarjimasini. Toshkent.: Movarounnahr, 2006.-60b.
5. Hakim at- Termiziy. Manozil ul-ibod min al-iboda. Abdulqahhor Shoshiy tarjimasini. Toshkent.: Movarounnahr, 2003- 9 b.
6. Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1993, 50-bet.
7. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima sanʼatiga qoʻshgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
8. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELITIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MAʼLUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.

²⁰⁷ Hakim at-Termiziy. Nodir masalalar. Ibrohimjon Usmonov tarjimasini. -Toshkent.: Movarounnahr, 2007.-88b

ABU ALI IBN SINONING “HAY IBN YAQZON” FALSAFIY QISSASINING YORITILISHI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Ziyodullayev Maqsudjon Shokirjon o’g’li

TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Axmedova S.J.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sinoning falsafiy asari “Hay o’g’li Yaqzon” tog’risidagi fikrlar ilgari surilgan. “Hay ibn Yaqzon” qissasini Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bo’lgan Faradjon qal’asi qamoqxonasida yozgan degan ma’lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Qissa arab tilida yozilgan va bugungi kungacha bu asarning mohiyati insonga axloqiy hislatlarni o’ziga mujassamlashtirib kelmoqda.

Kalit so’zlar: Ibn Sino. “Hay ibn Yaqzon”, farosat, aql, mazmun, zaruriyat, jilov.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается философский труд Абу Али ибн Сины «Хай сын Якзан». Исторические источники утверждают, что рассказ о Хай ибн Якзане был написан Ибн Синой в 1023 году в тюрьме замка Фараджан недалеко от Хамадана. Рассказ написан на арабском языке, и по сей день суть этого произведения в том, что оно воплощает в себе нравственные качества человека.

Ключевые слова: Ибн Сина. Хай ибн Якзан, интеллект, разум, содержание, необходимость, сдержанность.

ABSTRACT

This article discusses the philosophical work of Abu Ali ibn Sina "Hay son of Yakzan". Historical sources claim that the story of Hay ibn Yaqzan was written by Ibn Sina in 1023 in the prison of the Farajan castle near Hamadan. The story is written in Arabic, and to this day the essence of this work is that it embodies the moral qualities of a person.

Keywords: Ibn Sina. Hay ibn Yakzan, intellect, mind, content, necessity, restraint.

KIIRSH

Ma’lumki, yoshlar intellektual salohiyat va ilg’or texnologiyalarni egallash bilan birga milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unligining zaruratini chuqur anglab

yetishlari zarur. Bu zaruriyat nima bilan izohlanadi? Ma'lumki, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalar avvalo, jamiyatning moddiy asoslarini, iqtisodiy taraqqiyotini, harbiy qudratini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda muayyan darajada jamiyat a'zolarining moddiy farovonligini ta'minlashga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu xizmat va ta'sirning jamiyat uchun, jamiyat a'zolari uchun qay darajada manfaatli bo'lishi intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalardan qanday maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanishga bog'lik. Shu sabab asosiy urg'u aynan milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligini teran anglashga, ya'ni tafakkurlash madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Hay ibn Yaqzon” qissasini Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bo'lgan Faradjon qal'asi qamoqxonasida yozgan degan ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Qissa arab tilida yozilgan. Ivrit (qadimgi yahudiy) tiliga qissaning she'riy tarjimasini Ibn Erza (117-yilda vafot etgan), nasriy tarjimasini 1886-yilda P.D.Kaufman amalga oshirgan. Insonning tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlarning ta'rifiga katta o'rin berilgan, qissaning o'zi esa, umuman insonning ma'naviy qiyofasiga, intizomiga, uni noma'qul qilmishlarga ergashishdan qaytarishga bag'ishlangan. Qissadagi barcha qahramonlar ma'lum ramziy siymolarni gavdalantiradi: yosh yigit bilan birga G'arbdan sharqqa sayohat qilayotgan qariya siymosi – faoliyat ko'rsatayotgan ong ramzidir. G'arb deganda moddiy olam, ya'ni inson tanasi, sharq deganda – insonning ruhiy olami, ya'ni inson idroki tushuniladi. Idrok insonni yaramas kirdikorlardan ogohlikka chaqiradi, mantiq ilmini o'rganishga undaydi. Qissada mantiqni – farosat (ya'ni fiziognomika) deb yuritilgan.²⁰⁸

Inson fe'l-atvoridagi qiziqqonlik, munofiqlik, ta'magirlik, zulmkorlikka, o'g'rilik va aldamchilikka moyillik, o'zining hayu-havaslarini qondirish istagi, ehtirolarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do'stlar” deb atagan. Ibn Sino inson o'zining “jilovini” mana shunday “do'stlar”ning qo'lga topshirib qo'ymasligi kerakligi haqida ogohlantiradi. Inson doimo ulardan yuqoriroq turishi, doimo aql-idroki doirasida odimlashi lozim – shundagina u o'z do'stlarini to'g'ri yo'ldan boshlab boradi. Ular seni o'zlariga bo'sundirib olmaslaridan avvalroq, – deydi Ibn Sino, – sen ularni o'zingga bo'sundirishing lozim.²⁰⁹

²⁰⁸ Irisov A “Ibn Sino – ma'rifatparvar adib” T.: O'zbekiston 1980 32-b

²⁰⁹ Baratov M. “Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir” T.: Fan 1980 22-b

Ibn Sino bu asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishgani tufayli ko'zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm unga o'z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, farosatli bo'lib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi.

Demak, “Xayy ibn Yaqzon” mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir. Shuning uchun ham u odamlarga qarata shunday xitob qiladi: “Ey birodarlar! Bir –biringiz bilan samimiy do'st bo'lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o'z birodari uchun ko'nglidagi samimiylikdan (to'sqinlik) pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodarlaringiz sizlardan (o'zi bilmagan) ba'zi narsalarni o'rgansin va yana boshqalari (bo'lsa) ba'zi narsalarni o'rganib, o'zini kamolotga etkazsin”. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa jipslashishi va hamkorlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqiladi.²¹⁰

XULOSA

Ibn Sino bu asari bilan ma'lum bir tabaqa kishilarni tarbiyalashga uringanligi sezilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal saroy muhitiga xarakterli bo'lgan tiplardan biri ekanligi ana shundan dalolat berib turibdi.

Asar oxirida kitobxon ko'z o'ngida yetuk, puxta va ancha quyuqlashgan, tuyg'ularga mutlaqo bo'ysunmaydigan obraz gavdalandi. Ikkinchidan, xotinning butun qilmishlari, ishlatgan hiyla-nayanglari barbod bo'ladi, egrilikning to'g'rilik ustidan hukmron bo'la olmasligi oydinlashadi. Umuman aytganda, Ibn Sinoning bu qissasi o'rta asr adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanadi. Uning o'zi ham bu asarga alohida ahamiyat beradi.

²¹⁰ Irisov A. Falsafiy qissalar T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 32-b

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Falsafa (Ahmedova M. umumiy tahriri ostida), “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, –Toshkent. 2006. – 495 b.
3. Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш. Шарқ фалсафаси. – Тошкент: жахон принт, 2011. – 185 б.
4. Ибн Сина. Трактат о Хайе сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина.- М., Мысль, 1980.
5. Игнатенко А.А. В поисках счастья / Общественно-политические воззрения арабо-исламских философов средневековья. - М., Мысль, 1989.
6. Qodirov, M. (2022). АКАДЕМИК ХАЙРУЛЛАЙЕВ–МА’НАВИЯТИМИЗ DARG’ASI (1931–2004). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 13-19.
7. Qodirov, M. (2021). ПИФАГОР ВА АФЛОТУННИНГ ХАРАКАТ ВА ЗАМОН ТА’РИФИ HAQIDA IBN SINO E’TIROFLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 16-19.
8. Saidov, S. (2022). ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА КЕЛТИРИЛГАН IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA’LUMOTLAR ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
9. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 395-401.
10. O’G’Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ЧАҒОНИЁНДАГИ МАЪНАВИЙ ҲАЁТГА НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТАЪСИРИ



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-4-2-721-726>

Раҳматов Эркин

СамДУ докторанти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Темурийлар даврида Чаганиёндаги маънавий ҳаётнинг ривожланишида нақшбандия таълимотининг ўрни ва машҳур мутасаввиф шайх Алоуддин Атторнинг ижтимоий-маънавий фаолиятида нафс ва “ҳуш ҳар дам” талқини, шунингдек, нафсни тарбиялашнинг энг мукаммал йўл “даст ба кор”лик(ҳалол меҳнат қилиш)нинг “дил ба ёр”лик билан уйғун бўлишининг ижтимоий моҳияти ҳақида сўз юритилади.

Таянч сўз ва иборалар: тасаввуф, шайх Алоуддин Аттор, тариқат, нафс, “ҳуш ҳар дам”, ахлоқ ва руҳий тарбия, нафас, қалб, голиб.

АННОТАЦИЯ

Роль учения Накшбанди в развитии духовной жизни Чагани в эпоху Тимуридов и толкование нафса и «хуш хар дам» в общественно-духовной деятельности известного суфийского шейха Алоуддина Аттора, а также наилучший способ культивировать нафс "честный труд" Обсуждается социальная значимость гармонии языка с "дил ба ёр".

Ключевые слова и фразы: мистицизм, шейх Алауддин Аттор, секта, нафс, «сознание каждое мгновение», нравственно-духовное воспитание, дыхание, сердце, победитель.

КИРИШ

Диёримиз ислом тасаввуфи бешикларидан саналади. VIII-XI асрларда ислом оламининг бошқа йирик марказлари сингари Марказий Осиёда ҳам тасаввуфнинг назарий ва амалий асослари шаклланди. XII асрдан бошлаб ўлкада эса бу ўлкада, кейинчалик бутун ислом дунёсига кенг тарқалган яссавия,хожаган- нақшбандия, кубровия, ишқия каби суфийлик тарифатлари вужудга келди. Булар орасида ижтимоий фаол тасаввуф таълимоти(4-манба) сифатида тарқалган нақшбандия таркидунёчиликдан воз кечиб, меҳнатсеварлик ва ҳалол турмуш тарзини яратиш билан ажралиб туради Шу

асосда тариқат аҳолининг кенг қатлами ва кенг ҳудудга тарқалганлигини гувоҳи буламиз

Хожа Алоуддин Аттор Валий ҳаёти ва маънавий меъросини ўрганиш давомида шунга амин бўламизки, Темурийлар даврида фақат марказий йирик шаҳарлар эмас, шаҳар кўрғонларнинг ҳам ижтимоий –иқтисодий ва маънавий жихатдан нуфузи ортди.

Мовароуннаҳрда: Самарқанд, Бухоро, Кеш(Шаҳрисабз), Хўжанд, Тошкент, Шохрухия, Ахсикат, Андигон, Ўзган, Ўтрор, Термиз, Ўрганч, Ҳисори Шодмон шаҳарлари йирик шаҳарлар сифатида тан олинса, кўйидаги шаҳарлар ҳам девор билан кўрғон қилиб ўралган йирик аҳали маркази сифатида қайд этилган. Оқсарой(Хатлон вилояти маркази), Чағоно(Чағониён), Қарши(Насаф), Занжирсарой, Хива(Хивок), Кот, Дизак, Ўратепа, Сифноқ, Сайрам, Ашпара кабилар кўпроқ шаҳар-кўрғон сифатида тилга олинади. Булардан ташқари нисбатан кичикроқ шаҳарлар ҳам бўлган. Уларни унча катта бўлмаган ёки кичик шаҳарлар деб тилга олинади. (1-манба 53-бет)Халқаро савдо муносабатлари таъсирида шаҳарлар тез ўсди.

1419-1422 йилларда Хитойга борган темурийлар элчилари, ушбу элчиликда бевосита қатнашган Ғиёсиддин Накқошнинг сафар кундалигида қайд этилишича, ватанларига қайтиш чоғида, Қашғардан ўтгач Андукон довомида уч гуруҳга бўлиндилар: биринчи гуруҳ Фарғона водийси орқали Самарқандга, иккинчи гуруҳ Помир тоғлари орқали Бадахшонга ва учинчи гуруҳ Қоратегин, Ҳисори Шодмон, Чағониён, Термиз ва Балх орқали Ҳиротга йўл олади.(2-манба)Демак XV асрда Чағониён Буюк Ипак Йўлининг битта муҳим тармоғида жойлашган эди, дейиш мумкин.

XIV-аср охири –XV аср давомида Чағониён вилояти Маворауннаҳрнинг муҳим маданий-маърифий гўшаларидан ҳам бўлган. XIV аср 90-йилларида нақшбандия тариқатининг йирик намоёндаси Алоуддин Аттор Бухородан Чағониённинг Деҳнава қишлоғига келади ва умрининг охириги ўн йилини шу ерда ўтказади. У Чағониёнда нақшбандийликни тарғиб қилиб, атрофига мурид-мухлислар жамлади. Қадимги Чағониёндан тахминан 6 км. Шимоли-шарқда жойлашган Деҳнав(Ҳоз Денов шаҳри)XVIII-XIX асрларда шу номдаги беклик марказига айланган. Унинг кўрғини ва мадраса ҳозиргача сақланган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Маълумки, Хожаган-Нақшбандия тариқати Баҳоуддин Нақшбанд томонидан ривожлантирилиб, унинг вафотидан сўнг халифалари Муҳаммад

Парсо (1348-1420), Алоуддин Аттор ва бир қатор мурид-мухлислар томонидан давом эттирилди. Бу ҳақда бир қанча асарлар ёзилиб нақшбандия тариқати ёзма меъросидан ўрин олди. Хожа Муҳаммад Парсо “Рисолаи Қудсия”, “Фасл ул - Хитоб”, Салоҳ ибн Муборак ал-Бухорий “Анис ат-толибин”(XIV аср охири), Муҳаммад Боқир “Мақомати Хожа Нақшбанд” (XV аср боши), Мавлоно Яъқуб Чархий (вафоти 1447 й) “Мухтасар дар баёни силсилаи нақшбандия” “Рисолаи Унсия”, Фаҳриддин Али ибн Хусайн Воиз Кошифийнинг “Рашоҳат айн ал-ҳаёт”(XVI аср боши) каби асарлари ана шулар жумласидандир.

“Рашоҳат айн ал-ҳаёт” асарида ёзилишича, хожа Алоуддин Атторнинг Бухорода яшаб илм ўрганганлиги, Баҳоуддин Нақшбанд уни ўзига куёв ва мурид қилиб олганлиги ҳақида хабар берилган. Муҳаммад Боқирнинг “Мақомати” да ҳам Баҳоуддин Нақшбанд хожа Алоуддин Атторни тарбия қилиб сулукка олиб кирганлиги айtilган. Салоҳтибн Муборак ал-Бухорийнинг “Анис ат толибин” китобида ҳам Баҳоуддин Нақшбанд кўпинча Алоуддин Атторни ўз ёнларида олиб юриб тарбият қилганлари ва аста-секин мурид-мухлисларини тарбият қилишни унга топшириб борганлари, ул улуғ зотнинг вафотларидан кейин эса, Алоуддин Аттор муршидлик вазифасини қабул қилинган ҳам ёзилган. Хожа Муҳаммад Парсо ўз вақтида хожа Алоуддин Аттор ҳақида “Мақомати шайх Алоуддин Аттор” номли махсус рисола ҳам ёзганлиги маълум.

Хожа Алоуддин Аттор нақшбандия тариқатининг ёзма меъросдан ўрин олишида саъй-ҳаракатлар кўрсатган. Баҳоуддин Нақшбанд вафотларидан сўнг, у кишининг ҳаёти ва нақшбандия тариқати таълимоти ҳақида бир неча асарлар ёзилишида хожа Алоуддин Аттор кўпинча бош-қош бўлиб турган. Масалан, Баҳоуддин Нақшбанднинг иккинчи ҳалифаси Муҳаммад Парсо ўзининг “Рисолаи қудсия” асарини бевосита Алоуддин Аттор таклифига кўра ёзишга киришганлиги айтади. Салоҳ ибн Муборак ҳам ўзининг “Анис ат-толибин” номли асарини Алоуддин Аттор топшириғига кўра ёзганлигини, у киши руҳсат этган ҳикояларгина китобга киритилганлигини таъкидлаган ва уларнинг кўпи “ҳажа Алоуддин айтмишлар” деб бошланади. Бундай услуб Муҳаммад Боқирнинг “Мақомати хожа Нақшбанд” асарида ҳам сақланган. Айрим ҳикоялар Алоуддин Аттор суҳбатида бўлганлар номидан берилган.

Алоуддин Аттор шахсан ўзи асар ёзмаган дея қатъий тухтамга кела олмаймиз, чунки, Омонулло Буриев тадқиқотларига кўра, Алоуддин Атторнинг ўз қаламига мансуб асар борлиги ҳам қайд этилди. Бу рисола Ўз ФА Шарқшунослик институти хазинасидаги тасаввуфга оид асарлардан бири бўлиб,

хазинада 890-рақам билан белгиланган мажмуа таркибида ва унинг 1276 ва 197а варақларидан ўрин олган, форс тилида (3-манба)

Рисолада қисқа киришдан сўнг қўйидаги тўртлик берилган.

Лаззати дарди мусулмониям дех,
Нестийи нафси зулмониям дех.
Куфр кофирро-у, дин диндорро,
Зарраи дардат дили Атторо.

Мазмуни:

Мусулмонлик дарди лаззатин бергил менга,
Зулмат нафс йўқлигин бергил менга,
Куфр-кофир учун, дин диндор учун.
Аттор дили учун, бир зарра дардингни(бергил)

Мазкур мисралар машҳур мутасаввиф олим Фариддин Аттор фаламига мансуб бўлсада, бироқ мазкур рисолада умуман хожаган-нақшбандия тариқатининг мақсади ва Ҳақ висолига етишишда солиқнинг олдида қўйилган вазифалар, унинг ҳолати, машаққатлар ҳақида сўз борганлиги эътиборидан, уни хожа Алоуддин Аттор қаламига мансуб дейишимиз мумкин.

Унда зикр айтишнинг тартиби, дилни зикрга тайёрлаш, пирга эътиқоднинг сабаби, Ҳаққа муҳаббат каби тушунчаларга таъриф берилган. Бу йўлда солиқ учун бир қанча талаблар қўйилган:

- Ҳақ бандаларига арз-шикоят қилмасин;
- Иложи борича бировнинг оғирини енгил қилсин;
- Ҳеч кимга оғирини туширмасин;
- Ўзини ҳаммадан кам кўрсин;
- Халқдан таъмани бутунлай ўзсин;
- Имкони борича бировга фойда келтирсин.

Қурън ва ҳадисларни ўқишнинг ҳам фойдаси кўплиги айtilган. Асарнинг ёзилган йили аниқ кўрсатилмаган. Лекин матн мазмунидан унинг Баҳоуддин Нақшбанд вафотидан кейин ёзилганлигини билса бўлади. Чунки муаллиф бир жойда Баҳоуддин Нақшбанд исмларини ёзганда, “Оллоҳ у кишининг руҳларини муқаддас этсин” деган иборани ишлатади(166а-варақ), Бошқа бир жойда кексайиб қолганлигини эслатади. (167а-варақ). Демак асар 1390-1400 йиллар оралиғида, Чағониёнда ёзилган дейиш мумкин. Чунки алоуддин Аттор шу йилларда шу йилларда Чағониёнда яшаган.

Хожа Алоуддин Аттор ҳижрий 802 йил 20 ражаб(милодий 1400 й 18 март)да вафот этган, қабрлари Денов шаҳридаги катта зиёратгоҳ саналади. Халқ эҳтиром билан “Шайх Аттор Валий”, “Сармазор” қабристони деб тилга олади. Қадимдан хайит намозлари ўқилганлиги сабабли қишлоқ “Намозгоҳ” ҳам деб аталади.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, Темурийлар даврида Чағониён тасаввуф ва маърифат аҳли йиғиладиган маънавият маскани бўлган дейиш мумкин.

Алоуддин Атторнинг олтин ўғитлари:

12-Ўзингни одобли санашинг одобингдаги хатодир. Адабсизнинг хатоси унда манманлик намоеён бўлиши ва ўзини одобли санашдир.

13-(17-рашҳа)Улуғ машойихлар қабрининг зиёратидан нечоғлик фойда олишинг уларни қанчалик танишингга боғлиқдир. Киши учун уларнинг сурати эмас, сифати муҳимдир. Уларни зиёрат этиш ҳам Аллоҳга юзланиш ва юзланишни яхшилаш учун бўлмоғи лозимдир. Ҳазрати Хожа Бузrug (Баҳоуддин Нақшбанд) муборак тилларидан кўп ўтар эди.:

Ту токай гўри мардонро парасти,

Ба гирди кори мардон ро гирд рости

Сен қачонгача авлиёлар қабрига топинасан,

Авлиёлар амалидек иш қилки , ўсасан.

(яъни азиз авлиё ва олимлар қабрини зиёрат этиш билан охират куни муқарарлиги, бу дунё ўткинчилиги ва улардан ибрат олишни мулоҳаза этмоқ лозим.)

14-(16-рашҳа) Ташингда халққа , ичингда эса Аллоҳга тавозуъ (ҳурмат сақлаш ва камтарлик)қил. Халққа тавозуъ ҳам аслида Аллоҳга тавозуънинг белгиси бўлади, шу маънига кўраки , улар Аллоҳ қудрати ва ҳикматининг намоеён бўлиш ўрнидир.

15-Кишидаги умидворлик шундан пайдо бўладики, у ўз иш ва феълларидаги камчиликларни доимий ва ҳар лаҳзада текшириб, мулоҳаза қилиб туради.

REFERENCES

1. Бўриев Омонулло Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар) // Т-“Ўзбекистон”, 1997-186 б.
2. А. Ўринбоев , О. Бўриев. Гиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. Тошкент,1991.44-бет.
3. Бўриев Омонулло . Нақшбандия тариқати тарихига оид янги асар// “Шарқшунослик” тўплами, №8, Тошкент,1997.18-27 бетлар
4. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир/ Ғ. Раззоқов, К. Раҳимов.- Тошкент:“Ўзбекистон”НМИУ, 2020. 168 б.
5. Алоуддин Аттор. Жўрабек Чўтматов . Термиз. Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази.2021. 62-б

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИНИНГ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ТЎГАРАК МАШҒУЛОТЛАРИДА НАТЮРМОРТ ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-4-2-727-736>

Халилов Руслан Шавкатович

Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университет
“Тасвирий санъат” кафедраси мудири, доцент

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада тасвирий санъат тўғарак машғулотларида акварель бўёғида натюрморт ишлаш технологияси ҳақида фикр юритилади.

Калим сўзлар: тўғарак, мураббий, ўқитувчи, ўқувчи, маҳорат, гуруҳ, ёруғ-соя, акварель, бўёқ, натюрморт, расм, нарса-буюмлар.

АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается о преподавании кружков изобразительного искусства и технологии работы с натюрмортами в акварельной живописи.

Ключевые слова: кружок, тренер, учитель, ученик, мастерство, группа, светотень, акварель, краски, натюрморт, живопись, предметы.

ANNOTATION

The article describes the teaching of fine art circles and the technology of working with still lifes in watercolor painting.

Keywords: circle, coach, teacher, student, skill, group, chiaroscuro, watercolor, paints, still life, painting, objects.

КИРИШ

Албатта биз мустақил фикрлайдиган замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган мустаҳкам ҳаётини позицияга эга бўлган ёшларни тарбиялаш бўйича катта ишларни амалга оширмақдамиз²¹¹.

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида битирувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш, педагог кадрларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш орқали интеграцион таълим жараёнини лойиҳалаштиришнинг замонавий методик таъминотини яратиш, талабаларда касбий фаолият соҳаларига йўналтирилган қобилиятларни ривожлантириш бўйича тадқиқотлар долзарб аҳамият касб этмоқда. Шу жиҳатдан олий таълим сифатини

²¹¹ Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олий жаноб халқ билан бирга курашимиз –Т., “Ўзбекистон”, 2017 й.

таъминлашдаги ижтимоий ролини ошириш, касбий таълим мазмунини модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантириш, интерфаол ўқитиш методлари ва технологияларини амалиётга кенг жорий этиш асосида талабаларда касбий компетенцияни ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш заруриятини изоҳлайди.

Мустақиллик йилларида айниқса, тасвирий ва амалий санъатдан ёшларга замонавий талаблар асосида таълим бериш сифатини ошириш, жумладан, тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини халқаро малака талаблар асосида ташкил этиш каби ишларга алоҳида эътибор қаратилди. Таълим соҳасида амалга оширилган кенг қамровли ислохотлар натижасида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлашнинг илғор хорижий тажрибаларга асосланган миллий тизими яратилди. Шулар билан бир қаторда тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини оширишда касбий компетенцияларни шакллантиришга оид ёндашувларни жадаллаштириш зарурати юзага келмоқда.

Ёшларни бадий жихатдан баркамол, Ватанга ва миллий санъатга садоқат руҳида тарбиялаб вояга етказишда тасвирий санъат хусусан, қаламтасвир, рангтасвир, композиция фанларининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида умумий ўрта таълим мактабларида олиб борилаётган махсус фанларнинг чуқур ва асосли бўлишини тақозо этиб, ёш педагог ва олимлар зиммасига юксак вазифаларни белгилайди. Шу мақсадда республикамиз ҳукуматининг қатор ҳужжатлари Ватанимизнинг ҳар томонлама жаҳон андозалари асосида ривожланишига қаратилган. Жумладан, ёшларга таълим-тарбия беришда маданиятимиз, кадриятларимиз, ота-боболаримиз томонидан яратилган ва бутун жаҳонга машҳур бўлган ажойиб миллий санъат намуналаридан кенг фойдаланишга катта аҳамият берилмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тасвирий санъат фани умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган барча махсус фанларнинг асоси ҳисобланади ва улар орасидаги бевосита боғлиқликни таъминлайди. Тасвирий санъат фанидан етарли билим ва малакаларни эгалламай туриб, ўқувчи ҳайкалтарошлик, халқ амалий санъати ва бошқа фанларни юқори даражада ўзлаштира олмайди. Ҳозирги вақтда умумий ўрта таълим мактабларининг тасвирий санъатдан тўғрақ машғулотларида мутахассислик фанлар, жумладан қаламтасвир, рангтасвир ва композиция

фанларини ўқитишнинг назарий ва методик асосларини ишлаб чиқиш ва илмий жиҳатдан асосланган янги йўли, шакли, мазмуни ҳамда методларини такомиллаштириш энг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Улар қуйидагилардан иборат:

1. Тасвирий санъат таълими давлат стандартлари асосида, ўқувчиларга тасвирий санъат машғулотларини ўқитишнинг ҳозирги ҳолатини аниқлаш ва унинг кейинги йилларда мўлжалланган истиқболли йўлларини ишлаб чиқиш.

2. Тасвирий санъат ўқитувчиси ихтисослиги бўйича олий ўқув юртларида мутахассис рассом-педагогларни тайёрлаш, муассасалар иш фаолиятини илмий услубий жиҳатдан таҳлил этиш.

3. Тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлашда маҳаллий манбалардан фойдаланишни кенг йўлга қўйиш орқали юқори малакали мутахассис бўлиб етишишларини таъминлаш ва юксак дидли, Ватанга садоқатли, миллий ҳамда жаҳон халқлари санъатини мукаммал биладиган, ўтмиш маданиятимизни севиб қадрлай оладиган кишилар бўлиб етишишларини таъминлашдир.

Ёш рассомлар дастлабки таълим босқичида одатда чизаётган нарсани юзаки ҳудди ўзидай кўчиришга ҳаракат қилади. Улар диққат билан олдинма кетин нарсаларга тикилиб қарашади сўнгра ҳар бир майда бўлакларни ва уларнинг рангини алоҳида-алоҳида бўяшади. Натижада тасвир майдаланган ва бир бутун кўринишда бўлмайди. Бундай камчиликлар қўйилманинг предметлар орасидаги катта ранг муносабатларини этюдда кўрсата олмасликдан келиб чиқади. Инсон калласини тасвирлашда ҳам масалан юзнинг майда бўлакларидан бошлаб бўлмайди, фақат ҳаракатдаги нисбатларда умумийлик ва яхлитликдан бошлаши, рангтасвирда эса ҳам турли натура объектлари (натюрморт манзара) ёки нарсаларнинг асосий умумлаштирилган доғлар орасидаги ранглар муносабатини аниқлашни ўрганиб олиши керак. Натура объектини яхлит кўриш ва катта асосий ранглар доғини аниқлай билиш – муҳим касбий маҳорат, у эса дастлабки рангтасвир таълимида шаклланган бўлиши керак. Фақат шундан сўнг узоқ муддатли (вақт бўйича) ишларга манзара объектлари ёки натюрмортдаги буюмларнинг ҳажмли шаклларини пухта ишлов беришга ўтиши мумкин.

Натюрмортнинг умумий тус ва ранг ҳолатини хонанинг ички шароитида аниқ кузатиш учун тузилган содда натура қўйилмалари билан бир нечта қисқа муддатли этюдлар бажарилса, аммо ёруғлик манбаи ҳар хил масофада жойлаштирилган бўлса, яъни дераза яқинида хона ўртасида ва деразадан узоқлашган ҳолатда (хонанинг ичкарасида). Дастлабки натюрморт қўйилмаси

деразага яқинроқ жойлаштирилади натижада у бошқаларга нисбатан кучлироқ ёритилган бўлади. Кейинги кўйилмаларни ёритилиши эса бироз сустроқ бўлади. Бу ўқув кўйилмалари орқали этюдлардаги соя-ёруғ, ранг ҳамда ёритилишни пасайтирилиши ёки кучайтирилишига боғлиқ ҳолда этюднинг умумий тус ва ранг ҳолатини қандай кўринишини намоёиш этилади.

Колоритга яъни ранг қаторининг бирлиги ва уйғунлигига ҳос қисқа фурсатли этюдлар бажариш муҳимдир. Бундай мақсадли кўйилмаларда қандайдир маълум бир ранг устун туриши керак. Масалан натюрмортни сунъий иссиқ ёруғлик билан ёритиш мумкин. Бундай этюдларда майда бўлақларни батафсил ишлаб чиқишга ҳожат йўқ. Муҳими, ранг гаммасини унинг бирлиги ва уйғунлигини тушуниб етказиш. Қисқа муддатли этюдлардаги кўйилмаларни иссиқ ва совуқ гаммаларда алмаштириб туриш лозим.

Ёш рассомнинг узлуксиз машқлари натижасида ранглардаги нозик ўзгаришларни фарқлашга, кузатувчанликни ривожланишига ранг-барангликни сезишга, ҳамда тасвирий воситаларни моҳирона эгаллашига замин яратади. Тажрибали рассомларнинг этюдларини кузатганда уларнинг ниҳоятда нафис ва жозибали тасвирланганига ҳавас билан қараймиз. Натуранинг рангдор колоритли ҳолатини моҳирона тасвирлаш маҳорати узлуксиз амалий ишлаш натижасида эришилади.

Шундай қилиб натуранинг асосий объектлари орасидаги умумий ва катта ранглар муносабатини маълум тус ва ранглар кўламида сақланганлиги рангтасвирнинг асосидир. Шулар асосида объектларнинг кейинги рангларда ишлашнинг ўта нозик жараёни амалга ошириладики, бу табиатни диққат билан кузатиш, уни жонли ҳис этиш натижасидир. Бунинг устига рангли тасвир натюрмортнинг алоҳида буюмлари ёки манзара объектларини нусхасини юзаки кўчириш орқали яратилмайди, у буюмларнинг ранг муносабатлари ва уларнинг фазовий кенглик билан бирга ўзаро боғлиқ ҳолда, яхлит образ асосида рассомнинг идрок этиши натижасида қурилади. Ҳар қандай натура кўйилмасини яхлит образ сифатида қабул қилиш лозим. Натюрмортнинг турли нарсалардан тузилганлигини масалан, қумғон, олма, пиёла; манзарада эса – алоҳида осмон ўрмон ва йироқдаги кўкимтир тоғларни, маълум вақтга ёддан чиқариш керак. Натурага бундай қараш орқали буюмларнинг шахсий рангини кўриш мумкин холос, лекин тасвирлаш лозим бўлган рангларни эмас. Натуранинг барча нарсалари ёки объектлари – бу рангли картинанинг бир қисми холос. Рангларнинг жарангдорлиги, унинг яхлитлиги тасвирлаш

мобайнида намоён бўлади, бу эса худди турли мусиқа асбобларида ижро этилаётган яхлит симфоник асар сингари жаранглайди. Тўғарак машғулотларида акварель бўёқлари билан натюрморт ишлаш ўқувчиларнинг энг сеvimли машғулотларидан биридир. Акварель бўёғида дастлабки машқларни бажариш учун қўйилмада учтадан бештагача нарсалардан иборат бўлиб, ранг ва тус муносабатлари бир-биридан фарқ қилган, шакли бўйича унча мураккаб бўлмаган буюмлар бўлиши керак. Содда қўйилмаларни астойдил ишлаб ижобий натижаларга эришмасдан туриб, мураккаб натура қўйилмаларини бажаришга ўтиш нотўғри. Акварель бўёғида машқларни мунтазам равишда бажариш ва уларни аста-секин мураккаблаштириб бориш мақсадга мувофиқ. Узоқ вақтга мўлжалланган ҳар қандай вазифа олдида дастлабки қисқа муддатли этюдларни бажариш муҳимдир. Шу тариқа бажарилган ранглавҳалар тасвирланаётган натурани катта ҳажмга эга бўлган матода ёки қоғоздаги композициясини тўғри топишга кўмаклашади ва ишлаш жараёнида натурадаги дастлабки таассуротларни аниқ етказишда ва унинг ранг муносабатларига хос хусусиятларни аниқ кўрсатишда намуна бўлади[1.-34].

Натюрмортни акварель бўёқлари билан рангда ишлаш жараёнини амалий намоёниш этиш учун бироз мураккаб бўлган мева, сабзавотлар ва майиш нарсалардан тузилган натура қўйилмасини оламиз. Қўйилмадаги сопол идиш текис ялтироқ юзага эга шунингдек, равшан ифодаланган (нур) шуъласи мавжуд. Ҳамма нарсалар стол устига жойлаштирилган орқада ёрқин кул рангдаги девор фони ва сидирға матолар. Меваларда аниқ белгиланган шахсий, тушувчи ва яримсоялар аниқ кўриниб туради. Сопол идишда илиқ ва совуқ рефлекслар мавжуд. Бундай тузилган натюрмортнинг қаламтасвири қийинчилик туғдирмайди, аммо рангларда тасвирлаш бироз мураккаброқдир, чунки меваларнинг аниқ рангини тасвирлаш учун ранг муносабатларига қатъий амал қилиш зарур. Бўёқни дастлабки қатламини қўйишдан бошлаб ранг муносабатларидаги мутаносибликни сақлаб бориш керак. Акварель бўёқлари қуригач бироз оқаради, шунинг учун ҳам уларни ранг жихатдан тўқроқ олиш мумкин. Акварель бўёқлари билан тасвирлаш жараёнида нарса ва буюмдаги ёруғ бўлиб турган қисмларини бўямасликка ҳаракат қилиш керак. Малака ортиб борган сари керак бўлган тусларни тезда ҳосил қилиш мумкин, қоғоз юзига қанчалик ортиқча бўёқ қатлами суртилса, нарсаларнинг ранги хира бўлади. Мадомики, рангларни бирданга олиниб керакли жойга суртилса, унинг ёнидаги тусларни ҳам топиш энгил кўчади.

Тасвирловчи ҳар бир нарсанинг ҳажмдор шаклини соя ёруғнинг ўзгариши билан боғлиқ бўлган, унинг ранг ўзгаришларини ҳам эътибор билан кузатиб бориши керак. Жигарранг идиш ярим сояда ва ёруғликда хилма-хил ранг турига эга. Фондан тушаётган рефлекслар жигарранг эмас, балки сиёхрангдир. Ундан ташқари мевалар соясида рефлекслар мавжуд, улар ўзаро оч-тўқлиги билан ва ранг турлари бўйича фарқланади. Эслатиб ўтмоқчимизки, ҳамма (нарсалар) буюмларни бир вақтни ўзида оч-тўқлиги, рангдорлиги ва тўйинганлигини таққослаган ҳолда ранг билан бўяш керак. Демак нарсаларни якка кузатмасдан, аксинча тўпламни яхлит кўришга ҳаракат қилиш лозим. Ёнма-ён турган иккита нарсанинг ранг фарқларини таққослаш қийин эмас. Рангтасвирда фақат яхлит идрок этиш натижасида нарсалар гуруҳининг ранг муносабатларини тўғри аниқлашга имкон беради.

Нарсаларнинг шуълаларини тасвирлаш мобайнида уларнинг жозибали рангларини унутиб фақатгина ёрқинлигига эришиш билан чегараланиш керак эмас. Ҳар бир нарсанинг оч-тўқлиги ва рангдорлиги фон билан атрофдаги нарсалар ранги ва оч-тўқлигига боғлиқ бўлса, унда нарса рангини атрофдагилари бўялмагунча тўғри ифодалаш мумкин эмас. Агарда битта нарсанинг ранги ўзгартирилса, бу билан бирга уларнинг ёнидаги бўлақларини ҳам ўзгартириш керак. Соялар тўқлаштирилса ёруғ янада ёрқинлашади. Аммо фонни қорайтирсак унда нарсалардаги ёруғ аниқ ажралиб, сояларнинг контрастлиги йўқолади. Нарсаларнинг олд ва орқа кўринишлар орасидаги кенгликни кўрсатишга ҳам эътибор қаратиш лозим. Натюрмортдаги нарсалар бир-биридан турли масофада жойлашади, яқиндаги нарсалар ёрқинроқ кўринадилар. Агарда узоқда турган нарсаларнинг рангларини енгилроқ ва хирароқ олинмаса, олдинги қаторга чиқиб кетади. Натюрмортни тасвирлаш вақтида ҳавоий перспективани таъсирини ҳар доим ҳам натурада енгил сезиш қийин, шунга қарамай буни ҳар доим ёдда тутиб қалам билан тасвирлашда битта нарсани яқинроқ жойлаштириб, бошқасини эса узоқлаштириб тасвирлаш керак. Агарда бўёқ мўйқалам ва сув билан яхшилаб эритилган бўлса, қоғоз юзасида ёрқин тасвир ҳосил бўлади. Мабодо акси бўлса у ҳолда қоғоз сатҳида мўйқалам излари қолади, иш эса сифатсиз чиқади[2.- 46].

ХУЛОСА

Акварелда тинмай вазифалар бажариш, турли усул ва услубларда астойдил ишлаш орқали кўникма ва малака ортиб боради. Ёрқин ёзиш техникаси нарсанинг материаллигини аниқ кўрсатишда ва чуқур соя жойларини шаффоф бўлишига имконият беради. Агарда иш жараёнида иккала услубдан

самарали фойдаланилса, барча соя жойларини ва рефлексларни фақат ёрқин услубда, ёруғлик ва ярим сояларни эса – куруқ усулда ишлаш яхши натижа беради. «Ёрқин» услубда ишлаш «куруқ» ишлашдан устун бўлиши керак.

Нарсаларнинг ёритилган жойлари аниқ ташқи кўринишга эга. Соя ва узок кўринишдаги тус ва ранг контрастлари сустроқ, шакллари эса яққол ташқи кўринишга эга эмас. Соя ва орқа кўринишдаги нарсаларнинг тасвири умумлаштирилган ҳолда бўлиши лозим. Айнан шу жойда намлигича ишлаш усулини қўллаш маъқул. Ишлашдан олдин қоғозни тоза сув билан юмшоқ латта ёки катта мўйқалам ёрдамида бир сидра хўлланади. Икки-уч дақиқадан сўнг қоғоз сувни шимиб олгач акварель бўёқ билан ишни бошлаш мумкин. Бўёқ суртмалари нам қоғоз юзида ёйилиб, бир-бири билан қўшилиб, майин ва нозик ўтишлар ҳосил қилади. Агарда бирор бир жойини ажратиш лозим бўлса, қоғозни қуритиб керакли бўёқ суртмаси берилади ёки куруқ мўйқаламда аниқ рангли чегарани талаб этилган жойлари тўқлаштирилади. Намлигича ишлаш усули тасвири ниҳоятда нозик ва жозибали кўрсатишга имкон туғдиради. Акварель бўёқлари билан ишлаш жараёнида соя-ёруғдаги нозик ўтишларни силлиқлаб бориш керак эмас. Куруқ қоғоздаги кучли намланган бўёқ доғи қуригандан сўнг жуда ҳам яққол контур пайдо қилади. Шунинг учун бундай доғларни чекка қирраларини қуримасдан юмшатиш лозим. Тасвирланаётган этюд муваффақиятсиз чиқса, туслари хира бўлса иш жараёнини тўхтатиб катта мўйқалам ёки паралон ёки момик пахта ёрдамида ишни ювиб ташлаш керак. Сўнгра ишни қайта акварель бўёғида ишлаш мақсадга мувофиқдир. Жуда намланган қоғоз одатда бўртади, эгилади, аммо қуриган пайтда яна тортилиб унинг юзида ишни давом эттириш мумкин. Акварель бўёқларида бажариладиган дастлабки ўқув машғулоти хара доим ҳам кўнгилдагидек бўлавермайди. Ранглар хира, кир ва сифатсиз бўлади. Бундай ҳолатда чўчиш керак эмас, чунки таниқли рассомлар ҳам дастлабки ўрганиш жараёнида барча қийинчиликларни бошларидан кечирганлар. Умуман ҳақиқий маҳорат тинмай ўқиш, ўрганиш ва изланиш жараёнида ҳамда астойдил амалий машқларни бажариш орқали юзага чиқади. Рангтасвирида энг муҳими шаклларнинг аниқлиги, оддийлиги ва мазмунни чуқурлигидир.

REFERENCES

1. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*.

2. Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra. (2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(01), 33–39. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-06>
3. Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). XVI–XVII Asrlar GArbiy Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janrning Rivojlanishi. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 191-197.
4. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
5. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo'nalishlari. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 137-148.
6. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
7. Saodat Makhkamova Bakhtiyarovna. (2021). QUESTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC GAFUR ABDURAKHMANOV ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART IN SCHOOL. *Euro-Asia Conferences*, 5(1), 13–18. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>
8. Махкамова Саодат Бахтияровна (2021). ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ШКОЛЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 44-53.
9. Tulanova, D. (2021). Imaginary line in landscape painting of Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 773-778.
10. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
11. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN

PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

12. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>

13. Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(2), 97-103.

14. Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>

15. Халилов, Р. Ш. Полотна, освященные любовью / Р. Ш. Халилов. — Текст: непосредственный // Культурология и искусствоведение : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2016 г.). — Казань : Бук, 2016. — С. 35-40. — URL: <https://moluch.ru/conf/artcult/archive/195/10508/>

16. KHALILOV, R. FORMATION OF SPATIAL INTELLIGENCE OF STUDENTS STUDYING IN THE DIRECTION OF ART EDUCATION THROUGH ANALYTICAL DRAWING.

17. Ruslan Khalilov. (2021). *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, Volume, 11, Issue Vol. 2, Pages 98

18. Талипов, Н. Х. (2022). ТАСВИРИЙ САНЪАТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ПЕРСПЕКТИВАНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 2(1), 27-36.

19. Halilov, R.. (2021). Роль карандашного рисунка в будущей профориентации учителей изобразительного искусства. *Общество и инновации*, 2(4/S), 585–590. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp585-590>

20. Халилов, Р. Ш., & Атажанова, Р. Р. (2018). Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. *Молодой ученый*, (7), 196-199.

21. Halilov, R. (2021). IMPORTANT FACTORS FOR TEACHING STUDENTS TO WORK ON LANDSCAPE COMPOSITION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.10>

22. Eraliyevich, S. X., Orinbayevna, A. S., & Shavkatovich, X. R. (2020). The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools. *Journal of Critical Reviews*, 7(15), 2519-2523.
23. Халилов, Р. Ш. Проблемы традиций и новаторства в изобразительном искусстве / Р. Ш. Халилов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 2 (106). — С. 1060-1062. — URL: <https://moluch.ru/archive/106/25310/>
24. Халилов, Р. Ш. Роль полевой практики в формировании будущих учителей изобразительного искусства / Р. Ш. Халилов, Бустаной Баркашева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 6 (110). — URL: <https://moluch.ru/archive/110/26687/>
25. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>
26. Рустам Джаббаров (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2 (5/S), 59-67. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67

TALABALARNING CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN DASTLABKI BILIMLARINI ANIQLASH USULLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-4-2-737-746>

Xalimov Moxir Karimovich

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasida dotsenti

Maxmudova Fotima Shamsiddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chizma geometriya fanidan talabalarning dastlabki olgan bilimni aniqlash metodikasi bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan.

***Kalit so'zlari:** bilim, ko'nikma, malaka, fazoviy tasavvur, qobiliyat, test, savodxonlik, tadqiqot.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены методические рекомендации по использованию тестов для определения знаний учащихся по начертательной геометрии.

***Ключевые слова:** знания, навыки, квалификация, пространственное воображение, способности, тест, грамотность, исследования.*

ABSTRACT

The article presents guidelines for using tests to determine students' knowledge of descriptive geometry in the system of lifelong education.

***Keywords:** knowledge, skills, qualifications, spatial imagination, test, ability, literacy, research.*

KIRISH

Ma'lumki, barcha fanlardan bo'lgani kabi chizma geometriya fanidan har bir semestr davomida joriy, oraliq hamda yakuniy nazorat ishlari o'tkaziladi. O'tkaziladigan nazoratlar esa turlicha bo'lib, ular yozma ish, grafik ish, savol-javob, qisqa testlar va boshqa shu kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Yozma va grafik ishlar asosan talabalarning o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasiga qarab bajarishlari mo'ljallangan. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda talaba testlarni bajarish jarayonida javoblarni tahminan, tavakkal va tasodifan belgilaydi. Bu holni bartaraf qilish uchun chizma geometriyaning dastlabki, ya'ni proyeksiyalash usullari, fazoni

chorak va oktantlarga bo'lish, nuqtaning proyeksiyalar tekisliklaridagi o'rnini va boshqa mavzulari asosida test-sinov ishlarini o'tkazib, so'ngra ularni bajarishni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, talaba proyeksiyalash usullari, fazoning chorak va oktantlarga bo'linishini, nuqtaning chorak va oktantlardagi proyeksiyalarini o'zlashtirmas ekan, chizma geometriya fanini o'zlashtirishi qiyin kechadi. Barcha buyum yoki mashina detallari sirtlardan, sirtlar esa to'g'ri yoki egri chiziqlardan iborat, bularning barchasi esa nuqtalardan tuzilgan. Shuning uchun talaba proyeksiyalash usullarida nuqtani proyeksiyalashni mukammal o'rganishi lozim. Shuning uchun talaba nuqtaning proyeksiyasi uning fazodagi o'rnini yetarli darajada aniqlay olmaydi, shuning uchun uning avval ikkita proyeksiyalar tekisligiga, so'ngra uchta proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalash maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, o'qitish jarayonida barcha fanlardan test savollari tuzish va ular yordamida maxsus tuzilgan masalalarni yechish hozirgi kunda keng foydalanilmoqda. Bu bir tarafdin o'quv rejasida auditoriya yuklamasining qisqarishi, ikkinchi tarafdin qisqa vaqt mobaynida talabalar bilimlarini tezkorlik bilan baholashga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Chizma geometriya kursida talabalarning olgan bilimlarini baholashning an'anaviy usuli ma'lum tartib bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarga ega. Birinchi kurs talabalari uchun ushbu fanni o'zlashtirishda "Chizma geometriya"ning umum-muhandislik sohasining ilk bosqichi ekanligi ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilar vaqtni tejash maqsadida axborot texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilmoqdalar. Talabalar javoblarni alohida joylashgan yozuv qog'ozidaga jadvalga kiritadilar. Test savollari tuzilishiga ko'ra ko'p marotaba ishlatilishi mumkin.

Birinchi test savollari. Birinchi test proyeksiyalash xossalari ga tegishli bo'lib, talabalar bilimi quyidagi savollar yordamida baholanadi:

- 1.1. Markaziy proyeksiyalashning qanday xossalari mavjud?
- 1.2. Quyida keltirilgan qanday xossalar parallel proyeksiyalashga ta'luqli?
- 1.3. Quyidagi berilgan qaysi xossalar markaziy proyeksiyalarga tegishli?
- 1.4. Quyida berilgan qaysi xossalar to'g'ri burchakli (ortogonal) va markaziy proyeksiyalashni farqini ko'rsatib beradi?
- 1.5. Quyida berilgan qaysi xossalar to'g'ri burchakli (ortogonal) yoki parallel proyeksiyalashga tegishli?

Talabalar yuqorida berilgan savollarga quyidagi javoblar variantidan foydalaniladi:

- a) Tekislikda yotuvchi tekis figura proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmasa, uning to'g'ri burchakli proyeksiyasi o'zining haqiqiy kattaligidan kichik bo'ladi.
- b) Nuqtaning proyeksiyasi nuqta bo'ladi.
- c) To'g'ri chiziqlarning kamida ikki proyeksiyasi mos ravishda o'zaro parallel bo'lsa, ular fazoda ham o'zaro parallel bo'ladi.
- d) To'g'ri chiziqning proyeksiyasi qachon nuqta ko'rinishida bo'ladi.
- e) Berilgan tekis figura proyeksiyalar tekisligidan biriga parallel joylashgan bo'lsa, u shu tekislikda haqiqiy kattalikda proyeksiyalanadi.
- f) Nuqtaning proyeksiyasi uning fazodagi holatini aniqlay olmaydi.
- g) Proyeksiyalash markazidan o'tmaydigan barcha to'g'ri chiziqlarning markaziy proyeksiyalari ham to'g'ri chiziq bo'ladi.
- h) Parallel proyeksiyalashda proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lgan kesmaning proyeksiyasi berilgan kesmaning haqiqiy uzunligiga teng bo'ladi.
- i) Parallel proyeksiyalashda to'g'ri chiziq kesmasining proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmasa, u kesmaning proyeksiyasi o'zidan kichik bo'lib proyeksiyalanadi.
- j) Parallel proyeksiyalashda to'g'ri chiziq kesmasi proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, u kesmaning proyeksiyasi o'ziga teng bo'ladi.

Ikkinchi test savollari. Ikkinchi test savollari chizma geometriyaga oid atamalar haqidagi savollarni o'z ichiga oladi. Uning bir qismi proyeksiyalash xossalari ham ta'luqli bo'ladi. Quyida keltirilgan matn orasida tushirib qoldirilgan so'zlar yoki jummalarni topib o'z o'rniga qo'yish talab qilinadi.

- 2.1. (55; 25; -10) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.2. (20; 5; 65) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.3. (10; -45; 30) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.4. (55; 0; 0) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.5. (0; 0; 10) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.6. (0; 12; 0) koordinatali nuqta ... joylashadi.
- 2.7. (25; 50; 0) koordinatali nuqta ... joylashadi.

Uchinchi va to'rtinchi test savollari. Quyida uchinchi va to'rtinchi testlarda nuqtaning birinchi va turli oktantlarda joylashgan vaziyatlariga oid savollari berilgan (1-2 chizmalar).

Birinchi oktant misolida (3-test)

- 4.1. Gorizontalar proyeksiyalar tekisligida yotgan nuqtani ko'rsating.
- 4.2. Oz o'qida yotgan nuqtani ko'rsating.
- 4.3. Frontal proyeksiyalar tekisligida yotgan nuqtani ko'rsating.
- 4.4. Oy o'qida yotgan nuqtani ko'rsating.
- 4.5. Ikkinchi oktantda joylashgan nuqtani ko'rsating.
- 4.6. Ox o'qida yotgan nuqtani ko'rsating.
- 4.7. Umumiy vaziyatdagi nuqtani ko'rsating.
- 4.8. Birinchi oktantda joylashgan nuqtani ko'rsating.
- 4.9. To'rtinchi oktantda joylashgan nuqtani ko'rsating.
- 4.10. Uchinchi oktantda joylashgan nuqtani ko'rsating.
- 4.11. Profil proyeksiyalar tekisligida yotgan nuqtani ko'rsating.

Grafik masala qismining bitta varianti rasmda ko'rsatilgan. Bunday grafik masalalarning turli hil variantlarini ishlab chiqish mumkin.

Yuqorida berilgan test savollari yordamida quyida har biri tarkibida 5 tadan savol bo'lgan 10 ta variant (1-jadval) o'zining grafik masalalari bilan tuzilishi keltirilgan.

1-jadval

Talaba oladigan variantlari	<i>savo l</i>	<i>javo b</i>	<i>savo l</i>	<i>javo b</i>	<i>savo l</i>	<i>javo b</i>	<i>savo l</i>	<i>javo b</i>	<i>savo l</i>	<i>javo b</i>	To'g'ri javob
1- variant	2.1		1.3		3.1		4.2		4.5		
2- variant	4.1		2.2		3.5		1.5		4.6		
3- variant	2.3		1.1		4.9		4.7		3.2		
4- variant	1.4		4.2		3.8		3.3		2.5		
5- variant	3.1		2.4		1.2		4.9		3.6		
6- variant	1.4		2.6		3.2		4.3		3.7		
7- variant	3.5		4.2		1.2		4.11		2.8		
8- variant	2.7		1.1		4.6		3.4		2.6		
9- variant	3.1		4.10		1.3		4.8		2.3		
10- variant	1.5		2.9		3.6		1.2		4.5		

Mazkur test savollariga talabani bergan javobini baholash 5 balli tizim asosida har bir to'g'ri javobga 1 ball bilan baholanadi.

Yuqoridagi taklif qilingan testlarning nafaqat 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalari, balki chizma geometriya fani

o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalarining 1-kurs talabalarida tadbiq'i ularning chizma geometriya fanidan dastlabki olgan bilimlarini tekshirishda, ya'ni fan haqida dastlabki tushunchasini shakllantirishi ijobiy natijalar beradi. Sababi, keltirilgan test namunalari yordamida talabaning fandan olgan dastlabki tushuncha hamda bilimlarini ob'ektiv tarzda baholanishini ta'minlaydi.

XULOSA

Hozirgacha foydalanib kelinayotgan testlarning kamchiligi shundan iboratki, talabalar test javoblarini belgilashda tahminiy, tavakkal, yuzaki belgilashlari asosida ham ijobiy ball olishlari mumkin. Yuqorida taklif qilingan testlarning qo'llanilishi, birinchidan, talabalarga semestr boshida o'zlarining bilimlarini xolisona tekshirib olishga, fanga nisbatan qiziqishlari ortishiga, fanga ko'proq e'tibor berishlariga undasa, ikkinchidan, test javoblarini belgilash ulardan chuqur fazoviy tasavvur va bilimni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan testlarning tuzilish usuli esa test oluvchiga biroz yengillik tug'diradi. Chunki berilayotgan variantdagi test savollari beshtadan iborat bo'lishi talabalarining bilimlarini oson baholash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z-o'zidan ta'lim sifatini va samaradorligini oshishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Халимов Мохир Каримович. Роль самостоятельной работы в профессиональной подготовке будущих педагогов. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No. 4 (108) / 2016 part II, -pp. 845-856 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=25620795>
2. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
3. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
4. Xalimov, M. K., & Asanova, A. S. (2022, January). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING DASTLABKI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

5. Xalimov, M. K., & Ergasheva, D. C. (2022, January). CHIZMACHILIK FANIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANIB O 'QITISH TAJRIBASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
6. Xalimov, M. K., & Ergasheva, D. C. (2022, January). CHIZMACHILIK FANIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANIB O 'QITISH TAJRIBASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
7. Xalimov, M. K., Mirzaliyev, Z. E., & Mashrabbayev, X. N. (2022, January). CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (MAKTAB CHIZMACHILIGI MISOLIDA). In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
8. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-02-19>
9. Рустам Джаббаров (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2 (5/S), 59-67. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67
10. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
11. Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
12. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo 'nalishlari. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 137-148.
13. Xalimov M., & Farxodova, Z. (2021). DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY MAKING PROBLEM SOLUTION SITUATION IN DRAWING SUBJECT. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.62>

14. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILİYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 2(3), 27-32.
15. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
16. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
17. Kholmatova Feruza Muhammad Umar Kizi. (2022). METHODOLOGY OF TEACHING STUDENTS TO ARTISTIC PERCEPTION OF PAINTING WORKS IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 125–135. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-21>
18. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
19. Khalimov M., Soliddinova S. The knowledge gained by students in engineering graphics and its transformation to experience and skill. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, Year: 2021, Volume: 10, Issue: 1, First page: (260) Lastpage: (264) Online ISSN: 2278-4853.
Article DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00040.9>
20. Mirzaliev Zafar Eralievich, Khalimov Mohir Karimovich, Malikov Kozim Gofurovich, Abdukhonov Botir Husniddinovich. Method of using a new mechanism for the construction of axonometric projections. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>
21. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 54-61.
Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116>

22. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.
23. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>
24. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 3(01), 101-107.
25. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.
26. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.
27. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195
28. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
29. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>

-
XVI asrgacha va undan keyingi davrlarda nafaqat Buxoro xonligi, balki, Markaziy Osiyoda yuz bergan migratsion jarayonlar natijasida xonlik aholisi tarkibiga turfa xil madaniyat va urf-odatga ega turli etnik guruhlarining kelib qo'shilishi uzluksiz davom etgan. Bu o'z o'rnida xonlik aholisi tarkibida ayrim o'zgarishlarni sodir bo'lishiga olib kelgan. Bu holatni yuzaga keltirgan o'ziga xos omillar mavjud bo'lib, hududda sodir bo'lgan tabiiy hodisalar, mamlakatda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shular jumlasidandir. Dastlab migratsion jarayonlar aks etgan ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularni mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga, xonlik hududiga chetdan kelgan aholi hisobiga sodir bo'lgan migratsiyani yorituvchi ma'lumotlar kirib, ularda boshqa davlat hududi aholisining turli sabablar tufayli Buxoro xonligiga kelib o'nashish jarayoni aks etgan. Bu holat aholi tarkibini son jihatdan oshishiga va ma'lum darajada etnik tarkibini boyishiga

olib kelgan. Ikkinchi guruh ma'lumotlari esa xonlik hududida kechgan ichki migratsion jarayonlar haqida tassavvur hosil qilish imkoniyatini beradi. Ularda xonlik hududida Yashayotgan biror bir urug' yoki qabilaning mamlakat ichki hayotida sodir bo'lgan turli ko'rinishdagi hodisalar oqibatida xonlikning boshqa bir eriga borib joylashishi bayon qilingan. Bu jarayon, garchi xonlik aholisi demografiyasini son yoki tarkibiy jihatdan o'zgartirmagan bo'lsa-da, turli turmush tarzga ega xalqlar madaniyatining mamlakat hududi bo'ylab o'zaro integratsiyalashuviga sabab bo'lgan.

Avval ta'kidlanganidek, turli aholi qatlami va etnik guruhlarning xonlik hududiga kirib kelishi uzluksiz davom etgan jarayon hisoblanadi. Shu sababli ham bu borada manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xorazm hududlariga Dashti Qipchokdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar to'g'risida tadqiqot doirasiga tortilgan asarlarning aksariyatida so'z yuritilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asarlardagi ushbu ma'lumotlar bugungacha bir qator olimlarning ishlarida tahlil qilinish bilan birga ular turli munozaralarga ham sabab bo'lgan. Xususan, o'sha davrda dasht hududidan Movarounnahrda kirib kelgan aholi miqdori va etnik tarkibi xususida turli fikrlar mavjud. Jumladan, T.I. Sultonov o'rta asr muarrixlari Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirza Muhammad Haydar va Fazlulloh ibn Ruzbehon bergan ma'lumotlarga asoslanib, XV asr oxiri XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq hududidan Movarounnahrda 1 mln. 240 - 1 mln. 360 mingga Yaqin aholi ko'chgan, deya ta'kidlaydi²⁷⁵. K. Shoniyozov uning soni aniq emas, lekin mahalliy aholidan kam bo'lgan, deb yozadi²⁷⁶. A. Asqarov esa K. Shoniyozovning fikrini tasdiqlagan holda, garchi ular katta miqdorda ko'chib kelgan bo'lsada, ammo mahalliy aholining etnik asosini o'zgartirib yubora olmaganligini qayd etgan²⁷⁷. Boshqa bir o'rinda olim Movarounnahr va Xorazmga kelgan Dashti Qipchoq o'zbeklari sonini matematik hisobda hisoblab, ular kamida 500-600 ming bo'lgan, degan fikrni ham ilgari surgan²⁷⁸.

Shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqotlarda Dashti Qipchokdan kirib kelgan ko'chmanchilarning etnik tarkibi borasida ham ayrim qarashlar mavjud. Masalan, T.I. Sultonovning "Shayboniynoma" asari muallifi Muhammad Solih keltirgan ma'lumotiga tayanib bildirgan fikriga ko'ra, Shayboniyxon qo'shini tarkibida 19 ta

²⁷⁵ Султонов. Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV-XVII вв. - Москва: Наука, 1982. 11, 21-стр.

²⁷⁶ Shoniyozov K. O'zbek xalqining Shakllanish jarayoni. 390-bet.

²⁷⁷ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi (o'quv qo'llanma). 68-bet.

²⁷⁸ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi (o'quv qo'llanma). 271-bet.

urug'-qabila vakillari bo'lib, u bilan birga Movarounnahrda 13 ta urug'-qabila aholisi kirib kelgan²⁷⁹. Manbalardagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi aholi Movarounnahr hududiga o'rinish olgach, o'z hududlarini kengaytirish maqsadida qo'shni davlatlarga harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Buning oqibatida ham Buxoro xonligiga boshqa davlatlar aholisining kelib o'rinish holatlari yuz bergan. Jumladan, "Shajarai turk" asari muallifi XVI asr boshlarida Shayboniyxonning Xorazmga qilgan yurishi vaqtida Qiyot va Bo'ldimsoz aholisini Movarounnahrda ko'chirib keltirganligi haqida yozgan²⁸⁰.

Asarlarda yana ikki davlat hukmdorlari o'rtasida tuzilgan harbiy ittifoqchilik aloqalari ham ana shunday jarayonlarga sabab bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Xususan, Badriddin Kashmiriyning asarida ana shunday ma'lumotni uchratish mumkin. Uning yozishicha, Abdullaxon II bilan harbiy ittifoqchilik tuzgan Qozoq xoni Shig'oyxon o'g'li Tavakkal, o'z xizmatida bo'lgan o'n bir qozoq sultoni hamda qirg'iz amirlari bilan birga Buxoro hukmdori huzuriga tashrif buyurib, uning harbiy harakatlarida ishtirok etgan. Kashmiriyning guvohlik berishicha, Abdullaxon II unga Xo'jand viloyatini xiroj sifatida bergan va 1583 yilda qozoq xoni Movarounnahr hududida vafot etgan²⁸¹.

Buxoro xonligida kechgan migratsiyaning ikkinchi guruhi Ya'ni, ichki migratsion jarayonlar to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. Jumladan, "Abdullanoma" asarida XVI asrning ikkinchi Yarmida Abdullaxon II ning dastlab taxt uchun, keyinchalik, markazlashgan davlat tuzish uchun olib borgan kurashi oqibatida ana shunday jarayonlar sodir bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar uchraydi. Masalan, asar muallifining yozishicha, 1550 yilda Shayboniy sultonlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar oqibatida Abdullaxon II Miyonkol atrofidagi aholini qal'a ichiga ko'chirtirgan²⁸². Bundan tashqari asarda Abdullaxon II Hirotga yurish qilib, unga qarshi turgan Buryobod qal'asi ahlini uning qarshisidagi qo'rg'onga butunlay ko'chirganligi haqida ham so'z yuritilgan²⁸³. Demak, shahar aholisi sonining o'zgarishi nafaqat shahardagi tabiiy tug'ilish, u erdagi turmush Sharoitining Yaxshiligi va qulayligi bilangina bog'liq bo'lmay, balki unga hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan majburiy ko'chirish siyosati ham sabab bo'lgan. Bunday jarayonlar keyinchalik ham davom etganligini asardagi Bobo sultonning 1569 yilda Buxoroga

²⁷⁹ Султонов. Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV-XVII вв. 18-стр.

²⁸⁰ Abulg'oziy. Shajarai turk. - Toshkent., 1992. 134-стр.

²⁸¹ Badriddin KaShmiriy. Ravzat ar-rizon va hadiqat al-g'ilmon. V. 233 -bet.

²⁸² HofizTanish.Abdullanoma. 1-kitob. 95-6et.

²⁸³ HofizTanish.A6dullanoma. 1-kito6. 189-6et.

qilgan navbatdagi hujumi natijasida Miyonkol aholisining yarmini Dobusiy qal'asiga, Yarmi Karmina viloyatiga olib o'tilganligi²⁸⁴ yoki turkiston va toshkentliklarning Abdullaxon II ga qarshi bosh ko'tarishi oqibatida ularning boshqa hududlarga ko'chirilganligi borasidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi²⁸⁵.

Ashtarxoniylar davri tarixiga oid asarlarda ham xonlikda kechgan ichki migratsion jarayonlar aks etgan ma'lumotlar mavjud. Xususan, "Tarixi Muqimxoniy" asarida ashtarxoniy Boqimuhammadxon kasal bo'lganligini eshitgan qozoq, qoraqalpoq kabi qabilalar mamlakatni talon-taroj qilganligi va buning natijasida Toshkent, Sirdaryo bo'yi tumanlarining aholisi o'z joylarini tashlab turli tomonlarga qochib ketganligi haqida ma'lumot berilgan²⁸⁶.

Hukmdorlar o'rtasidagi urushlar va harbiy yurishlardan tashqari bu davrlarda mamlakatlarda yuz bergan turli ofatlar xususan, turli yuqumli kasalliklar ham xonlikdagi aholi sonini kamayishiga olib kelgan. Masalan, Badriddin Kashmiriy o'z asarida Buxoroda XVI asr ikkinchi yarmida vabo tarqalib, unda 70000 kishi halok bo'lganligi haqida yozgan²⁸⁷.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro xonligidagi bunday demografik o'zgarishlar yurtimizdagi o'sha paytdagi boshqa xonliklarga ham taluqli jarayon hisoblanadi. Ya'ni bu paytda aholining ko'payishi, kamayishi, aholi tarkibining o'zgarishi tashqi va ishchki omillarga bog'liq bo'lib, bunda tashqi omilda: bir hududning ikkinchi hududga bosqini oqibatida aholining tarkibining o'zgarishi; bir hududdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi u yerdagi aholining boshqa davlat hududiga ko'chishi; ikki davlat hukmdorlari o'rtasida harbiy ittifoq (Abdullaxon II va qozoq xoni Tavkkal o'rtasidagi shartnoma) qibatida migratsion jarayonlar kuzatilishi mumkin. Ichki omillar esa: mamlakatdagi ichki nizolar natijasida aholining mamlakat ichida boshqa hududga ko'chishi; qo'zg'olon ko'targan aholining majburan boshqa hududga ko'chirilishi (turkiston va toshkentliklarning Abdullaxon II ga qarshi bosh ko'tarishi) kabilardir. Yana shuningdek turli iqtisodiy omillar va turli yuqumli kasalliklar oqibatida ham bu davrda aholining soni, etnik tarkibi o'zgarib turgan.

²⁸⁴ Hofiz Tanish. A6dullanoma. I-kito6. 221-6et.

²⁸⁵ Badriddin KaShmiriy. Ravzat ar-rizvon va hadiqat al-g'ilmon. V.223 a.

²⁸⁶ Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели проф. А.Л. Семенова. - Ташкент, 1956.,163-стр.

²⁸⁷ Badriddin KaShmiriy. Ravzat ar-rizvon va hadiqat al-g'ilmon ... V. 185-bet.

REFERENCES

1. Султонов. Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV-XVII вв. - Москва: Наука, 1982. 11, 21-стр.
2. Shoniyoov K. O'zbek xalqining Shakllanish jarayoni. 390-bet.
3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi (o'quv qo'llanma). 68-bet.
4. Abulg'oziy. Shajarai turk. - Toshkent., 1992. 134-стр.
5. Badriddin KaShmiriy. Ravzat ar-rizon va hadiqat al-g'ilmon. V. 233 -bet.
6. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. 95-bet.
7. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели проф. А.Л. Семенова. - Ташкент, 1956., 163-стр.

ТРАДИЦИОННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА

Азиз Валижон Шахзода Шодиёр кизи

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Магистрант 1-курса

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются реформы в системе традиционного образования в Туркестане в середине XIX века.

Традиционная система образования в регионе включала две ступени. Первая — школа, или школа начального религиозного обучения, которая обычно открывалась при мечети. Платили учителю и содержали помещение мактаба жители селения или городского квартала.

Ключевые слова: *школа, «Хафтияка», «ЧорКитāб», медресе, начальное образование.*

ABSTRACT

This article analyzes the reforms in the system of traditional education in Turkestan in the middle of the 19th century.

The traditional system of education in the region included two stages. The first is the school, or school of elementary religious instruction, which usually opened at the mosque. The teacher was paid and the premises of the maktab were kept by the residents of a village or a city block.

Keywords: *school, "Haftiyaka", "ChorKitab", madrasah, primary education.*

ВВЕДЕНИЕ

Среди кочевников мактабы функционировали весной и в начале лета. Число учеников редко превышало два-три десятка человек, учились в классах только мальчики. Они изучали арабский алфавит, после чего переходили к механическому чтению и выучиванию наизусть «Хафтияка», небольшой книги, содержащей выдержки из Корана с основными молитвами, необходимыми при выполнении обрядов. Основы мусульманского вероучения преподавались по книге «ЧорКитāб» и некоторым другим произведениям, написанным на персидском и тюркском языках. Преподавание в мактабах было индивидуальным и длилось несколько лет.

Для девочек существовали отдельные школы, в которых проходили примерно ту же программу, что и в мактабах. Женские школы чаще были в

городах и поступали в них дочери богатых купцов и исламской духовной элиты.²⁸⁸

Вторая ступень образования — медресе, или средние и высшие школы, которые находились, как правило, лишь в городах и крупных селениях. Содержание зданий таких медресе и оплата преподавателям (мударрис) осуществлялись из доходов пожертвованного имущества — вакуфов.

Наблюдение за хозяйством вели специальные люди — мутавали. В учебную программу медресе входило изучение арабской грамматики, богословско-юридической литературы, а также книг по метафизике, космографии, астрологии, географии, истории, медицине и математике. Весь курс обучения в медресе длился не менее 10 лет. По окончании ученики могли становиться имамами в мечетях и учителями в начальных школах. Те, кто хотел получить более полное богословское образование, отправлялись в Турцию, Египет или Индию.

Хотя система мусульманского образования охватывала большую часть населения, и каждый ребенок получал определенные навыки и знания, в целом массовый уровень грамотности в Центральной Азии оставался очень низким, ограничиваясь простыми умениями и информацией об основных молитвах и положениях ислама.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

После завоевания края Российской империей власть обратила особое внимание на реформу образования в Туркестанском крае и попыталась создать для местного населения возможность получения более современных знаний. При этом российская власть преследовала две взаимосвязанные задачи. Первая — просвещение местных жителей, распространение новых знаний, современных наук, приобщение их к достижениям технологии и т.д. Вторая цель — воспитание в местных жителях лояльных российских граждан, знакомство их с российскими законами, культурой, с русским языком. Российские политики считали, что обе эти задачи в итоге помогут сблизить покоренные народы с империей, а, может быть, даже в будущем привести к их обрусению. Известный туркестанский деятель В.П. Наливкин вспоминал, что генерал-губернатор Н.О. Розенбах в середине 1880-х гг. создал секретную комиссию, чтобы выяснить, какой должна быть российская политика в сфере

²⁸⁸Бендриков К. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы). Москва, 1960. С. 50-51

образования. Комиссия пришла к выводу, что пока туземцы остаются мусульманами «успешная русификация» их невозможна, причем «не может быть даже и разговоров об обращении их в христианство», но тем не менее распространение знаний русского языка и общеобразовательных предметов желательно, так как оно послужит «постепенному интеллектуальному сближению с нами туземцев и к устранению предубеждений против нас». Но, как признавался Наливкин, «за спиной этих слов» все-таки стояли «надежды» некоторой части русского общества «...на возможность русификации инородцев путем распространения среди них знаний русского языка...»²⁸⁹

Помимо создания сети светских учебных заведений и некоторых заведений на православно-миссионерской основе (где большинство учеников были русскими и русскоязычными), российская власть попыталась внедрить некоторые реформы в систему образования местного населения, модернизировать ее, не отказываясь радикально от прежней мусульманской традиции. Правда, генерал-губернатор К.П. фон Кауфман в этой сфере действовал очень осторожно и, поддерживая разнообразные проекты реформ, старался не спешить, опираясь почти исключительно на инициативу представителей местной элиты. Сменивший Кауфмана М.Г. Черняев был более решителен и по предложению специальной комиссии, собранной из лояльных России мусульман, рассматривал вопрос о создании медресе, где бы преподавались русский язык, математика, география, история, естествознание и другие предметы.

В большинстве случаев мактаб открывался при мечети ее прихожанами; на должность учителя приглашался приходом имам (настоятель мечети) или же азанчи (призыватель к молитве), а в случае их отказа прихожане приглашали лицо со стороны. В городах, где проживало больше грамотных людей, мактаб иногда открывал учитель-профессионал (махтаб-дор) как частное лицо на свой страх. Иногда мактаб находился при медресе или при карихане. Наконец, очень богатый и знатный человек мог устроить домашний мактаб для детей своей семьи, родных и соседей, пригласив учителем опытного мактабдора.

Среди кочевников-животноводов мактабы возникали главным образом весной и в начале лета; здесь учительствовали преимущественно учащиеся из медресе, приехавшие на каникулярные заработки. Число учащихся в городском

²⁸⁹Бендриков К. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы). Москва, 1960. С. 48-50

мактабе иногда превышало» 20—30 человек, но в сельском чаще бывало 10—15 человек и даже меньше. Родители обычно отдавали сына в мактаб пораньше, в возрасте 6 лет и менее, чтобы он скорее отбыл школьную повинность. Отдельные ученики учились лет до 14, но подавляющее большинство, особенно в кишлаках, отсеивалось раньше. Встречались в некоторых мактабах и парни 17—18 лет.

Дети духовенства и богатых родителей — училось дальше, оставаясь в мактабе еще несколько лет. Определенного курса обучения в мактабе не было, из класса в класс не переводили, так как там была не классная система, а индивидуальные занятия: ученик поступал в любое время года; переход от одной книги к другой говорил о его успехах. Из-за большого отсева в мактабе образовались как бы две ступени обучения: младшая, массовая по числу учащихся, курс которой ограничивался изучением Корана и других книг, популяризирующих основы ислама, и другая ступень — старшая по возрасту учащихся и малолюдная. (Формально эти ступени не разделялись; в мактабах было принято отмечать торжеством только окончание подростком «полного курса».)

Основным содержанием старшей ступени мактаба было чтение стихотворных сборников — на персидско-таджикском языке из произведений Хафиза, Бедия и других поэтов и на тюркских языках — Алишера Навои, Фузули, Суфи-Аллаяра (второй сборник; первый его сборник читался младшими учениками) и других. В этих сборниках, кроме религиозных, встречались и светские темы. Но язык и содержание почти всех произведений были недоступны или малопонятны детям, поэтому эти сборники в значительной мере зазубривались толее механически, как и в младшей ступени. Однако старшие ученики мактаба постепенно овладевали механизмом чтения

Как правило, массовый мактаб не учил письму. Лишь лучшие, преимущественно городские, учителя через 2—3 года после того, как учащиеся научились механически читать, обучали желающих подростков письму и каллиграфии; учащиеся обучались выводить буквы, а потом занимались переписыванием небольших текстов. Окончивший в мактабе курс письма обычно с трудом мог написать фразу под диктовку, делая при этом массу грамматических ошибок. Учителя некоторых мактабов преподавали желающим из старших учеников элементарные сведения об арифметических действиях.

В немногих мактабах старшие ученики, готовившиеся для поступления в медресе, изучали грамматику арабского языка.

Таким образом, программа занятий каждого старшего ученика мактаба зависела от договоренности учителя с родителями, от их общественного положения и средств, которые они платили учителю. Выбор старшему ученику той или иной книги для чтения (поэтического сборника) определялся желанием родителей или часто наличием данной книги (это было очень существенно, пока в конце XIX в. на смену рукописным учебникам не появились литографированные).

Разумеется, осуществление любой программы занятий зависело от квалификации учителя, от его вкусов; учитель в каждом мактабе был один.

Результаты обучения находились в соответствии с такой системой обучения. Окончившие мактаб обычно могли только механически читать те книги, по которым учились; некоторые умели списывать с оригинала. Так как знания, приобретенные в мактабах, не имели никакого практического значения для трудящихся, то большинство детей, оставив школу, быстро забывало премудрость, вдолбленную в их головы домуллой (учителем). Только дети купцов, учившиеся у городских мактабдоров, применяли в торговом деле приобретенные в мактабе скромные познания в счете и письме, а дети духовенства, поступавшие в медресе, использовали там механически заученные в мактабе фразы с арабской лексикой.

Основной задачей старых мусульманских мактабов Средней Азии было не образование ребенка, не развитие его способностей, а религиозное воспитание в духе догматов ислама, приучение к правилам благопристойного поведения в домашнем и общественном быту, к повиновению старшим и начальствующим. В этой школе не было общеобразовательных предметов; отсутствовала классно-урочная система; родного языка дети не изучали; содержание учебных книг было непонятно или мало доступно детям: первые учебники были на арабском языке, непонятном для среднеазиатского ребенка, малопонятен был и язык большей части других книг.

Но понимания и не требовалось; было важно вы зубрить известное количество текстов из Корана; механическое чтение «священной» книги само по себе считалось «богоугодным» делом, считалось, что прочтение ребенком Корана может обеспечить его родителям прощение грехов, надо только, чтобы ребенок точно воспроизводил слова «священной» книги.

Многие подростки, оставив мактаб, вскоре не могли читать даже те книги, по которым учились, и теряли ту своеобразную «грамотность», которую приобретали с мучительным напряжением сил, в течение ряда лет.

Этим объясняется то странное обстоятельство, что, хотя в ханствах Средней Азии существовала принудительность начального религиозного обучения мальчиков, хотя число мактабов было громадно, количество грамотных среди массы коренного населения было ничтожно

У туркмен сложилась поговорка: «Учиться — это значит копать колодец иглой». Эта поговорка ярко передавала впечатление от никчемных результатов обучения в религиозных мактабах.

Девочек не принято было учить письму («чтобы не завели любовной переписки»), поэтому в старину к школе атун-биби не применялся арабский термин «мактаб», который в древности, при зарождении мактаба, ассоциировался с обучением письму.

В сельских местностях женские школы были величайшей редкостью: не на каждую сотню мактабов приходилась одна- две женские школы. Но в некоторых крупных городах количество женских школ достигало примерно одной четверти числа мактабов. Однако женская школа имела учащихся в среднем гораздо меньше, чем мактаб.

Необходимо еще учесть, что среди учащихся многих женских школ некоторую часть составляли маленькие мальчики (часто братья учениц). Многие родители считали, что маленькому мальчику лучше начать учебу у учительницы. Атун- биби обычно выгодно отличалась от многих учителей мактаба тем, что учительство стало ее профессией, тогда как в мактабепри мечети чаще всего занимался по совместительству имам мечети или же призыватель на молитву.

Если в мактабах, устраивавшихся для мальчиков, на первом этапе обучения массу учеников составляли дети трудящихся, то среди учениц атун-биби преобладали дочери духовенства, купцов. Плату за обучение каждого учащегося атун- биби получала обычно несколько выше, чем в окружающих мактабах; это тоже говорит, что большинство учениц женских школ по сравнению с массой учеников мужских мактабов принадлежало к более зажиточному слою.

Девушка, научившаяся читать религиозные тексты, становилась подходящей невестой для лиц духовных, так как имаму мечети в работе среди женской части прихода помогала обычно жена. В связи с этим для девочек из духовного сословия обучение у атун-биби считалось необходимым, потому что было не принято выдавать замуж дочь духовного лица вне своего сословия. В кишлаках женских школах, как правило, не было, поэтому маленькие дочери

сельских имамов кое-где обучались в мактабе вместе с мальчиками. У богатых купцов обучение дочерей считалось «хорошим тоном»²⁹⁰.

Среди атун-биби преобладали жены имамов и мактабдоров; часто муж обучал мальчиков в мактабе, а жена держала девичью школу.

Курс обучения у атун-биби был в основном тот же, что и в мужских мактабах, но в женских школах несколько меньше занимались арабскими текстами (Кораном), а больше — религиозными поэтами, таджикско-персидскими и тюркоязычными.

Учебные занятия в мактабе продолжались круглый год с двумя промежутками в дни двух мусульманских праздников (неделя до начала каждого праздника и неделя после праздника). Количество мактабов в то время не поддавалось исчислению. Официальные данные не всегда показывали точное количество мактабов. Например, в Амударьинском отделе в 1893 году было 878 мактабов с 7801 учеником, а в 1899 году — 761 мактаб с 6628 учениками. По данным В.П.Наливкина, в трех основных областях Туркестана (Сырдарьинской, Ферганской и Самаркандской) в 1900 году числилось 5418 мактабов с 57159 учащимися. В Хивинском ханстве действовало более 1500 мактабов. Общее число мактабов в Самаркандской области по сведениям за 1899 год было 1720 с 15029 учащимися. В Ферганской области в 1903 году зафиксировано 1812 мактабов, в которых обучались 6401 мальчик и 3050 девочек.²⁹¹

Школьная программа уделяла очень большое внимание воспитанию детей. Каждый час, отведенный вежливости в мактабах, укреплял хорошие манеры индивидуума или массы. Наука вежливости считалась второстепенной дисциплиной в программе школы и описана как наука человеческих отношений. Главной дисциплиной была этика, т.е. религиозные указания. Учения в мактабах начинались с заучивания арабских букв, которые писались учителем на деревянных или жестяных дощечках (лавх). Затем изучались варианты складывания по буквослагательному способу (абжад). Система абжад была мнемоническим способом изучения как арабского алфавита, так и системы исчисления. Каждая буква арабского алфавита означает определенную цифру (которые обычно использовались в поэтических приемах). После складывания приступали к изучению

²⁹⁰ Остроумов Н.П. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае. Москва, 1906 С.115

²⁹¹ Абдурашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века; связи-отношения-влияние. Ташкент, 2011. С.63-64

«Ҳафтияк»а.По этой книжке ученики выучивали наизусть маленькие суры Корана. За «Ҳафтияк»ом следовал «ЧорКитāб». Этот учебник заучивался от начала до конца, как и «Ҳафтияк». После «Чор Китāб»а прочитывались сборники стихотворений на персидском и тюркском языках. К письму переходили после обучения механическому чтению и учили лишь выводить буквы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В мактабах, как и в медресе, продолжительность курса не была определена. Весь курс состоял из отделов, причем каждый отдел был рассчитан на изучение одной или нескольких книг.

В целом традиционная система образования в Туркестане была догматичной и не давала хорошего образования детям. Поэтому появившиеся вскоре новометодные (джадидские) школы в конце XIX века стали пользоваться спросом у местного населения.

REFERENCES

1. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. Москва,1960, С.
2. Остроумов Н.П. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Журнал Министерства народного просвещения. Т. 2. 1906
3. Абдурашидов Зайнабидин.Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века; связи-отношения-влияние. Ташкент,2011.

ГЛОБАЛ РАҚОБАТ ВА ФИРМА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ ВА УНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДАГИ ЎРНИ

Собитханов Бобурмирзо Шавкат ўғли

Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги
хузуридаги Бўш турган объектлардан самарали фойдаланишни ташкил этиш
марказининг Наманган вилояти ҳудудий бошқармаси Бўлим бошлиғи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола миллий иқтисодиётларнинг ўзаро боғлиқлигини кучайиши, жаҳон бозорларида рақобат ва молиявий-иқтисодий беқарорликнинг ортиши, мамлакатларнинг рақобатбардошликиги ўстириш ҳисобига барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлаш йўллари тўғрисидаги қарашларни ўз ичига олган. Мақоладан иқтисодий сектор вакиллари ҳамда талабалар фойдаланишлари мумкин.

Калит сўзлар: *глобал рақобат, миллий иқтисодиёт, рақобатни ривожлантириш, иқтисодий модел.*

ABSTRACT

This article contains views on the ways to ensure sustainable economic development by increasing the interdependence of national economies, increasing competition and financial and economic instability in world markets, increasing the competitiveness of countries. The article can be used by representatives of the economic sector as well as students.

Keywords: *global competition, national economy, competition development, economic model.*

КИРИШ

Глобализация жараёнининг чуқурлашуви шароитида миллий иқтисодиётларнинг ўзаро боғлиқлигини кучайиши, жаҳон бозорларида рақобат ва молиявий-иқтисодий беқарорликнинг ортиши, мамлакатларнинг рақобатбардошликиги ўстириш ҳисобига барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлаш йўллари топишга ундайди.

Рақобатбардошликнинг юқори даражаси мамлакат иқтисодий салоҳиятини оширади, аҳолининг турмуш даражаси ўсади ва сифатининг яхшиланишини таъминлайди.

Хар бир корхона учун рақобатнинг кучайиши шароитида унинг рақобатбардошлигини сақлаб қолиш ва ошириш вазифалари биринчи ўринга

чиқади. Ўзбекистон бозорида рақобатнинг ўсиши мамлакат иқтисодий ривожлантиришнинг устивор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев ташаббусига кўра 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Харакатлар стратегияси” Давлат дастури ишлаб чиқилди. Ушбу дастурда «таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш, корхоналар рақобатбардошлигини ошириш ҳамда экспорт салоҳиятини юксалтириш» каби устувор вазифалар белгиланган.²⁹²

Дунё мамлакатлари иқтисодий ривожланишнинг қайси моделини танламасин мамлакат иқтисодий ривожланишнинг жаҳон ҳўжалигидаги маъқеи ва ўрни унинг рақобатбардошлик даражаси билан белгиланади. Халқаро иқтисодий рақобат техник тараққиётнинг энг муҳим омили ҳисобланади ва унинг таъсирида ишлаб чиқариш, бошқарув технологияларининг доимий янгиланиб бориш жараёни давом этади, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот турлари янгиланади ва сифати ортиб боради.

Ушбу тадқиқотнинг долзарблиги шундаки, ҳозирги вақтда рақобат ҳар қандай мамлакат иқтисодий ҳаётида ассосий рол ўйнайди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Рақобат ва унинг мамлакат иқтисодий ҳаётидаги ўрни

Рақобат – бу чекланган иқтисодий ресурслар устидана назорат қилиш учун мустақил иқтисодий субъектлар ўртасидаги қарама-қаршилик. Бу ўз маҳсулотлари учун энг яхши маркетинг имкониятларини таъминлаш, харидорларнинг турли эҳтиёжларини қондириш учун бозорга кирувчи компаниялар ўртасидаги ўзаро таъсир, ўзаро боғлиқлик ва курашнинг ўзига хос иқтисодий жараёни²⁹³. Шунингдек, рақобатнинг бошқа таърифлари ҳам мавжуд. Ф.Перру рақобатни “хукумронликни доимий равишда бузиш билан таҳдид қилиш ҳаракати ва уни ижодкорлик –танловни таъминлайдиган шундай ўйин қоидалари доирасида доимий ва қайта кўриб чиқиш”-деб таърифлайди. Инсон доимо қиммат сотишга, арзонроқ сотиб олишга, ўзига фойда келтиришга интилади. Рақобатнинг қатъий маъноси, бир еиши бошқаси билан рақобатлашади, айниқса бирор нарсени сотиш ёки сотиб олишда.²⁹⁴

²⁹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли фармони 07.02.2017 й.

²⁹³ Гродских В.С. Экономическая теория / В.С. Гродских. – СПб.: Питер, 2017. – 208 с.

²⁹⁴ Голенко А.Г., Соколинский В.М. Экономическая теория: учебное пособие / А.Г. Голенко, В.М.Соколинский. – М.: Альфа, 2017. – 464 с.

Бундан кўринадики, рақобатни нафақат кураш, балки ўзаро таъсир ва алоқа жараёни сифатида ҳам талқин этилган. Рақобат кураши ва уни ҳаракатлантирувчи кучлар, монополияга қарши бошқарув механизмлари ҳақида дастлабки тўлақонли назарий қоидалар фақат XVIII асрнинг ўрталарига келиб пайдо бўлган. Бунда классик сиёсий иқтисод вакиллари саналган А.Смит ва Д.Рикардонинг хизматлари каттадир. Кейинги даврларда Ф.Перру, А.Маршалл, Дж.Кейнс, В.Леонтьев, Й.Шумпетер, П.Сраффа, М.Портер, Ф.Котлер ва бошқаларнинг меҳнатлари туфайли рақобат назарияси янада ривож топди. Рақобат моҳиятига тўхталар эканмиз, уни асосан уч хил ёндашувга бўлиш мумкин. Жумладан, хулқ-атвор ёндашуви, структурали ёндашув ва функционал ёндашув.

Корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш муаммоси.

Корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш муаммоси глобаллашув жараёнлари ва Ўзбекистон иқтисодиётининг очиқлигининг ўсиши билан боғлиқ холда аҳолида аҳамиятга эга. Рақобатбардошлик мамлакатнинг жаҳон бозоридаги мавқеини яхлит тарзда тавсифлайди. Шу билан бирга, Ўзбекистон корхоналари учун рақобат майдони сезиларли даражада кенгайди: маҳаллий ишлаб чиқарувчилар ҳам ички, ҳам ташқи бозорларда хорижий компаниялар билан рақобатлашишлари керак. Амалиёт шуни кўрсатадики, кўплаб маҳаллий корхоналар фаол рақобатлашишга, рақобатдош позицияларни аниқлашга ва ғалаба қозонишга тайёр эмас. Бундай вазиятнинг асосий сабаблари рақобатбардошликни таъминлаши учун тизимларни яратишнинг назарий ва услубий асосларининг етарли даражасида ишлаб чиқарилмаганлиги, корхоналарнинг ички ва ташқи муҳит ўзгаришларига жавоб беришнинг самарали бошқарув ва ташкилий механизмларининг йўқлиги ҳисобланади.

Бугунги кунда замонавий бозор хар хил турдаги товарлар ва хизматларга бой ва биз иқтисодий фаолият иштирокчилари бу шароитда қандай рақобатлашаётганлигини кўришимиз мумкин. Рақобатнинг функциялари жараёни такомиллаштириш ва камчиликларни камайтиришга қаратилган. Рақобат 1-расмда келтирилган қуйидаги функцияларни бажаради.



1-расм. Рақобат функциялари²⁹⁵

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, биз юқори даражага чиқа олмаган рақобатчилардан фарқи ўлароқ, фақат бозорда кулай ўрин эгаллаган фирма ўз мақсадига эришишга умид қилиши мумкин, деган хулосага келишимиз мумкин.

Шунингдек, рақобатнинг роли ва функциялари муҳимлигича қолмоқда. Рақобат бозор иқтисодиётининг харакатлантирувчи кучи ҳисобланади. Рақобат қанчалик юқори бўлса, маҳсулот сифати шунчалик юқори бўлади. Сифат қанчалик юқори бўлса, талаб шунчалик юқори бўлади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли фармони 07.02.2017 й.
2. Гродских В.С. Экономическая теория / В.С. Гродских. – СПб.: Питер, 2017. – 208 с.
3. Голенко А.Г., Соколинский В.М. Экономическая теория: учебное пособие / А.Г. Голенко, В.М.Соколинский. – М.: Альфа, 2017. – 464 с.
4. Журавлева Г.П. Экономическая теория. Микроэкономика– 1, 2. Ме-зоэкономика: Учебник / Г.П. Журавлева. М.: Дашков и К, 2016. –934 с.

²⁹⁵ Журавлева Г.П. Экономическая теория. Микроэкономика– 1, 2. Ме-зоэкономика: Учебник / Г.П. Журавлева. М.: Дашков и К, 2016. –934 с.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИГА ТЎҒРИДАН- ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Олчинбоев Отабек Абдусамад ўғли

Тошкент давлат иқтисодий университетининг магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларга оид Ўзбекистон Республикаси қонунларини таҳлил этилган. Бу қонун ҳужжатларида кедтирилган инвесторлар учун имтиёзлар ва чекловлар кўриб чиқилган.

Калим сўзлар: Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар, инвестор, давлат, конституция, қонун, фармон, қарор, имтиёзлар, чекловлар, мажбуриятлар, солиқ таътиллари ва имтиёзлари.

АННОТАЦИЯ

В статье проводится анализ законодательства Республики Узбекистан о прямых иностранных инвестициях. Эти законы предусматривают стимулы и ограничения для инвесторов.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, инвестор, государство, конституция, закон, указ, решение, привилегии, ограничения, обязательства, налоговые каникулы и освобождения.

ANNOTATION

The article analyzes the laws of the Republic of Uzbekistan on foreign direct investment. These laws provide incentives and restrictions for investors.

Keywords: Foreign direct investment, investor, state, constitution, law, decree, decision, privileges, restrictions, obligations, tax holidays and exemptions.

КИРИШ

Мамлакатларнинг давлат ижтимоий-иқтисодий фаолияти албатта қонунлар ва қоидалар билан амалга оширилади. Хусусан инвестицион фаолиятлар, у ҳоҳ давлат инвестиция фаолияти ёки хусусий инвестиция фаолияти бўлсин албатта қонунлар ва қоидалар билан тартибга солинади.

Республикамизда инвестиция фаолиятига доир 108 та қонун ҳужжатлари мавжуд, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларга доир эса 15 дан зиёд қонун ҳужжати мавжуд.²⁹⁶

²⁹⁶ <https://lex.uz/>

Аввало мамлакатимизда Конституциясида мулк ва иқтисодий муносабатлар кафолатлари борасида алоҳида моддалар борлигига кўриб чиқсак:

53-модда.

Бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади. Давлат истеъмолчиларнинг ҳуқуқи устунлигини ҳисобга олиб, иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини, барча мулк шаклларида тенг ҳуқуқлилигини ва ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилишини кафолатлайди.

Хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина мулкидан маҳрум этилиши мумкин.

54-модда.

Мулкдор мулкига ўз хоҳишича эгаллик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади. Мулкдан фойдаланиш экологик муҳитга зарар етказмаслиги, фуқаролар, юридик шахслар ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонун билан қўриқланадиган манфаатларини бузмаслиги шарт.

55-модда.

Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир.²⁹⁷

Бу юқоридаги моддалар бевосита мамлакат инвестиция сиёсатига ҳам алоқадордир.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Мамлакатимиздаги инвестицияларга оид энг аҳамиятли қонун ҳужжати “**Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида**”ги 2019 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-598-сонли Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Қонун 12 боб, 67 моддадан иборат.

Бу қонун ҳужжатлари ичида чекловлар ва имтиёзлар, қоидалар берилган. Биз эътибор қилишимиз лозим бўлгани чекловлар ва имтиёзлар. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларга оид қонунларда асосан имтиёзлар хусусида гап кетади.

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт

²⁹⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, янги таҳрири, Тошкент-2021

вазирлигининг “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб қилувчи корхоналар учун солиқ имтиёзларини қўллаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 2822-сонли қарорида солиқ имтиёзлари бафуржа тушунтиришлар берилган. Бу солиқ турлари юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи, мол-мулк солиғи, ягона солиқ тўловидир. Мазкур Низомнинг 1-бандида кўрсатилган солиқ имтиёзлари (юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи, мол-мулк солиғи, ягона солиқ тўлови):

а) тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларнинг ҳажми қуйидагиларга тенг (эквивалент) бўлганда тақдим этилади:

300 минг АҚШ долларидан 3 миллион АҚШ долларигача ва 3 миллион АҚШ доллари бўлганда — 3 йил муддатга;

3 миллиондан ортиқ АҚШ долларидан 10 миллион АҚШ долларигача ва 10 миллион АҚШ доллари бўлганда — 5 йил муддатга;

10 миллион АҚШ долларидан ортиқ бўлганда — 7 йил муддатга;

б) қуйидаги шартлар асосида қўлланилади.:

корхоналарни, республиканинг барча шаҳарлари ва қишлоқ аҳоли пунктларида жойлаштириш, бундан Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти мустасно. Бундай ҳудудий чеклов туризм соҳасида фаолият кўрсатувчи корхоналарга ва чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга оширишга татбиқ этилмайди;

хорижий инвесторлар томонидан хусусий тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни Ўзбекистон Республикасининг кафолати берилмаган ҳолда амалга ошириш;

корхонанинг устав капиталида хорижий иштирокчиларнинг улуши камида 33 фоизни, акциядорлик жамиятларида эса камида 15 фоизни ташкил этиши лозим;

хорижий инвестицияларни эркин алмаштириладиган валюта ёки янги замонавий технологик ускуна тарзида қўйиш;

мазкур имтиёзларнинг қўлланилиши муддати давомида имтиёзлардан олинган даромаднинг камида 50 фоизини корхонани янада ривожлантириш мақсадида қайта инвестициялашга йўналтириш.²⁹⁸

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Тошкент шаҳрини инфратузилмавий ривожлантиришга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишга доир қўшимча чора-тадбирлар

²⁹⁸ 2822-сон Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб қилувчи корхоналар учун солиқ имтиёзларини қўллаш тартиби тўғрисидаги низоми 26.08.2016

тўғрисида” 2019 йил 4 январдаги 4-сон Қарори, мазкур қонун ҳужжатида Тошкент шаҳри инфратузилмасини ва ишлаб чиқариш салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари назарда тутилган. Хусусан бу қонун ҳужжатида келтирилган тадбирлар ичида энг кўзга ташланарлиси қуйидаги деб топдик:

– Давлат-хусусий шериклик шартлари асосида кўмаклашиш учун 2019 йилнинг 1 февралидан Тошкент шаҳри туманлари ҳокимликлари ҳузурида Инвесторларни қўллаб-қувватлаш марказларини ташкил этиш (Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар бўйича давлат қўмитаси, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки, «Асака» АТБ ва «Ўзсаноатқурилишбанк» АТБлар марказлар фаолиятини ташкил этишга масъул этиб белгиланган).

Юқорида ташкил этилган Инвесторларни қўллаб-қувватлаш марказлари чет эллик инвесторлар учун қулай фаолият юритишни таъминлашни кўзда тутди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармонини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақидаги 2005 йил 2-августдаги 180-сонли қарорида келтирилган 2-илова “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан чет эллик инвестор ўртасида инвестиция шартномаларини тузиш, ўзгартириш киритиш, тугатиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низомда инвесторлар ва давлат ўртасида шартномаларнинг баъзи тарафлари ёритилган:

– Чет эллик инвесторлар билан уларнинг қўшимча кафолатлар ва қўллаб-қувватлаш чоралари (имтиёзлар ва преференциялар) бериш билан боғлиқ бўлмаган инвестиция мажбуриятларини мустаҳкамлашга йўналтирилган шартномаларни тузиш ва амалга ошириш қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

– Ушбу Низом Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари томонидан 10 миллион АҚШ долларидан кўп бўлмаган эквивалентда чет эл инвестицияси улуши бўлган инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда чет эл инвесторлари билан инвестиция шартномаларини тузиш ҳуқуқига нисбатан татбиқ этилмайди.²⁹⁹

²⁹⁹ 2005 йил 2-августдаги 180-сонли Қарори 2-илловаси “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан чет эллик инвестор ўртасида инвестиция шартномаларини тузиш, ўзгартириш киритиш, тугатиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом 1-банд

Низомнинг 8-бандида Инвестиция шартномаси қуйидагиларни ўз ичига олишикелтирилган:

- инвестициялар объекти ва ҳажми, лойиҳанинг бошланиши ва тугалланиши муддатлари;
- инвестиция шартномасининг амал қилиш муддати ва шартлари;
- коррупцияга ва монополияга қарши қўшимча шартлар;
- чет эллик инвесторнинг, шу жумладан, инвестиция киритиш ҳажми, маҳсулот ишлаб чиқариш, маҳаллийлаштириш, маҳсулот сифати, товарлар ва хизматлар экспорти ҳажми, шунингдек, атроф муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, меҳнат техника хавфсизлиги тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя қилиш бўйича ҳуқуқ ва мажбуриятлари;
- халқаро стандартларга, шунингдек, энергия самарадорлиги ва экология нормалари бўйича замон талабларига мос келадиган замонавий ускуналар ва технологияларни етказиб бериш юзасидан чет эллик инвесторнинг мажбуриятлари;
- Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг, шу жумладан, қонун ҳужжатларида белгиланганларга қўшимча кафолатлар ва қўллаб-қувватлаш чоралари (имтиёзлар ва преференциялар) бериш бўйича ҳуқуқ ва мажбуриятлари;
- молиялаштириш манбалари, лойиҳани амалга ошириш жадваллари, инвестиция лойиҳасининг амалга оширилишини техник назорат қилиш тартиби тўғрисидаги ахборотлар;
- чет эллик инвестор томонидан унинг мажбуриятлари ижроси тўғрисидаги ҳисоботларни тақдим этиш тартиби ва муддатлари;
- томонларнинг инвестиция шартномаси шартларига риоя қилмаганлиги учун жавобгарлиги, шу жумладан, чет эллик инвесторга давлат органлари мансабдор шахсларининг ғайриқонуний ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) натижасида етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш, шунингдек, инвестиция шартномасига мувофиқ чет эллик инвестор ўз мажбуриятларига риоя қилмаганда ёки лозим даражада риоя қилмаганда, Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан ўз мажбуриятларини бажаришни бир томонлама тартибда рад этиш ҳуқуқи;
- инвестиция шартномасига ўзгартишлар киритиш тартиби;
- инвестиция шартномасини бекор қилиш тартиби;
- инвестиция шартномаси тарафлари ўртасидаги инвестиция шартномаси қоидалари билан боғлиқ низоларни ҳал этиш тартиби, низоларни

кўриб чиқиш жойи ва органи. Бунда Ўзбекистон Республикаси ёки хорижий давлат суди, Ўзбекистон Республикаси ёки хорижий давлат ҳудудида ташкил этилган халқаро тижорат арбитражи низоларни кўриб чиқувчи орган сифатида белгиланиши мумкин.

– Инвестиция шартномасида инвестиция лойиҳасининг ўзига хос хусусиятларига қараб бошқа шартлар, шу жумладан, қуйидаги шартлар ҳам бўлиши мумкин:

– ҳудуднинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмасини ривожлантириш бўйича томонларнинг ўзаро мажбуриятлари;

– чет эл инвесторининг шартнома шартларини бажариш натижасида ишлаб чиқарган, ўзига тегишли бўлган маҳсулотни ва олинган фойдани (даромадларни) Ўзбекистон Республикасидан олиб чиқиш ҳуқуқи;

– чет эл инвесторининг Ўзбекистон Республикаси фуқаролари орасидан ходимларни ёллаш ва ўқитишга доир мажбуриятлари, технологиялардан фойдаланиш шартлари, шунингдек, инвестиция лойиҳасини амалга ошириш тугалланганидан сўнг ташкил этилган ташкилот ходимларини ўқитиш бўйича мажбуриятлари.

– Инвестиция шартномасида чет эл инвесторига уни бозорда устун мавқега қўядиган мутлақ қоидалар ва ҳуқуқлар берилиши тақиқланади.³⁰⁰

Бу юқоридаги 180-сонли Вазирлар Маҳкамасининг Қарорига 2020-йил 30-апрелда 264-сонли ВМнинг Қарори билан қисман ўзгартиришлар киритилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 18 майдаги 417-сонли **“Тошкент шаҳрида тўғридан-тўғри хорижий инвестиция иштирокидаги нодавлат мактабгача таълим муассасаларини давлат-хусусий шериклик асосида ташкил этиш тўғрисида”** Қарорига биноан Тошкент шаҳрида тўғридан-тўғри хорижий инвестиция иштирокидаги нодавлат болалар боғчаларини ташкил этиш бўйича ишлар режаси келтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг **“Фарғона нефтни қайта ишлаш заводини тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилган ҳолда модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”**ги 2019 йил 10 апрелдаги ПҚ-4275-сонли Қарорида: **«Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ**ни модернизация қилиш ва ишлаб чиқариш қувватларидан тўлиқ фойдаланиш, илғор технологияларни жорий этиш ҳисобига нефть-газ

³⁰⁰ 2005 йил 2-августдаги 180-сонли Қарори 2-илоvasи “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан чет эллик инвестор ўртасида инвестиция шартномаларини тузиш, ўзгартириш киритиш, тугатиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом

тармоғининг барқарор ривожланишини таъминлаш, ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятини ошириш учун тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш масалаларига тўхталинган. Яна қуйидаги ишлар ҳам келтирилган:

– Давлат активларини бошқариш агентлиги, Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги, Энергетика вазирлиги ва «Ўзбекнефтгаз» АЖ томонидан «PT Trans Asia Resources» (Индонезия) хорижий компанияси билан (кейинги ўринларда — инвестор) Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи модернизация қилиш ва тўлиқ қувват билан ишлашини таъминлаш бўйича инвестиция лойиҳасини (кейинги ўринларда — лойиҳа) тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш орқали амалга ошириш тўғрисида келишувга эришилгани;

– инвестор «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ га эгалик қилиш, уни модернизация қилиш ва унинг ишлаб чиқариш қувватлари тўлиқ ишлашини таъминлаган ҳолда кейинчалик фойдаланиш учун етакчи халқаро компаниялардан иборат бўлган консорциум ташкил этишни режалаштиргани маълумот учун қабул қилинсин.

– Давлат активларини бошқариш агентлиги «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ устав капиталидаги 100 фоиз улушни сотиш бўйича келишувнинг дастлабки сотиб олиш тўлови 16 000 000 (ўн олти миллион) АҚШ доллари миқдорида назарда тутилган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган асосий шартларга мувофиқ инвестор билан тузилишини таъминласин.

– Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ ва инвестор буюртманомаларига кўра пудратчи ва субпудратчи ташкилотларга лойиҳани амалга ошириш доирасида радиоэлектрон воситалар ва юқори частотали қурилмалардан фойдаланишга белгиланган тартибда рухсат берсин.

– Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ ва инвестор буюртманомаларига кўра лойиҳани амалга оширишга жалб қилинадиган хорижий мутахассислар ҳамда уларнинг оила аъзоларига кириш визаларини белгиланган тартибда расмийлаштирилишини таъминласин.

– Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ буюртманомаларига кўра лойиҳани амалга оширишда иштирок этадиган хорижий мутахассислар ҳамда уларнинг оила

аъзоларига кириш визалари берилиши ва муддати узайтирилишини, шунингдек, уларнинг вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олинishi ҳамда муддати узайтирилишини белгиланган тартибда таъминласин.

– Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги «Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи» МЧЖ буюртманомалари бўйича лойиҳани амалга оширишда иштирок этиш учун хорижий мутахассисларни Ўзбекистон Республикасига жалб этишга рухсатномалар берилишини (узайтирилишини), шунингдек, ушбу хорижий фуқароларга Ўзбекистон Республикаси ҳудудида меҳнат фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига тасдиқномалар берилишини (узайтирилишини) белгиланган тартибда таъминласин.³⁰¹

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қандим гуруҳи, Ховузак ва Шоди конларини ўзлаштиришга тўғридан-тўғри хорижий инвестиция-ларни жалб этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2003 йил 15 майдаги ПФ-3245-сонли Фармони. Фармонда Қандим гуруҳи, Ховузак ва Шоди конларини тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этган ҳолда маҳсулотни тақсимлаш тўғрисидаги битим шартлари асосида ўзлаштириш мақсадида ишлар режаси киритилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2012 йил 10 апрелдаги ПФ-4434-сонли Фармони. Фармонда:

– юридик шахсларга Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори билан белгиланадиган муддатга киритилган тўғридан-тўғри хусусий чет эл инвестициялари ҳажмига қараб, ер солиғи, мол-мулк солиғи ва сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқни тўлашдан озод этиш тарзидаги солиқ имтиёзлари берилади.

– Тўғридан-тўғри хусусий чет эл инвестициялари иштирокидаги корхона солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа солиқ имтиёзлардан фойдаланишга ҳақли.

– Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ қиймати 50 миллион АҚШ долларидан ошадиган ва хорижий инвесторнинг улуши камида 50 фоиз бўлган инвестиция лойиҳалари доирасида, ишлаб чиқариш майдонидан ташқаридаги зарур ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқларини қуриш

³⁰¹ “Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилган ҳолда модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 10 апрелдаги ПҚ-4275-сонли Қарори

бюджет маблағлари ҳамда бошқа ички молиялаштириш манбалари ҳисобидан амалга оширилади.

– Вазирликлар, идоралар, маҳаллий давлат органлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат идоралари, тижорат банклари томонидан хорижий инвесторлар ҳамда хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарнинг фаолияти билан боғлиқ қўшимча талаблар ва чекловлар ўрнатилиши катъиян тақиқлансин ва бу ҳол қонунга хилоф деб ҳисоблансин.

– Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси хорижий инвесторларнинг, хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарнинг ҳуқуқ ва кафолатларини ҳимоя қилиш бўйича амалдаги қонун ҳужжатларига барча давлат ва хўжалик бошқаруви органлари сўзсиз риоя этишлари устидан қаттиқ назорат ўрнатсин ҳамда қонунчилик бузилишининг олдини олиш ва айбдор мансабдор шахсларни жавобгарликка тортиш бўйича таъсирчан чоралар кўрсин.

– Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги вазирликлар, идоралар ва хўжалик бирлашмаларининг буюртманомалари бўйича инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда қатнашаётган хорижий компанияларнинг мансабдор шахслари ва мутахассисларига 12 ой муддат билан кириш визалари ҳамда кўп марталик визалар расмийлаштирилишини таъминласин.

– Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги билан биргаликда хорижий инвесторлар ҳамда хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар учун берилган кафолатлар, имтиёзлар ва афзалликларга доир қонун ҳужжатларининг амалда рўёбга чиқарилиши юзасидан тизимли мониторинг ўрнатсин ҳамда берилаётган имтиёзлар ва афзалликларга вазирликлар, идоралар ва бошқа ижрочилар томонидан риоя этилмаслиги ҳолатлари бўйича Вазирлар Маҳкамасига ҳар чоракда ахборот киритиб борсин.³⁰²

Бу ПФ-4434-сонли Фармонга 2013 йил 15 мартда ПФ-4515 сонли Президент Фармони орқали ўзгариришлар киритилган.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/>

³⁰² “Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2012 йил 10 апрел ПФ-4434-сон

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, янги тахрири, Тошкент-2021
3. 2822-сон Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб қилувчи корхоналар учун солиқ имтиёзларини қўллаш тартиби тўғрисидаги низоми 26.08.2016
4. 2005 йил 2-августдаги 180-сонли Қарори 2-иловаси “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан чет эллик инвестор ўртасида инвестиция шартномаларини тузиш, ўзгартириш киритиш, тугатиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом 1-банд
5. 2005 йил 2-августдаги 180-сонли Қарори 2-иловаси “Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан чет эллик инвестор ўртасида инвестиция шартномаларини тузиш, ўзгартириш киритиш, тугатиш ва амалга ошириш тартиби тўғрисида”ги Низом
6. “Фарғона нефтни қайта ишлаш заводини тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилган ҳолда модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 10 апрелдаги ПҚ-4275-сонли Қарори
7. “Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2012 йил 10 апрел ПФ-4434-сон

ДАВЛАТ ИШТИРОКИНИ КАМАЙТИРИШДА РАҚОБАТНИНГ МОҲИЯТИНИ БЕЛГИЛАБ БЕРУВЧИ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА КОНЦЕПЦИЯСИ

Собитханов Бобурмирзо Шавкат ўғли

Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги
хузуридаги Бўш турган объектлардан самарали фойдаланишни ташкил этиш
марказининг Наманган вилояти худудий бошқармаси Бўлим бошлиғи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада рақобатнинг моҳиятини белгилаб берувчи асосий жиҳатлари ва концепцияси шунингдек, давлат иштирокидаги хўжалик юритувчи субъектлар монополиясининг иқтисодиёт рақобатбардошлигига салбий таъсирини янада камайтириш, имтиёз ва преференциялар бериш тизими самарадорлигини ошириш, шунингдек тадбиркорлик субъектларига нисбатан тартибга солиш юқини пасайтириш масалаларига қаратилган. Мақоладан иқтисодий сектор вакиллари ҳамда талабалар фойдаланишлари мумкин.

Калит сўзлар: давлат иштирокидаги хўжалик юритувчи субъектлар, монополия, рақобат, либераллаштириш.

ANNOTATION

This article focuses on the main aspects and concepts of competition, as well as further reducing the negative impact of state-owned monopolies on economic competitiveness, increasing the efficiency of the system of incentives and preferences, as well as reducing the regulatory burden on businesses. The article can be used by representatives of the economic sector as well as students.

Keywords: state-owned enterprises, monopoly, competition, liberalization.

КИРИШ

Товар ва молия бозорларида монополияни босқичма-босқич камайтириш орқали самарали рақобат муҳитини яратиш мақсадида мамлакатимизда иқтисодиётдаги давлат иштирокини қисқартириш, нархни ортиқча тартибга солишдан воз кечиш ва давлатнинг иқтисодиётга таъсирини камайтиришга қаратилган чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, олдимизда давлат иштирокидаги хўжалик юритувчи субъектлар монополиясининг иқтисодиёт рақобатбардошлигига салбий таъсирини янада камайтириш, имтиёз ва преференциялар бериш тизими

самарадорлигини ошириш, шунингдек тадбиркорлик субъектларига нисбатан тартибга солиш юқини пасайтириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар турибди.³⁰³

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда, самарали рақобат муҳитини яратиш ҳамда товарлар ва хизматлар бозоридаги монополияни босқичма-босқич камайитириш иқтисодий янада ривожлантириш ва либераллаштириш вазифаларини ҳал этиш учун устувор йўналиш бўлиб қолмоқда. Ҳар бир бозор ўзининг хусусиятларига эга бўлишига қарамай, рақобатнинг моҳияти унинг табиати ва интенсивлигини очиб бериш ва баҳолаш имконини берувчи ягона концепция орқали ифодаланиши мумкин.

Таниқли америкалик олим М.Е.Портернинг тадқиқотларига кўра, алоҳида бозордаги рақобатнинг ҳолатини бешта рақобат кучи орқали тавсифлаш мумкин:

1. Рақобатлашувчи сотувчилар ўртасидаги беллашув (ҳар бир фирма рақобат афзалликларидан фойда олиш ва қулай мавқега эга бўлиш учун ўзининг шахсий рақобат стратегиясига амал килади).

2. Бир-бирини ўрнини босувчи ва нарх нуқтаи назаридан рақобатбардош бўлган товарлар ўртасидаги рақобат (ўрнини босувчи товарлар томонидан юзага келган хавф туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

3. Янги рақобатчиларнинг пайдо бўлиш хавфи (янги рақобатчилар пайдо бўлиши хавфи туфайли вужудга келган рақобат кучлари).


4. Мол етказиб берувчиларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари (мол етказиб берувчиларнинг имкониятлари ва савдо қобилиятлари туфайли вужудга келган рақобат кучлари).

5. Харидорларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари (харидорларнинг иқтисодий имкониятлари ва савдо қобилиятлари туфайли вужудга келган рақобат кучлари).³⁰⁴

Умумий тарзда, рақобатнинг моҳиятини очиб беришда муҳим аҳамият касб этувчи жиҳатларни қуйидаги чизма ёрдамида тасвирлаш мумкин. (1.-расм).

³⁰³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Рақобат муҳитини янада ривожлантириш ва иқтисодий даврада иштирокини қисқартириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Фармони. Тошкент ш., 2020 й. 6 июль, ПФ-6019 – сон.

³⁰⁴ Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 2013, с.124.



1 – расм. Рақобатнинг моҳиятини белгилаб берувчи асосий жиҳатлар³⁰⁵

Шундай қилиб, рақобат кўп қиррали иқтисодий ҳодиса бўлиб, у бозорнинг барча субъектлари ўртасидаги мураккаб муносабатларни ифодалайди ва бозор субъектлари иқтисодий манфаатларининг тўқнашувидан иборат бўлиб, улар ўртасидаги юқори фойда ва кўпроқ нафлиликка эга бўлиш учун курашни англатади.

Рақобатбардошликка эришиш ва рақобат устунликларини таъминлаш:

Маҳаллий тадқиқотчилар томонидан рақобатбардошликка эришиш ва рақобат устунликларини таъминлаш бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлари бажарилган. Ҳар бир корxonанинг доимий мақсади рақобатбардошликка эришишдир. Бошқарув бу субъектлар, органлар томонидан кишиларга ва иқтисодий объектларга кутилаётган натижага эришиш, уларни хатти-харакатини йўналтириш мақсадида уларга онгли таъсир кўрсатишдир. Демак, рақобатбардошликни бошқариш тизими муайян бошқарув механизмини ишлаб чиқишни талаб этар экан. Кўплаб тадқиқотчилар корxonалар рақобатбардошлигини бошқаришнинг назарий жиҳатларини ўрганишган (1-жадвал).

³⁰⁵ Муаллиф томонидан ишланган

1-жадвал

“Корхона рақобатбардошлигини бошқариш” тушунчасига берилган таърифлар³⁰⁶

Муаллифлар	Таърифлар
А.Л.Денисова, Т.М.Уляхин ³⁰⁷	Рақобатбардошликни бошқариш бозорда корхонани рақобатбардошлик даражасини белгилаш, таъминлаш, қўллаб – қувватлаш учун бошқарув объектларига координацияланган таъсир ўтказиш жараёнидир
В.Н.Парахина, Л.С.Максименко ³⁰⁸	Рақобатбардошликни бошқариш деганда рақобат афзалликларини ишлаб чиқиш, қўллаб – қувватлаш, фойдаланиш, ривожлантириш усулларини топиш тушунилади.
Н.В.Данилюк ³⁰⁹	Умумий кўринишда корхона рақобатбардошлигини бошқариш, бозорни танланган сегменти учун мос келадиган рақобат устунлигини таъминлаш ва қўллаб – қувватлаш, шакллантириш манбаларини қидириб топишдир
Н.А.Савельева ³¹⁰	Корхона рақобатбардошлигини бошқариш тизими бу рақобат устунликларини таъминлаш ва рақобат кучсизликларини бартараф қилувчи тизимни шакллантиришдир.
Л.Н.Чайникова,	Корхона рақобатбардошлигини

³⁰⁶ Тошпулатов И. А. ЕНГИЛ саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини такомиллаштириш “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил 3 б.

³⁰⁷ Денисова А.Л., Уляхин Т.М. Управление конкурентоспособностью промышленного предприятия: аспекты качества: монография. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2006. - 20 б.

³⁰⁸ Парахина В.Н., Максименко Л.С. Стратегический менеджмент: учебник. – М.: КНОРУС, 2008. - 96 б.

³⁰⁹ Данилюк Н.В. Обеспечение конкурентоспособности организаций сферы услуг на основе методов управления качеством: дис. канд. экон. наук: 08.00.05. - СПб., 2011. – 153 б.

³¹⁰ Савельева Н.А. Управление конкурентоспособностью фирмы: учебник. - Ростов н/Д: Феникс, 2009. –82 с.

В.Н.Чайников ³¹¹	бошқариш бир қатор бошқарув қарорларини шакллантиришга йўналтирилган фаолият бўлиб, у ўз навбатида олдида қўйилган мақсадларга мос ҳолда лидерликка эришиш учун турли хил ташқи таъсирларга бардош бера олишга йўналтирилиши керак.
Р.Е.Мансуров ³¹²	Рақобатбардошликни бошқариш стратегик мақсадларга мувофиқ етакчиликка эришиш учун ташқи таъсирларга қарши туришга қаратилган бир қатор бошқарув қарорларини шакллантиришга қаратилган фаолиятдир.

Рақобатбардошликни бошқариш жараёнининг табиати ва устуворлигини тушуниш борасида тадқиқотчи олимларнинг қарашлари ҳалигача уйғунлашмаган. Хусусан, Р.Е.Мансуров рақобатбардошликни бошқариш стратегик мақсадларга мувофиқ етакчиликка эришиш учун ташқи таъсирларга қарши туришга қаратилган фаолиятдир, деб ҳисоблайди. А.Кузмин эса рақобатбардошликни бошқариш рақобатбардош маҳсулотларни яратиш ва сотиш сиёсатини белгиловчи умумий бошқарув функцияларини амалга ошириш қисми сифатида тушунадилар. Ушбу соҳадаги мақсадлар ва масъулиятлар маълум бир рақобат тизимида режалаштириш, тезкор бошқариш, таъминлаш ва такомиллаштириш воситасида амалга оширилади. М.Галелюк корхонанинг маҳсулотлари рақобатбардошлигини таъминлаш ва яхшилаш мақсадида умумий функцияларни бажариш орқали амалга ошириладиган бошқаришнинг ўзига хос функцияси билан рақобатбардошликни бошқаришни назарда тутди³¹³.

Мамлакат ва минтақалар иқтисодиётини ривожланишини тартибга солишнинг муҳим йўналишларидан бири уларнинг рақобатбардошлигини ошириш билан боғлиқ. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев томонидан қабул қилинган — “Ўзбекистон Республикасини янада

³¹¹ Чайникова Л.Н., Чайников В.Н. Конкурентоспособность предприятия: учебное пособие. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. – 192 с.

³¹² Мансуров Р.Е. Об экономической сущности понятий "конкурентоспособность предприятия" и "управление конкурентоспособностью предприятия" // Маркетинг в России и за рубежом. 2006. №2(52). 94 с.

³¹³ Галелюк М.М. Система управления конкурентоспособностью машиностроительного предприятия // Вестник экономической науки Украины. 2008. № 2. 15 с.

ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг 3.2-банди “Таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш”³¹⁴ деб номланиб, унда —иқтисодиёт тармоқлари учун самарали рақобатбардош муҳитни шакллантириш ҳамда маҳсулотлар ва хизматлар кўрсатиш бозорларида монополияни босқичма босқич камайтириш; принципиал жиҳатдан янги маҳсулот ва технологиялар турларини чиқаришни ўзлаштириш, бунга асосан ички ва ташқи бозорларда миллий товарларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш вазифалари белгилаб берилган.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг асосида албатта таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш масаласи туради.

Рақобатдош иқтисодиётни шакллантирмасдан, пировард натижада эса рақобатдош мамлакатни барпо этмасдан туриб, биз қабул қилган Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясида кўзда тутилган мақсадли вазифаларни амалга оширмасдан туриб, бу ҳақда жиддий сўз юритиш мумкин эмас.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Рақобат муҳитини янада ривожлантириш ва иқтисодиётдаги давлат иштирокини қисқартириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Фармони. Тошкент ш., 2020 й. 6 июль, ПФ-6019 – сон.
2. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 2013, с.124.
3. Тошпулатов И. А. ЕНГИЛ саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини такомиллаштириш “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил 3 б.

³¹⁴ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли Фармони.

4. Денисова А.Л., Уляхин Т.М. Управление конкурентоспособностью промышленного предприятия: аспекты качества: монография. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2006. - 20 б.
5. Парахина В.Н., Максименко Л.С. Стратегический менеджмент: учебник. – М.: КНОРУС, 2008. - 96 б.
6. Данилюк Н.В. Обеспечение конкурентоспособности организаций сферы услуг на основе методов управления качеством: дис. канд. экон. наук: 08.00.05. - СПб., 2011. – 153 б.
7. Савельева Н.А. Управление конкурентоспособностью фирмы: учебник. - Ростов н/Д: Феникс, 2009. –82 с.
8. Чайникова Л.Н., Чайников В.Н. Конкурентоспособность предприятия: учебное пособие. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. – 192 с.
9. Мансуров Р.Е. Об экономической сущности понятий "конкурентоспособность предприятия" и "управление конкурентоспособностью предприятия"// Маркетинг в России и за рубежом. 2006. №2(52). 94 с.
10. Галелюк М.М. Система управления конкурентоспособностью машиностроительного предприятия // Вестник экономической науки Украины. 2008. № 2. 15 с.
11. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли Фармони.

УДК 628.34.601.57

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ДИСКРЕТНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ПЕРЕМЕЩЕНИЙ НА ОСНОВЕ ВОЛОКОННЫХ И ПОЛЫХ СВЕТОВОДОВ

**Ю.Г. Шипулин, д.т.н., проф., ТГТУ
С.Н. Мейлиев, ассистент ҚМИИ**

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены вопросы состояния и развития оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений на основе волоконных и полых световодов. Приведена классификация по принципу действия, конструктивному признаку и функциональному назначению.

THE STATUS AND DEVELOPMENT OF OPTOELECTRONIC DISCRETE DISPLACEMENT CONVERTERS BASED ON THE FIBER AND HOLLOW LIGHT GUIDE

ANNOTATION

In the article the questions of status and development of optoelectronic discrete displacement converters based on the fiber and hollow light guide are considered. The classification by the principle of action, design feature and functional purpose is given.

ВВЕДЕНИЕ

Развитие систем контроля и управления в различных областях промышленности и сельского хозяйства приводит к росту потребности в дискретных датчиках и преобразователях для измерения давления, перемещения, уровня, расхода жидкостей и контроля и учета штучных изделий и товаров на конвейерных линиях и многих других технологических величин.

Среди существующих преобразователей, основанных на различных физических принципах действия (электромагнитные, тепловые, емкостные, ультразвуковые, электромеханические, радиоактивные и другие), оптоэлектронные дискретные преобразователи на основе волоконных и полых световодов (ОДПВ) имеют ряд преимуществ, основными достоинствами которых являются: большая разрешающая способность, высокая точность и быстродействие, широкий диапазон и номенклатура преобразуемых величин,

возможность осуществления сканирующего режима преобразования и простота стыковки с ЭВМ, идеальная гальваническая развязка входа от выхода и другие. Кроме того оптоэлектронные дискретные преобразователи весьма технологичны в изготовлении и могут иметь невысокую стоимость.

На рис. 1 приведена схема оптоэлектронного дискретного преобразователя, в общем случае состоящего из источника излучения (ИИ), оптического канала (ОК), приемника излучения (ПИ) и измерительной схемы (ИС).




Рис. 1. Схема оптоэлектронного дискретного преобразователя

Интенсивно развиваются дискретные оптоэлектронные преобразователи, в которых выходной сигнал $X_{\text{вых}}$ формируется в результате воздействия входного дискретного воздействия на излучение, которое распространяется в световоде (оптическом канале) от источника ИИ к приемнику ПИ (рис. 1). По существу световой поток от ИИ к ПИ подвергается дискретному воздействию (модуляции) со стороны контролируемой величины или параметра.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Дискретные оптоэлектронные преобразователи основаны на известных оптических явлениях: отражения, поглощения, преломления, полном внутреннем отражении и другие. Для оптоэлектронных дискретных преобразователей в настоящее время выпускаются многочисленные типы источников и приемников излучения. Разнообразны также в зависимости от типов ИИ и ПИ измерительные схемы оптоэлектронных дискретных преобразователей. В качестве оптических каналов могут быть использованы как газовые, жидкостные и другие оптически прозрачные твердые тела, так и специальные световоды, в том числе полые и волоконные. Именно световоды во многом определяют конструктивное многообразие и метрологические возможности оптоэлектронных дискретных преобразователей. А также именно


световоды в основном определяют метрологические возможности оптоэлектронных дискретных преобразователей (датчиков): давления, температуры, шероховатости материалов, уровня жидкостей, скорости вращения тел, углов наклона объектов, линейных и угловых перемещений, цветности, вибрации, веса, состава и концентрации и другие.

Бесконтактность измерения, быстродействие, высокая точность и надежность, а также экономичность выгодно отличают ОДПВ от других дискретных преобразователей.

На рис.2 показан ряд устройств на основе ОДПВ, выходные сигналы которых в дискретной форме (в виде импульсов тока $I_{вых}$ или напряжения $U_{вых}$) связаны со скоростью вращения ω , углом наклона φ и уровня жидкостей H .

На рис. 2, а. изображен ОДПВ скорости вращения [1], содержащий полый световод 1, сосредоточенный источник излучения 2, кольцевой приемник излучения 3, диск 4 со светлыми 5 и темными 6 полосами, ось вращения диска 7.

На рис. 2, б изображен преобразователь угла наклона [2] на основе ОДПВ, содержащий полый световод 1, источник излучения 2, тепловой экран 3, фокусирующую линзу 4, защитное стекло 5, полудисковый оптический экран 6, свободно подвешанный на оси 8 круглого основания 7, в котором на нижнем полукруге установлены в четверть круговых секторах по дугам входные торцы двух групп отводящих волоконных световодов 9 и 10, выходные торцы которых уложены вдоль двух дугообразных шкал делениями в градусах $-\varphi$ и $+\varphi$ на полудисковом экране для визуального отображения угла наклона объекта: в левую сторону $-\varphi$, а в правую сторону $+\varphi$. Предварительно ОДПВ устанавливается на контролирующий объект.






Рис.2. Физические модели ОДПВ.

а) ОДПВ скорости вращения; б) ОДПВ угла наклона; в, г) ОДПВ уровня жидкостей

В ОДПВ уровня жидкости (рис.2, в) в верхнем торце полого световода 1 расположен неподвижный источник излучения 2 , а роль подвижного внешнего модулирующего тела (ВМТ) выполняет светоотражающая поверхность уровня жидкости, при перемещении которой изменяется распределения светового потока Φ_0 , вдоль полого световода 1 . Данный полый световод имеет продольную оптическую щель 4 , вдоль которой размещены входные торцы отводящих световой поток волоконных световодов 5 , выходные торцы которых оптически соединены с матрицей приемников излучение 6 и далее со схемой обработки сигналов 7 .

ОДПВ уровня жидкостей изображенный на рис.2, г содержит: источник излучения 1 , подводящий волоконный световод 2 , отводящий световой поток волоконный световод 3 , приемник излучения 4 , цилиндрический поплавок 5 ,

жидкость 6 с уровнем H , равномерную трубку 7, хомут для крепления ОДПВ с винтом 8.

Формально-логическое описание функции ОДПВ используя положения системного анализа можно описать их структуры и функции кортежем, состоящим из пяти компонент:

$$f=(D,P,H,S,U) \quad (1)$$

где: D – принцип построения преобразователя;

P – объект, который контролируется;

H – начальное и конечное значения контролируемого параметра объекта;

S – метод выполнения действия преобразователя;

U – условия окружающей среды преобразователя.

Для формально – логического описания структур ОДПВ следует выделить следующие конструктивные элементы: ИИ – источники излучения; ПИ – приемники излучения; СВ – световоды; ПМЭ – подвижные модулирующие элементы; ИС – измерительные схемы.

В общем случае можно представить множество элементов ОДПВ в виде

$$\{МЭ\} = \{ИИ, ПИ, СВ, ПМЭ, ИС\} \quad (2)$$

можно также показать, что каждый элемент характеризуется множеством:

$$\{ИИ\} = \{ЛН, СД, ЛЛ, ЛАЗ, ЛД, ГР\}, \quad (3)$$

где: ЛН – лампочка накаливания; СД – световодиод; ЛЛ – люминесцентная лампа; ЛАЗ – лазер; ЛД – лазерный диод; ГР – газоразрядный источник.

$$\{ПИ\} = \{ФД, ФР, ФТ, ФС, МФ\}, \quad (4)$$

где: ФД – фотодиоды; ФР – фоторезисторы; ФТ – фототранзисторы; ФС – фотоселикторы; МФ – матричные фотопреобразователи.

$$\{СВ\} = \{ПС, ПВС, ОВС, ВСК\}, \quad (5)$$

где: ПС – полый световод; ПВС – подводный волоконный световод; ОВС – отводящий волоконный световод; ВСК – волоконный световод в виде кабеля (жгута).

$$\{ПМЭ\} = \{ПОЭ, ПИИ, ППИ, ППС, ПВС, ПСШ\}, \quad (6)$$

где: ПОЭ – подвижный оптический экран; ППИ – подвижный источник излучения; ППС – подвижный полый световод; ПВС – подвижный волоконный световод; ПСШ – подвижный светоотражающий шар.

$$\{ИС\} = \{ДС, МС, ДСОУ, МСОУ, СМП\}, \quad (7)$$

где: ДС – делительная схема; МС – мостовая схема; ДСОУ – делительная схема с операционным усилителем; ДФС – дифференциальная схема; СМП – измерительная схема с микропроцессором.

К указанным элементам следует добавить оптические элементы {ОЭ}, которые существенно расширяют функциональные возможности:

$$\{ОЭ\} = \{ЛЗ, РФ, ДМ, ОО, ОС, ОК\}, \quad (8)$$

где: ЛЗ – линза; РФ – рефлектор; ДМ – диафрагма; ОО – оптические ответвители; ОС – оптические соединители; ОК – оптический клин.

Множество вариантов конструкции ОДПВ определяется взаимодействием указанных основных элементов. Различные сочетания множеств {ИИ}, {ЛИ}, {СВ}, {ПМЭ} и {ИС} дает тот или иной принцип создания ОДПВ, что позволяет разработать весьма большое число новых конструкций ОДПВ. Проанализируем их принципы построения.

По конструктивному признаку рассматриваемые ОДПВ делятся в зависимости от типа световода: с полыми и волоконными световодами. В свою очередь полые световоды могут быть выполнены из оптически прозрачных и непрозрачных материалов, имеющих различные коэффициенты поглощения, отражения и пропускания света с зеркальной внутренней поверхностью, с различными формами и размерами, а волоконные световоды также могут быть различными по конструктивному изготовлению: одномодовые, многомодовые, одиночные световоды; световоды в виде жгутов; коаксиальные световоды и другие.

Принцип действия большинства ОДПВ основывается на зависимости между входными и выходными величинами за счет распределения светового потока от источника к приемнику излучения при продольных и поперечных перемещениях различных внешних модулирующих тел (ВМТ). В ОДПВ можно выделить следующие ВМТ: плоские (пластины, диски, ленты), шарообразные, цилиндрические, поверхности жидкостей и твердых тел.

По функциональному назначению ОДПВ могут быть разделены на преобразователи линейных и угловых перемещений, уровня жидкости, давления, скорости вращения, шероховатости, температуры, цветности и другие. Источники излучения, используемые в ОДПВ, весьма разнообразны и также определяют тип конструкций ОДПВ. Источники излучения можно подразделять на сосредоточенные (точечные), распределенные продольно или поперечно оси световодов. Аналогично могут быть классифицированы приемники излучения. Следует указать, что распределенные на входном торце световодов источники излучения, как правило, получают сочетанием сосредоточенного источника излучения с линзой. Анализ существующих конструкций ОДПВ и результатов исследований показывает, что для

разработки конструкций ОДПВ на основе полых световодов наиболее эффективными являются кольцевые приемники излучения, установленные на входном торце полого световода, и которые одновременно выполняют роль диафрагмы. А для разработки конструкций ОДПВ на основе волоконных световодов весьма перспективными являются коаксиальные световоды, у которых подводимый волоконный световод охвачен снаружи отводящим волоконным световодом.

С учетом вышеизложенного, ниже на рис.3 и рис.4 приведены классификации ОДПВ по типам продольно и поперечно перемещающихся ВМТ при сосредоточенных и распределенных в источниках излучения.

На рис.3 приведена классификация рефлективных ОДПВ по типу продольно перемещающихся ВМТ при сосредоточенном источнике излучения.

В конструкциях рефлективных ОДПВ по типу поперечных перемещающихся ВМТ при сосредоточенных источниках излучения (рис.4) при поперечных перемещениях ВМТ по координате “у” изменяется площадь светоотражающей поверхности ВМТ (пластины, шара, цилиндра и световых и темных полос) на поверхности ленты или диска.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Из анализа существующих конструкций ОДПВ можно сделать следующие выводы:

1) Характерными признаками рассматриваемых ОДПВ для конструкций на основе полых световодов являются: наличие на входном торце полого световода, последовательно установленных по оси полого световода сосредоточенного источника излучения и кольцевого приемника излучения, который одновременно выполняет роль диафрагмы и своей светочувствительной поверхностью обращен во внутрь полости полого световода для восприятия светового потока от различных ВМТ по принципу действия перемещающихся продольно или поперечно оси световода.

2) Характерными признаками ОДПВ на основе волоконных световодов являются: наличие на входном торце волоконного подводимого световода, сопряженного с ним сосредоточенного источника излучения, и коаксиально расположенного с подводимым световодом отводящего волоконного световода, что создает осе-симметричное распределение эффективной освещенности торца отводящего световода световым потоком, отраженным от ВМТ, при этом выходной торец подводимого волоконного световода несколько отодвинут от

торцов отводящего волоконного световода, что устраняет фоновую засветку и создает необходимую индикатрису излучения от подводящего волоконного световода.

3) Общими характерными признаками для рассматриваемых ОДПВ являются наличие подвижных (в продольном или поперечном направлениях) ВМТ, в качестве которых наиболее часто в конструкциях ОДПВ используются плоское тело, шарообразная и цилиндрическая форма тела, а также поверхности уровня жидкости в ОДПВ для контроля уровня жидкости.

4) Для ОДПВ, основанных на явлении прерывания светового потока, характерным является наличие распределенного на торце полых или волоконных световодов светового потока и поперечно перемещающихся ВМТ, в качестве которых используются плоские, шарообразные и цилиндрические тела, а также линейка, лента и диски с отверстиями.

REFERENCES

1. Азимов Р.К., Шипулин Ю.Г. «Оптоэлектронные преобразователи больших перемещений на основе полых световодов». М.: Энергоатомиздат, 1987. -105 с.
2. Азимов Р.К., Шипулин Ш.Ю., Холматов У.С., Абдуллаев Т.А., Исмоилов Х.А. «Морфологический метод структурного проектирования оптоэлектронных преобразователей на основе полых и волоконных световодов (ОЭПВС)». // «Современные материалы, техника и технологии в машиностроении». III Международная научно-практическая конференция, 3-секция.- Андижан.- 2016.- С.15-19.

ЎРТА ОСИЁ МЕҲНАТ-ТУЗАТУВ ЛАГЕРИГА СУРГУН ҚИЛИНГАН ЗИЁЛИЛАР ТАҚДИРИГА ДОИР

Нилуфар Назаровна Юлдашева
Ўқитувчи, ЎзДЖТСУ, Чирчиқ

АННОТАЦИЯ

XX асрнинг 30-йилларида бутуниттифоқ ҳудудида совет ҳокимияти томонидан амалга оширилган “Катта террор”, “Қизил террор” номлари билан аталган гайриинсоний сиёсат миллионлаб бегуноҳ инсонларнинг ҳаётини мудҳиш хотима топишига сабаб бўлди. Советларнинг асосий мақсади, СССР нинг турли минтақаларида яшовчи, ўзгача фикрловчиларни, зиёли қатламни куч ва ноҳақ айбловлар билан қамоққа олиб, уларнинг ақл-заковати, меҳнатидан фойдаланиши бўлган. Маҳбуслар асосан йирик қурилишлар, канал қазииш, ГЭС лар қуриши, завод-фабрикаларда ишлаш, совхоз ва колхоз далаларида меҳнат қилиши каби катта ишчи кучи талаб қилувчи оғир меҳнатга жалб қилинган.

Калим сўзлар: *Сталин, НКВД, ГУЛАГ, Катта террор, Қизил террор, антисовет гоя, айблов, ҳибс, суд, ҳукм, жазо, меҳнат лагери, очлик, оғир меҳнат, ўлим.*

ABSTRACT

In the 1930s, the inhuman policy pursued by the Soviet government in the Soviet Union, known as the "Great Terror" and the "Red Terror", took the lives of millions of innocent people. The main goal of the Soviets was to use their intelligence and labor to imprison dissidents, intellectuals living in different regions of the USSR, by force and unjust accusations. Prisoners were mainly involved in heavy labor-intensive work, such as large-scale construction, canal digging, construction of hydroelectric power stations, work in factories, and working in state and collective farm fields.

Keywords: *Stalin, NKVD, GULAG, Great terror, Red terror, anti-Soviet idea, accusation, arrest, trial, sentence, punishment, labor camp, starvation, hard labor, death.*

КИРИШ

XX асрнинг 30-йилларида бутуниттифоқ ҳудудида совет ҳокимияти томонидан амалга оширилган “Катта террор”, “Қизил террор” номлари билан аталган ғайриинсоний сиёсат миллионлаб бегуноҳ инсонларнинг ҳаётини мудҳиш хотима топишига сабаб бўлди. Советларнинг асосий мақсади, СССР

нинг турли минтақаларида яшовчи, ўзгача фикрловчиларни, зиёли қатламни куч ва ноҳақ айбловлар билан қамоққа олиб, уларнинг ақл-заковати, меҳнатидан фойдаланиш бўлган. Маҳбуслар асосан йирик қурилишлар, канал қозиш, ГЭС лар қуриш, завод-фабрикаларда ишлаш, совхоз ва колхоз далаларида меҳнат қилиш каби катта ишчи кучи талаб қилувчи оғир меҳнатга жалб қилинган.

Ўрта Осиё меҳнат-тузатув лагери (Сазлаг) 1930 йилда Тошкент шаҳрида чекка ҳудудлардаги табиий ресурслардан фойдаланиш мақсадида ишчи кучини жалб қилиш тўғрисидаги ҳукумат қарорини бажариш учун ташкил этилган. Оператив қўмондонликда Ўрта Осиё лагери ОГПУ (БДСБ – бирлашган давлат сиёсий бошқармаси)нинг Ўрта Осиёдаги ваколатли ваколатхонасига, сўнгра НКВД ГУЛАГига бўйсунган. 1930-1934 йилларда Ўрта Осиё меҳнат лагери СССРнинг деярли энг ёмон лагери бўлган. 1939 йил 29 июлда Ўрта Осиё меҳнат лагери ЎзССР НКВД колониялари бошқармасига айлантирилди.³¹⁵ Бу ерда сақланаётган маҳбусларнинг максимал сони 1938 йил 1 январда қайд этилган ва 33 936 кишини ташкил этган. Ўрта Осиё меҳнат лагери 1943 йилда ёпилган. Бу ерда асосан асирларнинг меҳнатидан совхозларда (пахтачиликда), қишлоқ хўжалиги ишларида пахта заводларига хизмат кўрсатишда, лагернинг ўз корхоналарида, мелиорация ва халқ истеъмоли моллари ишлаб чиқаришда фойдаланилган. 1930 йилда лагер асирлари Орол денгизида сув транспорти учун юк ортиш-тушуриш ишларини ҳам амалга оширганлар.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Сазлагда Ўрта Осиё республикаларидан ва СССР нинг турли минтақаларидан этап йўли билан келтирилган маҳбуслар миқдори жуда кўп бўлиб, улар орасида СССР фан ва таълим соҳасида ўзининг салмоқли ўрнига эга бўлган кишилар ҳам бор эди: Бухарин Владимир Иванович, Валяшко Михаил Георгиевич, Вознесенский Александр Николаевич, Деревницкий Алексей Петрович, Дурново Андрей Николаевич, Кравцов Николай Иванович, Личков Борис Леонидович, Маторин Николай Михайлович³¹⁶. Маҳбусларни сақлаш, уларни озик-овқат, турар жой билан таъминлаш фавқулодда қийинлашган. Шу боис маҳбусларнинг бир қисмини ГУЛАГ тизимидаги бошқа лагерларга юборишга мажбур бўлинган. Юқорида номи келтирилган маҳбуслар ичида таниқли сиёсий арбоб, большевиклар раҳнамоларидан Николай

³¹⁵ Шамсутдинов Р.Т. “Тарихнинг номалум саҳифалари” III том, 51-53 б., Т., 2012

³¹⁶ БД Жертвы политического террора в СССР. МО «Мемориал». М., 2017.

Иванович Бухариннинг укаси **Владимир Иванович Бухарин** ҳам бор эди. У 1890 йил Москвада зиёли оилада туғилган. 1900 йилдан 1914 йилгача 7-сонли Комиссаров классик билим юртида, кейинчалик Олий техника билим юртининг механика бўлимида таҳсил олади. 1914 – 1917 йилларда Биринчи Жаҳон урушида қатнашиб, ярадор бўлади, жангдаги жасорати туфайли Георгий хочи билан тақдирланади. Урушдан кейин то 1938 йилга қадар ишлаб чиқариш фабрикаларида турли лавозимларда фаолият юритади, аммо 1938 йил 3 ноябрда қамоққа олинади. 1939 йил январь ойида НКВД нинг Махсус қарорига кўра, антисовет ғояларини тарқатишда айбланиб, 8 йил муддатга меҳнат – тузатиш лагерига юборилади. НКВД Бухариннинг юқори малакали мутахассислиги инобатга олиниб, уни СазЛАГ га юбориш ҳақида қарор чиқаради. 1941 йилгача Тошкент вилояти Янгийўл станцияси қошидаги 1-сонли лагер бўлимида бўлади, мовут ва калава ишлаб чиқариш цехида лойиҳалаштириш ҳамда ишчи-маҳбусларга иш ўргатишга жалб қилинади. 1941 йил 9 ноябрда Сазлагнинг 3-сонли бўлими (Ялангач)га этап қилинади. У ерда 1946 йилгача қолиб, текстил фабрикасидаги ишларни йўлга қўйиш билан шуғулланади. 1946 йилда жазо муддатининг яқунланиши муносабати билан озодликка чиқарилади, лекин йўлда ҳеч қандай асоссиз қайта қўлга олиниб, тушунарсиз сабаблар ва айбловларсиз Ялангач лагерига қайтарилади, шу билан 1955 йилга қадар лагерда қолади. В.И. Бухарин 1955 йилда бўйнидаги айбловлар ечилмасдан, Давлат Хавфсизлик органлари назоратида бўлган Кустанай области Конезавод посёлкасидаги мажбурий меҳнатга жалб қилинган аҳоли пунктида яшаётган оиласи олдига жўнатилади. 1962 йилда у оиласи билан бирга Москвага қайтади ҳамда 1964 йилда реабилитация қилинади. Владимир Иванович Бухариннинг аянчли ҳаёти 1980 йил ўз якунига етади. У Москва областидаги Долгопрудненский қабристонига дафн этилади.

СССР Фанлар академияси қошидаги Физика-кимёвий таҳлил институти профессори **Валяшко Михаил Георгиевич** 1907 йил 12 сентябрда Харьков шаҳрида тиббиёт профессори оиласида туғилган. 1930 йилда Ленинград политехника институтининг кимё факультетини тамомлаган, профессор В.И.Николаев ва академик Н.С.Курнаковларнинг шогирди бўлган. 1929 йилдан Қримнинг шўр кўллари, Кулунда чўли, Индер кўли ва бошқа илмий экспедицияларда қатнашган. 1934 йил 5 январда ҳеч қандай асоссиз ҳибсга олинган. 1934 йил 29 мартда ОГПУ коллегиясида навбатдан ташқари йиғилишида судланган ва 5 йиллик меҳнат лагери жазоси берилган. Жазони ўташ жойи қилиб, Сазлаг белгиланган. 1937 йил 25 ноябрда муддатидан олдин

озодликка чиқарилган. 1937 йил декабрдан 1957 йилгача Бутунроссия галургия илмий-тадқиқот институти (Ленинград) ходими лавозимида ишлаган. Уруш йилларида кўнгилли ҳарбий кучлар аъзоси бўлиб жангларда қатнашган. 1943 йилда “Индер кўлининг физик-кимёвий режимини ўрганиш ва унинг шўрларидан тузлар олиш” мавзусида номзодлик диссертациясини ёқлаган. 1944 йил 4 мартда Меҳнат Қизил Байроқ ордени билан тақдирланади. 1956 йил 28 ноябрда Ленинград ҳарбий округи Ҳарбий трибунали томонидан реабилитация қилинган. 1957 йилда “Калий тузи конлари ҳосил бўлишининг геокимёвий қонуниятлари” мавзусида кимё фанлари доктори илмий даражасини ҳимоя қилган. 1962 йилда чоп этилган шу номли асари учун СССР Фанлар академияси В. И. Вернадский номидаги мукофот билан тақдирланади. 1960-1984 йилларда Москва давлат университетининг геокимё кафедраси профессори бўлган, “Табиий сувлар геокимёси”, “Галогенез геокимёси” маъруза курсларини ўқиган. 1967-1983 йилларда “Геология” факультети “Экспериментал геокимё муаммоли лабораторияси” нинг илмий раҳбари. Сув сифати бўйича халқаро комиссия Президенти (1971—1980), Халқаро геокимё ва космокимё ассоциациясининг табиий сувлар геокимёси бўйича комиссияси раиси (1970—1983). Галогенез ва табиий сувлар геокимёсига оид 200 дан ортиқ илмий мақолалари чоп этилган. 1984 йил 7 октябрда Москвада вафот этган. Москва вилояти, Серпухов райони, Пролетар пос.да дафн қилинган³¹⁷.

Рус ва беларус совет адабиётшуноси, ёзувчи, профессор **Вознесенский Александр Николаевич** 1888 йил 5 (17) июлда Симбирск области, Чукали қишлоғида туғилган. 1913 йилда Варшава университети тарих-филология факультетининг славян-рус бўлимини тугатиб, профессорлик даражасига қадар илмий таълим олиш ниятида бўлган. Ростов университетининг тарих-филология факультети ассистенти, доцент лавозимларида ишлаган. 1921-1927 йилларда доцент, 1927 йилдан 1930 йилгача Белорусия давлат университети профессори бўлган. Кейинчалик А.С. Бубнов номидаги Москва шаҳар педагогика институти, Москва кинематография институти, оғир саноат халқ комиссарлигида ишлаган. 1934 йил 13 февралда аксилинқилобий ташвиқот (РСФСР ЖК 58-4-10-11 моддаси) да гумонланиб, ҳибсга олинган ва 1934 йил 29 мартда ОГПУ коллегияси томонидан айбдор деб топилган. Беш йиллик қамоқ жазосини ўташ учун Сазлагга этап қилинган. 1939 йил 10 февралда озодликка чиққанидан сўнг Қозон педагогика институти профессори, 1943-1947-йилларда

³¹⁷ БД "Жертвы политического террора в СССР"; Ашнин Ф.Д., Алпатов Б. М. "Дело славистов": 30-е годы М., 1994.

Қозон университети тарих-филология факультети декани лавозимларида фаолият юритган. 1944 йилда Қозон шаҳрида “Янги беларус адабиёти тарихи бўйича тадқиқот” мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилган. Академик адабий танқид анъаналарини ривожлантирди. У М.Богданович, Ж.Купала, Ж.Колас ижодини қиёсий типологик жиҳатдан, Европа адабиётлари контекстида таҳлил қилди. 1945 йил 4 августда Вознесенскийдан барча айбловлар олиб ташланди ва 1964 йил 26 октябрда Москва шаҳар суди Президиуми томонидан реабилитация қилинди. 1966 йилда вафот этди.³¹⁸

Деревицкий Алексей Петрович 1896 йил 7 августда Санкт-Петербургда дворянлар оиласида туғилган. 1914 йилда Киев кадетлар билим юртини битирган. 1915 йилда эса Константинов артиллерия билим юртини тезкор тугатгач, I жаҳон урушига юборилди. Охирги олган ҳарбий даражаси – штабс капитан. Инқилобдан сўнг 1919-1922 ва 1932-1933 йилларда Қизил армия таркибида хизмат қилган. 1935 йил 26 апрелда Москвада опаси Екатерина ва унинг эри Николай Вельяминовлар билан бирга ҳибсга олинган. Унга гўёки поччаси Вельяминов томонидан ташкил этилган Оқ гвардиячилар эмиграцияси вакиллари билан иборат “собик одамлар” аксилинқилобий гуруҳ аъзоси сифатида совет ҳокимиятига қарши террор қайфиятидаги шахс айби кўйилди. 1935 йил 9 июнда НКВД нинг Махсус қарорига кўра, 3 йилга Ўрта Осиё меҳнат-тузатув лагери (Сазлаг)га сургун қилинади. Жазони ўтаганидан сўнг 1941 йилга қадар Вологда областида яшаб, туман истеъмол бирлашмасининг статистика бўлимида ишлади. 1943 йилнинг ёзида II жаҳон уруши майдонларида майор унвони остида миномётчилар полкига бошчилик қилган. ВС Воронеж фронтининг 1943 йил 20 августдаги 125/н – сонли Фронт буйруғига асосан I даражали орден билан тақдирланган. 1957 йил 30 январда СССР Олий суди томонидан реабилитация қилинган. Архив иши: Р-11240 (ЦА ФСБ РФ).³¹⁹

Славян халқларининг тиллари, адабиёти, фольклори, тарихи, моддий ва маънавий маданиятини ўрганган олим **Дурново Андрей Николаевич** 1910 йилда Москвада филолог Николай Николаевич Дурново оиласида туғилган. 1926 йилда ўрта мактабни, сўнгра Москва давлат университетининг тарих-филология факультетини тугатган, касби бўйича славист. Ўқишни тамомлагач, адабиётшунос бўлиб ишлади. Андрей отаси билан 1933 йил 28 декабрда ҳибсга олинган. У худди отаси каби, “аксилинқилобий фаолиятда ва антисовет

³¹⁸ БД “Жертвы политического террора в СССР”; Ашнин Ф. Д., Алпатов Б. М. “Дело славистов”: 30-е годы М., 1994.

³¹⁹ https://ru.openlist.wiki/Деревицкий_Алексей_Петрович (1896)

